

# GLOBAL IQTISODIY XAVFSIZLIK

A.S.SADULLAYEV



O'QUV QO'LLANMA

65.9-1 Ya-73

10/2

S-17

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Sadullayev Aminboy**

**GLOBAL IQTISODIY XAVFSIZLIK**

*Magistraturaning 70310102 - "Iqtisodiyot" mutaxassisligi  
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

**Urganch -2024**

**UO‘K: 338.2(075.8)**

**KBK: 65.9-1ya73**

**S 17**

**Sadullayev, A.S.**

**Global iqtisodiy xavfsizlik [Matn]: o‘quv qo‘llanma / A.S.Sadullayev.-  
Urganch: Khwarezm publication, 2024.- 172 b.**

Mazkur o‘quv qo‘llanmada global iqtisodiyotda xavfsizlikni ta‘minlash masalalari keng yoritilgan. Qo‘llanmaning asosiy qismi iqtisodiy globalizm, xalqaro mehnat taqsimotida va xalqaro savdoda, bevosita investitsiyalar va transmilliy korporatsiyalar faoliyatida, global moliyaviy xavfsizlik, demografik, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalarini yoritib berishga bag‘ishlangan. Shu bilan birgalikda global iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan muammolar yoritib berilgan.


Mazkur o‘quv qo‘llanma magistratura bosqichidagi 70310102 — Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birgalikda qo‘llanmadan “Iqtisodiy xavfsizlik” fanini o‘qiyotgan iqtisodiy yo‘nalishdagi bakalavrlar ham qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalanishlari mumkin.

### **Taqrizchilar:**

**Mambetjanov Q. Q.** - O‘zbekiston Milliy universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası muduri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raximov T.J.** - Urganch davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, PhD

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Urganch davlat universitetining 2023-yil 14-dekabrda 181-sonli buyrug‘iga  
asosan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya  
etilgan. Ro‘yxatga olish raqami 58.*



**© A.S.Sadullayev, 2024.**

**ISBN: 978-9910-767-26-5**

**© “Khwarezm publication” nashriyoti, 2024.**

## KIRISH

Insoniyat paydo bo'lgan davrlardan boshlab, xavfsizlik kishilarning eng muhim ehtiyoji bo'lib kelgan. Xavfsizlik tushunchasining hozirgi davrdagi ta'rifi odatda "manfaatlarining himoyalanganligi" atamasi bilan bog'liqdir. Xavfsizlik turli darajalarga nisbatan belgilanadi: alohida olingan odam, oila, jamiyat, hudud, davlat yoki butun dunyo jamiyatiga nisbatan, va shuning uchun ham xavfsizlikni ta'minlash obyekti sifatida muayyan darajadagi manfaatlar qarab chiqiladi. Binobarin, xavflar ham paydo bo'lish darajasi turlariga qarab farqlanadi. Pirovardida hamma darajadagi xavfsizlikni o'z ichiga oladigan, global (butun dunyo) mohiyatga ega bo'lgan havflar muhim o'rin tutadi.

Davlat va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashni shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadigan omillar qatoriga *xalqaro munosabatlar subyektlarining bir-biriga bog'liqligi keskin oshishini, jahon xo'jaligining globallashtirishini, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari ochiqdigi kuchayishini, hozirgi davrning muhim muammolarini hal qilishning hamkorlikdagi dasturlarini ishlab chiqish* kabilarni kiritish mumkin. Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi tabiiy, texnologik va axborot resurslaridan foydalanishda iqtisodiy afzalliklarni ta'minlashga qaratilgan kurash, hamda sotuv va kapital qo'yilmalar bozorlari uchun raqobatlashuv bilan davom etmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning globallashtirish iqtisodiy jinoyatlarning – kapitalni noqonuniy olib chiqish va uni "tozalash", soliq va bojxona firibgarliklari, narkotik moddalar va qurollarni noqonuniy sotish kabilarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi jinoyatchilik holati – davlatlarning faoliyat ko'rsatishiga va xavfsizliklariga xavf tug'dirish darajasiga va miqyoslariga ko'ra sifat jihatida yangi voqealardir. Bular korrupsiya hamda jinoiy guruhlar va davlat apparatining birgalikda til topishishi, uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va narkobiznesdir.

Iqtisodiy xavfsizlik – tarkiban milliy xavfsizlik deb qaraladigan, mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning turli-tumanligini aks ettiradigan, murakkab iqtisodiy tushunchadir. Uning mohiyatini milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, barqarorligini ta'minlaydigan, muntazam yangilanib va takomillashib borishga intiladigan sharoitlar va omillar yig'indisi sifatida qarab chiqish mumkin. Milliy iqtisodiy xavfsizlikning asosiy vazifasi – mamlakatning milliy-davlat manfaatlariga javob beradigan va milliy resurslar ustidan nazoratga asoslangan iqtisodiy siyosatning mustaqil yo'nalishini olib borishni ta'minlash hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning barqarorligini, uning rivojlanish va taraqqiy qilishga imkoniyatini kafolatlashi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning global darajasi nuqtayi nazaridan iqtisodiyotning ochiqlik darajasi va global iqtisodiyotga qo'shilganligi darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi jarayonida ochiqlik darajasi milliy davlat manfaatlarini himoya qilish sohasi hisoblanadi. Bir tomondan, iqtisodiyotning yopiqligi mamlakatni dunyo rivojlanishi jarayonida chekkaga ulotqirib tashlaydi. Ikkinchi tomondan, to'liq ochiqlik milliy iqtisodiyotning yemirilishiga va

resurslarning mamlakatlar tor guruhi moliya markazlariga oqib ketishiga olib keladi.

Hozirgi zamon moliya bozorlarining takomillashmaganligi, barqaror emasligi va keskin pasayishlarga uchrashi sababli ham mamlakatning ochiqlik darajasi ma'lum bir chegaralarga ega bo'lishi kerak. Hozirgi dunyoning asosiy tendensiyasi sifatida globallasuv turli o'lchovlarga egadir: chunki siyosiy o'lchov – bu geosiyosatdir, harbiy – bu geostrategiyadir, iqtisodiy – bu geoiqtisodiyotdir. Ushbu dunyoviy sohalar o'zining alohida harakat geomakoniga (dunyo maydonlari), o'z timsoliga, ularga erishishning o'z maqsadlari va usullariga, o'z institutlariga egadir va h.k.

Global iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy jarayonlariga faol qo'shilib borayotgan bir davrda, uning tashqi iqtisodiy aloqalarida Xavfsizlikni ta'minlash ham muhim masala hisoblanadi. Ushbu masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4749-Farmonidagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida global darajada mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

## 1-MAVZU: GLOBAL IQTISODIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI VA KATEGORIYALARI

- 1.1. Global iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy tushunchalari
- 1.2. Global iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish metodlari
- 1.3. Global iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimi

### 1.1 Global iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy tushunchalari.

XXI asrga kelib insoniyat jamiyati rivojlanishida iqtisodiy omillarning o'zni kuchayganligi hamda globallasuv jarayonlari global iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Global iqtisodiy xavfsizlik (GIX) – jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shunday holatiki, bunda davlatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga olib keladigan va noqonuniy iqtisodiy kuchlarni ishlatishni istisno qiladigan o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik uchun sharoitlar yaratiladi. (rasm 1).



1-rasm. – Global iqtisodiy xavfsizlik tuzilmasi

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik – integratsiya jarayonlari oshib borayotgan bir sharoitda, jahon bozorini barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarining davlatga qarashliligidan qat'iy nazar, iqtisodiy manfaatlarini va davlat sohalarining asosiy faoliyatiga nisbatan turdosh yo'nalishli va innovatsion belgilarga ega bo'lishini amalga oshiradigan va himoya qiladigan, muntazam rivojlanib boruvchi yig'indisidir.

O'zbekistonga nisbatan olib qaraydigan bo'lsak bular: siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sohalar bo'lib, ularning tizimli birligida milliy o'ziga xoslik va milliy rivojlanishni himoya qilish vazifalarini hal qilish ta'minlanadi. Global iqtisodiy xavfsizlik tizimi davlatni uchta xavfdan:

- 1) jahon iqtisodiy rivojlanishi sharoitlarining stixiyali yomonlashuvidan;

2) mamlakatlar o'rtasida kelishuvga ega bo'lmasdan qabul qilingan iqtisodiy qarorlarning yomon oqibatlaridan;

3) boshqa davlatlar tomonidan ongli ravishda iqtisodiy tajovuz amalga oshirishidan himoya qilib turishi kerak.

Shundan kelib chiqqan holda global iqtisodiy xavfsizlikning uchta vazifasi kelib chiqadi:

1) barcha davlatlarda ishlab chiqarishning, ilm-fanning va farovonlikning o'sishiga yordam beruvchi sharoitlarni yaratishda jahon xo'jaligining barqarorligini saqlab turish, global bozorlarda stixiyali tebranishlarni cheklash, ularning global iqtisodiy inqiroz miqyosiga yetishiga yo'l qo'ymaslik, inqirozlar oqibatlarini tugatish imkoniyatlarini yaratish;

2) iqtisodiy siyosatda kelishilgan va birgalikda ishlab chiqiladigan qarorlarni yaratish;

3) xalqaro iqtisodiy mojarolarning oldini olish, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda foydalaniladigan, turli savdo-siyosiy vositalarni qo'llash qoidalarini belgilash. Ushbu vazifa, va boshqa ikkitasi kabi xar bir davlat tomonidan alohida hal qilinishi mumkin emas. Buning uchun xalqaro hamjamiyatning kuchlarini birlashtirish zarur bo'ladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, milliy davlat manfaatlarining shaxs – jamiyat – davlat manfaatlari yakdilligi tomon o'tib borishi, ushbu uchlikda davlatning ahamiyati pasayib borishi bilan birgalikda, ushbu jarayonlarni tartibga solib turishda davlatning o'rni kuchayib boradi, bu esa hozirgi zamon jamiyati va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining zarur sharti hisoblanadi.

Rossiyalik olim V.K.Senchagov global iqtisodiy xavfsizlikni baholashda ichki iqtisodiy xavfsizlikni baholashda qo'llaniladigan chegaraviy va haqiqiy ko'rsatkichlarining nisbatini emas, balki:

- mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi ishlab chiqarishi, savdo hajmi, resurslari, eksporti ulushi;

- mamlakat raqobatbardoshligining reyting baholari boshqa mamlakatlarning baholari bilan taqqoslab aniqlanishi (Butunjahon iqtisodiy forumining tadqiqotchilar guruhi dunyo mamlakatlarining raqobatbardoshligini yuqori sur'atdagi iqtisodiy o'sishni o'rta va uzoq muddatli davrda saqlab tura olishi bilan aniqlaydilar);

- mamlakatda ayrim ishlab chiqarishlar va tarmoqlarning raqobatbardoshlik o'rining "juda kuchli", "kuchli", "zaif", "juda zaif" ko'rsatkichlarida belgilanishi;

- mamlakat investitsion jozibadorligining reyting bahosi;

- siyosiy tavakkalchiliklar bahosi.

Global iqtisodiy xavfsizlikning indikativ baholashning bitta xususiyatini aytib o'tish zarur bo'ladi. Ko'rsatkichlarning ushbu turi ichki iqtisodiy xavfsizlikni baholashga nisbatan, sifat jihatdan yangi va katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga oladi; axborotlar katta sondagi omillarni birlashtiradi, bu juda muhim, chunki bular nafaqat iqtisodiy, balki texnologik, ijtimoiy, siyosiy va psixologik omillardir.

Ichki va global iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik, ularni o'zaro solishtirish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini xar tomonlama baholash

uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda global iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichi ichki iqtisodiy xavfsizlik muammolarini hal qilishning tezligi va muddatini aniqlab berishda muhim o'rin tutadi. Bu ichki va tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismlarini, uning maqsadlari va vositalari dunyo rivojlanishining tendensiyalariga mos kelishini haqiqiy baholash imkonini beradi.

**Jadval 1.1.1.**

**Dunyoning yetakchi davlatlarini iqtisodiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	AQSh	Xitoy	Yaponiya	Germaniya	Dunyo
Hududi, mln kv.km.	9,5	9,6	0,38	0,36	570,1
Aholisi mln.kishi (2022)	340,4	1 425,9	124,6	84,3	8 001,2
YaIM (nominal) mlrd.doll. (2022)	21 253,9	17 993,0	5 390,0	4 031,0	96660,0
Jon boshiga YaIM (nominal) ming doll. (2022)	67,9	12,1	42,3	48,4	12,2
XQB YaIM mlrd. doll. (2022)	21 253,9	25 279,0	4 395,0	5 317,0	95000,0
Eksposti, mlrd.doll. (2021)	2 549,6	3 756,0	923,2	2 009,1	14 900,0
Importi, mlrd.doll. (2021)	3 485,3	3 129,9	976,3	1 801,2	15 165,6
Oltin-valyuta zahiralari, mlrd.doll. (2022)	242,7	3 371,8	1 254,5	277,5	11 100,0

Manba: "Handbook of statistics 2022" nashri ma'lumotlaridan foydalanib, muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Dunyoning yetakchi mamlakatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini bir-biriga taqqoslaydigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlari hududi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda tursada, yalpi ichki mahsulotining nominal ko'rsatkichi bo'yicha birinchi o'rinni (21,3 trln. doll.) egallab, aholisi jon boshiga mahsulot yetishtirish bo'yicha (67,9 ming doll.) ham oldingi o'rinlarda turadi. Ammo, eksposti va importi o'rtasidagi katta salbiy saldo (-935,7 mlrd. doll.) tufayli, to'lov balansida minus ko'rsatkichlariga ega bo'lib, yildan-yilga qarzga botib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga katta tahdid hisoblanadi (jadval 1.1.1.). Qolaversa, AQShning oltin-valyuta zahiralari hajmi ham qarziga nisbatan juda kamdir.

YaIMining nominal ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning uchinchi va to'rtinchi davlatlari bo'lgan Yaponiya va Germaniya iqtisodiy rivojlanishda XX asrning ikkinchi yarmida katta yutuqlarga ega bo'lgan mamlakatlar hisoblanishadi. Yaponiya oltin valyuta zahiralari hajmi bo'yicha Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda turadi, Germaniya esa dunyoning eng kuchli eksportchi mamlakatlaridan biridir.

Aholisi soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turuvchi Xitoy Xalq Respublikasi keyingi o'ttiz yillikda katta iqtisodiy o'sishga ega bo'lgan mamlakat bo'lib, YAIMining nominal ko'rsatkichi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda bo'lsa, valyutasining xarid quvvatiga ko'ra hisoblangan YAIM bo'yicha AQShdan ham o'zib ketgan. Bundan tashqari Xitoy eksposti va importi ko'rsatkichlarining katta ijobiy holatiga ega bo'lib, oltin valyuta zahiralari bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. Mamlakat faqatgina katta sondagi aholiga ega bo'lgani uchun



YAIMining aholi jon boshiga taqsimlanishida rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha orqada (jadval 1.1.1.).

Yetakchi mamlakatlarning dunyo iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushini ko'radigan bo'lsak, dunyo eksportining 24,8 % ini Xitoy, 16,8 % ini AQSH, 13,3 % ini Germaniya yetkazib beradi. Vaholanki ushbu mamlakatlarning o'zlarini import mahsulotlari va xizmatlarini qabul qilishda ham yetakchidirlar (mos ravishda, 20,5%, 23,0% va 11,9%). Mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydigan ko'rsatkichlardan biri bo'lgan oltin-valyuta zahiralari bo'yicha Xitoy dunyo OVZning 30,4 % ni va Yaponiya 11,3 % ni o'zida jamlaganlar (jadval 1.1.2.).

**Jadval 1.1.2.**

**Dunyo iqtisodiy ko'rsatkichlarida yetakchi mamlakatlarning ulushi**

Mamlakatlar ulushi	AQSh	Xitoy	Yaponiya	Germaniya	Dunyo
Hududi bo'yicha, %	1,7	1,7	0,1	0,1	100,0
Aholisi bo'yicha, %	4,6	17,8	1,6	1,1	100,0
YAIM (nominal) mlrd.doll. (2022)	22,0	18,6	5,6	4,2	100,0
XQB YAIM mlrd. doll. (2022)	22,3	26,6	4,6	5,6	100,0
Eksporti, mlrd.doll. (2021)	16,8	24,8	6,0	13,3	100,0
Importi, mlrd.doll. (2021)	23,0	20,5	6,3	11,9	100,0
Oltin-valyuta zahiralari, mlrd.doll. (2022)	2,2	30,4	11,3	2,5	100,0

Manba: "Handbook of statistics 2022" nashri ma'lumotlaridan foydalanib, muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Yuqorida berilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, turli mamlakatlarning ko'pgina ko'rsatkichlari bir biridan anchagina farq qiladi. Bundan tashqari, berilgan ko'rsatkichlar xavfsizlik darajasidan kelib chiqib ancha kengaytirilishi va unga qo'shimchalar qo'shilishi mumkin. Binobarin, iqtisodiy xavfsizlikni faqat ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash uni o'rganishni murakkablashtiradi.

Global iqtisodiyot – iqtisodiyotlarning, dunyoning turli mamlakatlari iqtisodiy tizimlarining o'zaro bog'liqligi, o'zaro harakati kuchayishidir; rivojlanish darajasi, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari turlicha bo'lgan mamlakatlarda xo'jalik faoliyatini yuritilishida o'xshash me'yorlarning va sharoitlarning belgilanishiga olib keluvchi ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvidir. Global iqtisodiy xavfsizlik xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tahdidlar va nobarqarorlikdan himoyalanihini kafolatlaydi. Bu shu bilan belgilanadiki, xar bir mamlakatga – jahon hamjamiyatining a'zosiga xalqaro kelishuvlarni amalga oshirish bilan, uning iqtisodiy sohadagi manfaatlarini tashqi tahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Jamoaviy iqtisodiy xavfsizlik – mamlakatlar guruhining hamda ushbu guruhga a'zo bo'lgan har bir mamlakatning milliy manfaatlarini va iqtisodiy sohadagi manfaatlarini birgalikda himoya qilinishidir.

Global xavfsizlik tizimi xavfsizlikning quyidagi asosiy turlarini o'ziga jam qilgan bo'ladi:

- alohida mamlakatlar va ularning bloklari o'rtasida yirik miqyosdagi va mintaqaviy harbiy mojarolar chiqishining oldini olishda xalqaro jamoatchilikning faol himoyasini ta'minlaydigan urushga qarshi xavfsizlik;

- o'lim havfini olib keluvchi turli virusli infeksiyon kasalliklarning, global epidemiyalarning (pandemiya) oldini olishda dunyo hamjamiyatini birlashgan kuchlarini va kompleks samarali tadbirlarini ta'minlash bilan bog'liq xalqaro epidemiyalarga qarshi xavfsizlik;

- uyushgan xalqaro terrorizmga qarshi turli mamlakatlarning va butun dunyo hamjamiyatining samarali o'zaro hamkorligiga yo'naltirilgan xalqaro antiterror xavfsizligi;

- alohida jinoyatchilar, hamda uyushgan transmilliy jinoyatchilik bilan samarali kurashni ta'minlaydigan, turli mamlakatlar huquq tartibot idoralarining xalqaro hamkorligi tamoyiliga asoslangan xalqaro jinoyatlarga qarshi xavfsizlik;

- keng miqyosli tabiiy ofatlardan, asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining uzoq muddatli hosil bermasligi, fuqarolar urushidan aziyat chekkan mamlakatlar va mintaqalarning aholisiga tezkor xalqaro insonparvarlik yordami ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligi;

- atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro ekologik dasturlar va kelishuvlar, hamda ekologik talofatlarni bartaraf qilish bo'yicha turli mamlakatlar tomonidan tezkor chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan qo'shma qarorlarini ko'zda tutuvchi va butun dunyo hamjamiyatining atrofini o'rab turgan tabiat dunyosiga ma'suliyatini o'z ichiga olgan xalqaro ekologik xavfsizlik;

- xalqaro jamoaviy xavfsizlikning boshqa turlari.

Global xavfsizlikni ta'minlaydigan asosiy subyektlar bo'lib Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning asosida tashkil qilingan BMTning Xavfsizlik kengashi, Interpol, Jahon banki, Xalqaro va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banklari, UNESCO, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro kengashi, "Grinspis" xalqaro ekologik tashkiloti va ko'pgina boshqa tashkilotlar hisoblanadi.

Hozirgi davrda xar qanday davlatning milliy xavfsizligi ko'p jihatdan – butun dunyo tinchligini buzish yoki xalqlarning xavfsizligiga qanday shaklda bo'lmasin, xavflarning paydo bo'lishini istisno qilish sharoitlarini yaratadigan global xavfsizlikdan, butun jahon hamjamiyatining xavfsizligidan iborat bo'ladi.

Mamlakatning geosiyosiy manfaatlari – uning geosiyosiy ahvoli xususiyatlarini nazarda tutadigan iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha davlat faoliyatining ustivorliklari tizimidir. Davlatlarning geosiyosiy manfaatlari mos kelishi turli xalqaro birlashmalar va ittifoqlar tuzishga turtki bo'ladi. Katta hududga va turli-tuman tabiiy-geografik sharoitlarga ega bo'lgan federativ davlatlarda, umummilliy geosiyosiy manfaatlar bilan mintaqalarning muayyan manfaatlarini farq qilishi kerak bo'ladi.

Davlatlarning geosiyosiy manfaatlari asosida mamlakat geosiyosiy holatining an'anaviy va yangi ko'rsatkichlari yotadi. Bu xar qanday davlatni geosiyosiy baholashda universal vosita hisoblanadi.

Davlatning geosiyosiy manfaatlari an'anaviy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiritiladi:

- iqlimi va landshafti;
- mamlakat hududi va u bilan bog'liq bo'lgan aholi zichligi;
- mamlakatning dengizlarga va xalqaro savdo yo'llariga chiqishi;
- mamlakatning hududiy tavsiflari (alohida yer usti, suv, havo va fazoviy hududlari bo'yicha);
- strategik muhim nuqtalari va hududlarining yig'indi tavsifi;
- chegaralari tavsifi (landshaft tavsifi va uning texnik jihozlanishi);
- qo'shnilarining tavsifi (ittifoqchilar, strategik hamkorlar, neytrallar, kelajakda dushman bo'ladiganlar, dushmanlar);
- asosiy foydali qazilmalari, bioresurslari, o'rmon boyliklari, ishlab chiqarish joyi bo'yicha eksklyuziv mahsulotlarining jami tavsifi.

Yangi ko'rsatkichlarning mohiyati va tuzilishi fan-texnika inqilobi rivojlanishi, texnika va texnologiyalarning yangi imkoniyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Aynan yangi imkoniyatlar asosiy geosiyosiy o'yinchilarning hozirgi davrdagi raqobat kurashi jadalligi va ularning o'zaro kuch nisbatini belgilab beradi.

Mamlakat geosiyosiy holatining yangi ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

– mamlakat qirg'oqlarida foydali qazilmalar va bioresurslar qazib olish imkonini beradigan zonalarining bo'lishi. Qirg'oq zonasining resurslar qatlamidan foydalanish dengiz tubida burg'ilash ishlarini olib borish imkoniyatini beradigan neft va gaz platformalarini qurish natijasida paydo bo'ldi;

– mamlakatda transkontinental neft va gaz quvurlarining mavjudligi (yoki yo'qligi); bunday kommunikatsiyalar katta diametrdagi quvurlarni ishlab chiqarish va ularni o'rnatish texnologiyasini talab qiladi (ularni XX asrning ikkinchi yarmidan ishlab chiqarishga erishildi), bu esa neft va gaz eksportining geografiasini kengaytirdi, va shu bilan birgalikda ularning qoplami buzilganda yangi ekologik muammolarni paydo qilishi mumkin;

– mamlakatda tabiiy va texnogen ofatlarning birgalikda yuz berish ehtimoli mavjud hududlarning bo'lishi, noqulay omillarning muvofiq kelishi sharoitida xavfli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin va atrof-muhitning katta maydonlarida ifloslanishini paydo qiladi. Bunday xavflar atom elektr stansiyalari, zamonaviy kimyoviy ishlab chiqarishlarning soni oshib ketganda yuzaga keladi, natijada eng muammoli hududlarni zamonaviy texnika vositalari bilan global miqyosda monitoring qilish zarurligini keltirib chiqaradi.

Hududlarni o'zlashtirish mohiyatini belgilab beradigan boshqaruvning muddati va shakliga bog'liq ravishda, ilm-fanda xilma-xil turdagi geosiyosiy maydonlarni ajratadilar.

Endemik – davlat tomonidan uzoq muddat nazorat qilib turilgan makon bo'lib, uni boshqa davlatlar shu davlatga tegishli ekanini tan oladilar.

Chegaraviy – davlat tomonidan nazorat qilinadigan makon, ammo u tomonidan yetarli ravishda o'zlashtirilmagan, natijada ushbu maydonni davlatning boshqarish huquqi bahslarga sabab bo'lishi mumkin.

Chorrahaviy – ikki yoki undan ortiq mamlakatlar da'vogarlik qiladigan makon.

Keng miqyosli – davlat tomonidan nazorat qilinadigan barcha uzluksiz makon.

Geosiyosatda geostrategik mintaqa degan tushunchani ajratadilar – u dunyo siyosiy makonining bir bo'lagi bo'lib, davlatning yoki davlatlar guruhi atrofida mavjud bo'ladi, dunyo siyosatida muhim o'rin tutadi. Ushbu makonga mintaqani tashkil qilgan davlatlar hududidan tashqari, ularning nazoratida va ta'sirida bo'lgan zonalar kiradi.

Strategik muhim nuqtalar va hududlarga mamlakatning strategik xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadigan joylar, hamda atrofni o'rab turgan geosiyosiy makonni nazorat qilish imkonini beradigan joylar kiradi. Bunday joylar bo'lib kosmodromlar, aerodromlar, radiolokatsiya stansiyalari, atom suv osti kemalarining bazasi va h.k. hisoblanadi.

## 1.2 Global iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish metodlari.

Global iqtisodiy xavfsizlik fan sifatida muayyan hodisa va jarayonlarni o'rganishda turli metodlardan foylanadi. Odatda, ushbu metodlar boshqa fanlarda ishlab chiqilgan bo'ladi: geosiyosat, siyosiy geografiya, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqa fanlar. Qoidaga ko'ra, bular fanda qo'llaniladigan xar qanday metod bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham global iqtisodiy xavfsizlikning asosiy metodlari – tizimli, taqqoslash, tarixiy, me'riy-qadriyatli, funksional, institutsional metodlar hisoblanadi. Yana antropologik va amaliy tadqiqotlar metodlari to'g'risida ham gapirish mumkin.

Tizimli metod asosiy tamoyil sifatida tarkibiy-funksional yondashuvga ega bo'lib, undan nemis filosofi va iqtisodchisi K.Marks (1818–1883 yy.), amerikalik sotsiolog-nazariyotchi T.Parsons (1902–1979 yy.) va boshqa iqtisodchilar, sotsiologlar, politologlar unumli foydalanganlar. Qabul qilinganki, sotsiologiya va siyosatshunoslikda tizimli yondashuv o'tgan asrning 50-60 yillarida T.Parsons tomonidan keng ishlab chiqilgan.

Ushbu metodning mohiyati xayotning, fanning har qanday sohasida, murakkab tuzilgan va o'z-o'zini tartibga soladigan organizm sifatida, atrof-muhit bilan tizimga kirish va chiqish yo'llari orqali uzluksiz o'zaro bog'liqda bo'lishdan iborat. Har qanday tizim o'zini saqlab qolishga intiladi va muayyan funksiyalarni bajaradi, ularning orasida muhimi bo'lib qadriyatlar va resurslarni taqsimlash, hamda fuqarolar tomonidan taqsimlash qarorlarini majburiyat sifatida qabul qilishini ta'minlash hisoblanadi.

Taqqoslash metodi jamiyat to'g'risidagi barcha fanlarda: tarix, sotsiologiya, geografiya va siyosatshunoslikda keng qo'llaniladi. Undan Platon, Aristotel va qadimgi dunyoning boshqa namoyandalari foydalanganlar. Sotsiologiyaga uni fransuz filosofi O.Kont (1798–1857 yy.) kiritgan. Siyosatshunoslar ham sotsiologiyadan ajralib chiqib, undan foydalanadigan bo'ldilar.

Geoiqtisodiyot ham qo'shma fan sifatida ushbu metoddan keng foydalanadi. Bu metodga ko'ra xayotning bir xil voqealarini taqqoslanib, ulardan umumiy belgilar va o'ziga xos xususiyatlarni ajratilib, muammolarni yechishning eng

samarali yo'li topiladi. Bu metod orqali boshqa xalqlar va davlatlarning tajribasidan unumli ravishda foydalaniladi.

Tarixiy metod ham barcha ijtimoiy fanlarda avvaldanoq foydalaniladi. U xayotning barcha xodisalarini izchil vaqt oraliq'ida o'rganib, o'tmishning, hozirgi davrning va kelajakning o'zaro aloqalarini topishga imkoniyat yaratadi. Geoiqtisodiyotdagi ushbu metod, falsafa, sotsiologiya, tarix, siyosatshunoslik fanlaridagi kabi eng muhimlardan biri sanaladi.

Me'yoriy-qadriyatli metod u yoki bu faktlarning, hodisalarning davlat, shaxs uchun ahamiyatini aniqlashga qaratilgandir; Mamlakat va shaxs farovonligi uchun ushbu fakt va hodisalarni baholash imkonini beradi. Baholash adolat yoki adolatsizlik, boshqa mamlakatlar va xalqlarning ozodligini hurmat qilish yoki haqoratlash nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Siyosatchi, davlat arbobi o'z faoliyatida, qarorlar qabul qilganda qadriyatlar va me'yorlarni hisobga olish va shunga mos ravishda o'zini tutishi kerak bo'ladi. Ushbu metod, albatta, ko'pgina kamchiliklardan holi emas. Ko'pincha amaldagi siyosat va axloqiy me'yorlar turli ma'nolarda namoyon bo'ladi. Me'yoriy metod, odatda, o'ylanmagan siyosiy qarorlar chiqarib, dunyo geosiyosiy qiyofasini tubdan o'zgartirib yuboradigan siyosatni va yetakchi siyosatchilarni yaxshi tomondan ko'rsatadi. Me'yoriy metod ko'pincha hayotdan uzilgan bo'ladi. Uning kamchiligi – qadriyatlarni baholashda nisbiylikka, kishilarning ijtimoiy maqomi va shaxsiy xususiyatlariga qarab baholashidir. Ammo, u geoiqtisodiyotga insoniylik o'lchovini beradi, unga muayyan axloqiy xususiyatlarni qo'shadi.

Funksional metod ijtimoiy xayotning turli sohalari hamda mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhi o'rtasidagi munosabatlarda: ularning iqtisodiy, siyosiy munosabatlarini, aholi urbanizatsiyasi darajasini, aholi zichligi, siyosiy faolligida, ruhiy-psixologik kayfiyatida bir-biriga bog'liqlikni izchil o'rganishni talab qiladi. Ushbu metodni birinchilardan bo'lib italiyalik siyosatchi, donishmand N.Makiavelli qo'llagan edi. "Hukmdor" kitobida u, amaliy siyosatda nafaqat diniy qarashlardan, balki yana axloqiy qadriyatlardan ham voz kechishi targ'ib qiladi. Uning metodologiyasi haqiqiy hayotni, siyosatni barcha ziddiyatlari bilan tahlil qilishni targ'ib qiladi.

Institutsional metod institutlar faoliyatini o'rganishga yo'naltiradi, ularning yordamida iqtisodiy faoliyat amalga oshiriladi, ya'ni davlatning, partiyalarning, tashkilotlarning va birlashmalarning faoliyati amalga oshiriladi. Ushbu metod XX asr boshigacha siyosatshunoslikda yetakchi bo'lib kelgan, sotsiologiyada, geoiqtisodiyotda keng qo'llanilgan. "Ijtimoiy institut" tushunchasi esa fanga sotsiologiyadan kirib keldi, uni ingliz sotsiologi G. Spenser (1820–1903 gg.) fanga kiritgandi.

Antropologik metod to'g'risida ham aytib o'tish zarur. U muhimligi bo'yicha birinchi o'ringa ijtimoiy omillarni emas, balki inson tabiatini qo'yadi, chunki insonning ko'pgina ehtiyojlarga, avvalambor, moddiy ehtiyojlarga (havo, suv, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, xavfsizlik, ma'naviy o'sish va h.k.larga) talabi bo'ladi. Inson biologik, ijtimoiy va aqlli mavjudot sifatida tan olinadi, u ilgari erkinlikni sevadi. Insoniyat qavmi irqiy, geografik, ijtimoiy va boshqa farqlariga qaramasdan yagonadir, hamma odamlar teng huquqlidir. Bu metod ijtimoiy

muhitni yoki qarorlar – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy va h.k.larni qabul qilishda oqilona qarashni o'rganish bilan chegaralanib qolmasdan, balki inson tabiatidan kelib chiqadigan nooqilona qarorlar, instiktiv xulq-atvorni o'rganishni zarur deb hisoblaydi.

Amaliy tadqiqotlar metodi global iqtisodiy xavfsizlikka va umuman fanga sotsiologiyadan, statistikadan, kibernetikadan va boshqa fanlardan kirib keldi. Unga hujjatlarni, so'rovnomalarni, tajribalarni, o'yinlar nazariyasi va h.k.larni tahlil qilish kiradi.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakat iqtisodiyotining ichki va tashqi noqulay omillardan, ya'ni ichki takror barpo qilish jarayonlarining me'yorda ishlash jarayonlarini buzadigan, aholi turmushning erishilgan darajasini zaiflashtiradigan va uning natijasida jamiyatda katta ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarib, mamlakatga xavf soladigan omillardan himoyalanganligidir.

Davlat hududi – yer sharining bir bo'lagi bo'lib, bu yerda muayyan davlat o'z mustaqilligini amalga oshiradi. Mustaqillik – davlatning ichki va tashqi faoliyatida, muayyan shakllarda namoyon bo'ladigan davlat hokimiyati, davlat hokimiyatining hukmronligi va mustaqilligidir. Amalda, mamlakatning xalqaro munosabatlar subyektlari bilan o'zaro aloqalaridan kelib chiqib, davlat hokimiyati muayyan cheklovlarga ega bo'ladi. Ushbu cheklovlar, davlatlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi natijasida, xalqaro kelishuvlarni imzolashda davlatning qabul qiladigan majburiyatlari bilan bog'liqdir.

Xavfsizlikning asosiy masalasi, umuman olganda iqtisodiy salohiyatdan, turli xo'jaliklar qudratining nisbatidan kelib chiqadi. Iqtisodiy salohiyat – bu jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari yig'indisi, milliy boylik miqdori bo'lib, jahon iqtisodiy tizimida davlatning faoliyat yuritish imkoniyatini, unga ma'lum darajada ta'sir ko'rsata olishini bildiradi. Milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, bu o'z qobig'iga o'ralgan milliy xo'jalikni yaratish emas, balki milliy iqtisodiy manfaatlarni hurmat qilish, jahon xo'jaligida faoliyat ko'rsatishning muayyan me'yorlariga amal qilishdir.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning turli darajasida bo'lgan mamlakatlar uchun milliy iqtisodiy xavfsizlik bir xil bo'lmaydi. Aholisi yuqori daromadlarga ega bo'lgan, lekin asosiy resurslar va mahsulotlarning ko'pgina turlari bilan kam ta'minlangan mamlakatlarda milliy iqtisodiy xavfsizlik tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish bilan kafolatlanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning va aholi daromadlarining past darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun resurslar va mahsulotlarning asosiy turlari bilan yetarli darajada ta'minlanganlik masalalari muhim o'rin tutadi. Milliy iqtisodiy xavfsizlik bir necha o'zaro bog'liq bo'lgan tarkibdan: demografik xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, ma'naviy-axloqiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, siyosiy xavfsizlik, harbiy (mudofaa) xavfsizligi, ijtimoiy xavfsizlikdan iborat bo'ladi. Milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash milliy xo'jaliklarning, va umuman jahon xo'jaligining barqaror faoliyat yuritishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Sayyoramiz miqyosida xo'jalik xayotining baynalminallashuvi jarayonlari xalqaro va milliy iqtisodiy xavfsizlik saqlanganda va qo'llab quvvatlanganda ijobiy tarzda rivojlanishi mumkin. Milliy darajada xavfsizlikni ta'minlashning

asosiy subyektlari bo'lib qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati orqali ushbu sohada o'z vazifalarini bajaradigan davlat hisoblanadi. Davlat amaldagi qonunchilik bilan o'z hududidagi fuqarolari va mamlakatdan tashqarida bo'lgan o'z fuqarolarining xavfsizligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, qonunga muvofiq, xavfsizligi ta'minlanishi huquqlari va majburiyatlari bo'lgan fuqarolar, jamoat tashkilotlari va birlashmalari xavfsizlik subyektlari bo'lib hisoblanishadi.

Mamlakatning asosiy xavfsizlik obyektlari bo'lib:

- shaxs – uning huquqlari va erkinliklari,
- jamiyat – uning moddiy va ma'naviy qadriyatlari,
- davlat – uning konstitutsiya tizimi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligi

hisoblanadi.

Xavfsizlik obyektlariga yana moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohaslarining korxonalari, birlashmalari va muassasalari ham kiritiladi. Iqtisodiy xavfsizlikning o'zi murakkab ichki tuzilishga ega, ularning ichida uchta muhim tarkibiy qismini ko'rsatish mumkin:

1. *Iqtisodiy xavfsizlik.* Xalqaro mehnat taqsimoti hozirgi kunda milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga kuchli darajada o'zaro bog'liq qilib qo'ygan. Bunday sharoitlarda iqtisodiy xavfsizlik quyidagilarni anglatadi:

a) milliy resurslar, ishlab chiqarish, mahsulotning samaradorligi va sifati ustidan nazorat o'rnatish imkoniyati,

b) milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini ta'minlaydigan va jahon savdosida, ilmiy-texnika yutuqlari bilan almashinuvda o'zaro manfaatli tarzda qatnashishni ta'minlaydigan darajasiga erishish.

2. Milliy iqtisodiyotning barqarorligi va muvozanatligi quyidagilarni ta'minlaydi:

a) mulkchilikni, uning barcha shakllarini himoyalash;

b) tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoitlar va kafolatlarni ta'minlash;

v) iqtisodiyotdagi jinoyatchilik tuzilmalari, umuman xufyona iqtisodiyot bilan kurash;

g) ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan, daromadlar taqsimlanishidagi katta farqlarga yo'l qo'ymaslik.

3. Tezlikda o'zgarayotgan zamonaviy dunyoda, juda muhim bo'lgan o'z rivojlanishiga va taraqqiyotiga ega bo'lish uchun quyidagilar zarur bo'ladi:

a) uzoq vaqt davomida bo'ladigan qulay investitsiya muhitini yaratish va saqlab turish;

b) mamlakat infratuzilmasini (yo'llar, aloqa, kommunikatsiyalarni) rivojlantirish;

v) ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilib borish;

g) ta'lim va malaka darajasini o'stirish.

Iqtisodiy Xavfsizlikning mohiyati mezonlar va ko'rsatkichlar tizimida amalga oshadi. Iqtisodiy Xavfsizlik mezonlari – iqtisodiy Xavfsizlikning mohiyatini aks ettiradigan muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiyot holatini baholashdir.

### 1.3 Global iqtisodiy Xavfsizlikning institutsional tizimi.

Davlat paydo bo'lgan davridan boshlab o'zining mustaqilligini, ya'ni o'z milliy xavfsizligini (ingl. national security) tashqi agressiyalardan saqlab qolishga harakat qilgan. Hozirgi davrda ushbu tushuncha ichki nobarqarorlik bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ham o'z ichiga oladi. Dunyoda bir-biriga bog'liqlarning o'sishi bilan muammo mintaqaviy xavfsizlik (ingl. regional security) va xalqaro xavfsizlik (ingl. international security) doirasida yanada keng tus oladi. Uchta tushuncha ham davlat va davlatlararo munosabatlarni tavsiflaydi. Ular ko'pincha realistlik va neorealistik nazariyalarda foydalaniladi.

XX asrning oxiriga kelib vaziyat o'zgardi. Xavfsizlikning harbiy bo'lmagan tahdidlariga iqtisodiyot va moliya, hamda atrof-muhit sohasidagi mutaxassislar birinchilardan bo'lib e'tibor bera boshladilar. Iqtisodchilar va moliyachilar xavfsizlikning iqtisodiy mohiyatini, ekologlar esa ifloslanish bilan ekologik barqarorlikka xavfning tug'ilishi insoniyatga milliy, hamda global darajada katta tahdid sola boshlashini gapirib chiqdilar. To'g'ri, ekologik muammolarning qanchasi inson tomonidan yuzaga keltirilgani, qanchasi obyektiv sabablarga ko'ra yuzaga kelgani va ularni qanday hal qilinishi kerakligi bahslarga sabab bo'la boshladi.

Yangi texnologiyalar sohasidagi inqilob xavfsizlik muammosini qayta ko'rib chiqishda yana bir omil bo'ldi. Natijada davlatga bog'liq bo'lmagan faollar katta ahamiyat kasb eta boshladi. Bu esa, tahdidlar faqat boshqa davlatlardan kelib chiqishi mumkin degan tushunchalarni o'zgartirdi. XX asr oxirida ko'pgina tadqiqotchilar ta'lim, yangi texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy qudratning oshib borishi, narkotiklar, OITS va h.k.larning tarqalishi kabi omillarning milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni haqida gapira boshladilar.

Hozirgi paytda, bir tomondan, harbiy-siyosiy omillar, va ikkinchi tomondan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, axborot-texnologiyalari omillarining nisbati borasida bahslar davom etmoqda. Xavfsizlik muammolariga "keng" yondashuv tarafdorlari iqtisodiy va boshqa omillarning ta'siri kuchayib borayotganligini ta'kidlamodalar. Ularga qarshi bo'lganlarning fikricha: bunday holatda Xavfsizlik muammosi xalqaro munosabatlar va dunyo siyosatida mavjud bo'lgan ko'pgina jihatlar ichida "yo'qolib" ketadi.

Nazariy jihatdan yana bir muhim masala – mintaqaviy, xalqaro va global muammolarning nisbati hisoblanadi. Oxirgi atamadan ko'pincha shuning uchun ham foydalanadiki, xavfsizlik muammosi nafaqat ichki va davlatlararo o'Ichovlarga ega hisoblanadi. Bu yerda ham bir xil fikrlar yo'q. Guruh davlatlarining milliy manfaatlari mos kelishi turli xildagi mintaqaviy va xalqaro ittifoqlarni paydo qiladi. Ular o'z guruhiy manfaatlarini o'zaro munosabatlarda ham, uchinchi bir mamlakatlar bilan munosabatlarda ham olg'a suradilar<sup>1</sup>.

Globalashuv oshib borishi bilan firmalar faoliyatining transmilliylashuvi va alohida hokimiyatning o'z mamlakatidan tashqarida hukmini o'tkaza olmasligi borasida ziddiyat yuzaga keladi. Xalqaro iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning

<sup>1</sup> Юрьева Т. В. Проблемы национальной безопасности//Внешняя политика Российской Федерации. 1992–1999. М., 2000. С. 56



kuchayishi shunga olib keladiki, mamlakatlarning mustaqil ravishda chiqargan qarorlari, o'zaro ziddiyatlarga sabab bo'ladi, bu esa jahon bozorining nafaqat samaradorligini pasaytiradi, balki uning nobarqarorligiga olib keluvchi omilga aylanadi.

Globallashuvning va global muammolarning rivojlanib borishi bilan global iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning shakllariga talablar ham o'zgarib boradi. Iqtisodiy siyosatni qanday darajasi hozirgi zamon globallashuv holatiga mos kelishi borasida katta tortishuvlar mavjud.

Hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat o'z suverenitetini davlatlararo idoralarga topshirishida qanchalik olg'a borishi mumkinligining mezonini, bizningcha jarayonning orqaga qaytarish mumkinligi bilan belgilanadi. Ushbu nuqtai nazardan iqtisodiy xavfsizlikning mintaqaviy va global tizimlariga turlicha yondashuvlar taklif qilinishi mumkin. Masalan, birinchi holatda jamoaviy xavfsizlik tizimining milliy idoralari, ikkinchi holatda esa – faqat xalqaro idoralari bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Mintaqaviy darajada iqtisodiy xavfsizlikning jamoaviy tizimi ham ishtirokchilarni ikki xil havflardan muhofaza qilishiga imkon yaratadi:

1) jahon xo'jaligidan kutiladigan salbiy mohiyatga ega harakatlarning ta'sirini pasaytirish;

2) zaiflarni kuchlilar tomonidan bo'ladigan tahdidlardan himoya qilish.

Bundan tashqari, mintaqaviy guruhlar, global guruhlardan farq qilgan holda kuchlar tengligiga erishish doirasida ittifoq vazifasini ham bajaradi. Iqtisodiy xavfsizlikning mintaqaviy tizimi shakllanishi omillari va amalga oshirilishiga ko'ra ham, davlatlarning bir-biriga siyosiy yaqinlashishida bo'ladigan qiyinchiliklarga ko'ra ham mintaqaviy integratsiya guruhlariga o'xshab ketadi. Umumian aytganda, globallashuv bilan bog'liq holda rivojlanadigan mintaqalashuv, qandaydir holatda qo'shimcha yo'l hisoblanadi. Global iqtisodiy xavfsizlikning sharti – globallashuv bilan mintaqalashuv o'rtasida kuchlar tengligini saqlab turish hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ikki yoqlama ahamiyatga egadir. Bir tomondan, ular murosali yo'l bilan ziddiyatlarni yumshatadi, hamda butun xalqaro iqtisodiy tizimning barqarorlashuviga yordam beradi, boshqa tomondan – unda yetakchi mamlakatlar tomonidan ancha zaif sheriklarga tayziq o'tkazishda foydalaniladi, bu esa yangi xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Global iqtisodiy xavfsizlik, va umuman geoiqtisodiyot, ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak bo'ladi: global ish yuritishning yangi shakllari, usullari va strategiyasini aniqlash; yangi mehnat unumdorligini yaratadigan va juda katta strategik samara beradigan samarali transmilliy ishlab chiqarishlarni shakllantirish; jahon bozorida geoiqtisodiy ziddiyatlar (urushlar) paydo bo'lishining sabablarini aniqlash; jahon xo'jalik tizimining barcha ishtirokchilari manfaatlarini va yo'llari uyg'unligini axtarish.

Global iqtisodiy xavfsizlik tizimining asosiy institutsional unsurlari: BMT, Yettilik guruhi ("katta yettilik"), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki guruhlarini,

mintaqaviy xalqaro banklar, London va Parij kreditorlar klubi, mintaqaviy integratsiya guruhlar va boshqa tarmoq, funksional va mintaqa tamoyillari bo'yicha tashkil qilingan xalqaro tashkilotlar. Bular qatoriga yana nohukumat tashkilotlarni (tadbirkorlar ittifoqi, kasaba uyushmalari, jahon xo'jaligi darajasida – xalqaro uyushmalar) kiritish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy tizimning institutsional tuzilmasiga alohida-alohida vazifalarni bajarish xosdir. Jahonda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning alohida sohalari bilan shug'ullanuvchi bir necha o'nlab xalqaro tashkilotlar mavjud. Ammo, globallashuv sharoitida muayyan bozorlarda va yer sharining turli mintaqalarida paydo bo'ladigan muammolarni kompleks hal qilishga talab kuchayadi. Jahon xo'jaligi institutsional tuzilmasining sochilib ketganligi global iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'lida to'siq bo'lib qolmoqda.


Xalqaro xavfsizlik tizimi – global xavfsizlikni ta'minlashda yordam beradigan vositalar yig'indisidir, unda ikkita holatni ajratib ko'rsatsa bo'ladi: birinchisi, jamoaviy chora-tadbirlar – keng xalqaro hamkorlik; ikkinchisi, tinchlikka bo'lgan havflarni bartaraf qilish va xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan tartibga solishga qaratilgan ma'lum maqsadli diplomatiya.

### **Tayanch tushunchalar**

*Global iqtisodiy xavfsizlik, tashqi iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy manfaatlar, iqtisodiy tajovuz, global iqtisodiy inqiroz, ichki iqtisodiy xavfsizlik, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, global iqtisodiyot, jamoaviy iqtisodiy xavfsizlik, xalqaro antiterror xavfsizligi, mamlakatning geosiyosiy manfaatlari, geostrategik mintaq, tizimli metod, taqqoslash metodi, tarixiy metod, me'yoriy-qadriyatli metod, funksional metod, institutsional metod, antropologik metod, amaliy tadqiqotlar metodi, global iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimi.*

### **Nazorat uchun savollar**

1. Global iqtisodiy xavfsizlik nima va u “xalqaro iqtisodiy xavfsizlik” va “tashqi iqtisodiy xavfsizlik” tushunchalari bilan qanday bog'liq ega?
2. Global iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning qanday asosiy vazifalari bor?
3. Global iqtisodiy xavfsizlikning ko'rsatkichlarini sanab bering?
4. Global iqtisodiy xavfsizlik qanday tushunchalar va qoidalar bilan ish ko'radi?
5. Global iqtisodiy xavfsizlik fanini o'rganishda qanday asosiy metodlardan foydalaniladi?
6. Global iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmini tushuntirib bering?



## **2-MAVZU: GLOBAL IQTISODIY XAVFSIZLIKNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA MAMLAKAT MILLIY XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI**

- 2.1. Milliy iqtisodiy manfaatlar.
- 2.2. Iqtisodiy Xavfsizlikka tahdid turlari.
- 2.3. Mamlakat milliy xavfsizligi holatini baholash mezonlari.

### **2.1 Milliy iqtisodiy manfaatlar.**

Manfaatlar – bu fuqarolarning, mamlakatning, mamlakatlar guruhining ehtiyojlari (ustivorliklari) tizimidir. Global iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida manfaatlarning ikkita xususiyatini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ular ijtimoiy guruhlarining amaliyotida shakllanadi va amalga oshiriladi, binobarin ushbu guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarini aks ettiradi.

2. Ular o'zgaruvchan birlik sifatida namoyon bo'ladilar, doimiy shakllangan bo'lmaydi, obyektiv hamda subyektiv omillar ta'sirida evolyusion (bosqichma-bosqich) yoki inqilobiy (butunlay) tarzda o'zgarib turishlari mumkin.

Milliy manfaatlar o'zining oliy maqsadini milliy maqsadlarning shakllanishida topadilar, ularning yig'indisi esa birinchi navbatda, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi modeli bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlarda shunday fikrlar mavjudki, mamlakatning rivojlanishi hozirgi kunda rivojlanishining uchta asosiy modeli doirasida yuz beradi.

Innovatsiya modeli. Bu rivojlangan mamlakatlar uchun xosdir. Uning asosiy belgilari bo'lib, barqaror takror barpo qilishga yo'naltirilganlik, iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishini atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi farovonligini o'sishiga qaratish hisoblanadi.

Quvib yetuvchi iqtisodiyot modeli. U ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan qator mamlakatlar uchun xosdir. Ushbu model uchun ustivorlik bo'lib iqtisodiy o'sish, import o'mini bosish siyosatini yuritish, aholi farovonligini o'stirishga yo'naltirilganlik hisoblanadi.

Xom-ashyoga asoslangan model. Yonilg'i va boshqa tabiiy resurslarga boy bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xosdir. Ushbu model uchun tobora ko'proq xom-ashyo va resurslarini sotishni ko'paytirish hisobiga aholi farovonligiga erishish bosh maqsad hisoblanadi.

### **2.2 Iqtisodiy Xavfsizlikka tahdid turlari.**

Agar iqtisodiyot uchun hech qanday xavf bo'lmaydigan bo'lsa, u ideal iqtisodiyot hisoblanadi. Haqiqatda esa muayyan xavflar hamisha bo'ladi yoki uning paydo bo'lish imkoniyatlari bo'ladi. Shuning uchun ham global iqtisodiy xavfsizlik tushunchasiga jahon xo'jaligining, uning ayrim mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishiga xavflar va tahdidlarni, va jamiyatning ehtimoliy xavflarga qarshi turish qobiliyatini tahlil qilish kiritiladi.

Tahdid – xayotiy muhim manfaatlarga, haqiqatda, bevosita zarar berish imkoniyatidir. Tahdidlar xavfsizlikni buzadigan omillardan biri bo'lib, keng miqyosdagi salbiy ko'rinishlarni, xususan havf, inqiroz, inqirozli vaziyat, halokat, buzish jarayonlarini olib keladi. Tahdidlar hamisha o'zgarib turadi: qisqa vaqt ichida ular ehtimoldan haqiqatga aylanishi va aksincha bo'lishi mumkin.

Binobarin tahdidlardan himoya – iqtisodiyotning me'yoriy va barqaror rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarning bir qismidir.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan har qanday mexanizmlar va vositalar, iqtisodiy xavfsizlikni himoya qilish chora-tadbirlari sifatida qaralishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning bir qator tasniflari mavjud. Ularda turli asoslarga ko'ra tahdidlarni guruhlash amalga oshirilgan. Manbalariga ko'ra tahdidlar ichki va tashqi tahdidlarga, tiplariga ko'ra – obyektiv va subyektiv tahdidlar, namoyon bo'lish mohiyatiga ko'ra – bevosita va bilvosita tahdidlarga ajratiladi. Avvalambor, mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) tahdidlari ajratiladi. Tashqi tahdidlar jahon iqtisodiyotidagi, jahon savdosidagi, valyuta-moliya munosabatlaridagi, jahon kapitallar bozorida noqulay jarayonlar bilan bog'liqdir.

*Iqtisodiy xavfsizlikning tashqi va ichki tahdidlari.* Tashqi tahdidlar, avvalambor, jahon iqtisodiyoti va jahon moliya bozorlarining globallashuv va baynalminallashuv jarayonlari, xalqaro bitimlardan foyda olish uchun raqobat kurashining o'sib borishi bilan bog'liqdir. Albatta, ushbu tahdidlar milliy iqtisodiyot uchun noqulay, salbiy tendensiyalar (masalan, eksportchi mamlakatlar uchun jahon narxlarining tushib ketishi) mavjud bo'lganda haqiqatga aylanadi.

Ichki omillar davlat hokimiyati idoralarining faoliyati, bozor iqtisodiyotining makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy noabarqarorligi bilan bog'liqdir. Ular davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan jarayonlar tufayli kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyotining institutsional rivoji va davlat, biznes, bozorni o'zaro hamkorligining zamonaviy texnologiyalarini yaratilganligi katta ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid turlari kelib chiqish manbasi va tahdid turlariga ko'ra tashqi va ichki tahdidlarga ajratiladi. Jahon xo'jaligida paydo bo'ladigan *tashqi tahdidlar*:

- milliy iqtisodiyotning ochiqligi va qaramligini yuzga keltiradigan jahon xo'jaligining baynalminallashuvi;

- mamlakatlar o'rtasida moliyaviy vositalar bosimi orqali, jahon iqtisodiy tizimida manfaatli o'rin uchun raqobat kurashi;

- jahon iqtisodiy tizimining noabarqarorligi oshib borishi, jahon iqtisodiy inqirozlari.

Xalqaro iehnat taqsimoti amal qilishi natijasida kelib chiqadigan tashqi tahdidlar:

- siyosiy va boshqa kamsituvchi sabablar bilan davlatlararo texnologiyalar transferti va xalqaro ilmiy-texnologik hamkorlik yo'lida cheklovlar va to'siqlar.

- atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ikkitomonlama va ko'ptomonlama xalqaro-huquqiy kelishuvlarning buzilishlari, ularning boshqa mamlakatlarga ekologik zarar berishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirilishlari.

Jahon kapital bozorida o'zgarishlar tufayli yuz beradigan tashqi tahdidlar:

- moliya va ishlab chiqarish kapitalari migratsiya oqimlarining noabarqarorligi va o'zgaruvchanligi;

- milliy iqtisodiyotda transmilliy korporatsiyalarning va xorijiy investorlarning moliyaviy hokimligi oshib borishi;

- kapitalning davlatlararo migratsiyasi mavjud tartibini qat'iy lashtiruvchi cheklavlarni kiritish;

- milliy iqtisodiyotlarning xorijiy qisqa muddatli chayqovchilik kapitaliga qaramligi, ularning moliyaviy tizimlarini zaiflashtiradi.

Jahon moliya bozoridan milliy iqtisodiyotlarga bo'ladigan tahdidlar:

- jahon moliya bozorlari bitimlarining hajmi va miqdori oshib borishida, o'zaro raqobatning kuchayishida, ularni tartibga solishning nisbatan zaiflashuvi;

- noqulay jahon moliya jarayonlarini to'liq hajmda tartibga solalmaslik, jahon moliya institutlarining samarasizligi;

- jahon iqtisodiyotiga rivojlanayotgan mamlakatlarning kirib kelishi hisobiga jahon moliya tizimining global nobarqarorligi oshib borishi.

Tovar va xizmatlar jahon bozori konyunkturasida yuz beradigan o'zgarishlar tufayli paydo bo'ladigan tashqi tahdidlar:

- eksport va importga embargo e'lon qilish, tarifli va ayniqsa nota'rif cheklavlarni o'rnatish yo'li bilan, jahon savdo tashkiloti tartiblariga mos bo'lgan, jahon savdosining amalda bo'lish mexanizmlarining mavjud me'yoriy holatining buzilishi;

- rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotli mamlakatlar o'rtasidagi ko'p jihatdan nomuvofiq almashinuvlarni (noiqtsodiy usullar bilan) saqlanib qolishi, u yoki bu tovarlarga (avvalambor xomashyo va oziq-ovqat tovarlariga) narxlarning oshishi yoki pasayishi;

Xalqaro valyuta bozorining milliy valyuta tizimiga keltiradigan tashqi tahdidlari:

- biron mamlakatning pul birligi kursini turli harakatlar bilan pasaytirib yuborish, uning xorijiy banklardagi hisoblarini muzlatib qo'yish orqali u yoki bu mamlakatlar valyutasiga zarar keltirish.

Xalqaro mehnat bozori konyunkturasidagi o'zgarishlardan kelib chiqadigan milliy mehnat bozori uchun tahdidlar:

- olimlar va kashfiyotchilardan iborat "aqlilarning ketib qolishi"ni, hamda malakali ishchi kuchlarining ko'chib ketishini tashkil qilish;

- iqtisodiy asoslangan migratsiya siyosatining yo'qligi, bu esa ishchi kuchi migratsiyasining nazorat qilib bo'lmaydigan oqimini keltirib chiqarishi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi uchun xavf soladigan ichki tahdidlarga manbalariga ko'ra quyidagilar kiradi.

Milliy iqtisodiyotning o'zida vujudga keladigan ichki tahdidlar:

- mamlakat mintaqalari bo'yicha iqtisodiy va tabiiy-resurs salohiyatining notekis taqsimlanganligi;

- tabiat boyliklarini o'zlashtirishdan soliqlar tushumidagi kamchiliklar;

- soliqlar va ijtimoiy to'lovlarni to'lashdan yoppasiga bo'yin tovlash;

- mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YAIM) yalpi jamg'armalar ulushining pasayishi;

- yetakchi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishi;

- iqtisodiyotning monopollashuvi;

- sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasida, mamlakat hududlari o'rtasida tarkibiy va narxga bog'liq nomutanosibliklar;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining yuqori darajada eskirganligi;
- mehnat unumdorligining past darajasi;
- aholining to'lovga qobiliyatli talabining pastligi;
- inflyatsiya va ishsizlikning yuqori darajasi.

Xuquqiy va ma'muriy tizimdagi holatdan kelib chiqadigan ichki tahdidlar:

- korrupsiya, davlat resurslariga haq-huquqlarni asossiz sotish;
- "xufyona" iqtisodiyotning mavjudligi va kuchayishi;
- jamiyatning jinoyatlashuvi;
- korporativ munosabatlarning jinoyatlashuvi.

Budjet tizimi va budjet siyosatida yuzaga keladigan ichki tahdidlar:

- budjet daromadlari tushumining nobarqarorligi;
- moliyaviy tartiblarning to'lovchilar va nazorat idoralari tomonidan

bajarilmasligi;

- budjet xarajatlarining maqsadsiz sarflanishi;
- budjet xarajatlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga mos kelmasligi;
- budjetning defitsitsiz bajarilishiga intilishi va uning iqtisodiy rivojlanish

manfaatlariga zid kelishi;

- budjet zahiralarning yo'qligi yoki ulardan nooqilona foydalanish.
- Ijtimoiy siyosatning olib borilishi natijasida kelib chiqadigan ichki tahdidlar:
- daromadlar notekisligining kuchayishi, kambag'allikning oshishi;
  - ovqatlanish tarkibining yomonlashuvi;
  - ta'lim va tibbiy xizmatlarning yetishmasligi;
  - turmush sifatining yomonlashuvi;
  - aholi katta guruhlarining ijtimoiy himoyalanganligi oshib borishi;
  - tug'ilishning qisqarishi, o'limning oshishi, o'rtacha umr ko'rishning

pasayishi;

- migratsiya jarayonlarining nazoratsizligi.

Ilmiy-texnik siyosatdagi kamchiliklardan yuzaga keladigan ichki tahdidlar:

- ilmiy-texnik salohiyatning yo'qotilishi;
- fundamental fan salohiyati qisqarishi;
- davlat ilmiy-texnik siyosatining aniq emasligi;
- ilmiy kadrlarning xorijga yoki boshqa sohalarga ketib qolishi;

Mamlakat moliya bozoridagi holatdan kelib chiqadigan ichki tahdidlar:

- fond bozorining investitsiyalar jalb qilishda samarador emasligi;
- iqtisodiyot moddiy sektoridan moliya resurslarining ketib qolishi;
- mamlakatdan kapitalning qochishi.

### **2.3 Mamlakat milliy xavfsizligi holatini baholash mezonlari.**

Milliy xavfsizlik strategiyasida ko'rsatilishicha mamlakat milliy xavfsizligi holatini baholash mezonlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) fuqarolarning o'z konstitutsion huquqlari va erkinliklari, shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoyalanganlik darajasidan qoniqishi;
- 2) kutilayotgan umr davomiyligi;

- 3) jon boshiga yalpi ichki mahsulot to'g'ri kelishi;
- 4) desil koeffitsiyenti (10 foiz eng ko'p boy aholining daromadlarining 10 foiz eng kambag'al aholi daromadlariga nisbati);
- 5) inflyatsiya darajasi;
- 6) ishsizlik darajasi;
- 7) yalpi ichki mahsulotda fan, texnologiyalar va ta'limga ajratilgan xarajatlar ulushi;
- 8) yalpi ichki mahsulotda madaniyatga ajratilgan xarajatlar ulushi;
- 9) ekologik me'yorlarga mos kelmaydigan hududlarning mamlakat hududidagi ulushi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga asosiy tahdidlar ro'yxati quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

1) Aholida mulkiy xilma-xillikning kuchayishi va kambag'allik darajasining oshib borishi (boylar va kambag'allarga taqsimlanish, ishsizlikning ko'payishi, real ish haqining pasayishi).

2) Mamlakat iqtisodiyoti tarkibining yonilg'i-xomashyo modelida saqlanib qolishi.

3) Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nomutanosibligining, mamlakat aholisining tabaqalanishining kuchayib borishi.

4) Jamiyat va iqtisodiy faoliyatning jinoyatlashuvi, korrupsiyaning kuchayishi.

5) Ishlab chiqarishning qayta ishlash tarmoqlari zaiflashuvi, importga qaramlikning oshishi.

Hozirgi paytda iqtisodiy xavfsizlik – davlatning ijtimoiy siyosiy barqarorligi hamda tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turadigan mexanizmi taqozo etadigan, mamlakat iqtisodiyotini barqaror muntazam rivojlanish va takomillashtirishga yo'naltirilgan umummilliy chora-tadbirlar majmuasidir.

Xavfsizlikni ta'minlash usullari. Hozirgi zamon jahon amaliyoti xavfsizlikni ta'minlashning quyidagi asosiy usullariga egadir:

1. Alohida davlatlar darajasida, bosimning turli vositalari yordamida noma'qul harakatlarni to'xtatib turish, xavfsizlikning buzg'unchisiga ta'sir qilishning amaliy vositalarini qo'llash. Ularning qatoriga kuch ishlatish harakatlarini oldini oladigan, tugatadigan, ularni hujjatlashtiradigan va huquqiy jihatdan qonunlashtiradigan siyosiy jarayon kiritiladi. Ushbu chora-tadbirlarning hammasi, ularni qo'llaydigan davlatning iqtisodiy qudratli bo'lishini talab qiladi.

2. Mintaqaviy va xalqaro miqyosda turli ko'rinishdagi birlashmalar va bloklar tashkil qilish yo'li bilan muvozanatlashtiruvchi kuchlarni yaratish.

Hozirgi sharoitda kuch ishlatish majburlashning unchalik natijali vositasi hisoblanmaydi. Agar ilgari iqtisodiyotlar bir-biriga kuchli o'zaro bog'lanmaganligi tufayli kuch ishlatish ma'qul hisoblangan bo'lsa, endilikda mamlakatlar o'rtasida kuch ishlatish qimmatga tushib ketadi. Iqtisodiy o'zaro bog'liqlik odatda ikki tomon uchun ham manfaatli hisoblanadi, va munosabatlarning uzilishi ikkalisiga ham zarar keltiradi.

Tashqi qarz darajasi (YAIMga nisbatan 60%) Yevroittifoqida yevrozonaga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan davlatlarga qo'yilgan talab asosida kiritilgan. Ushbu

talablardan kelib chiqib, budget defitsitining chegaraviy ko'rsatkichi (YAIMga nisbatan 3%) belgilangan. Inflyatsiyaning me'yoriy ko'rsatkichi sifatida narxlarning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 5-6% deb olingan. Agar inflyatsiya 6-10%ni tashkil qilsa, inflyatsiya sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'ladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, tubdan o'zgarishlar amalga oshirilgan davrda ishsizlik darajasi 15-20% gacha yetishi mumkin. Ammo bunday daraja 3-5 yildan ko'p saqlanib turmasligi kerak. Ishsizlik darajasining chegaraviy ko'rsatkichi bo'lib 10% hisoblanadi, undan oshgan vaqtda, Xalqaro mehnat tashkiloti baholashi bo'yicha, jiddiy ijtimoiy ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin.

Oxirgi uchta ko'rsatkich eng muhimlaridan sanaladi. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, agar aholining minimal yashash darajasidan past holatda bo'lganlarining ulushi 7-10% gacha bo'lsa, va boylar va kambag'allar daromadi o'rtasidagi farq 8 barobardan oshmasa ijtimoiy ziddiyatlar xavfi minimal bo'ladi. Aholining minimal yashash darajasidan past yashaydiganlarining ulushi 7-10%ga yetganda uzoq muddatli inqirozlar va stagnatsiya yuz berishiga olib keladi.

Daromadlarning kelib chiqish manbalariga ko'ra tarkibi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda shaxsiy daromadlarning 60-65% ni oylik maoshlar tashkil qiladi, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar (oylik maoshni istisno qilganda), ko'chmas mulk bitimlaridan, aksiya va depozitlardan dividendlar esa 20% dan oshmaydi.

Iqtisodiyotni salbiy rivojlanishining og'ir nuqtalarini aniqlash mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlarning o'zaro kelishuvlari nuqtasini topish imkonini beradi. Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar darajasining ko'pgina ko'rsatkichlaridan "eng xavflilarini" topish zarur bo'ladi. Aynan mana shu ko'rsatkichlardan iqtisodiy Xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari sifatida, shunday salbiy ko'rsatkichlar olinadiki, agar unga amal qilinmaydigan bo'lsa, ishlab chiqarish sohasi va aholi turmush darajasida inqirozli tendensiyalarning shakllanishiga olib keladi.

### **Tavanch tushunchalar**

*Milliy iqtisodiy manfaatlar, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi modeli, innovatsiya modeli, quvib yetuvchi iqtisodiyot modeli, xom-ashyoga asoslangan model, tahdid, tashqi tahdidlar, ichki tahdidlar, xavfsizlikni ta'minlash usullari, milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimi, tahdidlar darajasi, iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari, iqtisodiy xavfsizlikning ahvolini baholash mezonlari, yashash minimumidan past daromad oluvchilar ulushi, aholi daromadlari taqsimlanishining desil koeffitsiyenti, ishsizlik darajasi, tashqi qarz, ichki qarz, budget defitsiti, inflyatsiya darajasi, oziq-ovqat zahiralari umumiy hajmida import oziq-ovqatning ulushi, davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlarining budget xarajatlari umumiy hajmidagi ulushi.*

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1) Milliy iqtisodiy manfaatlar deganda nimani tushunasiz?



2) Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi modelining qanday turlarini bilasiz?

3) Tahdid deganda nimani tushunasiz va uning qanday turlari bo'ladi?

4) Xavfsizlikni ta'minlash usullari qanday bo'ladi?

5) Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy qiymatlari qanday aniqlanadi?

6) Iqtisodiy xavfsizlikning ahvolini baholash mezonlariga nimalar kiradi?

7) Yashash minimumidan past daromad oluvchilar ulushi qanday aniqlanadi?

8) Aholi daromadlari taqsimlanishining desil koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz?

9) Oziq-ovqat zahiralari umumiy hajmida import oziq-ovqatning ulushi qanday aniqlanadi?

10) Davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlarning budjet xarajatlari umumiy hajmidagi ulushi deganda nimani tushunasiz?

### **3-MAVZU: IQTISODIY GLOBALIZM VA UNING XUSUSIYATLARI**

- 3.1. Globallashuvning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning global iqtisodiy Xavfsizlikka ta'siri
- 3.2. Jahon xo'jaligida alohida mamlakatlarning bir-biriga bog'liqligi
- 3.3. Ochiq iqtisodiyot modeli
- 3.4. Global muammolar va ularning global Xavfsizlik tizimida tutgan o'rni

#### **3.1 Globallashuvning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning global iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir**

O'zbekistonning bozor tizimiga o'tishi uning jahon xo'jaligiga qo'shilishining kuchayishi bilan davom etmoqda. Ikki jarayon ham tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashuvi va dunyoda davlatlarni ijtimoiy hayotning barcha sohaslarida o'zaro bog'liqligi kuchayishi sharoitida yuz bermoqda. Hozirgi davrda bunday o'zgarishlar globallashuv degan nomni oldi, unda "insoniyat jamiyatining o'z qonuniyatlari, harakatlantiruvchi kuchlari va tartibga solish mexanizmlari yangi tizimli darajasi shakllanmoqda"

BMT mutaxassisleri nuqtai nazariga ko'ra, globallashuv – inson oldida katta imkoniyatlar ochuvchi, o'ta ziddiyatli va murakkab dunyodir. Bir tomondan, globallashuv ijobiy jarayon sifatida yangi texnologiyalar sohasida ilg'orlab ketishni ta'minlaydi, ulardan insonlarni ehtiyojini qondirishga ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo orqali to'siqlarsiz almashinadigan bo'lsa, butun insoniyatning farovonligi uchun xizmat qiladi.

Ammo, boshqa tomondan, globallashuv salbiy tendensiyalarga ham ega, bu esa xususan, bozor mexanizmlarining nobozor faoliyat turlari (rasmiy va norasmiy aloqalar va xizmatlar tarmog'i orqali) tomonidan siqib chiqarilishi bilan namoyon bo'ladi, bu holat esa, kuchli davlatlarning zaif davlatlarga nisbatan ustunliklarga ega bo'lishiga olib keladi.

BMT mutaxassisleri shunday fikrga kelishganki, globallashuv iqtisodiy zaif mamlakatlar xalqlarida, moliyaviy nobarqarorlik sur'atlari oshib borayotgan, jinoyatchilikning va kasalliklarning miqyoslari unga qarshi kurash sur'atlaridan yuqori bo'layotgan bir paytda, nochorlik va himoyalannaganlik hislarini kuchaytirib yuboradi. Boshqacha qilib aytganda, insonning, birinchi navbatda juda kambag'al mamlakatlarda, xavfsizligiga yangi tahdidlar paydo qilmoqda.

Globallashuvning harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib, quyidagi o'zaro bog'liq omillar yuzaga chiqadi.

Birinchi omil – *erkin savdo siyosati*. Mahsulotlar, xizmatlar, kapitallar va qisman mehnat bo'yicha milliy bozorlarning ochilishiga rivojlangan mamlakatlar hukumatlarining, Jahon savdo tashkiloti (1994 yilgacha tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv deb atalgan), Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti kabi xalqaro institutlar yordamida iqtisodiy amaliyotga faol ravishda kiritilgan neoliberal iqtisodiy nazariyalar sabab bo'ldi.

Hukumatlarning proteksionizm siyosatidan voz kechishi xalqaro savdoning va kapitallar xalqaro harakatining keskin oshib ketishiga olib keldi. Savdo tartibining erkinlashtirilishi dastavval tovarlar bozoriga, keyinchalik – xizmatlar, kapitallar, fond bozorlariga tarqaldi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish

yo'liga tobora ko'pchilik mamlakatlar o'tib olmoqda. Erkin xalqaro savdoning asosiy afzalliklari, ya'ni cheklovlarining eng minimal darajaga tushirganligi, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon mahsulotlar, xizmatlar va kapitallar bozoriga chiqishlarining osonlashtirilganligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi omil – *resurslar, birinchi navbatda energiya resurslariga ega bo'lish va ularni taqsimlash huquqi uchun kurash* hisoblanadi. Ushbu omil doimo iqtisodiyotni xalqarolashtirishga olib keladi – barcha davrlarning va xalqlarning urushlari boshqa xalqlarning hududidagi resurslarni qo'lga kiritish uchun olib borilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlanganlar tomon energiya resurslarini olib boradigan neft va gaz quvurlari tarmog'i, elektr energiyasini yetkazib berish tizimi globallashuvning muhim omili bo'lib qoldi. Rivojlangan mamlakatlarning o'z energetika xavfsizligi uchun qayg'urishi, energetika korporatsiyalarining (bular esa dunyoning eng yirik korporatsiyalaridir) manfaatlari, energetika resurslarini yetkazib beruvchilar va ularning birlashmalari manfaatlari, birinchi navbatda OPEKning, global iqtisodiyotga iqtisodiy va siyosiy omillar orqali juda katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchinchi omil – *transmilliy ishlab chiqarishlardir*. Erkin savdo siyosatining ishchi kuchi migratsiyasini kamaytirish orqali amalga oshiriladigan cheklovlari ishlab chiqarishni ishchi kuchi arzon bo'lgan, xom-ashyo va resurslarga boy bo'lgan, yoki sotish bozorlari katta sig'imli bo'lgan hududlarga ko'chirishga turki bo'ldi. Ushbu jarayon global bozorlarda raqobatni kuchaytirish va to'siqlar hamda nazorat chora-tadbirlarini yengib o'tishga imkon yaratdi.

Raqobatning o'sishi o'z navbatida dunyo miqyosida qo'shilishlar va qo'shib olishlar jarayonini, transmilliy korporatsiyalar shakllanishini keltirib chiqardi. Transmilliy korporatsiyalarning mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishi, boshqa jahon iqtisodiy ko'rsatkichlariga nisbatan tez o'sib bordi.

To'rtinchi omil – *transport va kommunikatsiya xarajatlarining qisqarishi* hisoblanadi. Masofalarning qisqarishi samarasi YAIMning virtuallashuvi va intellektlashuvi bilan yanada kuchaydi. Katta hajmdagi iqtisodiy axborotlarni arzon va tezkor uzatishga imkon yaratgan Internet tarmog'i tufayli masofalar qisqardi, dunyo bir qadam bo'lib qoldi.

Ilg'or texnologiyalar transport, telekommunikatsiya va hisob-kitob xarajatlarini keskin qisqartirdi va bozorlarning global integratsiyasini yengillashtirdi. Agar ishlab chiqarish tizimlari, oziq-ovqat muammolari, mijozlar bilan munosabatlardagi inqirozlar to'g'risida axborotlar, hamda biznesning boshqa muhim yangiliklari dunyoning bir chekkasidan boshqasiga, bir necha kunlarda emas, balki sanoqli daqiqalarda yetib borishi biznes uchun katta yutuqlarga olib keldi. Binobarin, korxonalar uchun o'zining filiallarini turli mamlakatlarda joylashtirish afzal va foydali bo'lib qoldi. Tadqiqotchilar va loyihachilar guruhi bir loyiha ustida dunyoning turli qismlarida turib ishlashi, ehtiyot qismlarni arzon tushadigan joylarda ishlab chiqarish va yig'iladigan joylarga kam xarajatlar bilan yetkazib berish, pir'ovardida ist'emolchilarning shaxsiy buyurtmalarini bajarish imkoniyatlari yaratildi. Mana shunday tarzda tashkil qilingan faoliyatni elektron savdo yoki elektron biznes deb atay boshladilar.

Beshinchi omil – *iqtisodiyotning intellektuallashuvi*. Yangi texnologiyalar va yuqori malakali mutaxassislarining yuqori harakatchanligi davrida fan-texnika taraqqiyotining kuchayishi “yangi” iqtisodiyotning (tarmoq iqtisodiyoti) shakllanishiga olib keldi. An’anaviy ravishda hisoblab kelinganki, kim yangi mahsulotni yaratsa, o’sha uni eng foyda keltiradigan, dastlabki davrida ishlab chiqarishi kerak bo’ladi. Global dunyoda vaziyat o’zgarib boshladi – yangi mahsulotlarning texnologiyasi, kapital va tabiiy resurslar kabi tez sur’atlarda boshqa joylarga ko’cha boshladi. Talabalarning va olimlarning harakatchanligi kuchayib borishi davrida bilimlar iqtisodiyotida inson omilining oshib borishi ham globallashuvga olib keladi.

Oltinchi omil – *milliy xavfsizlikdir*.

Yettinchi omil – *yagona axborot makoni*. Axborotlarning global tarqalishi, albatta, bizning hayotimizni osonlashtiradi, ammo u yana dunyo to’g’risidagi qarashlarimizni, madaniyatimizni, tilimizni, ta’lim dasturlarimizni, ist’emolchilik didlarimizni bir xillashirib qo’yishi mumkin. Shu bilan birgalikda yagona axborot makoni iqtisodiy integratsiya yo’lidagi to’siqlarni bartaraf qiladi. Shuning uchun ham globallashuvning yana bir belgisi – ist’emolchilik didlari va xayot standartlarining bixillashuvidir.

Sakkizinchi omil – *standartlarning baynalminallashuvidir*. Xalqaro standartlarning va ISO 9000 kabi qoidalarning, yagona bojxona xujjatlarining, transport yuk hujjatlarining, moliyaviy hisobotlarning kiritilishi xalqaro savdo va kapitalning harakatlariga yordam bermoqda.

To’qqizinchi omil – *dunyo moliya tizimining shakllanishi*.

O’ninchi omil – *xalqaro moliya infratuzilmasining shakllanishi* (Nyu-York, Filadelfiya, Chikago fyuchers birjalari, yapon offshor bozori (Tokio), London Siti maqomining qayta tiklanishi).

Aytib o’tish kerakki, barcha globallashuv jarayonlari kabi iqtisodiy globallashuv, ziddiyatli ko’rinishlar va oqibatlariga ega. Ya’ni, bir tomondan, milliy jamiyatlarning jadal innovatsion rivojlanishiga omillar yaratadi, xalqaro mehnat taqsimoti samaradorligini oshiradi, ikkinchi tomondan yer shari miqyosida ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytiradi, dunyo bozorida global o’yinchilar o’rtasida raqobatni keskinlashtiradi. Global o’yinchilar (masalan, TMKlar) qanday qilib bo’lsada, muvaffaqiyatga erishishga harakat qiladi. Pul hukmdorligi ma’naviy, axloqiy, madaniy va kasbiy me’yorlar va qadriyatlarini ikkinchi darajaga tushirib yuboradi.

Iqtisodiy globallashuv tadbirkorlar o’rtasida global mavqe egalarini shakllantiradi, lekin shu bilan birgalikda dunyo darajasida ijtimoiy tengsizlik kuchayishini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy globallashuv doirasida yuzaga kelgan ijtimoiy tengsizlik, ko’pgina ko’rinishlarga ega bo’ladi. Bu mamlakatlar o’rtasida ijtimoiy ahvoning tengsizligi, ular globallashuvdan yutishlari ham mumkin, yutqazishlari ham mumkin, bu axborotlarga, bilimga ega bo’lishda teng bo’lmagan imkoniyatlardir. Hatto, atrof-muhitning radioaktiv chiqindilar va kimyoviy ishlab chiqarish axlatlari bilan ifloslanishi qoloq mamlakatlarda ancha yuqori, u yerlarda vaqti-vaqti bilan texnogen halokatlar yuz berib turadi.

Iqtisodiy globallashuv jinoyatchilikning globallashuviga ham sharoit yaratadi (narkotiklar savdosining dunyo tarmog'i va qurol hamda odamlar noqonuniy savdosini tashkil qilish). Globallashuvning salbiy oqibatlariga yana ishsizlik oshib borishi kiradi, chunki yangi texnologiyalarning yaratilishi sanoatda ishchi o'rinlarining qisqarishiga va ijtimoiy tanglikka olib keladi. Ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishi va mehnattalab ishlab chiqarishlarning rivojlanayotgan mamlakatlar tomon ko'chib o'tishi, o'sha mamlakatlarning an'anaviy tarmoqlariga og'ir zarba bo'ladi, ko'pgina ishlab chiqarishlar yopilib ketadi. Kuchayib ketgan TMKlar ko'pincha o'z manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi, natijada milliy davlatlarning o'rni zaiflashadi va uning ba'zi bir vazifalari turli davlatlardan ustun turuvchi tashkilotlar va birlashmalarga o'tib ketadi.

*Globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Globallashuv ixtisoslashuvning va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi. Ushbu sharoitlarda mablag'lar va resurslar samarali taqsimlanadi, bu esa aholi o'rtacha turmush darajasining oshishiga va xalqning hayot istiqbollari kengayishiga sabab bo'ladi.

2. Globallashuv jarayonlarining muhim afzalliklaridan biri ishlab chiqarish miqyoslarida tejamkorlikka erishilib, istiqbolda xarajatlarning qisqarishiga va narxlarning pasayishiga, binobarin, barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi.

3. Globallashuvning afzalliklari yana erkin savdodan o'zaro yutuqlarga erishilib, hamma tomonlarning qoniqishidir.

4. Globallashuv raqobatni kuchaytirib, yangi texnologiyalarning yanada rivojlanishiga va ularning mamlakatlar bo'yicha tarqalishiga sabab bo'ladi. Ushbu sharoitlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'sishining sur'atlari jahon savdosining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'ladi, bu esa sanoat texnologiyalarining tarqalishida muhim omil hisoblanadi. Globallashuvning afzalliklari, muayyan sohalarda yetakchi bo'lgan xorijiy mamlakatlarning ilg'or fan-texnika, texnologiya va malaka darajasi boshqa mamlakatlarda foydalanishi natijasida olinadigan iqtisodiy foyda bilan ham belgilanadi. Ushbu holatlarda yangi qarorlarni ishga tushirish qisqa muddatlarda va nisbatan kam xarajatlar bilan amalga oshiriladi.

5. Globallashuv xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi. Gap yangi raqobatli sohalar to'g'risida, an'anaviy bozorlarda kuchli raqiblik qilish to'g'risida ketayapti, bunga alohida davlatning yoki korporatsiyaning kuchi yetmaydi. Ichki raqobatchilarga harakatlari cheklanmaydigan kuchli tashqi raqobatchilar qo'shiladi. Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlari birinchi navbatda ichki ist'emoilchilarga foydalidir, chunki raqobat ularga tanlash imkoniyatini beradi va narxlarni pasaytiradi.

6. Globallashuv global darajada ishlab chiqarishning oqilona yuritilishi natijasida mehnat unumdorligi oshishiga va yangi texnologiyalarning tarqalishiga olib keladi, hamda innovatsiyalarning dunyo miqyosida izchil kiritilishiga raqobat bosimini yuzaga keltiradi.

7. Globallashuv mamlakatlarga katta hajmda moliyaviy resurslarni harakatga keltirish imkoniyatini beradi, chunki investorlar soni oshgan bozorlarda ancha keng moliyaviy dastaklardan foydalanadilar.

8. Globallashuv insoniyatning umumbashariy muammolarini, birinchi navbatda ekologik muammolarni hal qilishda jiddiy asos yaratib beradi, chunki jahon hamjamiyatining birlashuvi va turli sohalarda harakatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

### **3.2 Jahon xo'jaligida alohida mamlakatlarning bir-biriga bog'liqligi.**

Globallashuv doirasida milliy iqtisodiyot va moliya tuzilmasi tashqi bitimlarning soni oshib borishi bilan zaifligi sezilib qoladi, bu esa yangi xalqaro mehnat taqsimotining paydo bo'lishiga olib keladi, va unda milliy xo'jalik komplekslarining izchillik bilan rivojlanib borishi boshqa davlatlar iqtisodiy subyektlariga yuqori darajada bog'liq bo'lib qoladi.

O'z energiya va xom ashyo zaxiralariga ega bo'lmagan sanoat jihatdan rivojlangan davlatlar uchun, iqtisodiyotning ochiqligi, ularning yanada rivojlanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Barcha qolgan mamlakatlar ham xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etadilar, binobarin, bir-birlari bilan tijoriy munosabatlarni o'rnatadilar va rivojlantiradilar, bu esa xalqaro mehnat taqsimoti subyektlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi kuchayishiga olib keladi va tashqi salbiy ta'sirotlardan himoya qilgan holda ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv afzalliklaridan foydalanadilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi o'zaro bog'liqlik – bu barqaror tashqi iqtisodiy aloqalar tizimi bo'lib, ulardan olinadigan iqtisodiy samara munosabatlardagi turli subyektlar uchun hal qiluvchi afzalliklar salohiyati bilan belgilanadi. Hozirgi paytda hal qiluvchi afzalliklar salohiyatiga ega bo'lgan subyektlar uchun ushbu holat kelajakda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

“O'zaro bog'lik” nazariyasining vakillaridan biri bo'lgan golland iqtisodchisi K.Nuvenxuze o'z g'oyalari asoslashda barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan ekologik omillarga tayangan. Ushbu omillarga u quyidagilarni kiritgan:

1) atrof-muhitning nobarqarorligi;

2) Yer shari tabiiy resurslarining cheklanganligi va qayta tiklanmasligi.

Uning fikricha, rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlardan xom-ashyoga qaramligi, rivojlanayotganlarning esa rivojlanganlardan – texnika va texnologiyalaridan qaramligi bo'lar ekan, demak ularning bir-biriga bog'liqligi va “o'zaro bosimi” mavjud bo'ladi. Shunday holatdan kelib chiqib, xalqaro mehnat taqsimotini tashkil qilish zarur bo'ladi.

Boshqa bir g'arb iqtisodchisi R.Kuper (Garvard universiteti) ham o'zaro bog'liklik muammosini ko'rib chiqar ekan, uni turli jihatlarini o'rgangan. Uning fikricha, o'zaro bog'liqlikning to'rtta turi mavjud:

1) tarkibiy bog'liqlik, bunda mamlakatlar bir-biriga bog'liq va bir-biriga ochiq ekan, bir mamlakat iqtisodiyotidagi o'zgarishlar boshqasiga albatta ta'sir ko'rsatadi;

2) iqtisodiy siyosat sohasidagi maqsadlarning o'zaro bog'liqligi;

3) iqtisodiy rivojlanishining tashqi omillarida o'zaro bog'liqlik;

#### 4) siyosiy o'zaro bog'liqlik.

Ba'zi bir kamchiliklariga qaramasdan ushbu nazariya ancha ijobiydir va mamlakatlar jahon xo'jaligi tizimida o'zaro bog'liqligi kuchayib borishini aniq ko'rsatib bergan. Bir xil sanoat va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan, bir xil iqtisodiy va siyosiy tizimdagi, sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar o'zaro bog'liqlikning eng yuqori darajasida bo'ladilar.

Masalan, AQSH – Yaponiya, AQSH – Kanada, AQSH – Germaniya eng yuqori darajadagi o'zaro bog'liklikka egalar. Xar bir mamlakatning iqtisodiyoti boshqasini shunday darajada bog'likki, iqtisodiy siyosatda bir tomonlama, kelishilmagan o'zgarishlar ikkala mamlakatning ham milliy xo'jaligiga bir xil tarzda zarba bo'lib tushadi. Masalan, ushbu mamlakatlardan bittasi o'zining pul, kredit, soliq siyosatida bir tomonlama "jiddiy" o'zgarishlar amalga oshirar ekan, bu mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga jahondagi talabni pasaytirib yuboradi, va oqibatda, daromadlar va bandlik darajasi nafaqat milliy xo'jalikda, balki boshqa mamlakatlarda ham pasayib ketadi.

Mamlakatlarning iqtisodiy o'zaro bog'liklik darajasini aniqlash uchun iqtisodiy o'sishni amalga oshirishning multiplikatsiya samarasi ko'rsatkichidan foydalaniladi. O'zaro bog'liklik samarasini aniqlash uchun, bir mamlakatda yalpi ichki mahsulotning 1% ga o'sishi boshqasida daromadning o'sishiga olib kelishini bilish zarur. XX asrning 80 yillarida olib borilgan hisob-kitoblar ko'rsatar ediki, AQSHda xarajatlarning 1% ga oshishi, Germaniyada ichki daromadning 0,35% ga, Yaponiyada – 0,41% ga, Kanadada - 0,72% ga oshishiga olib kelgan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori iqtisodiy o'zaro bog'liqlik, aholisi yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lgan va mo'tadil mintaqada joylashgan, sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar o'rtasida mavjuddir. Ushbu mamlakatlarning ishlab chiqarish tarkibi va bozorlari bir xil talab va taklifga ega, nisbiy xarajatlar farqlari va mahsulotlarning turli tumanligiga asoslangan bo'lib, milliy ishlab chiqaruvchilarga xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlaganlar.

O'zaro bog'liklik iqtisodiy bog'liklikni keltirib chiqaradi, unda sabab-oqibat aloqalari mavjud bo'lib, tashqi omillar u yoki bu mamlakatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bog'liklik shunda namoyon bo'ladi, bu holatda har qanday muammoni hal qilish uchun moslashadigan o'zgarishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Moslashish deganda, mamlakatning tashqi omillar ta'sirida paydo bo'lgan salbiy vaziyatga davlatning ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, bunda yoki tashqi omilni bartaraf qilish, yoki oqibatlarni yo'qotish, yoki moslashish xarajatlarini boshqa mamlakatlarga o'tkazib yuborish tushuniladi.

Moslashish imkoniyatlari aniq cheklangan chegaralarga ega bo'ladi. Moslashish uchun ko'riladigan tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- savdo aloqalarini diversifikatsiyalash (yo'nalishlarini ko'paytirish);
- hamkorlikning turli xillarini mustahkamlash va jadallashtirish;
- bosim (shu jumladan harbiy va iqtisodiy);
- tejamkorlik va zahiralarni yaratish;
- eksport ishlab chiqarishlarini shakllantirish.

Bog'liqlikning eng yuqori darajasi tashqi omillar ta'sirida unga moslashish uchun, ichki vaziyatni tubdan o'zgartirgandan keyin ham, haddan ortiq xarajatlar qilishi zarurligi bilan belgilanadigan iqtisodiy zaiflik hisoblanadi. Iqtisodiy zaiflik moslashish xarajatlarining chegaraviy nuqtadan oshib ketishi bilan paydo bo'ladi. Aynan iqtisodiy zaiflik iqtisodiy xavfsizlik muammosini keltirib chiqaradi.

### 3.3 Ochiq iqtisodiyot modeli

Ochiq iqtisodiyot modeli milliy chegaralarga bog'liq bo'lmagan holda moliya iqtisodiy faoliyatning erkinligini talab qiladi. Ochiqlik darajasi aloqalarning (moliya, savdo) bog'liqligi va uning statistik ahamiyati bilan belgilanadi. Ochiq iqtisodiyot tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy xavfsizlikning bosh muammosi, milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga, savdo shartlariga, raqobat kurashining holatiga va ko'pgina boshqa omillarga bog'liqligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash vazifasi mamlakat makroiqtisodiy siyosati tadbirlari orqali:

- eksport va importning tarkibini maqbullashtirish;
- investitsiya siyosatini takomillashtirish;
- infratuzilma islohotlarini o'tkazish bilan hal qilinadi.

Mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtiroki nuqtayi nazaridan iqtisodiyotning ikkita tipini ajratish mumkin – ochiq va to'liq yopiq iqtisodiyot. Ochiq milliy iqtisodiyot tabiiy resurslari, mahsulotlar, xizmatlar, kapitallar, ishchi kuchlari, g'oyalar, axborotlar bozori to'liq ochiq bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bunday iqtisodiyot mamlakat xo'jaligida ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashuvini, ichki bozorda xorijiy kompaniyalar bilan doimiy raqibchilik hisobiga raqobatbardoshlikning yuqori darajasiga erishishni, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali ijobiy jahon tajribalaridan foydalanishni, xalqaro mehnat taqsimotida nisbiy afzalliklar tamoyilidan samarali foydalanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotning ijobiy samarasidan biri – korrupsiya va boshqa iqtisodiy jinoyatlar uchun imkoniyatlarning qisqarishi, savbiasiz davlat va korporativ menejmentdan kelib chiqadigan kamchiliklarni cheklash imkoniyatlaridir.

Avtarkiya (to'liq yopiq xo'jalik) milliy iqtisodiyotning shunday turiki, u faqat ichki resurslardan va tendensiyalardan foydalanadi, o'zini-o'zi ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Iqtisodiyotning bu tipida dunyo rivojlanishining tendensiyalariga bog'liqligi juda kam bo'ladi, bu esa jahon iqtisodiy inqirozlaridan, jahon bozoridagi valyuta kurslari va narxlar darajasi tebranishidan xalos bo'lishni ta'minlaydi.

Avtarkiya (yopiq iqtisodiyot) nazariyasi nemis iqtisodchisi I.G.Fixtening 1800 yilda nashr qilingan "Yopiq savdoli davlat" degan asarida yoritilgan. Fixte "Jahon pullari"ni bekor qilish (ya'ni valyutalarning konvertirlanishini), tashqi savdoga monopoliya o'rnatish va umuman tashqi savdodan voz kechishga chaqirgan. Uning fikricha, faqat davlatning o'zini-o'zi ta'minlashi iqtisodiy xavfsizlikni yuzaga keltiradi. Ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish yordamida barcha chetdan olib kiriladigan mahsulotlarni siqib chiqarish kerak bo'ladi. Bir vaqtning o'zida chetga mahsulot chiqarishni qisqartirish va bo'shagan ishlab



chiqarish quvvatlarini ichki ehtiyojlar uchun ishlatish kerak. Hech qanday davlat xorijda uzoq vaqt mahsulot sotishni kafolatlay olmaydi, hech qanday ichki ishlab chiqaruvchi chetdan cheklanmagan tarzda mahsulotlar kirib turganda o'z mahsulotni sota olmaydi. Agar davlat savdoni cheklash orqali o'z fuqarolarini turmushini ta'minlay olsa, ular yana o'z vatanini sevib qoladilar, o'z hayot tarziga, urf-odatlariga, o'z ildizlariga qaytadilar.

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasi mezoni bo'lib, tashqi muhitning milliy iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari o'zgarishiga: aynan ishlab chiqarishning hajmi va o'sish sur'atlariga, ichki mahsulotlar bozoriga, aholi bandligiga ta'siri hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda 1930-1940 yillar davrida, inqiroz oqibatlari ta'sirida avtarkiya tendensiyalari kuchli bo'lgandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSH, urushda g'olib bo'lib va ancha boyib chiqqandan keyin, jahon sahnasida o'zining hohishlarini o'tkazish maqsadida "erkin savdo", "iqtisodiyotning ochiqligi" shiorlarini targ'ib qila boshladi.

Shuni aytish zarurki, A.Smit tomonidan XVIII asr oxirida ilgari surilgan "erkin savdo" (free trade) tushunchasi "ochiq iqtisodiyot" tushunchasiga nisbatan tor hisoblanadi, chunki keyingisi nafaqat savdoning, balki kapitallar, ishchi kuchlari, valyutalar, axborotlar, g'oyalar harakatini ham o'z ichiga qamrab oladi. Ammo, XVIII asr oxirida Angliya uchun muhim bo'lganidek, 1940 yillarda AQSH uchun ham, dunyoning juda qudratli mamlakati sifatida, boshqa mamlakatlarning o'z bozorlarini maksimal darajada ochishiga majburlash juda foydali edi. Dastlab, "ochiqlik" kam rivojlangan, yana ustiga-ustak urushdan vayron bo'lib chiqqan mamlakatlar bozorida AQSHning hukmron bo'lishiga qaratilgan edi. Ammo vaqt o'tishi bilan vaziyat o'zgardi.

Hozirgi paytda milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik sari intilishi ko'p jihatdan amerika korporatsiyalarining zo'ravonligi bilan emas, balki ishlab chiqarishning, mahsulotlar almashinuvi, kapitallar va ist'emolning baynalminallashuvi va globallashuvini obyektiv jarayonlari bilan izohlanadi. Vaholanki, bugungi kunda "ochiqlik" tushunchasi dunyoning ko'plab mamlakatlari lug'atida mavjuddir (arabchada "infitax", xitoychada "kayfan").

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasini belgilab beradigan asosiy ko'rsatkichlar qanday bo'ladi? Bular, avvalambor, eksport hajmining (yillik) YAIMga nisbati bilan o'lchanadigan eksport kvotasi ko'rsatkichidir. Eksport kvotasi ko'rsatkichining qiymati qancha katta bo'lsa, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

XXI asr boshida dunyo bo'yicha eksport kvotasining o'rtacha qiymati 20% ni tashkil qilgan bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 27% ga, rivojlanayotganlarida 12% ga teng bo'ldi. Yana import (yillik) hajmining YAIMga nisbati bilan o'lchanadigan import kvotasi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Milliy iqtisodiyotning ochiqligi indeksining eng aniq ko'rsatkichi bo'lib tashqi savdo kvotasi hisoblanadi, u eksport va import kvotalari hajmi yig'indisining YAIMga nisbati bilan o'lchanadi. Ochiqligi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlar uchun tashqi savdo kvotasi ko'rsatkichining yuqori qiymatlari xos bo'ladi.

**Jahon xo'jalik tizimiga yetakchi rivojlangan mamlakatlarning  
integratsiyasi ko'rsatkichlari (2021 y.), % larda.**

Mamlakatlar	Eksport kvotasi	Import kvotasi	Tashqi savdo kvotasi
AQSH	12,0	16,4	28,4
Xitoy	20,9	17,4	38,3
Yaponiya	17,1	18,1	35,2
Germaniya	49,8	44,7	84,5
Buyuk Britaniya	28,3	30,0	58,3
Fransiya	30,5	33,4	63,9
Hindiston	21,9	26,5	48,4
Italiya	33,5	31,6	65,1
Braziliya	19,3	17,6	36,9
Rossiya	34,4	23,7	58,1

Manba: "Handbook of statistics 2022" nashri ma'lumotlaridan foydalanib, muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.


1950-1960 yillarda ochiq mamlakatlar qatoriga tashqi savdo kvotasi 10% dan oshgan mamlakatlar kiritilardi. 1990 yillarning oxiridan hozirgi davrgacha ochiqlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga tashqi savdo kvotasi 45% dan oshgan, ochiqligi pastroq bo'lganlarga tashqi savdo kvotasi 27% dan kam bo'lgan mamlakatlar kiritiladi. Bundaylar qatoriga rivojlangan mamlakatlar orasidan 2013 yilda Italiya, AQSH va Yaponiyani kiritsa bo'lardi. XXI asr boshida Italiyaning eksport kvotasi ancha qisqardi, Fransiya va Buyuk Britaniyaning eksport kvotasi ham qisqardi. Bu hozirgi paytda Yevropa davlatlari boshidan kechirayotgan iqtisodiy tanazzul bilan izohlanadi (jadval 3.3.1.).

Iqtisodiyotning ochiqlik darajasining muhim ko'rsatkichlaridan yana biri jon boshiga tashqi savdo aylanmasi to'g'ri kelishi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot ochiqligining muhim yig'indi ko'rsatkichi bo'lib mamlakatdagi investitsiya muhiti hisoblanadi. Investitsiya muhiti – xorijiy investorlar nuqtayi nazaridan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik holatning bahosidir. Mamlakatdagi qulay investitsiya muhiti xorijdan kapitallarning, texnologiyalarning, ishchi kuchlarining kirib kelishini ta'minlaydi.

Shuni ham e'tiborda tutish kerakki, ichki bozorning hajmi kattaligi sharoitida lahlab chiqariladigan mahsulotlarning asosiy qismi mamlakat ichida ist'emol qilinadi, bunday holatda eksport kvotasi kamayish tomon intiladi, buni AQSH misolida ko'rish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat ochiqligining darajasini tahlil qilish uchun bir emas, bir necha ko'rsatkichlardan foydalanish zarur bo'ladi.

Eksport va import kvotasidan tashqari ochiq iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlariga: sotilgan mahsulotlar hajmida eksportning ulushi; sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari tovar almashinuvida importning ulushi, kapitalning o'chqarilishi; mamlakat fond bozorida norezidentlarning ulushi; milliy kompaniyalar va korporatsiyalar aksionerlik kapitalida norezidentlarning ulushi; mamlakat moliya tizimida norezidentlarning ulushi; mamlakatning xalqaro



iqtisodiy munosabatlarda faol qatnashishi; xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lish kabilar kiradi.

Jahon banki mamlakatlarning jahon bozorida ochiqligi darajasini tavsiflashda ichki daromad shaklida (IDSH) eksportning ulushi bilan o'lchanadigan ko'rsatkichdan foydalanadi. Mamlakatlarning quyidagi guruhlari ajratiladi:

- nisbatan yopiq iqtisodiyotli mamlakatlar – eksportning ulushi IDSHning 10% dan kam;
- nisbatan ochiq iqtisodiyotli mamlakatlar – eksportning ulushi IDSHning 10% dan ko'p;
- nisbatan yopiq iqtisodiyotli mamlakatlar bilan nisbatan ochiq iqtisodiyotli mamlakatlar o'rtasidagi mamlakatlar.

Eng ochiq iqtisodiyotli mamlakatlar bo'lib Singapur, Yangi Zelandiya, Shveysariya hisoblansa, eng kam ochiq iqtisodiyotlilar – Shimoliy Koreya va Kuba hisoblanadi.

Urushdan keyingi davrda milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasini oshirishda davlat katta o'rin tutib, u eksport ishlab chiqarishlarni, mahsulot va xizmatlarni chetga chiqarishni, xalqaro iqtisodiy kooperatsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirdi. Ochiq iqtisodiyotli mamlakatlarda asta sekin kapitallarning, ishchi kuchlarining, texnologiyalarning, axborotlarning kirib kelishini osonlashtiradigan huquqiy asoslar shakllantirildi. Transmilliy kompaniyalar ham ochiqlik darajasini oshirishga o'z hissasini qo'shdilar. Ular xorijda ko'pgina filiallar, shoxobchalar, shtab-kvartiralar tashkil qilib, begona mamlakatlarning proteksion to'siqlarini yengib o'tish yo'llarini topdilar va bu bilan jahon iqtisodiyotining baynalminallashuvini oshirdilar.

Transportning va aloqa vositalarining rivojlanishi, valyuta va savdo bozorlarining erkinlashtirilishi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hayotda to'liq o'z qobig'iga o'ralgan yoki to'liq ochiq iqtisodiyotning o'zi bo'lmaydi. Rasmiy ideologiyasi "chuchxe" g'oyasi (o'z kuchlariga tayangan holda kommunizmga alohida yo'l bilan borish) bo'lgan KXDR kabi avtarkiya mamlakati ham jahon iqtisodiyotidan to'liq ajratib tashlanmagan, balki oz holatlarda bo'lsa ham qo'shilib turadi. Boshqa tomondan, ochiq iqtisodiyotga ega bo'lgan AQSH mamlakati, xorijiy raqobatchilardan, avvalambor Yaponiyadan, keyingi davrlarda esa Xitoydan o'z ichki bozorini himoyalash uchun bojxona va nobojxona to'siqlari yordamida qator chor-tadbirlar qo'llaydi. Binobarin, ochiq iqtisodiyot tamoyilini kiritish Yevropa Ittifoqi doirasida tashkil qilinganiga o'xshab jahon "Umumiy bozorni" tashkil qilishga olib borish kerak, chunki unda mamlakatlar o'rtasidagi erkin savdo holati xuddi mamlakat ichidagi savdo tartibidek bo'lardi.

Milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasini aniqlashda eng muhim vazifa bo'lib mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yuzaga chiqadi, vaholanki u milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlaydigan shartlar va omillar yig'indisi hisoblanadi. Gap shundaki, milliy iqtisodiyot tashqi dunyo uchun ochiq bo'lar ekan, tashqi mahsulot, valyuta, kapital va mehnat bozorlariga bog'liqlik juda kuchayib ketadi. Bandlik, milliy valyuta kursining holati, milliy ishlab chiqaruvchilarning ahvoli kabi muammolar yuzaga chiqadi.

Globallashuv natijasida milliy iqtisodiyotlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuchayadi. Bir mamlakatda YAIMning o'sishi uning importi oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida u bilan tashqi savdo munosabatlarida bo'lgan boshqa mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Va aksincha, bir mamlakatda lehhlab chiqarishning qisqarishi boshqa sherik mamlakatlarning iqtisodiy o'sish dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi iqtisodiy omillar birinchi navbatda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, YAIM o'sish sur'atlariga, bandlik darajasiga, eng daromadli sohalar ahvoliga, milliy valyuta holatiga ta'sir ko'rsatadi. Ochiq iqtisodiyot nazoratsiz va xohlagan ishni qilish mumkin degani emas, balki aksincha, tashqi iqtisodiy aloqalar ustidan davlatning va davlatlararo institutlarning qattiq nazoratini talab qiladi.

Eksport kvotasi yuqori yoki past bo'lishi hali hech nimani anglatmaydi. Uning ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, ushbu ko'rsatkich mamlakatning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga qanchalik mos keladi, u a'zo bo'lgan guruhning mamlakatlari kvotalari qancha miqdorda ekanligi muhim o'rin tutadi. Boshqacha aytganda, chegaraviy ko'rsatkich mavjud bo'lib, u yoki bu guruh mamlakatlari uchun belgilangan qiymatlar xizmat qilishi kerak bo'ladi. Amaliy ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar uchun eksport kvotasi 50-60 %, rivojlanayotganlar uchun 12-15 %, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun 5-6 % bo'lishi me'yoriy hisoblanadi. Amalda mana shuning o'zi ushbu ko'rsatkich bo'yicha chegaraviy qiymat bo'lib xizmat qiladi. Yuqori eksport kvotasi (chegaraviy qiymatdan yuqori) milliy iqtisodiyotning jahon bozori narxlariga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Faqat ayrim mamlakatlargina o'zlarining ishlab chiqarishi va eksporti bilan jahon bozori narxlariga ta'sir qila olishi mumkin. Barcha boshqa holatlarda jahon narxlariga bog'liqlik valyuta kurslarining o'ynab ketishini paydo qiladi, milliy budjet bilan, aholi turmush darajasi bilan muammolar keltirib chiqaradi.

AQSH Moliya vazirligi 2013 yilning oxiridagi hisobotida (ikki yilda bir marta beriladi) Germaniya iqtisodiyotining eksportga bog'liqligini keskin tanqid qilib chiqdi. AQSH Moliya vazirligi fikricha Germaniyaning eksportga bog'liqligi, yevro zonasida va butun dunyoda deflyatsiya jarayonlarini keltirib chiqaradi. Germaniyaning yuqori eksport kvotasi Yevropa va jahon iqtisodiyotiga havf hisoblanadi. U Germaniya eksportining kuchli bosimi ta'sirida qolgan va inqirozdan keyingi sharoitlarga moslashish uchun o'z eksportlarini qisqartirishga majbur bo'lgan boshqa Yevropa davlatlarida o'zgarishlar amalga oshirishni belgilab berdi. Amerikalik moliyachilar ta'kidlashicha, Germaniya ichki mahsulotining o'sishiga e'tiborini qaratishi kerak, bu Yevropa iqtisodiyotining mustahkamlanishiga yordam beradi. Germaniyaning savdo balansi ijobiy saldoga ega ekanligini tanqid qilishga Fransiya ham qo'shildi. Germaniya vakillari o'zlariga qaratilgan tanqidga javob qaytarib, ularning mamlakati tashqi savdoda shuning uchun kuchliki, bu yerda jahon bozorida katta talabga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi, shuning uchun boshqa mamlakatlar, jahon bozorida oqilona ish yuritadiganlarni tanqid qilmasdan, o'z raqobatbardoshligini oshirishlari kerak degan fikrlarni bildirganlir.

Xitoy 1978 yildan boshlab ochiq iqtisodiyotga o'tishni boshladi, ushbu jarayon XXRning 2001-yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lganidan keyin ancha kuchaydi. XXRning eksporti miqdori 2000-yillarda yiliga 20 % ga o'sib bordi. Xitoyning eksport kvotasi 2021-yilga kelib 20,9 % ni tashkil qildi. XXRning rivojlangan mamlakatlarga texnologik jihatdan qaramligi kuchaydi, eksport tarkibini qayta o'zgartirish ancha qiyin vazifa bo'ldi, mamlakat ichida mehnatni hududiy taqsimlash va mehnat resurslaridan foydalanishda nomaqbul tendensiyalar yuzaga keldi. XXR o'z savdosini amalga oshirishda ko'pgina cheklovlariga duch kelmoqda. Xitoy 2008-2009-yillardagi inqirozdan keyin eng ko'p jabr ko'rdi – unga nisbatan 146 ta ta'qiq choralari kiritildi. Faqat AQSHning o'zi 2007-2012-yillarda 17 ta kompensatsiya boj to'lovlarini qo'lladi.

Xitoy tadqiqotchilari ta'kidlashicha, xalqaro qoidalarga mos kelish uchun ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bu qoidalar kamsituvchi mohiyatga ega. Natijada tashqi savdoga va xorijiy investitsiyalarga kuchli bog'liqlik XXRning iqtisodiy xavfsizligida jiddiy muammolar tug'dirmoqda. Xitoy mahsulotlarini sotib oluvchilar bilan siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar yuzaga kelganda mamlakat ichidagi iqtisodiy rivojlanish barqarorligi, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni ancha xavf ostida qoladi.

Jahon iqtisodiyotida keyingi yillarda yuz berayotgan silsilalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2022 yilda bir qator jiddiy va bir-birini kuchaytiruvchi salbiy holatlar davom etdi va bunday vaziyat BMT tomonidan 2030 yil davrigacha belgilagan Barqaror rivojlanish maqsadlarining Kun tartibidagi maqsadlarga erishishning yarmiga yetganda yuz bermoqda. COVID-19 pandemiyasining oqibatlarini butun dunyoda hali ham sezilib turgan bir paytda, Ukrainadagi urush yangi inqirozni yuzaga keltirdi, oziq-ovqat va energetika bozorlarining faoliyatini izdan chiqardi va ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat yetishmovchiligi va to'yib ovqat yemaslik muammosini chuqurlashtirdi. Inflyatsiyaning yuqori sur'atlari real daromadlarni pasaytirib yubordi va turmushning qimmatlashuviga olib keldi, natijada millonlab odamlar qashshoqlikda va murakkab iqtisodiy ahvolda qolib ketdilar.

Shu bilan birgalikda iqlim o'zgarishlari ham katta talafot yetkazmoqda: jazirama issiq, o'rmon yong'inlari, suv toshqinlari va to'fonlar katta iqtisodiy zararlarni keltirib chiqardi va ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy inqirozlarni yuzaga keltirdi. Mana shu barcha talafotlar jahon iqtisodiyotiga bundan keyin ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Inflyatsiyaning surunkali yuqori sur'atlari, 2022 yilda o'rtacha 9 foizni tashkil qilib, ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda pul-kredit siyosatining qat'iyilashirilishiga sabab bo'ldi. Foiz stavkalarining jadal oshirib borilishi, ayniqsa AQSH Federal zahira tizimidagi oshirilish, global miqyosda nojo'ya ta'sir ko'rsatib, rivojlanayotgan mamlakatlardan kapitallarning chiqib ketishiga va valyutalarining qadrsizlanishiga olib keldi, bu esa to'lov balansiga bosimini kuchaytirdi va qarzarlar tavakkalchiligini oshirib yubordi.

Ist'emol tovarlariga talabning pasayishi, Ukrainadagi urush va ishlab chiqarish-sotuv zanjiridagi muammolar tufayli jahon savdosi ham qisqarib bordi. Shularni e'tiborga olgan holda, jahon ishlab chiqarishi sur'atlari 2022 yildagi 3

foizlik o'sishdan 2023 yilda 1,9 foizgacha tushishi bashorat qilinmoqda, bu esa oxirgi o'n yillikdagi eng past ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida keskin pasayish bo'ladi. Hozirgi global iqtisodiy pasayish rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotganlarda ham yuz bermoqda va ularning ko'pchiligi 2023-yilda retsessiyaga (ishlab chiqarishning pasayishi va iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi) uchrashi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarida, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida va boshqa rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sishning sur'atlari pasaydi, bu esa jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yevropaning qisqa muddatli iqtisodiy istiqbollari Ukrainada davom etayotgan urush tufayli keskin yomonlashdi. Bashoratlarga ko'ra, energiya manbalariga narxlarning oshishi, inflyatsiyaning yuqori sur'atlari va moliyaviy sharoitlarning yomonlashuvi uy xo'jaliklarining ist'emoliga va investitsiyalar hajmiga salbiy ta'sirini hisobga olgan holda ko'pgina Yevropa davlatlarida yumshoq retsessiya yuz beradi. Yevropa Ittifoqining energiya manbalarini (shu jumladan, gaz defitsiti davrida), yetkazib berishda qaramligi yuqori bo'lib qoladi.

Xitoyda 2022 yilga nisbatan 2023 yilda o'sish sur'atlari biroz yaxshilanadi. COVID-19 pandemiyasi tufayli tez-tez karantin cheklovlarining kiritilib turilganligi va ko'chmas mulk bozoridagi murakkab vaziyat natijasida 2022 yilda iqtisodiy o'sish bor-yo'g'i 3 foizni tashkil qilgan edi.

Sharqiy Osiyoda iqtisodiyot tiklanishi juda ham barqaror holatda emas, lekin o'rtacha o'sish sur'atlari boshqa mintaqalarga nisbatan yuqoridir. Sharqiy Osiyoda YAIMning o'sishi 2022-yilda 3,2 foizni tashkil qildi. Shunga qaramasdan, mintaqaning ko'pgina mamlakatlari (Xitoydan tashqari) iqtisodiyoti talabning pasayishi, turmush qiymatining oshib borishi va AQSH va Yevropa tomonidan ularning eksportiga talabning qisqarishi sababli o'sish sur'atlarini yo'qotadilar. Hindistonda iqtisodiy o'sish yuqori sur'atlarda bo'ladi va 5,6 foizni tashkil qiladi, lekin bu baribir oldingi hisoblarga nisbatan pastdir, chunki foiz stavkalarining oshishi va o'sish sur'atlarining global pasayishi investitsiyalarga va eksportga bosimni oshiradi.

Ochiq iqtisodiyot doirasida importga qaramlik iqtisodiy Xavfsizlikka katta tahdidlar tug'diradi, birinchi navbatda jahon bozorlaridagi narxlar darajasiga va uning o'zgarib turishiga bog'liqlikni keltirib chiqaradi. Ayniqsa oziq-ovqat xavfbizligi juda muhimdir. Shu munosabat bilan, u yoki bu mamlakatda oziq-ovqatning barcha turlari bo'yicha importga qaramlik 25 % lik chegaraga yetgan bo'lsa, bu milliy xavfsizlikka havf tug'diradi. Importga qaramlik 40 % dan oshsa mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalarida tuzatib bo'lmas o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

### **3.4 Global muammolar va ularning global Xavfsizlik tizimida tutgan o'rni.**

Dunyo xo'jaligining baynalminallashuvi va erkinlashuvi sharoitida insoniyatning global muammolari yanada muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Aynan ular milliy va jahon xo'jaligining tarkibiga ancha ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, global muammolarni yechish uchun katta moddiy va moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. U yoki bu muammoni global muammolar qatoriga qo'shish

uchun asosiy mezon bo'lib, uning miqyosi kattaligi va uni bartaraf etish uchun dunyo jamoatchiligining birgalikdagi tadbirlar zarurligi hisoblanadi.

Global muammolar – muayyan bir davrda, sayyoraviy miqyosda vujudga kelgan ehtiyojlar bilan uni qondirishda insoniyatning birgalikdagi sa'yi harakatlarining imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Hozirgi sharoitda global muammolarga quyidagilar kiritiladi:

- shimol-janub muammosi;
- qashshoqlik muammosi;
- oziq-ovqat muammosi;
- energetika muammosi;
- ekologiya va barqaror rivojlanish muammosi;
- demografik muammolar;
- inson salohiyati rivojlanishi muammosi;
- inson xavfsizligini ta'minlash muammosi;
- dunyo okeanini o'zlashtirish muammosi.

Global muammolarni yechishning juda qiyinligi va xarajatlar zarur bo'lishi ularning asoslangan tavsiflarini talab qiladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan tavsiflariga asosan – kelib chiqishi, uni hal qilishning mohiyati va yo'llariga ko'ra global muammolar uchta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga insoniyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalari bilan aniqlanadigan muammolar kiritiladi. Ularga tinchlikni saqlash, qurollanish poygasini to'xtatish va qurolsizlanish, koinotni harbiylashtirmaslik, dunyo ijtimoiy taraqqiyotiga qulay sharoitlar yaratish, jon boshiga daromadlari past bo'lgan mamlakatlarning rivojlanishidagi qoloqlikni bartaraf etish kabilar kiritiladi.

Ikkinchi guruh “inson – jamiyat – texnika” uchligida namoyon bo'ladigan muammolar majmuasini qamrab olgan. Ushbu muammolar ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarida va texnikaning insonga salbiy ta'sirini yo'qotishda fan texnika taraqqiyotidan foydalanishning samaradorligini, aholi ko'payib borishini, davlatda inson huquqlarini qadrlash va uni davlat institutlarining haddan ziyod nazoratidan ozod qilish kabilarni hisobga olishi zarur.

Uchinchi guruh muammolari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va atrof muhit bilan, ya'ni jamiyat – tabiat masalalari bilan bog'liq muammolardir. Ularga xomashyo, energetika va oziq-ovqat muammolarini hal qilish, yangidan yangi hududlarni qamrab olayotgan va inson xayotini barbod qiladigan atrof-muhit inqirozini bartaraf qilish kabilar kiritiladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshida mamlakatlar va mintaqalar rivojlanishining mahalliy va o'ziga xos masalalari global tus ola boshladi. Ammo shuni tan olish kerakki, ushbu jarayonda hal qiluvchi o'rinni baynalminallashuv egallaydi. Global muammolar soni oshib bormoqda, ayrim nashrlarda hozirgi davrning yigirmadan oshiq muammolari sanab o'tiladi, ammo ko'pchilik mualliflar to'rtta asosiy muammoni: ekologik, tinchlikni saqlash va qurolsizlanish, demografik va yonilg'i - xomashyo muammolarini ajratib ko'rsatmoqdalar. Ayrim global muammolarning miqyosi, o'rni va ahamiyati o'zgarib bormoqda.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligi oxiriga kelib tibbiyotning zaif nuqtalari mavjudligini ko'rsatib qo'ygan koronavirus kasalligi va uni davolash borasidagi muammolarni yuzaga chiqardi. 2019-yil oxirida paydo bo'lib, keyin butun dunyoga tarqalgan COVID-19 pandemiyasi millionlab odamlarni o'limiga olib keldi. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiy etgan meditsinasi ham bu pandemiya oldida o'z zaifligini namoyon qildi va bu kasallikka qarshi vaksina yaratilguncha qancha insonlar qurbon bo'ldi, mamlakatlar chegaralari yopildi, iqtisodiyotlar to'xtab qoldi, oziq-ovqat yetishmovchiligi muammosi kuchayib ketdi. Yaxshiyamki, koronavirusga qarshi vaksina yaratilib, uni barcha mamlakatlarga tarqatilib, pandemiya balosi 2-3 yilda jilovlab olindi. Mamlakatlar iqtisodiyoti 2022-yil ikkinchi yarmidan keyin asta-sekin tiklana boshladi. Lekin bunday viruslarning yana paydo bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Ekologiya muammosi keyingi yillarda oldinga o'ringa ko'tarildi, vaholanki yaqin davrlarda bu o'rinni tinchlikni saqlash va qurolsizlanish egallab turgandi. Ilgaridan kelayotgan global muammolar ichida ham o'zgarishlar yuz bermoqda: ularning ba'zi bir tarkibiy qismlari ahamiyatini yo'qotib, yangilari paydo bo'lmoqda. Masalan, yonilg'i-xomashyo muammosida qator qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarning tugayotgani yaqqol ko'rinib qoldi, demografiya muammolarida esa xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi yanada kuchayib ketganligi, mehnat resurslari bilan bog'liq muammolar tufayli yangi vazifalar paydo bo'ldi.

Ma'lumki, global muammolar o'zaro mustahkam bog'langandir. Masalan, oziq-ovqat muammosining o'tkiriligi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining o'sishi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishiga qaraganda yuqoridir. Oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarning yoki maxsus yordam dasturlarini ishlab chiqadigan xalqaro tashkilotlarning resurs salohiyatidan foydalanish zarur.

Global muammolarning jahon xo'jaligi shakllanishiga ta'sirini ko'rib chiqishda alohida mamlakatlar yoki umuman jahon hamjamiyati nuqtayi nazaridan qarab izchil tahlil va baholash zarur bo'ladi. XX asrning ikkinchi yarmida dunyo rivojlanishining xususiyatlari shunda namoyon bo'ladiki, fan-texnika inqilobi xo'jalik faoliyatining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan doimiy omilga aylandi. Xo'jalik faoliyati inson uchun imkoni bo'lmagan hududlar va sohalariga (Dunyo okeani, qutb zonalar, koinot va h.k.) tarqaldi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadallik bilan rivojlanishi, texnik taraqqiyotning global miqyoslari, agarda takomillashgan boshqaruv mexanizmi bilan qo'llab-quvvatlanmas ekan, qaytarib bo'lmas salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xususan, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tengsizlik tobora oshib boradi, insonlarning moddiy va ma'naviy madaniyati darajasi o'rtasidagi farqlar kattalashib boradi, biosferaning muvozanati buziladi, ekologiyaning yomonlashuvi Yer sayyorasida xayotning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Jahon iqtisodiyoti muntazam rivojlanib boradi, bu holat dunyo xo'jaligining davlatlari va kichik tizimlari o'rtasida asosiy iqtisodiy kuchlarning taqsimlanishidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham rivojlanayotgan mamlakatlar oldida: inflyatsiya, ishsizlik, tashqi qarz va boshqa shu kabi katta muammolar paydo bo'lmoqda. Sanoat jihatdan rivojlangan va



rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi farqlar tobora kattalashib bormoqda. Bu esa shunga olib keladiki, global muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda katta murakkabliklar paydo qiladi.

Global muammolarni kuzatib borish (monitoring) masalalari bilan italiyalik iqtisodchi va insonparvar Aurelio Pechchei (1908-1984) tashabbusi bilan tashkil qilingan Rim klubi shug'ullanadi. Aynan u, global muammolarni o'rganishga, jahonning turli mamlakatlar olimlari, siyosiy va jamiyat arboblari sa'yi harakatini birlashtirdi. Rim klubining birinchi chiqishlari shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Olimlarning kuchi bilan sayyoramizning xom-ashyo va energetika resurslari ancha cheklanganligi isbotlandi.

Misli ko'rilmagan ilmiy taraqqiyot insoniyatga atrof-muhitni o'zgartirishda katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ammo, aytib o'tganimizdek, insoniyat o'zining o'zgartiruvchi faoliyatining uzoq muddatli oqibatlarini anglab yetmayapti. Natijada, texnologiyalarning rivojlanishi va tamaddunning murakkablashuvi, uning industrialdan postindustrial jamiyatga evrilishi, tabiat bilan inson o'rtasidagi uzilishni kuchaytirib yuboradi. Bundan tashqari, insonning o'zi texnikalashgan va sun'iy lashgan dunyoga moslashishi yanada qiyin bo'lib bormoqda, uning fikrlashi va tili insoniyat an'analariga zid bo'lib bormoqda..

### **Tayanch tushunchalar**

*Globallashuv, iqtisodiy globalizm, ochiq iqtisodiyot modeli, global muammolar, globallashuvning salbiy tendensiyalari, energiya resurslariga ega bo'lish va ularni taqsimlash huquqi, transport va kommunikatsiya xarajatlari, masofalarning qisqarishi samarasi, YAIMning virtuallashuvi va intellektlashuvi, yagona axborot makoni, standartlarning baynalminallashuvi, moliyaviy globallashuv, ishlab chiqarishning transmilliylashuvi, bank tizimlarining baynalminallashuvi, globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari, insoniyatning umumbashariy muammolari, avtarkiya, iqtisodiyotning ochiqlik darajasi mezoni, mamlakatdagi investitsiya muhiti, ichki daromad shaklida (IDSh) eksportning ulushi, "O'zaro bog'liklik" nazariyasi, qashshoqlik muammosi, inson xavfsizligini ta'minlash muammosi, Rim klubi.*

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1) Globallashuv deganda nimani tushunasiz?
- 2) Globallashuvning salbiy tendensiyalarini sanab bering?
- 3) Energiya resurslariga ega bo'lish va ularni taqsimlash huquqi qanday bo'ladi?
- 4) Masofalarning qisqarishi samarasini tushuntirib bering?
- 5) YAIMning virtuallashuvi va intellektlashuvi deganda nimani tushunasiz?
- 6) Standartlarning baynalminallashuvi tushunchasiga ta'rif bering?
- 7) Moliyaviy globallashuv qanday ko'rinishda bo'ladi?
- 8) Ishlab chiqarishning transmilliylashuvi qanday sodir bo'ladi?
- 9) Globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlarini sanab bering?
- 10) Iqtisodiyotning ochiqlik darajasi mezoni qanday aniqlanadi?
- 11) Mamlakatdagi investitsiya muhiti nimalarda namoyon bo'ladi?
- 12) Ichki daromad shaklida (IDSh) eksportning ulushi ko'rsatkichi nimani ifodalaydi?

#### **4-MAVZU: XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI VA XALQARO SAVDO DOIRASIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING MUAMMOLARI**

4.1. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muammolari.

4.2. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi.

4.3. Xalqaro savdo va tashqi iqtisodiy Xavfsizlikni ta'minlash

##### **4.1 Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muammolari**

Xalqaro mehnat taqsimotini (XMT) ayrim mamlakatlarning, o'zлари oldi sotdi qiladigan mahsulotlarining muayyan turini ishlab chiqarish asosida mehnatni hududiy taqsimlanishining eng yuqori darajasi deb qarash mumkin. Xalqaro mehnat taqsimoti darajasi ayrim kompaniyalar, mamlakatlar, kichik tizimlarning xalqaro almashinuvda ishtiroki bilan belgilanadi.

XMTda ishtirok qilishning muhim omillari bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- mamlakat iqtisodiy rivojlanishining darajasi;
- ishlab chiqarishning umumiy hajmida eksport mahsulotlarining ulushi;
- tashqi savdo hajmining mamlakat YAIMga nisbati;
- mamlakat ichki bozorining hajmi (mamlakat iqtisodiy salohiyati qanchalik

kichik bo'lsa, uning xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki shunchalik yuqori bo'ladi)

- mamlakatning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi;
- iqtisodiyot tarkibida metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yonilg'i, yengil va oziq-ovqat sanoatii kabi negiz tarmoqlarning ulushi (negiz tarmoqlarning ulushi qanchalik katta bo'lsa, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki shunchalik past bo'ladi).

*Xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotga, eksportga yuboriladigan tovarlarning xalqaro va ichki bozordagi narxlari o'rtasidagi farqni o'zlashtirishga imkon beradi. Ixtisoslashuv, ayrim mamlakatlarga ba'zibir mahsulotlarni jahon bozoridan sotib olib, ularni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni tejab qolish imkonini beradi.*

Mamlakatlar arzon import hisobiga, pul ko'rinishida ancha tejamkorlikka ega bo'ladi, natijada shunday mahsulotni mamlakat ichida ishlab chiqarishning katta xarajatlarini optimallashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bu holat, shu bilan bog'liqlik, u yoki bu mamlakat ba'zibir yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishda malakali tajribaga ega bo'ladi, bu esa ularni boshqa mamlakatlarga eksport qilishga imkon yaratadi. Natijada, tavakkalchilik pasayadi va foyda ko'payadi (ishlab chiqaruvchi yutug'i), hamda ist'emol bozorida narxlar pasayadi va tovarlar miqdori oshadi (ist'emolchi yutug'i).

Binobarin, XX asr oxiri XXI asr boshlarida xalqaro ixtisoslashuvning yanada rivojlanishi dunyo mamlakatlarining uch guruhga ajralishiga olib keldi:

1. Jahon bozoriga qayta ishlash sanoati mahsulotlarini chiqaruvchi mamlakatlar. Birinchi guruhga sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarni: AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya, Kanada, Italiya, Yaponiyani kiritish mumkin. Ular

jahon bozoriga ilmtalab mahsulotlar, yuqori texnologiyali uskunalar, avtomobillar, stanoklar, kimyo mahsulotlari, maishiy texnika kabilarni yetkazib beradi. Masalan, aviatsiya texnikasining ishlab chiqaruvchilari va yetkazib beruvchilari bo'lib asosan AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, avtomobillar ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilar – AQSH, Germaniya, Fransiya, Yaponiya hisoblanadi. Maishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashganlarning raqobat kurashida Yaponiya, Germaniya, Niderlandiya ustunlik qilishadi.

2. Qazilma sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlar. Ushbu guruhga, mineral resurslarning katta zahirasiga ega bo'lgan va ularni jahon bozoriga yetkazib beruvchilar kiritiladi. Bular, birinchi navbatda, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Afrikaning neft qazib oluvchi va neft hamda gazni sotuvchi mamlakatlaridir. Bundan tashqari, ushbu guruhga Afrika va Lotin Amerikasining qator mamlakatlarini, hamda sanoat jihatdan rivojlangan va katta miqdordagi mineral resurslarni (neft, gaz, ko'mir, qora va rangli metall rudalari, oltin, kumush va boshqalar) qazib oluvchi va sotuvchi Norvegiya, Shvesiya, Avstraliya, Kanada mamlakatlarini ham kiritish kerak.

3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga va sotishga ixtisoslashgan mamlakatlar. Uchinchi guruhga, jahon bozorida faqat qishloq xo'jalik mahsulotlariga ixtisoslashgan mamlakatlar kiritiladi. Birinchi navbatda bular Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining mamlakatlaridir. Jahon bozoriga qishloq xo'jalik mahsulotlari yetkazib beruvchilar bo'lib, ko'pchilik sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Kanada, Yel mamlakatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya) ham hisoblanishadi. Ushbu ko'rsatilgan mamlakatlar orasida muayyan bir mahsulotga ixtisoslashganlarni ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi. Masalan, Braziliya qahvaning yirik yetkazib beruvchisi, Argentina – go'sht, Kuba - shakar, Hindiston va Shri-Lanka – choy, Lotin Amerikasi va Afrikaning qator mamlakatlari – banan, arab mamlakatlari – xurmo va sitrus mevalari, paxta yetishtirishga ixtisoslashganlar.

Xalqaro kooperatsiya mehnat samaradorligini quyidagi omillar hisobiga oshiradi, bu birinchi navbatda ishlab chiqarishning o'zaro aloqalarini kuchaytirish, "aniq muddatida yetkazib berish" (materiallar va qoplovchi mahsulotlarni aynan kerak bo'lgan paytida yetkazib berish) tamoyilida resurslarni boshqarishning yangi tizimiga o'tish hisoblanadi.

Jahon mehnat resurslaridan oqilona foydalanish (arzon va yuqori malakali ishchi kuchlari birgalikda bo'lishi) hisobiga yanada yuqori samaraga shu jumladan, sinergetik samaraga va ishlab chiqarishning miqyosini oshirishga erishiladi. Natijada, jahonda xalqaro ixtisoslashuv va koopersiyalashuvning uch pog'onali tizimi paydo bo'ldi:

1. Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar yuqori malakali mehnatni talab qiluvchi, kapital talab, yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishga katta e'tiborni qaratganlar. Ushbu mamlakatlarda FTTning zamonaviy bosqichi asosida ilmiy-texnik va texnologik ishlanmalarining asosiy qismi uyg'unlashtirilgan. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirish investitsiya

xarajatlarining asosiy qismini tashkil qilib bormoqda va ilmtalab tarmoqlarda uskunalarni sotib olish va qurilishga bo'lgan xarajatlardan ustun bo'lib bormoqda.

2. "Yangi industrial mamlakatlar" asosan, malakali mehnat va zamonaviy texnologiyalar xarajatlarini talab qiladigan mahsulotlarni ishlab chiqaradilar. Rivojlanayotgan mamlakatlarga chiqariladigan xorijiy kapitalning bevosita investitsiyalari tarmoq tarkibida qayta ishlash sanoati tarmoqlarining ulushi oshib bormoqda – bunday holat Argentina, Braziliya, Meksika, Singapur, Janubiy Koreya va Tayvanda yuz bormoqda.

3. Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida kam rivojlanganlari jahon bozoriga ko'p mehnat talab qiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga, xom-ashyo yetkazib berishga harakat qiladilar. Birinchi navbatda, ushbu mamlakatlarga o'z iqtisodiyotini mehnat talab, xom-ashyo talab standartlashtirilgan mahsulotlarni eksport qilish, rivojlangan mamlakatlar ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarishga yo'naltirish taklif qilinmoqda. Bundan tashqari, ekologik "iflos" ishlab chiqarishlarining bir qismi rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan davlatlar tomon ko'chirilmogda. Yirik TMKlarning filiallari rivojlanayotgan mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligidan foydalanib, tozalash qurilmalarini qurishga xarajatlarni tejab qolishga harakat qiladilar. Eng past rivojlangan mamlakatlar umuman e'tibordan chetda qolganlar.

#### **4.2 Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi.**

Keyingi yillarda dunyoda juda katta iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar yuz berib, ularning xalqaro mehnat taqsimotiga ta'siri ham sezilarli bo'lib bormoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining asosiy yo'nalishi sifatida ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi kelib chiqdi.

Xalqaro kooperatsiya va xalqaro ixtisoslashuv xalqaro mehnat taqsimotining asosiy shakllari bo'lib, uning mohiyatini ochib beradi.

Turli mamlakatlarda korxonalarining biron mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi murakkablashib borayotganligi tayyor mahsulotda ishlatiladigan detal va bog'lovchi qismlar sonining oshib borishiga olib keldi. Masalan, yengil avtomobilda 20 mingga yaqin, prokat ishlab chiqarish jihozlarida 100 mingga yaqin, parovozlarda 250 mingdan oshiq detal va qismlar ishlatiladi.

Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi ikki yo'nalishda - ishlab chiqarish va hududiy ixtisoslashuv yo'nalishida rivojlanadi.

Ishlab chiqarish ixtisoslashuvi o'z navbatida 3 yo'nalishga ega:

a) tarmoqlararo; b) tarmoq ichidagi; va v) alohida korxonalar bo'yicha ixtisoslashuv;

Jahon bozori uchun ishlab chiqariladigan mahsulot yoki uning biror qismiga ixtisoslashuv bo'yicha hududiy ixtisoslashuv 3 yo'nalishga ega:

- a) ayrim mamlakatlar bo'yicha;
- b) mamlakatlar guruhi bo'yicha;

v) mintaqalararo.

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvining quyidagi turlari mavjud:

1) predmet ixtisoslashuvi (ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish);

2) detallar bo'yicha ixtisoslashuv (mahsulotning ba'zi qismlarini ishlab chiqarish);

3) texnologik yoki bosqich ixtisoslashuvi - ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari yoki texnologik jarayonlarini bajarishga ixtisoslashuv (masalan, yig'uv, bo'yash, pishirish, quymalar tayyorlash kabilar).

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi tez o'zgarib, rivojlanib turadigan jarayondir. 50-60 yillarda ishlab chiqarish ixtisoslashuvida asosiy e'tibor birlamchi tarmoqlarga (avtomobilsozlik, aviasozlik, plastmassalar, podshipniklar, radioappaturalar ishlab chiqarish va h.k.) qaratilgan edi. 70-80 yillarga kelib tarmoq ichidagi ixtisoslashuv kuchaydi va iste'mol sifatleri bilan farq qiladigan bir xil mahsulotlarni o'rni almashtirish jarayoni amalga oshirila boshlandi (masalan, g'ildirakli traktorlar o'miga zanjirli traktorlar, teri poyabzal o'miga rezina poyabzal ishlab chiqarish).

Xalqaro mehnat taqsimotining yana bir asosiy shakllaridan biri - bu xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning kelib chiqishining obyektiv asosi bo'lib ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, hamda alohidalashgan mustaqil korxonalar o'rtasida xoh mamlakat ichida bo'lsin, xoh xalqaro miqyosda bo'lsin, ishlab chiqarish aloqalarining muntazam tus olishi bo'ldi.

Korxonalarda ishlab chiqarishning ayrim mustaqil texnologik bosqichlari va pirovard mahsulotning ba'zi qismlarini ishlab chiqarishni alohida korxonalarga o'tkazish sanoat mehnat taqsimotida muhim taraqqiyot bosqichi bo'ldi. Bu kooperatsiya jarayonlarini tezlashtirishga olib keldi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi turli hamkorlik shakllarini o'z ichiga oladi:

Ishlab chiqarish - texnologik hamkorligi. U o'z navbatida quyidagi qismlardan iborat:

- litsenziyalarni almashish va mulk huquqidan foydalanish masalalari;
- loyiha-konstruktorlik xujjatlarini, texnologik jarayonlarni, mahsulotning sifati va texnik darajasi, qurilish va montaj ishlari masalalarini ishlab chiqish va kelishib olish;
- ishlab chiqarishni boshqarish, standartlashtirish, yangilash va sertifikatlashtirishni takomillashtirish;

Kooperatsiya mahsulotini sotish bilan bog'liq savdo iqtisodiy jarayonlar bo'yicha;

Texnikaga sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha;

Kooperatsiya aloqalarini tashkil qilishda 3 ta asosiy usuldan foydalaniladi:

1. Birgalikda dasturlar ishlab chiqish;
2. Shartnoma asosida ixtisoslashuv;
3. Qo'shma korxonalar tuzish.

Birgalikda dasturlar ishlab chiqish ikki shaklda amalga oshiriladi: ketma-ketlik asosidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi va birgalikda ishlab chiqarishni

tashkil qilish. Shartnoma asosida ixtisoslashuv kooperatsiyasiga kirishgan ishtirokchilar o'rtasida ishlab chiqarish dasturlaridan o'z qismini ajratib olishga asoslanadi. Kelishuvchi tomonlar bir-birining ishlab chiqarishini takrorlamaslikni va bozorda o'zaro raqobatlashmaslikka harakat qiladilar.

Qo'shma korxonalar tuzish - bu integratsiya kooperatsiyasi bo'lib, butun dunyoda keng tarqalgan. Bunda bir necha ishtirokchilarning kapitali birlashtirilib, bir maqsad uchun ishlatiladi.

Ilgari o'z-o'zidan yuzaga kelgan, tartiblanmaydigan xalqaro mehnat taqsimoti endilikda rejalashtiriladigan, boshqariladigan jarayonga aylandi. Xalqaro mehnat taqsimotining nazariyasi va amaliyoti, uni ayniqsa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida zamonaviylashtirishga qaratilmoqda.

90-yillardan boshlab sobiq sotsialistik mamlakatlar ham, har biri turli darajada xalqaro mehnat taqsimotiga kirib keldilar.

### **4.3 Xalqaro savdo va tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.**

Tashqi savdo siyosati – boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan savdoni davlat tomonidan tartibga solishdir. Tashqi savdo siyosatida ichki va tashqi tarkibiy qismlarini ajratish kerak. Ichki tarkibiy qism tovarlar, kapitallar, xizmatlar, texnologiyalar, axborotlarni import qilish yordamida tashqi resurslardan foydalanish hisobiga milliy ehtiyojlarni yanada ko'proq qondirishga qaratilgandir. Tashqi tarkibiy qism jahon bozorida muayyan mamlakat milliy biznesining raqobatli afzalliklarini ta'minlashga qaratilgan masalalarini hal qilishning aniq maqsadli harakatlarini bildiradi.

Vaholanki, tashqi savdo rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sishini tezlashtirar ekan, jahon bozoriga bog'liqlik iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlarni paydo qiladi.

1. Xorijiy mahsulotlarning raqobati xo'jalik tarmoqlarining iqtisodiy ahvolini yomonlashtirishi, korxonalarining sinishiga va ishsizlikning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

2. Importga qaramlik, eksportchidan ko'ngilsiz qaramlikka (shu jumladan, siyosiy qaramlikka) olib kelishi mumkin.

3. Hozirgi paytda tashqi savdoga qaramlik jahon bozorida valyuta kurslarining o'ynab turishidan ko'riladigan iqtisodiy zararlar tavakkalchiligini oshiradi.

Tashqi savdoning iqtisodiyotga bo'ladigan ziddiyatli ta'siri, uning rivojlanishiga ikki qarama-qarshi yondashuvni yuzaga keltirdi:

1. Proteksionizm.
2. Erkin savdoni himoya qilish.

Ushbu ikkita yondashuvning kurashi asosida davlat tashqi savdo siyosatining chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Proteksionizm (lot. protectio – muhofaza, himoya) – davlatning ichki bozorni himoya qilish bo'yicha iqtisodiy siyosatidir. Tashqi savdo faoliyatini cheklash va nazorat qilish, tarifli va notarif usullar yordamida eksportni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimida ifodalanadi. Proteksionizm tamoyili qator afzalliklarga ega, ular tashqi savdo ustidan

hukumatning nazorat siyosatini ko'pchilik mamlakatlar uchun jozibador qilib qo'yadi.

Tashqi savdoni cheklashning eng umumiy sababi bo'lib shu hisoblanadiki, ayrim mamlakatlarning hukumatlari butun insoniyat manfaatlarini emas, balki o'zlarining milliy manfaatlarini ko'proq o'ylaydilar.

Proteksionizm siyosatini himoya qiluvchilar fikrlari:

1. Sanoatning yangidan paydo bo'lgan tarmoqlari xalqaro raqobatni qabul qila olmasligi tufayli, ularning yo'qolib ketishining oldini olish uchun himoya qilish zarur bo'ladi. Mana shunday himoyalangan bozorlar kapitallarni jalb qila oladilar, va ushbu kapitallar milliy sanoatning rivojlanishida ishtirok etadilar.

2. Proteksionizmning yana bir afzalligi shundaki, agar ushbu himoya vositasiga chet elliklar tomonidan salbiy javob bo'lmasa, u aholi bandligini oshiradi va rivojlanish dasturlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi, Qisqa muddatli davrda, u xorijiy ishlab chiqaruvchilarni proteksionistik xarajatlar qilishga majbur qilib, savdo sharoitlarini yaxshilaydi.

3. Umuman olganda proteksionizmni, Xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim hisoblangan tarmoqlarda (po'lat ishlab chiqarish, kimyo sanoati) milliy mustaqillikni himoya qilish vositasi sifatida, alohida ijtimoiy qatlamlarni (fermerlar) yoki ayrim (metallurgiya, to'qimachilik rivojlangan) mintaqalarni himoya qilish vositasi, turmush darajasini himoya qilish (yangi tarmoqlarda ish bilan ta'minlanish) vositasi sifatida ko'rish mumkin.

4. Import bojlari yordamida mamlakat savdo sharoitlarini yaxshilab olishi va natijada iqtisodiy foydani oshirishi mumkin. Ammo bu, ushbu tovarning taklifiga ko'ra unga bo'lgan talab elastik bo'lganda yuz beradi, va shunda narxning oshishi asosan ishlab chiqaruvchida bo'ladi, bojlardan olinadigan daromad esa davlat budgetini to'ldiradi.

5. Proteksionizm mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligi uchun ishonchli asos yaratadi, lekin proteksionistik tadbirlardan voz kechilganda iqtisodiyotning tor ixtisoslashuvi yo'qolib ketishi mumkin. Keyingi holat xalqaro munosabatlar keskinlashuvida yuz berishi mumkin.

Proteksionizm siyosatining salbiy oqibatlari:

1) Proteksionizm uzoq muddatli davrda milliy ishlab chiqarishning asoslarini yemiradi, chunki tadbirkorlik tashabbusi rivojlanishi uchun asos bo'ladigan, jahon bozori tomonidan bosimni zaiflashtiradi.

Proteksionizm tarafdorlari bojxona bojlarining taqsimlash mohiyatini esdan chiqaradilar, chunki bojlarning bir mamlakatga keltiradigan foydasi faqat boshqa mamlakat hisobidan amalga oshiriladi. Mamlakatlar, tariflar yordamida importni qisqartiradilar va import bilan raqobatlashadigan tarmoqlarda bandlikni saqlab qoladilar. Proteksionistik chora-tadbirlar mavjudligi tufayli, xorijiy sheriklar o'z eksportlari uchun kamroq daromad oladilar, va aksincha bo'lganda ular daromadlarini ushbu mamlakat tomonidan eksport qilinadigan tovarlarni sotib olishga sarflashlari mumkin edi.

2) Proteksionizm ist'emoilchi nuqtayi nazaridan zararlidir, chunki uning zarur tovar va xizmatlarni sotib olishida ortiqcha to'lashlariga majbur qiladi, qolaversa, nafaqat boj qo'yilgan import tovarlari uchun, balki milliy ishlab

chiqaruvchilarning mahsulotlari uchun ham qimmatroq to'lashga to'g'ri keladi, chunki ularning ishlab chiqarishi va sotuvi narxlarni shakllantirishning raqobatsiz tizimi bilan bog'liq bo'ladi.

3) Ayrim tarmoqlar uchun xorij raqobatidan to'siqlar o'rnatish, oxir oqibat ularni proteksionistik qopqonga tushiradilar, chunki ularning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga rag'bati bo'lmaydi, ushbu tarmoqlar himoya choralarini uzaytirishni so'raydilar, milliy iqtisodiyotning talofati bilan qo'rqitadilar. Vaqtinchalik chora sifatida kiritilgan proteksionizm, vaqt o'tishi bilan uzoq muddatli milliy iqtisodiy siyosatning bir bo'lagi bo'lib qolishi mumkin. O'zbekistonda proteksionizmning salbiy ta'siriga misol sifatida "Uzavtomotors"ning avtomobil ishlab chiqarish tarixini ko'rsatish mumkin.

4) Proteksionizm siyosati davlatlararo raqobatni kuchaytiradi va xalqaro barqarorlik va xavfsizlikka ehtimoliy tahdidni keltirib chiqaradi. U mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'lik aloqalarini zaiflashtiradi, xalqaro mehnat taqsimoti, ahlalab chiqarishning ixtisoslashuvi va koopersiyalashuvi rivojlanishi va chuqurlashuvini sekinlashtiradi, mamlakatlarning bir-biriga ishonchsizligini va dushmanligini keltirib chiqaradi.

Erkin savdo – bu tovarlarning chegaralardan hech qanday cheklolvarsiz o'tishidir. Erkin savdoning asosiy ijobiy tomoni – nisbiy afzallik savdoni cheklagandan ko'ra, erkin savdoda ko'proq samara keltiradi. Erkin savdoning yana quyidagi afzalliklar mavjud:

a) Erkin savdo mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvi afzalliklarini va nisbiy afzalliklarini amalga oshirish orqali farovonlikni yaxshilashga imkon beradi. Farovonlikning oshishi xalqaro savdodan olinadigan yutuq tufayli yuz beradi.

b) Nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida, balki boshqa mamlakatlarga nisbatan ham raqobatning rivojlanishini yengillashtiradi. Oxir oqibatda, bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining oshishiga olib keladi.

v) Bozorlarni kengaytirish, va binobarin, ishlab chiqarishning xalqaro uyg'unlashuvi va ist'emoilchi uchun manfaatli bo'lgan tovarlarning yalpi ishlab chiqarilishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

g) Mamlakat ichida ist'emoilchilar uchun mahsulotlarni arzonlashtiradi.

d) Mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish resurslarining taqsimlanishini va ularning shunday xalqaro uyg'unlashuvini me'yorlashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa ulardan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi.

### Tayanch tushunchalar

*Xalqaro mehnat taqsimoti; mehnatni hududiy taqsimlanishi; xalqaro va ichki bozordagi narxlari o'rtasidagi farq; jahon bozoriga qayta ishlash sanoati mahsulotlarini chiqaruvchi mamlakatlar; qazilma sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlar; qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga va sotishga ixtisoslashgan mamlakatlar; xalqaro kooperatsiya; xalqaro ixtisoslashuv; xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi; predmet taqsimlanishuvi; detallar bo'yicha ixtisoslashuv; texnologik yoki bosqich taqsimlanishuvi; xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi; ishlab chiqarish - texnologik hamkorligi; birgalikda dasturlar ishlab chiqish; shartnoma asosida*



*ixtisoslashuv; qo'shma korxonalar tuzish; tashqi savdo siyosati; proteksionizm; erkin savdo; tashqi savdoni cheklash; import bojlari; proteksionizm siyosatining salbiy oqibatlari.*

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1) Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasining mohiyatini ochib bering?
- 2) XMTda ishtirok qilishning iqtisodiy Xavfsizlikka ta'siri qanday bo'ladi?
- 3) Xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
- 4) Xalqaro ixtisoslashuvning rivojlanishi dunyo mamlakatlarini necha guruhga ajratib o'rganishni taqozo qiladi?
- 5) Xalqaro ixtisoslashuv va koopersiyalashuvning uch pog'onali tizimi qanday bo'ladi?
- 6) Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi deganda nimani tushunasiz?
- 7) Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasining mohiyati qanday namoyon bo'ladi?
- 8) Proteksionizm siyosati iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 9) Proteksionizm siyosatining salbiy oqibatlari qanday namoyon bo'ladi?
- 10) Erkin savdoning ijobiy tomonlarini va iqtisodiy Xavfsizlik ta'sirini tushuntirib bering?

## **5-MAVZU: BEVOSITA INVESTITSİYALAR VA TMKLAR FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI**

- 5.1. Mamlakatlarning texnologik o'zaro bog'liqligi.
- 5.2. Davlatlarning texnika-iqtisodiy sohadagi musobaqasi
- 5.3. Mamlakat tashqi iqtisodiy xavfsizligi uchun jahon iqtisodiyotidagi bevosita investitsiyalarning oqibatlarini baholash.
- 5.4. Jahon iqtisodiyotida xalqaro qarzlar, ularning tutgan o'rni
- 5.5. Jahon iqtisodiyotining o'zgarishiga va tarkibiga transmilliy korporatsiyalarning ta'siri

### **5.1 Mamlakatlarning texnologik o'zaro bog'liqligi.**

Hozirgi zamon jahon xo'jaligida fan-texnika yutuqlari bilan almashinuv juda tez o'sib bormoqda, natijada mamlakatlarning texnologik o'zaro bog'ligi kuchayib bormoqda. Texnologiyalarni uzatish xalqaro munosabatlarining yirik mustaqil tarmog'iga aylandi. Milliy fan-texnika sohasining rivoji fan va texnika sohasidagi xorijiy ishlanmalarga yetishish imkoniyatlariga bog'liqdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni jadal modernizatsiya qilishga erishish, uni jahon talablariga moslashtirish katta miqyosda xorijiy texnikalarni, texnologiyalarni, malakali mutaxassislarni jalb qilishni talab qiladi. Shu bilan birgalikda xorijiy texnologiyalar, qabul qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiyoti rivojlanish sur'atlariga, ularning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rmiqga murakkab va ziddiyatli ta'sirlarga ega bo'ladi. Bir tomondan, g'arb firmalarining ilmiy-texnik bilimlari ushbu mamlakatlarning sanoat jihatidan o'sishiga turtki bo'ladi, boshqa tomondan esa, importga talablarning oshib borishi hamda buning, o'z eksport imkoniyatlaridan yuqori bo'lishi milliy iqtisodiyotda ko'pgina muammolarni keltirib chiqaradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda industrial asoslarni yaratish, ularning rivojlangan kapitalistik mamlakatlarga nomutanosib ravishda bog'liqligi sharoitida yuz beradi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalistik iqtisodiyotni byonalminallashtirish jarayoni rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ekologik muammolarning keskinlashuvi, hamda siyosiy mustaqillikni egallash va iqtisodiy mavqelarini mustahkamlashi natijasida, rivojlangan va ozodlikka erishgan mamlakatlarning o'zaro munosabatlarida katta o'zgarishlar yuz bermoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining yuqori darajada xorijiy kapitalga bog'liqligi, juda past ijtimoiy-iqtisodiy darajasi, yuqori malakali mutaxassislarining yo'qligi, davlat idoralarning nafaolligi bilan izohlanadi. Xorijiy kapitaldan va texnologiyalardan foydalanishda salbiy oqibatlarining mavjudligini, ularning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarasiz va foydasiz deb baholash noto'g'ri bo'lgan bulur edi. Rivojlanayotgan mamlakatlar g'arb texnologiyalarini qabul qilishda qanday maqsadlar qo'yanligini, qanday masalalarni yechmoqchi ekanliklarini aniq anglab olishlari kerak bo'ladi. Ular uchun xorij kapitalidan foylanish kerakmi yoki yo'qmi degan savol qo'yilishi mumkin emas.

Muammo boshqa narsada: ko'pgina salbiy oqibatlariga qaramasdan xalqaro kompaniyalarning investitsiya kapitalini qanday qilib jalb qilish kerak, ushbu

jarayonning qanday shakllari, yo'nalishlari va mexanizmlari mavjud, mana shuni aniqlash muhimdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlat katta o'rin tutadi. Xususiyl jamg'armalarning yetishmasligi tufayli dastlabki kapital jamg'arish to'g'risida qayg'urishni u o'ziga zimmasiga oladi, yirik milliy kapitalning paydo bo'lishi va rivojlanishini rag'batlantiradi.

Davlat idoralari o'zlarining moliyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanagan holda, milliy firmalarga hozirgi zamon ishlab chiqarish tarmoqlarida faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay sharoitlar yaratadi va ularning xorijiy kompaniyalar bilan raqobatida qo'llab quvvatlaydilar. Bundan tashqari, davlat kapital aylanmasi muddati yuqori bo'lgan va tijoriy tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan katta kapital sig'imli ishlab chiqarishlarni o'z mulki qilib saqlab qoladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga texnologiyalarni tranfert qilish oqibatlarini turli-tuman va ziddiyatlidir. Qator rivojlanayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda "yangi industrial mamlakatlar" va "yangi eksportchi mamlakatlar" hozirgi paytda TMKlar bilan teng huquqlilik va o'zaro manfaatlilik asosida munosabatlar o'rnatish uchun barcha zarur sharoitlarga egadirlar. Ular o'zlarining sanoat tarkibini qayta tashkil qildilar va ayrim ilmtalab mahsulotlarga yanada ixtisoslashib xalqaro mehnat taqsimotiga qo'shildilar. Bunga xorijiy fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, hamda qabul qiluvchi davlatlarni hukmron doiralarning faol xo'jalik-tashkiliy va tartibga solish faoliyati tufayli erishildi.

Rivojlanayotgan dunyoning boshqa mamlakatlari esa (bular ham ko'pchilikdir) o'zlarining iqtisodiy rivojlanmaganligi va davlat idoralarning xomashyo yo'nalishidan chiqib ketish va noan'anaviy eksportni rivojlantirishning milliy xo'jalik strategiyasini ishlab chiqishga qobiliyatsizligi sababli hali uzoq davr davomida bir tomonlama bog'liqlik sharoitida qolib ketadilar.

## **5.2 Davlatlarning texnika-iqtisodiy sohadagi musobaqasi.**

Davlat shunday hududiy tuzilmak, u o'z aholisining farovonligi uchun ma'suliyatlidir. XX asr oxirida uning oldida qiyin masala turgan edi: o'zaro bog'liqlik keskin kuchaygan bir paytda o'z davlati va aholisi yaxlitligini qanday saqlab qolish kerak? Davlat nuqtai nazaridan, an'anaviy tashqi havf uning hududini bosib olishga qaratilgan bo'ladi. Binobarin, u ehtimoliy tashqi tahdidni qaytarishga tayyor bo'lishi kerak.

XVIII asr oxiridan kelayotgan milliy g'oyaga asoslangan hozirgi davlat ham o'zining xususiyl ahamiyatini saqlab qolishi kerak: liberal-demokratik davlatlarda davlat ahamiyatiga ega ushbu vazifalar boshqa xalqlar bilan nikohlarning aralashib ketishiga qarshi emas, ammo yangi kelganlar yoki millatning ichida aralashib ketishi kerak (Fransiyadagi kabi), yoki eng bo'lmaganda unga buysonishi kerak (AQSHdagi kabi). Ammo texnika-iqtisodiy sohadagi musobaqa davlatning o'z hududiga yangicha nazar bilan qarashga majbur qiladi. Endi gap uni himoya qilish yoki o'z xususiyatlarini saqlab qolishda emas. Aksincha, mamlakatni iloji boricha kattaroq ochish kerak, raqobat kurashida unga eng afzal sharoitlarni ta'minlashi kerak. Masalan, xorijiy investitsiyalar, mamlakatni xorijda qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq qilib qo'ysada, mamlakatning jahon bozoriga integratsiyasining muhim omili hisoblanadi. Hatto mustaqillikning negiz qiyofalari (qonunchilik,

solliq siyosati va ta'lim tizimi) ham xalqaro standartlarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Qonun, soliqqa tortish va milliy valyuta ham xorijiy qonunlar, soliqlar va valyutalar bilan raqobatlasha boshlaydi, chunki xalqaro me'yorlardan juda katta farq qilish xorijiy investorni yoki biznes egasini cho'chitib qo'yishi mumkin.

O'z hududiga bog'lanib qolgan davlat, uni xorijliklar uchun jozibador qilishi kerak. Bu davlat tuzilmalarini, bir vaqtning o'zida chegaralarni himoya qilishi va ochishga, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va barcha yangi narsalarga moslashuvini ta'minlashga majbur qiladi. Yuqorida aytganimizdek, davlat o'z hududidan ajralmasdir. Ammo, korxonalar bilan milliy hudud o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Korxonalarining vazifalari ishlab chiqarish faoliyati va savdo bitimlarini amalga oshirish natijasida qiymatliklarning doiraviy aylanishini ta'minlashi kerak. Tovar almashinuvining yoppasiga baynalminallashtirilishi hozirgi kunda korxonalar doirasida jiddiy murakkabliklar keltirib chiqaradi. Bir tomondan, korxonalar, albatta, o'z hududiy asosiga ega bo'ladi, xolbuki, bu iqtisodiyotning turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. Avvalambor, gap korxonaning huquqiy manzili to'g'risida, keyin esa uning ma'muriyati, texnika xizmatlari va ishlab chiqarish binolari joylashgan joyi, nihoyat mahsulotlarini sotish bozorlari to'g'risida ketmoqda. Ammo, u yoki bu korxonaning sotish bozori, xuddi davlatning hududi o'ziga tegishli ekanligi kabi, o'ziga "taalluqli" emas.

Hozirgi zamonda iqtisodiyotning rivojlanishini ko'rib chiqar ekanmiz, aytib o'tish kerakki, butunjahon rivojlanishi doirasida butun jahon iqtisodiyotining integratsiya jarayoni ko'zga tashlanmoqda. Vaholanki, "mintaqaviy va yaxlit jahon bozori, ishlab chiqaruvchi kuchlar, fan-texnika inqilobining rivojlanishi, ishlab chiqarishning, bank ishining va muomala sohasining baynalminallashuvi xalqlarning va davlatlarning barcha sohalarda moddiy-texnikaviy va moliyaviy asoslarga yaqinlashuvini keltirib chiqaradi<sup>2</sup>.

Shuni aytish kerakki, hozirgi geosiyosiy raqobatda fan-texnika taraqqiyotining, yangi texnologiyalarni qo'llash qobiliyatining ahamiyati juda katta bo'lmoqda. Qolaversa, ushbu omillar u yoki bu mamlakatning, yoki hatto uyushmalarning (masalan, Yevropa ittifoqi mamlakatlari) geosiyosatiga ham, geostrategiyasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. "Hozirgi sharoitda ishlab chiqarishni tashkil qilishda inson omilining o'rni kuchayib bormoqda. Aholisiga zaruriy ta'lim darajasini, fanning rivojlanishi va sifatli axborot muhitini bera olmaydigan mamlakatlar tashqi moliya va axborot markazlariga tobe bo'lib qolishga va o'zlari rivojlangan mamlakatlarning global intellektual salohiyatini yig'ib olgan, transmilliy korporatsiyalarining tabiiy xom-ashyo va ishchi kuchlari manbasi bo'lib qoladilar"<sup>3</sup>

Xozirdanoq, oltinchi texnologik tizim rivojlanishining muhim yo'nalishlari ko'rinib qoldi: molekular biologiya va gen injeneriyasi yutuqlariga asoslangan

<sup>2</sup> Влияние ТНК на мировой экономический процесс // Библиотека менеджмента. URL: <http://www.management.vaanet.ru/economics/vliyanie-tnk.php>.

<sup>3</sup> Глазьев С. Ю. Место России в меняющихся взаимоотношениях центра и периферии мировой экономики // Экономическая теория на пороге XXI в. М., 2003. 45 с.

biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, sun'iy intellekt tizimlari, global axborot tarmoqlari va birlashgan yuqori tezlikdagi transport tizimlari rivojlanmoqda. Ishlab chiqarishni moslashuvchan avtomatlashtirish, kosmik texnologiyalar, oldindan belgilangan xususiyatlarga ega materiallar ishlab chiqarish, atom sanoati, aviataxshuvlar yanada rivojlanishga ega bo'lmoqda. Atom energetikasi o'sishi va tabiiy gazni ist'emoli ekologik toza energiya manbasi sifatida vodoroddan foydalanish sohasining kengayishi bilan yanada rivojlanadi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish ancha keng tus oladi. Ishlab chiqarishning yanada intellektuallashuvi, ko'pgina tarmoqlarda uzluksiz innovatsiya jarayonlariga va ko'pgina kasblarda uzluksiz ta'limga o'tish yuz beradi. "Ist'emol jamiyati"dan turmush sifati va yashash muhitining qulayligiga talablar oshishi muhim bo'lgan "intellektual jamiyat" ga o'tish tugallanadi. Ishlab chiqarish sohasi ekologik toza va chiqindisiz texnologiyalarga o'tadi. Ist'emol tarkibida axborot, ta'lim, tibbiy xizmatlar ustivor ahamiyatga ega bo'lib boradi.

Transmilliy tadbirkorlik hozirgi jahon iqtisodiyotning muhim bir qismiga aylanadi, uning tarkibida xalqaro kapitallar, ishchi kuchlari, texnologiyalar harakati birlashib ketadi, katta samara va global raqobatbardoshlikka ega bo'lgan chegarabo'yi ishlab chiqarishi va yetkazib berish xizmatlari, an'anaviy bozor mexanizmlariga nisbatan samaraliroq bo'lgan xo'jalik birlashmalari shakllanadi.

### **5.3 Mamlakat tashqi iqtisodiy xavfsizligi uchun jahon iqtisodiyotidagi bevosita investitsiyalarning oqibatlarini baholash.**

Kapital ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf qilinadigan resurslarning bir turi hisoblanadi. Kapitalning harakati – mamlakatlar o'rtasida kapitalning migratsiyasi bo'lib, uning mulkdorlariga daromad keltiradi. O'z navbatida, kapitalning xalqaro migratsiyasi kapital eksporti va importini, hamda uning xorijda faoliyat yuritishini o'z ichiga oladi.

Hozirgi davrdagi xalqaro kapital harakati ishlab chiqarishni baynalminallashtirish, iqtisodiy o'sish sur'atlari va aholi bandligi o'sishining, sanoatning ilg'or tarmoqlari rivojlanishining omili bo'lib xizmat qiladi va moliya bozorlarini jahon xo'jaligi rivojlanishining muhim rag'batlantiruvchi kuchiga aylantiradi.

Chet el investitsiyalari - kapital kiritilgan mamlakatlardagi kompaniya ustidan nazorat o'rnatish va uni boshqarishda qatnashish maqsadida kapitallarning ko'chib yurishi hisoblanadi.

Kapitalning bevosita investitsiya shaklida kiritilishi chet mamlakatda o'z ishlab chiqarishini tashkil qilish sifatida yuz beradi. Bu yana, ishchi kuchlarini o'qitish va tayyorlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatga kirishishdir.

Bevosita investitsiyalar xalqaro korporatsiyalarning jahon bozorida hukmronlik qilishida asosiy vositadir. Ular bevosita investitsiyalar yordamida xorijiy korxonalar ustidan to'liq egalik qiladilar yoki aksiyadorlik kapitalining shunday hissasiga ega bo'ladilarki, natijada bu korxonalarni chetdan turib nazorat qilishga erishadilar

**Jadval 5.3.1.****Bevosita investitsiyalarni chetga chiqqarishning geografik tarkibi  
(jamiga nisbatan foiz hisobida)**

Yillar	Jami	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Janubi-Sharqiy Yevropa va MDH
1980	100	94,5	5,5	0,0
1990	100	93,3	4,7	0,0
2000	100	87,8	11,9	0,3
2010	100	67,4	28,7	3,9
2011	100	71,0	24,7	4,3
2012	100	63,3	32,7	4,0
2013	100	60,8	32,2	7,0
2021*	100	71,0	21,0	8,0

Manba: World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P.23

\*World Investment Report 2021, New York and Geneva, 2022. P.234

Bu investitsiyalarning xususiyati shundaki, investitsiya kiritilgan kompaniyaning kamida 25% aksiyalari investor qo'liga bo'ladi. AQSH, Germaniya, Yaponiya hisobot tizimida aksionerlik kapitalida 10 va undan ortiq foizni egallagan va nazorat qilish imkoniyatini beradigan sarmoyalar bevosita investitsiyalar deyiladi.

P.X.Lindertning fikricha "bevosita va portfel investitsiyalari o'rtasidagi farq - kapital qo'yiladigan firma ustidan nazorat qilish yoki qila olmaslik masalasidan kelib chiqadi".

Chet el investitsiyalarining mamlakatlar va sanoat tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi hozirgi jahon iqtisodiyotining tuzilishini, dunyo xo'jaligining turli qismlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi. Bevosita investitsiyalar kiritish bo'yicha sanoati rivojlangan mamlakatlar eng ilg'or hisoblanadi. Bevosita investitsiyalar oqimining 80% ini egallagan bu mamlakatlar bir vaqtning o'zida ham kapitalning yirik eksportchilari va ham importchilari sifatida namoyon bo'ladilar.

**Jadval 5.3.2.****Bevosita investitsiyalar jalb qilishning geografik tarkibi  
(jamiga nisbatan foiz hisobida)**

Yillar	Jami	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Janubi-Sharqiy Yevropa va MDH
1980	100	86,1	13,9	0,0
1990	100	83,2	16,8	0,0
2000	100	80,8	18,8	0,4
2010	100	49,4	45,6	5,0
2011	100	48,2	42,6	5,6
2012	100	38,9	54,8	6,3
2013	100	39,0	53,6	7,4
2021*	100	63,5	27,1	9,4

World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P.23

\*World Investment Report 2021, New York and Geneva, 2022. P.234

Xorij mamlakatlariga bevosita investitsiya kiritish hajmi 1990 yilda rekord ko'rsatkichga ega bo'lib 234 mlrd. dollarni tashkil etgan edi. Keyinchalik bir oz pasaygan bu ko'rsatkich, keyin yana ko'paya boshladi. Bevosita xorij investitsiyalarining dunyo bo'yicha hajmi 1995 yilda 235 mlrd. dollarni tashkil etdi va umumiy hajmi 2,6 trln. dollarga yetgandi.

Kapital eksport qiladigan mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi uchun keltirishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlariga, mutaxassislar quyidagilarni kiritadilar:

- mos ravishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilmasdan turib, kapitalning chetga chiqarilishi iqtisodiy o'sishning sekinlashuviga olib keladi;
- kapitalning chiqarilishi aholi bandligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- kapitalning ko'chib yurishi mamlakatning to'lov balansiga ham salbiy ta'siri namoyon bo'ladi.

Kapital importining salbiy oqibatlariga, mutaxassislar quyidagilarni kiritadilar:

• xorijiy kapitalning kirib kelishi mahalliy kapitalni eng foydali tarmoqlardan siqib chiqaradi, bu esa mamlakat rivojlanishining bir tomonlama bo'lishiga va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid hisoblanadi;

• kapitalni nazoratsiz import qilinishi, atrof-muhit uchun, aholi sog'ligi uchun zararli bo'lgan ishlab chiqarishlarni mamlakatga kiritish bilan ekologik ahvolni yomonlashtiradi;

• kapital importi ko'pincha mamlakat bozoriga, o'z xayot siklini o'tab bo'lgan tovarlarning, hamda salbiy xususiyatlari bo'lgani uchun ishlab chiqarishdan olib tashlangan tovarlarning kirib kelishiga olib keladi;

• eskirgan texnologiyalarning olib kirilishi mamlakatning texnik-iqtisodiy qaramligiga olib keladi;

• TMKlarning transfert narxlaridan foydalanishi mamlakatda soliq tushumlarining va bojxona to'lovlarining yo'qotilishiga olib keladi;

• agar foyda qayta kapitalizatsiya qilinmasdan, olib ketiladigan bo'lsa, mamlakatdan kapitalning chiqib ketishi yuz beradi;

• qarz kapitalining olib kirilishi mamlakat tashqi qarzining oshib ketishiga sabab bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalarni xalqaro tartibga solish ikkita darajadagi kelishuvlarga ajratiladi: mintaqaviy va ko'ptomonlama. Mintaqaviy kelishuvlarga turli integratsiya birlashmalari (Yevropa Ittifoqi, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Assosatsiyasi (ASEAN), Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi) doirasida yuzaga kelgan kelishuvlar kiradi. Turli xalqaro tashkilotlar (Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki guruhlari, Jahon savdo tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va h.k.) tomonidan erishilgan kelishuvlar ko'ptomonlama hisoblanadi.

#### **5.4 Xalqaro qarzlarning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.**

Xalqaro qarzdorlik muammosi XX asrning II yarmida paydo bo'lgan bo'lsada, 80-90 yillarga kelib bu muammoning murakkablashuvi 1982 yilda Meksikaning o'z qarzlarini to'lay olmasligini e'lon qilgan davrdan boshlandi. Yana bir qancha Lotin Amerikasi mamlakatlari qarzlari bo'yicha to'lovlarni

qisman to'xtatdilar. Qarzdorlik muammosining murakkablashuvi ko'pgina mamlakatlarga tarqaldi va global tus ola boshladi.

Qarzdorlik muammosining murakkablashuviga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatdi.

1. 70-yillarning o'rtalarigacha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi moliyaviy manba rivojlanish uchun yordam Qo'mitasiga a'zo mamlakatlarning rasmiy yordami, bevosita xususiy investitsiyalar va eksport kreditlari bo'lgan. 70-yillarning o'rtalaridan keyin esa bank kreditlarining xissasi ko'paydi. Bunda ayniqsa, transmilliy banklarning (TMB) kreditlari yuqori o'rin tuta boshladi.

2. Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan kreditlarga bo'lgan talab keskin oshishiga jaxon xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatdi. TMKlar tomonidan ba'zi an'anaviy ishlab chiqarishlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirib o'tkazish, uchinchi dunyoning ayrim mamlakatlari tomonidan investitsiyalarga talabni oshirdi.

3. TMBlar tomonidan beriladigan qarzlarning imtiyozli shartlarda ajratilishi ularga bo'lgan talabni oshirib yubordi.

4. Kreditlash jarayonining dastlabki davrlarida TMBlar tomonidan bu qarzlarning neft import qiluvchi mamlakatlarda qanday maqsadlarda ishlatilishiga e'tibor berilmadi. Valyuta kurslarining nobarqarorligi, kuchli inflyatsiya va tadbirkorlik faoliyatining pasayishi davrida bu qarzdorlardan samarali foydalanish imkoni bo'lmadi.

5. Ko'pchilik xolatlarda bu qarzlar xukumatlarning joriy xarajatlarini moliyalashga, oldingi qarzlarni to'lashga ishlatilgan. Ayniqsa, 1972-1982 yillarda neft baxosining oshib ketishi bilan uni import qilishga ketadigan xarajatlar yangi olingan qarzlar xisobidan qoplangan.

6. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qarzlar bo'yicha joriy to'lovlarning (foizlar va qarzlarning qaytarilishi lozim bo'lgan qismi) eksportdan olinadigan daromadlarga bo'lgan nisbati 10%dan 70 yillarning o'rtalarida 40%gacha ko'tarildi.

7. Qarzlarni to'lash muammosining keskinlashuviga yana bir sabab – bu qarzlarning asosiy qismi amerika dollarida berilishidir (1974-1984y 65-75%). 80 yillarning boshlarida dollar kursining oshib ketishi bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'z milliy valyutalarida katta mablag' ajratishga majbur qildi.

8. Tashqi qarzlarni to'lashning oshib borishi unga zarur bo'lgan mablag'larni yana qarz qilib olishga va kreditlarga talabning oshishiga olib keldi. Ammo banklar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi ssudalar ajratishni keskin kamaytirdilar. Ular uchinchi dunyo mamlakatlarining iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib qarzlarning qaytarilmasligidan xavfsirab qoldilar. Bundan tashqari 1980-1982 yillardagi inqiroz rivojlanayotgan mamlakatlar eksportiga talabni pasaytirib yubordi, bu esa yana qoloq davlatlarning daromadlarini kamayishiga sabab bo'ldi. Natijada, qator rivojlanayotgan davlatlar o'z qarzlarini to'lay olmaydigan ahvolda qoldilar. 1982 yilning oxirida 34 ta mamlakat qarzlar bo'yicha to'lov muddatini cho'zib yubordilar. Bular ichida eng yirik qarzdorlar Argentina, Braziliya, Chili, Ekvador, Meksika, Rumuniya, Urugvay, Yugoslaviya bor edilar.



Jadval 5.4.1.

## Mamlakatlarning tashqi qarzlari, 2022 yil.

№	Mamlakatlar	Qarz miqdori, mlrd doll	YAIMga nisbatan, %da	Qarzniing aholi jon boshiga to'g'ri kelishi, dollar
1.	AQSH	24 048,7	96,1	72 217
2.	Buyuk Britaniya	8 695,5	271,9	128 640
3.	Fransiya	6 983,2	251,4	106 405
4.	Germaniya	6 413,4	159,1	76 999
5.	Yaponiya	4 331,1	100,7	34 601
6.	Luksemburg	3 746,1	4559,9	5 826 020
7.	Niderlandiya	3 677,4	371,2	209 000
8.	Irlandiya	2 677,6	553,6	565 897
9.	Xitoy	2 636,0	14,4	1 866
10.	Italiya	2 566,4	128,5	43 361

Manba: Vneshnie dolgi stran v 2022 g. Grafiki i tablitsy\_files.

2007-2008 yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yangi qarzдорlik muammolarini keltirib chiqardi. Inqiroz tufayli jahonning deyarli hamma rivojlangan davlatlari qarzi ko'payib katta muammolarni keltirib chiqardi. AQSH, Yaponiya kabi eng rivojlangan mamlakatlar qarzi ularning YAIM hajmidan oshib ketdi. Yevropa Itifoqi mamlakatlarning davlat qarzlari haddan oshib ketdi. Ayniqsa Gresiya, Portugaliya, Ispaniya, Irlandiya davlatlarining qarzi qaytarib bo'lmaydigan darajada oshib ketdi.

O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi 2022-yil 1-yanvar holatiga 39,6 mlrd. Dollarni (2021-yilning 1-yanvar holatiga 34,2 mlrd. dollar) tashkil qildi, ya'ni oldingi yilga nisbatan 16 foizga yoki 5,4 mlrd. dollarga oshdi. Xususan, davlat tashqi qarzi 23,7 mlrd. dollarni, davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarz esa 15,8 mlrd. dollarni tashkil etdi.<sup>4</sup>

Rivojlanishga rasmiy iqtisodiy yordam. Bu jarayon dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlar tomonidan boshqa mamlakatlarga tekinga yoki imtiyozli kreditlar berishi tariqasida yuz beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish bo'yicha Yaponiyadan keyin 2 nchi o'rinda turuvchi AQSH misolida bu jarayonni kuzatish mumkin. AQSH o'zida qabul qilingan "Chet mamlakatlarga qarz berish to'g'risidagi qonun"ga ko'ra 1994-yilda yordam uchun 13 mlrd. dollar (76% iqtisodiy va 24% harbiy maqsadlarda) ajratdi. Undan qarz olgan mamlakatlar orasida birinchi o'rinda Isroil (3 mlrd. doll), ikkinchi o'rinda Misr (2,1 mlrd. doll.) turadi. Bu yordamning 65% i tekinga va 35% imtiyozli kreditlar shaklida beriladi. AQSHning boshqa mamlakatlarga yordam berishi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: mamlakatning milliy xavfsizligini ta'minlash; ochiq bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishga yordam berish; demokratiyani rivojlantirishga hissa qo'shish.

Iqtisodiy yordam ko'rsatishning dastlabki davrlarida donor mamlakatlar tomonidan siyosiy va harbiy strategik maqsadlar ko'zlangan edi. 70-yillarning

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi. 2021 yil uchun. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

o'rtalariga kelib yordam ko'rsatish siyosatida ustuvorliklar o'zgardi. Asosiy ehtiyojlarni qondirishga ko'maklashish va qashshoqlarga yordam ko'rsatish asosiy maqsad deb e'lon qilindi. 80-yillarda G'arbning siyosati xalqaro qarzdorlikni tartibga solish dasturlari, tarkibiy qayta qurish strategiyasini amalga oshirish bilan yordam dasturini muvofiqlashtirish, xususiy sektorni va bozor munosabatlarini rivojlantirishga ko'maklashuv orqali tarkibiy va siyosiy islohotlarni o'tkazishga qayta yo'naltirildi. Insonni rivojlantirish maqsadlari, qashshoqlikni kamaytirish yetakchi strategik rejalar sifatida ikkinchi darajaga tushib qoldi. "Boy mamlakatlardagi kambag'al kishilar kambag'al mamlakatlardagi boy kishilarga yordam beradi" ifodasi iqtisodiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq vaziyatni aks ettiruvchi jarayon bo'lib qoldi.

Keyingi yillarda yordamning unchalik katta bo'lmagan kismigina kambagal mamlakatlarga tegadigan bo'ldi yoki qashshoq kishilarning axvolini yaxshilashga ko'mak bermoqda. Kishi boshiga 250 dollardan katta bo'lgan yordam nisbatan yuqori rivojlangan mamlakatlarga va faqat kishi boshiga o'rtacha 1 dollardan to'g'ri keladigan yordam kambagal mamlakatlarga ajratiladi. Kishi boshiga xisoblanganda eng katta yordam oluvchi mamlakat Isroil (1988-yilda 280 dollar) xisoblanadi. Buning asosiy sababi milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlaridir. Ko'pchilik mamlakatlar yordam budjetlarida kamtarlik bilan bu xaqda xech nima demaydilar, AQSH esa ochiqchasiga ko'rsataveradi. Prezident Kennedi, 1961-yilda ko'mak berish shunday usulki, uning yordamida AQSH dunyoda o'z ta'sirini va nazoratini saqlab qoladi deb ochiqchasiga aytgan edi. AQSH xususan, sof iqtisodiy maqsadlarga, siyosiy va xarbiy maqsadlarga ko'ra ancha kam mablag ajratadi. Ular Sharqiy Yevropa va sobiq SSSRdan ajralib chiqqan mamlakatlarga berayotgan yordamini xam bevosita strategik maqsadlarda ko'rsatadilar.

Jamoatchilikning talabi bilan ba'zi ko'ngillilar tashkilotlari orqali mablag berishga xarakat qiladilar. Industrial rivojlangan mamlakatlarda 1990 yilda 2,5 mingdan oshiq jamoat tashkilotlari (1980-yilda 1603) mavjud edi. Xomiylik tashkilotlari orqali tarqatiladigan davlat va xususiy mablag'lari rivojlanish uchun ajratiladigan rasmiy yordamning 13% ini tashkil etadi. Nohukumat tashkilotlari hukumatlarga qaraganda kichik loyihalarni amalga oshirishga yaxshi ko'mak beradilar va mahalliy aholining ehtiyojlarini yaxshi tushunadilar.

Industrial rivojlangan mamlakatlar 90-yillarga kelib iqtisodiy yordam berishga e'tiborni kamaytirdilar. Yordamning haqiqiy miqdorlari kamaydi, yordamning hajmi o'zgaragan baholarda 80-yillar o'rtalarining ko'rsatkichidan oshmadi. Bunda dunyo sahnasida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar katta ahamiyat kasb etdi.

### **5.5 Jahon iqtisodiyotining o'zgarishiga va tarkibiga transmilliy korporatsiyalarning ta'siri.**

XXI asr boshidagi jahon iqtisodiyotiga xo'jalik yurituvchi tizimlarning yiriklashuvi, o'zaro munosabat jarayonlarining murakkablashuvi, siyosiy-iqtisodiy muqobil qarorlarni qabul qilishning kuchayishi, davlatlararo munosabatlarning iqtisodiy mantiqqa va global siyosatni umumiy tushunishga asoslangan o'zaro

manfaatlarni hisobga olish amaliyotiga o'tish modelining amalga oshirilishi xususiyatlariga egadir.

Bugungi kunda, transmilliy kompaniyalar (TMK) yangi kashfiyotlar va texnologiyalarning asosiy egalari bo'lib qolmoqdalar. TMKlarning jahon bo'ylab faoliyat yuritishlarida asosiy maqsadlari ozodlikka erishgan mamlakatlarning rivojlanishi emas. TMKlarni o'z firmalarining o'sishi va gullab yashnashi qizitiradi. TMKlar xalqaro miqyosda ishlab chiqarishni tashkil qilishda bozorning qat'iy qonunlari asosida amalga oshiradilar. Ular saxiylik qilib, o'z ishlab chiqarish omillarini tekinga yetkazib bermaydilar. Kapital kiritishning asosiy maqsadi foyda olish bo'lib qolaveradi. Xorijiy kapitalning faoliyati hamisha ham qabul qiluvchi mamlakatlarning hohishi bilan mos kelavermaydi, ko'pincha zid kelishi ham mumkin. TMKlar o'z hukmronlik mavqelaridan foydalanib, ilmiy-texnik bilimlarni berishda, o'z sheriklariga qat'iy shartlar qo'yadilar, ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini bug'ib qo'yadilar va bu bilan xaridor tomonidan kutilgan samarani bermaydilar. Natijada, albatta ziddiyatlar kelib chiqadi. Ammo, bunday ziddiyatlar sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar ichida ham yuz berib turadi. Xalqaro korporatsiyalar ba'zan nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarning, balki rivojlangan markazlarning xo'jalik tarkibiga ham buzg'unchi ta'sir ko'rsatadilar.

Yangi iqtisodiy tarix shuni namoyon qilmoqdaki, hamma hukumatlar ham, transmilliy korporatsiyalar kabi ustivor global o'yinchilarning "fikrini" hisobga olmasdan turib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni mustaqil amalga oshira olmaydi. Transmilliy korporatsiya – bu, shunday korporatsiyalarki, ularning bosh kompaniyasi bir mamlakatning kapitali (joylashgan mamlakati) hisoblanib, filiallari butun dunyo bo'ylab tarqalgandir.

Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deb, tovarlar va ishlab chiqarish omillari jahon bozoriga katta ta'sir ko'rsatadigan, haqiqatan ham yirik kompaniyalarni tushunadilar. Odatda, ularga:

- yillik savdo hajmi 1 mlrd dollardan kam bo'lmagan;
- umumiy ayatlanmasining 20%dan 33%gacha bo'lgan qismi xorijiy bitimlarga to'g'ri keladigan;

- xorijdagi aktivlari 25% dan kam bo'lmagan;
- filiallari kamida oltita mamlakatda bo'lgan korporatsiyalar kiradi.

TMKlar paydo bo'lishining eng umumiy sababi sifatida, milliy-davlat chegaralaridan oshadigan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvini ko'rsatish mumkin. TMKlar paydo bo'lishining aniq sabablariga esa, ularning ko'pgina tarmoqlarda ishlab chiqarishining katta miqyoslarda amalga oshirishi hisobiga iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi. Raqobat kurashida faol qatnashishiga ishlab chiqarish va kapitalning xalqaro miqyosda tashkil qilganligi yordam beradi. Binobarin, global miqyosda faoliyat yuritish o'zini oqlaydi.

TMKlar soni 1970-yildan boshlab ancha ko'payib qoldi. O'shanda mana shunday 7000 ta firma ro'yxatga olingan edi, xolos. 90-yillar oxiriga kelib ularning soni oshib 60 mingtaga yetdi. Xozirda esa dunyoda 82 mingta TMKlar va ularning turli qit'alar va mamlakatlarda joylashgan 810 mingta filiali mavjud.

TMKlar hamma tarmoqlarda ham faoliyat yuritmaydilar. Ko'pchilik transmilliy kompaniyalar neft, kimyo sanoatiga, avtomobilsozlikka va elektronikaga to'g'ri keladi. Eng kuchli 500 ta TMKlar farmasevtikaning 95% ni, barcha ishlab chiqarish elektronikasi va kimyoning 80% ni, mashinasozlik mahsulotlarining (ishlab chiqarish sohasi) 76% ni sotuvga chiqaradilar. Xalqaro kompaniyalarning yarmidan ko'pi, ya'ni 60% ishlab chiqarish sohasida, 37% - xizmatlar sohasida va 3% - qazib olish sanoati va qishloq xo'jaligida bandlar.

Umuman olganda, XXI asr boshi TMKlari uchun xizmatlar sohasiga kapital qo'yishning oshishi xosdir. Hozirgi zamon TMKlari innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlariga yanada katta e'tibor qaratmoqdalar. Barcha tarmoqlarning kompaniyalari raqobat ustunligiga erishish uchun ilmiy ishlanmalarga xarajatlarni oshirishga majburlar. Yetakchi TMKlar AQSH, Yaponiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqida joylashganlar, ushbu mamlakatlar deyarli barcha ilmiy ishlanmalarni o'zlarida jamlaganlar.

**Jadval 5.5.1.**

**Dunyoning yirik kompaniyalari Top-10 ligi, 2014-yil.  
(Fortune jurnali talqiniga ko'ra)**

Kompaniya	Mamlakat	Tarmog'i	Tushumi, mlrd.dollar
Wal-Mart Stores	AQSH	Chakana savdo	476,3
Royal Dutch Shell*	Niderlandiya	Neft va gaz qazib olish va qayta ishlash	459,6
Sinopec	Xitoy	Neft-kimyo sanoati	457,2
China National Petroleum	Xitoy	Neft va gaz qazib olish va qayta ishlash	432,0
Exxon Mobil	AQSH	Neft va gaz qazib olish va qayta ishlash	407,7
BP	Buyuk Britaniya	Neft va gaz qazib olish va qayta ishlash	396,2
State Grid	Xitoy	Elektroenergetika	333,4
Volkswagen	Germaniya	Avtomobililar ishlab chiqarish	261,5
Toyota Motor	Yaponiya	Avtomobililar ishlab chiqarish	256,5
Glencore International	Shveysariya	Ulgurji savdo	231,7

\*Fortune jurnali Shell kompaniyasini Niderlandiyani deb ko'rsatadi, kompaniyaning o'zi esa Niderlandiya va Buyuk Britaniyani deb hisoblaydi.

Izoh: Fortune Global 500 reytingi kompaniya tushumiga qarab hisoblanadi.

Rossiya kompaniyalarining asosiy raqobat ustunligi omilli sharoitlarga – boy tabiiy resurslarning mavjudligi (xomashyo TMKlari uchun) yoki mamlakat aholisining ehtiyojlariga (xizmat ko'rsatish sohasi kompaniyalari – telekommunikatsiyalar va bank sektori uchun) asoslanadi.

Rossiyaning eng kuchli TMKlari yonilg'i energetika kompleksida faoliyat yuritadilar. Eng yorqin misol – ulkan tashkiliy-xo'jalik tuzilmasi bo'lgan

“Gazprom” – tabiiy gazni qazib oluvchi va eksport qiluvchi bo‘lib, o‘rganilgan dunyo tabiiy gaz zahiralarning 34% ni nazorat qiladi. Rossiya TMKlari qatorida neft tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan “Lukoil” kompaniyasini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu kompaniyaning korxonalarida ishlab chiqarishning vertikal integratsiyasi yo‘lga qo‘yilgan: qazib olingan neftning bir qismi benzin, dizel yoqilg‘isi, mazut, yog‘lovchi moylar, neft koksi va aviatsiya kerosiniga olish uchun qayta ishlanadi.

Transmilliy korporatsiyalarning jahon iqtisodiyotidagi faoliyatining ijobiy tomonlarini aytib o‘tgan holda, ularning faoliyat ko‘rsatayotgan mamlakatlari iqtisodiyotiga salbiy ta‘siri to‘g‘risida ham gapirib o‘tish zarur.

Mutaxassislarning ko‘rsatishicha, TMKlar o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan davlatlarda:

- iqtisodiy siyosatni yuritishga to‘sqinlik qiladilar;
- davlat qonunlarini buzadilar (transfert narxlari siyosatini o‘zlariga moslaydilar, daromadlarini soliqqa tortishdan yashiradilar);
- monopol narxlar belgilaydilar, rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini kamsitadigan shartlarni talab qiladilar.

Yirik TMKlar rivojlanishi mantiqan, asosiy boshqaruv tuzilmalarini turli mamlakatlar bo‘ylab joylashtirishni va global biznes jarayonlarini tashkil qilishning yangi shakllarini talab qiladi. Shunga qaramasdan, hozirgi paytda TMKlarning global manfaatlarini bilan qonunlarga asoslangan davlat siyosati o‘rtasida ziddiyatlar mavjuddir.

Transmilliy korporatsiyalar faoliyatidan keladigan asosiy tahdid – mahalliy bozorlarning monopollashuvidir. Katta moliyaviy imkoniyatlarga va kuchli siyosiy qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘lgan eng yirik korporatsiyalar nafaqat raqobatchilariga, balki butun bir davlatlarga ham shart qo‘yadilar. Bunga misol sifatida, “Xaliberton” amerika kompaniyasining Iroqdagi infratuzilma ob‘ektlarini qayta tiklash bo‘yicha shov-shuvli shartnomasi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari – tovar aylanmasi, daromadi, xodimlari soni bo‘yicha yirik korporatsiyalar ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘rsatkichidan ustun turadi. Tahlilchilarning asosiy havfsirashlari, kompaniyalarning kichik mamlakatlarga bo‘ladigan salbiy iqtisodiy va siyosiy bosimi imkoniyatlariga egaligi bilan bog‘liqdir.

#### Jadval 5.5.2.

#### Kapitalari hajmi bo‘yicha dunyoning eng yirik 10 ta xalqaro korporatsiyasi, 2015-yil

Kompaniya	Faoliyat sohasi	Kapitali (mlrd.dollar)
1. Apple	Texnika ishlab chiqarish	471,85
2. Google	Qidiruv tizimlari	395,7
3. Exxon Mobil	Neftni qayta ishlash sanoati	395,4
4. Microsoft	Dasturiy ta‘minot, texnika	303,5
5. Berkshire Hathaway	Aksionerlik kompaniyasi	292,4
6. General Electric	Keng faoliyat sohasi (tibbiyot jihozlari, gaz turbinalari, plastmassa va boshqalar)	283,6

7. Johnson & Johnson	Kosmetika ishlab chiqarish va tibbiyot jihozlari	258,4
8. Wal-Mart Stores	Chakana savdo	254,6
9. Chevron	Energetika kompleksi	240,2
10. IBM	Texnika	234,7

Shunday qilib, 1) transmilliy korporatsiyalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli va muhim subyektlariga aylandilar va hozirgi paytda global mehnat unumdorligi oshishi va jamiyatning turmush darajasi o'sishi jarayonlarining zarur bo'g'ini bo'lib qolmoqdalar; 2) transmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi – jahon iqtisodiyotidagi evolyusion o'zgarishlarning tabiiy jarayonlaridir. TMKlar faoliyati kuchayishining asosiy havfi ayrim bozorlarning monopollashtirilishi hisoblanadi: shunga bog'liq holda davlat hukumatlarining vazifasi – mana shu havf bilan faol kurashishdir.

### Tavanch tushunchalar

*Xorijiy texnologiyalar; xorijiy kapitaldan va texnologiyalardan foydalanish; tijoriy tavakkalchilik darajasi; "yangi industrial mamlakatlar"; "yangi eksportchi mamlakatlar"; noan'anaviy eksportni rivojlantirish; texnika-iqtisodiy sohadagi musobaqa; yangi texnologiyalarni qo'llash; sifatli axborot muhiti; "ist'emol jamiyati"; "intellektual jamiyat"; kapital; kapitalning harakati; chet el investitsiyalari; kapitalning bevosita investitsiya shakli; kapital importining salbiy oqibatlari; xalqaro qarzdorlik muammosi; Rivojlanishga rasmiy iqtisodiy yordam; transmilliy kompaniyalar (TMK).*

### Takrorlash uchun savollar

- 1) Xorijiy texnologiyalar, qabul qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 2) Rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlatning o'rni qanday bo'ladi?
- 3) Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga texnologiyalarni tranfer qilish qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?
- 4) Oltinchi texnologik tizim rivojlanishining muhim yo'nalishlari nimalarda namoyon bo'ladi?
- 5) Kapital eksportining salbiy oqibatlari bo'lishi mumkinmi?
- 6) Kapital importining qanday salbiy oqibatlari namoyon bo'ladi?
- 7) Xalqaro qarzdorlik muammosi qachon paydo bo'ladi?
- 8) Rivojlanishga iqtisodiy yordam qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
- 9) Transmilliy korporatsiyalar to'g'risida tushuncha bering.

## **6-MAVZU: GLOBAL MOLIYAVIY XAVFSIZLIK MUAMMOLARI**

6.1. Global moliyaviy xavfsizlik.

6.2. Xalqaro moliya-kredit operatsiyalarining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri

6.3. To'lov balansining yomonlashuvi va iqtisodiy xavfsizlik

6.4. Offshorlar muammosi va xalqaro iqtisodiy xavfsizlik.

### **6.1 Global moliyaviy xavfsizlik.**

Hozirgi bosqichdagi globallashuv jarayonining asosiy belgisi bo'lib, moliya bozorining, ayniqsa uning bo'limlari: valyuta, fond va kredit bozorining izchil taraqqiy qilib borishi hisoblanadi. Jahon moliya bozori endilikda, nafaqat tashqi savdo aylanmasiga, balki kapitalning harakati bilan bog'liq bitimlarga ko'proq xizmat qilmoqda. Xalqaro darajada mablag'larning qayta taqsimlanishi pul va tovar massasi o'rtasida namuozanatlik keltirib chiqarmoqda, bu esa ayniqsa moliyaviy globallashuv sharoitida, moliyaviy "ko'piklar"ning paydo bo'lishi ehtimolini kuchaytirmoqda.

Birinchidan, moliyaviy globallashuv, bir tomondan, mustaqil milliy monetar siyosat yuritish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda, ikkinchi tomondan, mamlakatdan kapitalning chiqib ketishiga yo'l qo'yadigan va ancha katta miqyosdagi moliyaviy inqirozga olib keladigan siyosatning o'tkazilishiga ma'suliyat darajasini oshirmoqda.

Ikkinchidan, moliyaviy globallashuvga ishlab chiqarish omillarining yuqori mobilligi va moliyaviy resurslarni notekis taqsimlash xos bo'lib, bu chayqovchilik bitimlari imkoniyatlarini oshiradi va moliviy "ko'piklar" paydo bo'lishi tavakkalchiligini kuchaytiradi. Moliya bozorlari globallashuvi va tovar-pul munosabatlari kuchayishi sharoitida kapitalning ko'chib o'tish miqyoslari oshadi. Bu, bir tomondan, iqtisodiy o'sishning qo'shimcha omili bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi tomondan – tavakkalchilik va noaniqlik omillarini kuchaytiradi. Globallashuv natijasida moliya bozorlariga iqtisodiyotning ta'siri emas, balki uning iqtisodiyotga ta'siri kuchli bo'ladi.

Uchinchidan, moliyaviy globallashuv moliya bozorlarining erkinlashuvi va qayta tartibga solinishi tufayli mamlakatlar va dunyo mintaqalari bo'ylab erkin va tavakkalchilik bilan harakatlanadi, bu moliya resurslarining notekis taqsimlanishiga olib keladi. U moliya resurslarini nafaqat to'ldirishga, balki kutilmaganda ularning keskin yetishmovchiligini keltirib chiqarib, milliy bozorlarning tugatilishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi zamon globallashuvining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, milliy moliya xavfsizligini global moliya xavfsizligini ta'minlashdan ayro qilib bo'lmaydi, chunki bir mamlakatda makroiqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi butun dunyoda inqirozli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Global moliyaviy xavfsizlik xalqaro moliya munsoabatlarining nobarqarorlashuv tahdidlaridan va jahon moliya inqirozidan himoyalanganligini ta'minlaydi. Shunday qilib, moliyaviy xavfsizlik milliy manfaatlarni himoya qiladigan, ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy barqaror rivojlanishni, moliya sohasidagi tahdidlarning oldini olish hisobiga, nafaqat o'z mamlakatida, balki

boshqa mamlakatlarda ham qo'llab quvvatlaydigan, davlatning moliya siyosati bilan belgilanadi.

Moliyaviy xavfsizlik konsepsiyasi davlatning iqtisodiy xavfsizligining tarkibiy qismi sifatida uning moliyaviy siyosati (nafaqat o'z mamlakati va uning fuqarolarining, balki butun dunyo mamlakatlarning ham barqarorligi va farovonligi ma'suliyatini olgan holda) bilan belgilanadi. Bunda davlatning moliya siyosatini amalga oshirishdagi o'zmi, uning iqtisodiy salohiyati yo'qolishi ehtimoligini pasaytiruvchi strategiyasida namoyon bo'ladi, moliyaviy xavfsizlikning samarali tizimini shakllantirish uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tayanchi hisoblanadi.

Moliyaviy globallashuv jarayonlarini keltirib chiqaruvchi kamida to'qqizta sabab mavjud:

1. Dunyoda mahsulotlar va xizmatlar savdosining oshib borishi ularga yo'ldosh bo'lgan pul oqimi harakatlarini keltirib chiqaradi.

2. Ishlab chiqarishning transmilliylashuvi mos ravishda bevosita xorijiy investitsiyalarning oshishini talab qiladi.

3. Transaksiya xarajatlari pasayib borishi vaqtida moliyaviy axborotlarning darhol ko'chirilishi imkoniyati yaratiladi.

4. Neoliberal iqtisodiy nazariyalar ta'sirida kapital harakati qoidalarni qayta tartibga solish va erkinlashtirish amalga oshiriladi.

5. Bank tizimlarining baynalminallashuvi.

6. Qimmatli qog'ozlar bozorining baynalminallashuvi.

7. Offshor markazlar tarmog'ining shakllanishi.

8. Valyutaruz suzib yuruvchi kursining tartibi moliyaviy globallashuvga katta turtki bo'ldi.

9. Moliyaviy vositalarning ko'makchilari kashf qilinishi.

Hozirgi zamon global moliyaviy tizimning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tobora keng tarqalib borayotgan kriptovalyutalar hisoblanadi. *Kriptovalyuta* – raqamli hisob birliklari bo'lib, ularning chiqarilishi va hisob-kitobi nomarkazlashtirilganidir. Ushbu tizimning faoliyati blokcheyn texnologiyasi asosida yuritiladi. Tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar odatda shifrlanmaydi va ochiq ko'rinishda bo'ladi. Tranzaksiyalar bloki tajirining bazasini o'zgarasligini ta'minlash uchun kriptografiya (ochiq kalitli tizim asosida raqamli imzo bo'lib, himoyalani beradi) elementlaridan foydalaniladi.

Ushbu tushuncha 2011 yilda Forbes jurnalida Bitkoin "Crypto currency" (kriptografik valyuta) tizimi haqida maqola e'lon qilinganidan keyin keng tarqalib ketdi. Bitkoinning muallifi esa, boshqalar singari, "Elektron pul" (ingl. electronic cash) atamasidan foydalangan. "Bitkoin" so'zi inglizcha ikkita so'zning qo'shilishidan: "bit" – ma'lumot birligi va "coin" – tanga so'zlaridan olingan.

"Bitkoinlar" qaerda Internetga kirish imkoniyati bo'lsa o'sha joyda paydo bo'ladi va uning kursi ishlashidan qat'iy nazar saqlanib turadi. Ilgari buning uchun o'zingizning kompyuterda maxsus dasturni o'rnatish va sizning kompyuteringiz uzoq vaqt davomida ma'lum bir masalalarni yechishda qatanashgani uchun "bitkoinlar" olish mumkin edi. Kriptovalyutalarning iqtisodiy mohiyati va huquqiy maqomi to'g'risida bahslar davom etmoqda. Mamlakatidan kelib chiqib,



kriptovalyutalar to'lov vositasi bo'lishi, maxsus tovar bo'lishi mumkin, muomalada cheklangan bo'lishi (masalan, bank muassasalari uchun, u bilan bitimlar amalga oshirish ta'qiqlangan bo'lishi) mumkin.

Bitkoinlarni bir foydalanuvchidan ikkinchisiga o'tkazish shifrlangan ma'lumotlarni yuborishdan iborat bo'ladi. Yangi virtual tangalar paydo bo'lishi "mayning" asosida, ya'ni foydalanuvchilar tranzaksiyalarning sotishga yaroqli ekanligini tekshirish jarayoni asosida amalga oshiriladi.

Agar bitkoinning oldingi avlodlari faqat uchta raqamli to'lov vositasi bo'lgan bo'lsa, uning o'zi katta miqdordagi kriptovalyutalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Coinmarketcap.com saytining ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda ularning umumiy kapitalizatsiyasi 5,5 mlrd dollardan oshadi. Bitkoinidan kelib chiqqan valyutalar diskont bilan savdo qilinadi; ularning barchasi nomarkazlashtirish tamoyili asosiga qurilgan. Elektron tangalar, qoidaga ko'ra, kriptografik algoritim bilan ajralib turadi.

## **6.2 Xalqaro moliya-kredit operatsiyalarining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.**

Raqobatli bozor muhitida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bitim imzolanishi va to'lovlarni o'tkazish-qabul qilish sanasi o'rtasida vaqt oralig'iga asoslangan turli xavf-xatarlarni vujudga kelishi bilan bog'liq.

Makroiqtisodiy darajada valyuta xatarini vujudga kelishining bevosita sabablari iqtisodiy inqiroz, inflyatsiyani kuchayishi, to'lov balansini yomonlashuvi, davlat qarzini ko'payishi, siyosiy hodisalar hisoblanadi.

Mikroiqtisodiy darajada esa bu sabablar qatoriga hamkorlarning xo'jalik-moliyaviy holatida yuz bergan salbiy o'zgarishlarni kiritish mumkin. Masalan, zaruriy aylanma mablag'larni yo'qligi, bankrot bo'lish xavfi va boshqalar. Valyuta xatarining xususiyati ushbu davrda pul majburiyatlarining haqiqiy qiymatini o'zgarishi bilan aniqlanadi. Bunda eksportyor narx valyutasi kursi to'lov valyutasi kursiga nisbatan tushib ketganda zarar ko'radi, chunki shartnomadagiga nisbatan kam real qiymatga ega bo'ladi. Importyor esa aksincha vaziyatda valyuta xatariga duch keladi. Biroq har ikki holatda ham qarzdorning milliy valyutasidagi miqdori shartnomada belgilangan miqdordan kam bo'ladi.

Shuni qayd etib o'tish joizki, xalqaro moliya-kredit operatsiyalari ishtirokchilari faqat valyuta xatariga emas, balki *kredit bilan bog'liq* (qarzdorning qarzni va kredit bo'yicha foizlarni to'lamasligi), *foiz bilan bog'liq* (foiz stavkasini shartnomada qayd etilganga nisbatan o'zgarishi bilan yo'qotishlar ehtimoli) va *transfert bilan bog'liq* (valyuta cheklashlari tufayli to'lov vositalarini bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish imkoniyati yo'qligi bilan bog'liq) xatarlarga ham duch kelishi mumkin.

Valyuta va boshqa xavf-xatarlardan TIF amaliyotida hamkorlar o'rtasida o'zaro muvofiqlashtirilgan tadbirlar qabul qilinishi natijasida bir tomonlama harakatlar hisob-kitoblarini amalga oshirish yo'li bilan, hukumat va bank kafolatlari ostida sug'urta kompaniyasi yordamida qutulish mumkin. Bu ma'noda eng ko'p tarqalgan usul ishtirokchilar tomonidan bitimning ayrim qismlarini ijro etilishi jarayonida qayta ko'rish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha shartlarni

bitimga kiritish hisoblanadi. (Masalan, valyuta kursi o'zgarishiga mos ravishda to'lov summasini o'zgartirish to'g'risida izoh kiritilishi mumkin).

Bundan tashqari davlat va xususiy kompaniyalarning xalqaro shartnomalari sug'urta kafolatlarini hisobga olgan holda imzolanadi, buning mohiyati shundan iboratki, sug'urtalovchi kompaniya ma'lum bonus (odatda yiliga sug'urta summasining 0,25 foizidan 25 foizigacha miqdorda to'lov) evaziga eksportyor (kreditor) zararini qoplash haqida majburiyatidan iborat. Oxirgi yigirma yilda xalqaro tashkilotlar valyuta-kredit operatsiyalarining kafolatchisi sifatida chiqishmoqda. 70-yillardan beri valyuta xatarini sug'urtalashni boshqa usullari: opsiolar, forvard va fyuchers ko'rinishidagi tezkor operatsiyalar, svoplardan foydalanish keng tarqaldi. Bularning barchasi valyuta oldi-sotdisini turli shartlari hisob-kitoblariga asoslangan va maxsus adabiyotda panjaralash (xedjirlash) atamasi bilan yuritiladi (ingl. hedge — panjara, to'siq).

Xalqaro kredit – bir mamlakatdagi kreditorning boshqa mamlakatdagi qarz oluvchiga qaytarishlik, moddiylik va foiz to'lash shartlari bilan beriladigan pul yoki tovar ko'rinishidagi ssudadir. Ssuda mablag'i (sarmoyasi) – mamlakatning xalqaro qarzlari, kreditlar shaklida chiqaradigan yoki kiritadigan hamda ssuda foizi keltiradigan kapital.

Xalqaro kredit feodalizm davrida paydo bo'lgan, bunda xarbiy yurishlarning hamda monarx va zadoganlar saroylari xarajatlarini qoplash uchun qarzga mablag'lar olingan. Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan xalqaro kredit tashqi savdoga xizmat ko'rsata boshladi va jahon xo'jaligi aloqalarining muhim unsuriga aylandi. Bunday kredit turi mamlakatlardagi kreditorlar bilan qarz oluvchilar o'rtasida muayyan muddatga hamda foiz to'lash shartlari bilan ssuda berish, foydalanish va uni qaytarish bo'yicha paydo bo'ladigan munosabatlarini ifoda etadi. Shunday qilib, ssuda mablag'ini chiqarish boshqa mamlakatlar xukumatlari yoki tadbirkorlariga qisqa yoki uzoq muddatli qarzlari berilishini bildiradi.

Chetga mablag' chiqarish XX asr boshlarida avj oldi. Dastlab ssuda mablag'ini chetga chiqarish asosan xususiy shaklda, ya'ni davlatning aralashuvizisiz olib bordi. Keyinchalik bunday faoliyat xalqaro kredit munosabatlariga tobora ko'proq aralasha boshlagan xukumatlar tomonidan rag'batlantirila boshladi.

Xorijiy kreditlar bir qancha toifalarga bo'linadi. Jahonda u yoki bu mamlakat boshqa mamlakatning iqtisodiy dasturlariga yordam berish maqsadlarida moliyaviy vositalar berish faoliyati keng tarqalgan. Bunday hollarda davlatlararo shartnomalar tuziladi. Shartnoma moliya resurslari beradigan ixtisoslashgan xukumat moliya muassasalariga ajratiladigan kreditlarni berish va sug'urtalash hamda kafolatlarni ta'minlashga asoslanadi.

Bunday ixtisoslashgan xukumat moliya muassasalaridan KFW yoki AKA banklarini (Germaniya), Hermes (Germaniya), SACE (Italiya), ECGD (Buyuk Britaniya), EID/MITI (Yaponiya), CESCE (Ispaniya) kabi eksportni kreditlash vakilliklarini sanab o'tish mumkin. AQSH, Yaponiya, Turkiya va boshqa mamlakatlardagi eksport-import banklari, EDS (Kanada) kabi vakilliklar esa loyihalarni bevosita kreditlashni ta'minlaydi.

Odatda bunday moliyalashtirish kreditni oladigan mamlakat xukumati tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kafolat asosida amalga oshiriladi. Bunday ishga faqat katta oltin valyuta zahiralarga va boshqa likvid aktivlarga ega bo'lgan mamlakatgina qo'l urishi mumkin. O'zbekistonda moliyalashning shunday usuli asosida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Germaniya, Yaponiya, AQSHdagi eksport-import banklari bergan kredit resurslari yordamida iqtisodiy infratuzilma sohasida g'oyat muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu borada telekommunikatsiya tarmog'ini yangilash bo'yicha bir qator loyihalarni, jumladan, Transosiyo Yevropa shisha tolali aloqa yo'lining O'zbekiston hududi orqali o'tadigan qismini qurish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstruksiya qilish va zamonaviylashtirish, Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish, Ko'kdumaloq neft konini ishga solish, "Toshkent" aeroportini qayta qurish va boshqa loyihalarni sanab o'tish mumkin.

Tashqi investitsiya qarzlari yana boshqa bir toifasi mavjud. U ham bo'lsa xalqaro moliya muassasalari u yoki bu mamlakatlardagi investitsiya loyihalarni kreditlaydi. O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashni amalga oshiradigan yoki amalga oshirish mumkin bo'lgan to'rtta eng nufuzli xalqaro muassasani ko'rsatib o'tish mumkin: Jahon tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banki. Chetdan olingan qarzar muayyan tavakkalchilik bilan bog'liq, shuning uchun davlat yoki xususiy tarmoq doirasida chet el investitsiyalaridan oqilona foydalanilmaslik mamlakatga juda qimmatga tushishi mumkin. Korxonalar tomonidan haqiqiy kafolatlar bo'lmaganda zararni davlatning o'zi, uning budjeti ko'taradi. Shu sababli chet el investitsiyalari sohasidagi xalqaro ekspertlar tavakkallikni davlat budjetidan kreditorlar, xususiy qarzdorlar va sarmoya bozorlariga ko'chirishni strategik yo'nalish tarzida maslahat beradi. Sarmoya bozorida mablag'larni xususiy tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan jalb etilishi va qimmatli qog'ozlar bozori vositachiligida taqsimlanishi davlat nochor korxonalarini saqlab qolish bilan shug'ullanmagan sharoitlarda aholini samaraliroq himoya qilishga imkoniyat beradi.

Tadbirkorlik sarmoyasini chiqarish, uni chet ellarda uzoq muddatga ishlab chiqarish, savdo, moliya obyektlariga sarflanishi demakdir. Sarmoya eksporti bevosita va portfel investitsiyalari shakllarida amalga oshiriladi. Xorijiy korxonaga qo'yilgan kapital mablag'ni investorlar nazorat qilsa, bunday kapital qo'yilmalar bevosita chet el investitsiyalari deyiladi. Xalqaro statistikada investitsiyalarni "bevosita" turga kiritishning quyi "ostonasini" belgilashga har xil yondoshuvlar bor. Odatda bu ko'rsatkich 10 va 25 foiz o'rtasida o'zgarib turadi. Bizning qonunlarimizga ko'ra kompaniya aksiyalangan kapitalining kamida 10 foizini chet el investitsiyalari tashkil etganda bevosita chet el investitsiyalari deb hisoblanadi. shuningdek shu korxonaning menejmentida bevosita ishtirok etish, amalga oshirilayotgan investitsiyalarini uzoq muddatli ekanligi ham ularning muhim belgilari hisoblanadi. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamadan, tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan vositasi hisoblanadi.

Ularning hajmi jahon bo'yicha barqaror o'sib bormoqda, bu esa biznesning jahon miqyosida umumlashishi jarayonini turli mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini kuchaytirmoqda. Hisob – kitoblarga qaraganda, 2021 yil o'rtalariga kelib bevosita chet el investitsiyalarining umumiy miqdori 45,4 trillion AQSH dollariga teng bo'ldi.

### **6.3 To'lov balansi yomonlashuvi va iqtisodiy xavfsizlik.**

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblardagi o'rmini baholashda birinchi navbatda eksport va importning nisbatini aniqlash zarur bo'ladi. Chet eldan tovarlar kirib kelishini va chet elga tovarlar sotilishi hajmlari hisob-kitob qilish natijasida *savdo balansi* kelib chiqadi. Savdo balansi doimiy ravishda bojxona idoralari savdo bo'yicha statistikasini yig'ish va ishlab chiqishi asosida amalga oshiriladi.

Savdo balansi eksport bilan importning farqi sifatida juda kam ma'lumotga ega bo'ladi. Ammo, u umumiy vaziyatning muhim bosh ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi, chunki xalqaro iqtisodiy munosabatlarning 80 % ini savdo tashkil qiladi. Savdo saldosini to'lov balansining umumiy yakunlarini asosan belgilab beruvchi qismi hisoblanadi, lekin savdo saldosini salbiy bo'lishi umumiy kamomadning kelib chiqishini bildirmaydi. Masalan, Buyuk Britaniya XX asrning oxirgi o'ttiz yilligida savdo balansi bo'yicha ko'p vaqtlargacha salbiy saldoga ega bo'lib keldi, lekin u boshqa manbalardan, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasi hisobidan bema'lol qoplanar edi.

AQSH ikkinchi jahon urushidan keyin tashqi savdoda doimo ijobiy saldoga ega bo'lib kelgandi, lekin eksport tushumlari chet mamlakatlardagi harbiy bazalarni saqlash uchun sarf qilinib, ijobiy saldoni yo'qqa chiqardi. Eksport – import bitimlari qiymatining “ko'rinmas” savdo (xizmatlar) bilan to'ldirilishi *savdo va xizmatlar balansini* keltirib chiqaradi.

Xizmatlar bilan savdo qilish o'z ichiga chet elga sayyohatlar, dengiz yuk tashishlari va moliya bilan bog'lik xarajatlarni oladi. Masalan, O'zbekistonlik sayyohlar chet ellarda bo'lib, ularning tovar va xizmatlarini sotib oladilar va import uchun xarajat qilgan bo'ladilar, o'z navbatida chet elliklar ham O'zbekistonga kelib tovarlar va xizmatlar sotib olishi biz uchun eksport hisoblanadi. Xuddi shunday ravishda dengiz kemachiligiga ega mamlakatlarning kemalari boshqalarga yuk tashib berib xizmatni eksport qiladilar.

Ba'zi mamlakatlar uchun “xizmatlar” bo'limi juda katta hajmda bo'ladi. Masalan, o'z hududidan katta miqdorda sayyohlik oqimlari o'tuvchi mamlakatlarda turizmdan tushadigan mablag'lar juda katta o'rin tutadi. Gretsiya va Ispaniyada chet el sayyohlaridan tushadigan tushumlar tovar eksporti qiymati hajmining 60-80 % ini tashkil qiladi.

Tovarlar savdosidan farqli ravishda xizmatlar savdosi bo'yicha ma'lumotlarni olish faqat bilvosita hisob-kitoblar orqali bo'ladi, bu esa balansni tuzish vaqtini cho'zib yuboradi. Tovarlar va xizmatlar balansini chiqarish birinchi navbatda milliy daromad hisob – kitobining jami xarajatlar (ehtiyotlar) ko'rsatkichi uchun muximdir. Bu ko'rsatkichning ahamiyati ham cheklangan bo'lib, faqat boshqa ko'rsatkichlar bilan birgalikda foydalanish mumkin bo'ladi.

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblardagi ahvolini pensiyalar, sovg'alar, tekin subsidiyalar shaklidagi o'tkaziladigan pul mablag'lari ham tavsiflab beradi. Bularni mamlakatga beg'araz yordam shaklidagi chet el tovarlarining importi deb tushunish kerak. Muhimi, bunday bitimlar bir tomonlama bo'ladi, va mablag'larni o'tkazayotgan mamlakat o'rninga hech narsa olmaydi.

Bir tomonlama o'tkazmalar mablaglari yig'indisini tovar va xizmatlar balansiga qo'shadigan bo'lsak *joriy operatsiyalar bo'yicha balans* kelib chiqadi. Bu yerda saldo beruvchi o'rta chiziqdan yuqorida tovarlar va xizmatlar bo'yicha mablag'larning harakatini belgilovchi moddalar, chiziqdan pastda esa, ham xususiy, ham davlat zahiralarning harakati bilan bog'liq moddalar ko'rsatiladi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha balans mamlakatning iqtisodiy ahvoriga doir ma'lumotlarni to'laligicha ifodalab beradi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha balansning ijobiy saldosi shuni ko'rsatadiki, mamlakat sotib olishiga nisbatan o'zida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sotishi ko'proqdir. Misol tariqasida, o'z moliyaviy mablag'lari kutilmagan vaziyatlar uchun, yoki boshqalarga yordam (qarz) berish uchun yetadigan jamg'armalarga ega oilani tasavvur qilsaq bo'ladi.

Joriy bitimlar bo'yicha kamomad esa mamlakatning boshqa mamlakatlardan qarzlari ko'payganligini bildiradi. Xuddi yuqoridagidek bir oila misolida ko'radigan bo'lsak, bu qarzlilar va kreditlar hisobiga yoki ilgari jamg'argan mablag'lari hisobiga kun ko'radigan oila bo'ladi.

*To'lov balansining asosi* - tovar va xizmatlarga ehtiyojning o'shib borishi (mamlakatdan valyuta chiqib ketadi) yoki chet el valyutasining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan xamma bitimlarni guruhlashtirishdir. Masalan, O'zbekistonga chet el valyutasi kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan tashqi savdo bitimlarining turlarini quyidagicha aniqlash mumkin:

1. *Tovarlar eksporti*. Unga O'zbekistonning bojxona chegarasini kesib o'tuvchi hamma tovarlar kiritiladi.

2. *Xizmatlar eksporti*. Unga mamlakatimizga kelgan chet el sayyohlariga, diplomatlariga va tadbirkorlariga ko'rsatilgan xizmatlar kiradi.

3. *Foizlar va dividendlar*. Bu, xorijiy aksiyalarga ega bo'lgan O'zbekistonliklarga to'lanadigan mablag'lardir. Bu, fond bozorida sotib olingan chet el kompaniyalarining aksiyalariga to'lanadigan foizlardir, hamda chet elda faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston korxonalarining (aralash korxonalar sifatida) o'tkazadigan daromadlaridir.

4. *Bir tomonlama o'tkazmalar yoki transfertlar*. Unga pensiyalarni o'tkazish, chet el yordami, chet eldagi emigrantlarning qarindoshlariga yuborgan ish haqlari, O'zbekistonga ko'rsatiladigan hukumat yoki xususiy shaxslarning insonparvarlik (gumanitar) yordami dasturlari kiradi. Bu moddaning o'ziga xos tomoni shundaki, u qaytarmaslik hisobi bilan olingan bir tomonlama o'tkazmalarni o'z ichiga oladi.

5. O'zbekistondagi xorijiy rezidentlarning *uzoq muddatli qarzlari va investitsiyalari*. U xorijiy davlatlar va firmalar tomonidan O'zbekistonga va uning tashkilotlariga berilgan qarzlarni o'z ichiga oladi. Xususiy tadbirkorlik sohasida bu xorijliklar tomonidan O'zbekistondagi korxonalarni, bino-inshoatlarni, yerlarni va boshqa ko'chmas mulk shakllarini sotib olishdir. Ba'zan kapital eksporti

shaklidagi bitimlar ham hisobga olinadi. Bu bitimlarning mohiyati shundaki, mamlakat o'z ko'chmas mulklarini sotish bilan eksportni amalga oshirgan hisoblanadi, lekin bu, bitim natijasida xorijiy valyutada mablag' olinsa ham, o'ziga xos tovarlar hisoblanadi.

6. Xorijiy firma va tashkilotlar tomonidan O'zbekistonga beriladigan *qisqa muddatli investitsiyalar va qarzarlar*. Bu bitimlar oldingiga (5-modda) o'xshash bo'lsa ham, ular qisqa muddatli ekanligi bilan (O'zbekiston firmalariga beriladigan firma va banklarning qisqa muddatli kreditlari) farq qiladi. Agarda chet eldagi O'zbekiston firmalari ham o'z banklaridagi aktivlarining ma'lum qismini O'zbekistonga o'tkazsalar ham shunday bitim hisoblanadi.

7. *Xorijiy rezervlar*. Unga xorijiy davlatlar tomonidan o'z zahiralari ni to'ldirish uchun O'zbekiston Markaziy bankidan sotib olgan valyutalar yoki rezervlar kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan bitimlar qarama-qarshi shakldagi oqimlarga ham ega, ya'ni O'zbekistondan chet el valyutasining chiqib ketishiga sabab bo'luvchi xorijiy mahsulotlarni import qilish, pensiyalar va turli pul mablag'larini o'tkazish, xorijiy davlatlar va firmalarga kreditlar berish va hakazolar ham mavjuddir.

Tovarlar, xizmatlar eksporti va importi foizlar va dividendlar, bir tomonlama pul o'tkazmalari va transfertlar, olinadigan va beriladigan uzoq muddatli va qisqa muddatli qarzarlar, hamda davlat rezervlarining kirib kelishi va chiqib ketishi kabi bitimlarning hammasini qo'shib chiqqanimizda xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda, "to'lov balans" deb ataladigan hujjatga ega bo'lamiz.

Ko'rib chiqilgan bitimlarni shartli ravishda uch guruhga birlashtirish mumkin:

a) joriy hisob-kitoblar bo'yicha bitimlar, u eksport-import operatsiyalaridan iboratdir (1,2,3,4 punktlar);

b) kapitallar harakati bilan bog'liq bitimlar (5,6 punktlar);

v) rasmiy rezervlar hisob-kitobi (7 punkt).

Hisobga olinmagan turli operatsiyalar "xatolar va ko'rsatilmaganlar" moddasida jamlanadi (8 punkt).

Birinchi guruh bitimlari tovar va xizmatlarning eksport va importidan iboratdir. Ikkinchi guruh bitimlari – bu mablag'larni (aktivlar) sotish va sotib olishdir. Aktivlar deganda, aksiya, davlat qarzi yoki har qanday qimmatbaho qog'ozdan iborat boyliklarni saqlash shaklini tushunamiz.

Markaziy banklarning xalqaro valyutalar uchun foydalaniladigan likvid (ishlatiladigan) aktivlari "xalqaro likvidlik" nomi bilan yuritiladi, ba'zan esa ularni rasmiy zahiralalar (rezervlar) deb ham ataydilar. Ilgarilari ular faqat oltindan iborat bo'lardi. Hozirgi paytda unga markaziy bankning xalqaro miqyosda qabul qilinadigan hamma majburiy likvidlari kiritiladi. Markaziy banklar, javobgarligi zimmasida bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlarini amalga oshirish uchun o'z xizmalarining tarkibini o'zgartirib turadilar. Rasmiy zahiralalar markaziy bankning yaxtirorida bo'lgan oltin zahiralari, Xalqaro valyuta fondining (XVF) Maxsus o'rnini bosish huquqi (SDR), XVF dagi rezervlar, xorijiy valyutalar zahiralari dan iborat bo'ladi.

Valyutalari boshqa mamlakatlar davlat zahiralarning bir qismi hisoblanadigan mamlakatlar uchun to'lov balansidagi hisoblarning uchinchi guruhi, ularning valyutalarini (AQSH dollari, funt sterling, yevro va h.k.) boshqa davlatlar tomonidan sotib olinishini aks ettiradi.

*O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi* ko'rsatkichlarining shakllanishiga ichki va tashqi bozorlardagi iqtisodiy faollikning tobora oshishi, tashqi savdo aylanmasi va pul o'tkazmalari xajmlarining o'sishi, global biznes muhitining muvozanatlashuvi kabi omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi omillar ta'sirida 2021 yil uchun joriy operatsiyalar hisobi defitsiti dastlabki e'lon qilingan ko'rsatkich doirasida 4,8 mlrd. dollar (2020 yilda 3,0 mlrd. dollar), YAIMga nisbatan 7 foiz darajasida shakllandi. Bunda, savdo balansining (tovarlar va xizmatlar) manfiy saldosi (11,4 mlrd. dollar) birlamchi va ikkilamchi daromadlarning ijobiy saldosi (6,6 mlrd. dollar) hisobiga qisman qoplandi.

Moliyaviy hisobning manfiy saldosi 6,3 mlrd. dollarni (2020 yilda 4,1 mlrd. dollar) tashkil etib, bu ko'rsatkich rezidentlarning moliyaviy aktivlari 46 foizga yoki 3,3 mlrd. dollarga, majburiyatlari esa 10 foizga yoki 1,1 mlrd. dollarga qisqarishi tufayli hosil bo'ldi. Moliyaviy aktivlarning qisqarishi asosan monetar oltinning jahon bozorlaridagi narxi pasayishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasiga chet eldan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof hajmi 2,0 mlrd. dollarni tashkil qildi (2020 yilda 1,7 mlrd. dollar). Portfel investitsiyalari bo'yicha sof majburiyatlar 2,0 mlrd. dollarga o'sib davlat (895,3 mln. dollar) hamda boshqa sektorlar (1,1 mlrd. dollar) tomonidan xalqaro bozorlarda qarz instrumentlarini (yevrobondlarni) joylashtirish bilan izohlanadi.

2022 yilning 1 yanvar holatiga mamlakat va mamlakat rezidentlarining (yuridik va jismoniy shaxslarning) chet el valyutasidagi aktivlari 70,4 mlrd. dollarni, tashqi majburiyatlarining hajmi esa 53,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston rezidentlarining tashqi aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi sof farq 2021 yil boshiga nisbatan 17 foizga yoki 3,5 mlrd. dollarga qisqarib, 2022 yilning 1 yanvar holatiga 16,8 mlrd. dollarni tashkil etdi.<sup>5</sup>

#### **6.4 Offshorlar muammosi va xalqaro iqtisodiy xavfsizlik.**

Hozirgi davr jahon iqtisodiyotida moliyaviy jinoyatlashuv muammolarining eng muhimlaridan biri offshorlar muammosidir. Offshor (ingl. offshore — "qirg'oqdan tashqari") — ushbu markaz joylashgan mamlakatda, xorijiy kompaniyalarga maxsus soliq va boshqa imtiyozlarni berish yo'li bilan xorijiy kapitalarni jalb qilish uchun tashkil qilingan moliyaviy markazdir. Dunyoning ba'zi bir davlatlari va hududlarida offshor biznesi, offshor kompaniyalarni ro'yxatga olish va ularning faoliyati qonunchilik bilan ruxsat berilgan, norezidentlarga rezidentlarga nisbatan ko'proq imtiyozlar berilgan markazlar *offshor huquqiga ega hududlar* deb nomlanadi.

Xorijiy mamlakatlar rezidentlariga ro'yxatda turish, valyuta, soliq va ma'muriy tartiblarda imtiyozlar berilgan, offshor kompaniyalar sifatida yuridik va

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi. 2021 yil uchun. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

Jismoniy shaxslar bo'lib ro'yxatga olingan, xorijiy valyutalarda tijoriy faoliyat olib borishga ruxsat berilgan, qonun bilan ruxsat berilgan xar qanday xorijiy tijoriy faoliyat *offshor biznes* deb ataladi. Bir mamlakatda ro'yxatga olingan, offshor kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladigan, xorijiy bitimlar offshor bitimlar deb ataladi.

"Offshor" atamasi XX asrning 50 – yillarida AQSHning sharqiy qirg'og'idagi gazetalardan birida paydo bo'ldi. Gap, geografik joylashuvini o'zgartirish yo'li bilan, hukumat nazoratidan qochgan moliyaviy tashkilot to'g'risida ketardi. Offshor hududlarning aniq sonini aytib bo'lmaydi, chunki turli mamlakatlarda offshorlar ro'yxatiga kiritish va undan o'chirish metodikasi turlicha yuritiladi.

Umuman olganda jahon iqtisodiyotida taxminan 70 ta offshor markazlari hisobga olingan. Offshor markazlarning vujudga kelgan tarmog'i, ularning dunyoni uchta yetakchi moliya markazlariga – Nyu-York, London va Tokioga aniq intilishini namoyon etadi, ba'zilar – ayrim mintaqaviy moliya markazlarga qaraydilar.

Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida kapitalning o'sib borayotgan ulushi kelib chiqqan mamlakatida emas, balki doimo migratsiya qilib, eng daromadli obyektlarni qidirib xorijdagi ishlab chiqarishga kiritiladi. Xalqaro kapital xorij mamlakatlarida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish sohasiga kiritiladi. Bunda sanoat kapitali odatda ushbu mamlakatlarda bevosita xorijiy investitsiyalar qoidasi bo'yicha uzoq muddatlarga qo'yiladi. U ishbilarmonlik xohishlarining mahalliy qoidalariga buysinishi – qo'yilgan soliqlarni to'lash, valyuta nazorati me'yorlariga amal qilishi va mahalliy ma'muriyatning boshqa topshiriqlarini bajarishi kerak bo'ladi.

Moliya kapitali yuqori darajadagi xarakatchanlik bilan ajralib turadi. Kelib chiqish mamlakatining nazoratidan qutulgandan keyin, kapital imtiyozli soliq, valyuta va ma'muriy tartiblariga ega bo'lgan offshor markazlariga ko'chib o'tadi, xizmat sohasiga, avvalambor moliya sohasiga e'tibor qaratadi, va hech qanday to'siqlarsiz butun dunyo bo'ylab harakat qiladi. Ushbu kapital jahon iqtisodiyotining dengiz va aviatsiya tashuvlari, eksport, import va reeksport, bank ishi, sug'urta, ko'chmas mulk, intellektual mulk, valyuta va qimmatli qog'ozlar bitimlari, turizm, maslahat berish, audit, homiylik faoliyati, mehnat resurslari migratsiyasi kabi sektorlarida jamlanadi va faol harakat qiladi.

TMKlar 6 mingdan oshiq offshor banklarga, 5 mingga yaqin sug'urta kompaniyalariga, o'n minglab investitsiya va saxovat jamg'armalari, yuz minglab trust kelishuvlari va xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi maxsus offshor kompaniyalarga egalar. Dunyo banklari transchegaraviy moliya aktivlari va majburiyatlarining 14–17% offshorlarga to'g'ri keladi. AQSH yirik korporatsiyalarining 80% dan oshig'i offshorlarda o'z shoxobchalariga egalar, ularning soni 300dan 400 tagacha yetadi. Offshor xizmatlariga o'sib borayotgan talablarni yuqori sof daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar (millioner va milliarderlar) amalga oshiradilar. Ushbu guruhning o'zagini ishdan uzoqlashgan boylar, yirik kompaniyalarning sobiq menejrlari hamda erkin kasb egalari tashkil qiladilar.



Kichik va o'rta biznes korxonalari uchun offshorlar katta o'rin tutadi, ularning egalari offshor rejaları va texnologiyalaridan foydalanib, muhim tadbirkorlik resursiga ega bo'lishni o'ylaydilar. Turli mamlakatlarning davlat tuzilmalari ham ko'pincha qurilish pudratlarini joylashtirishda, kreditlarni olishda offshor tuzilmalaridan faol ravishda foydalanadilar.

Offshorlarning yuzaga kelgan bir necha tiplarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi tipdagi offshorlarga – orol offshorlar – Karib dengizi, Tinch va Hind okeanidagi orollar va arxipelaglarni kiritish mumkin. Ushbu offshorlarning asosiy xususiyatlari bo'lib: soliqlarning umuman yo'qligi, mo'tadil darajadagi to'lovlar, buxgalterlik hisobini yuritishga talabning yo'qligi, kompaniya egalarning sirlari va anonimligi saqlanib qolishi hisoblanadi. Ammo, ushbu hududlarda ro'yxatga olingan kompaniyalar shubhali mavqega va past obro'ga ega bo'lgan kompaniyalardir. Ushbu offshorlarning faoliyatiga Katta yigirmalik mamlakatlari tomonidan, ularni ishini ochiq lashtirish uchun eng katta e'tibor qaratilgani sababli, orolda joylashgan offshorlar uchun tezkor choralar ko'rish zarur bo'ladi.

Ikkinchi tipdagi offshorlar – bu Yevropadagi hududlar (Luksemburg, Lixtenshteyn, Jersi va Gernsi orollari va h.k.) bo'lib, ancha yuqori mavqega egalari, va offshorni saqlab turish qiymati yiliga o'n minglab dollarni tashkil qiladi. Bu mamlakatlar ayrim faoliyat turlari uchun soliq imtiyoziga egalari. Ushbu hududlarni to'liq ma'noda offshor deb ham bo'lmaydi: ularda soliqlar to'lanadi, buxgalteriya hisoblari yuritiladi, muntazam ravishda audit o'tkaziladi. Biznes egalari to'g'risidagi ma'lumotlar odatdagidek ochiq lanadi. Masalan, Luksemburg Buyuk gersogligi, Shveysariya kabi ishonchga ega, eng past soliq darajasiga (masalan, institutsional investitsiya fondlari uchun 0,01%) egalari, hamda banklar faoliyatini nazorat qilishning juda ham jiddiy emasligi bilan ajralib turadi. Bularning hammasi buyuk gersoglikka moliyaviy kompaniyalar uchun eng qulay joy sifatida tan olinishiga olib keldi. Ushbu sohadagi xizmatlar mamlakat umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining 40% ni tashkil qiladi. Luksemburgda aholi jon boshiga daromadlar 2020 yilda 117,1 ming dollarni tashkil qildi, va bu Germaniyaning ko'rsatkichidan (45,2 ming dollar) ikki yarim barobardan oshiqdir.

Yevropa offshorlariga misol sifatida yana Shveysariyani ko'rsatish mumkin. Jeneva ko'li bo'yida neft tankerlari ham yo'q, burg'ulash konlari ham yo'q, lekin tinchgina Jenevaga, Xitoy import qilganidan ko'p neft import qilinadi (xarqalay, qog'ozda bo'lsa ham). Jenevadan turib 20 mingdan oshiq kemalar (dunyo flotining 22%) boshqarilib turiladi. Shveysariya sayyoramizda yetishtirilgan bug'doyning uchdan birini, shakar va qahvaning yarmini import qiladi. Bu qanday qilib amalga oshiriladi? Soliqqa tortishning yengilligi tufayli – o'rtacha, bor-yo'g'i 11,6% - va tartibga solishning yengilligi sababli Shveysariya jahon xomashyo bozori markazida eng daromadli, lekin bahslarga sabab bo'luvchi o'rinni egallagan.

Nihoyat, uchinchi tipdagi offshorlar sifatida, soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan, ba'zi ma'muriy-hududiy joylarni aytib o'tish mumkin, masalan, Malayziyadagi Labuan yoki AQSHning ayrim shtatlari unga misol bo'ladi. AQSHning o'zida "ichki" offshorlar (Delaver, Vayoming) shtatlarda va mamlakatga qarashli orollarda mavjud. Amerikaning Delaver shtatida, 917 ming

aholisi bor, lekin 945 ming kompaniya ro'yxatda turadi, ularning ko'pchiligi faqat qog'ozda mavjud. Mayami – yirik bank offshori hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy hamjamiyati offshorlarning salbiy ahamiyatini nimada ko'radilar? Iqtisodchi J.Genri 2012-yilda Tax Justice Network xalqaro tashkilotining buyurtmasiga ko'ra soliqdan qochish miqyoslari bo'yicha misli ko'rilmagan tadqiqotni amalga oshirdi. Uning aniqlashicha, 2010-yil holatiga, jahonni eng boy qatlarning hisobida turli offshor hududlarda 21 trln dollar yashirilgan ekan. J.Genrining fikricha ushbu raqam juda ham qat'iy emas, haqiqatda esa, soliqqa tortilmaydigan yashirilgan boyliklar miqdori 32 trln dollarga yetishi mumkin. J.Genrining baholashicha, 1970-yildan 2010-yilgacha 139 ta rivojlanayotgan mamlakatning fuqarolari offshorlarga 7,3 trln. dan to 9,3 trln. dollargacha olib chiqqanlar. Yana uning ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilning oxirida 50 ta yetakchi banklar, o'zlarining eng boy xususiy mijozlarining manfaatlari asosida, o'z mamlakatlarida 12,1 trln dollar soliq to'lagan, aktivlarini boshqarganlar.

Xususiy bank xizmatlari sektorida eng yiriklari UBS, Credit Suisse va Goldman Sachs banklari hisoblanadi. Ofshorlarda saqlanayotgan 9,8 trln. dollar mablag'larning dunyodagi egalari 100 mingdan kam hisoblanadi. Soliqqa tortishdan yashirilgan mablag'larni baholashda J.Genri faqat moliyaviy aktivlarni hisobga olgan. Ko'chmas mulk, boylik buyumlari, yaxtalar va boshqalar hisobga olinmagan.

Global miqyosda Xitoydan olib chiqilgan mablag'lar – 1,189 trln. dollar bo'lib, ushbu mablag'lar 40 yil mobaynida olib chiqilgan. Rossiyadan 1990 yildan boshlab 798 mlrd dollar olib chiqib ketilgan. Kapitallarning offshor hisoblariga chiqib ketishida uchinchi o'rinni Koreya Respublikasi – 779 mlrd dollar bilan egallaydi. Undan keyingi o'rinlarni Braziliya (520 mlrd dollar), Quvayt (496), Meksika (417), Venesuela (406) Argentina (399) egallab turibdi. Ukrainadan 1990 yildan keyingi davrda offshor hisoblariga 167 mlrd dollar, Qozog'istondan – 138 mlrd dollar o'tkazilgan.

J.Genri o'z xulosasida aytib o'tadiki, agar 21-32 trln dollar yiliga 3% lik kamtargina daromad keltiradigan bo'lsa va ushbu daromad 30%lik soliqqa tortilganda offshor aktivlari birinchi yilning o'zida 190-280 mlrd dollar foyda keltirgan bo'lardi. Bu boy davlatlarning (IHRT) dunyo bo'yicha kambag'al mamlakatlarga moddiy yordam va rivojlanishga ajratadigan mablag'laridan taxminan ikki barobar ko'pdir.

Offshorlarga qarshi kurashda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) tomonidan 2000 yildan boshlab tuzilgan offshor huquqidagi "qora ro'yxat" muhim o'rin tutadi. Dastlab "qora ro'yxat"ga 55 ta birinchi, orollar tipidagi offshorlar kiritildi. Katta yigirmalikning 2009-yildagi majlisida offshorlarga qarshi kurashni kuchaytirish va tezlashtirish bo'yicha qaror qabul qilindi. Ularga qo'yiladigan asosiy talab – avvalambor, iqtisodiy jinoyatlar bilan ish olib borayotgan huquqni muhofaza qilish idoralariga ochiqlikni kuchaytirish hisoblanadi. IHRTning oxirgi "qora ro'yxatiga" faqat Andorra, Lixtenshteyn, Monako, Marshall orollari offshorlari kiritildi.

Bugungi kunda barcha tomonidan tan olinganiga ko'ra, noqonuniy faoliyatga qarshi eng yaxshi qurol – transparentlik, ya'ni axborotlarni yig'ish va ularga erishishni kuchaytirish. Kichik offshor markazlari, ularning mijozlari biznesi qaerda joylashganligi to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni bera boshladilar. Transparentlik korporativ soliqdan qochishning eng agressiv shakllarini nazoratga olish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari foydasiga solinadigan soliqlarni kamaytirishlari kerak. Kompaniyalardan pul talab qilish foydasiz, ular bu yukni darrov bironing bo'yniga ilib qo'ya qoladilar. Yaxshisi, kapital egalari bo'ladimi, firma xodimlari yoki ist'emochilar bo'ladimi, o'shalarini, ya'ni to'lashi shart bo'lganlarni, shaxsan soliqqa tortish kerak. Kompaniyalardan olinadigan soliqlar katta foyda keltirmaydi: AQSHda bu YAIMning 2% dan kam (barcha soliq tushumlarining 8,5%), Buyuk Britaniyada 2,7% dan oshiq emas. Soliqlarning past darajasi va soliq idoralarining yuqori sezgirliги katta samara beradi va soliq tushumlarining oshishiga imkon beradi.

### **Tayanch tushunchalar**

*Global moliyaviy Xavfsizlik; moliyaviy “ko'piklar”; kriptovalyuta; kriptografiya; bitkoin; mayning; to'lov balansini yomonlashuvi; davlat qarzini ko'payishi; valyuta xatari; sug'urta kafolatlari; valyuta-kredit operatsiyalari; xalqaro kredit; ssuda mablag'i; investitsiyalardan foydalanish samaradorligi; savdo balansi; savdo va xizmatlar balansi; bir tomonlama o'tkazmalar; joriy operatsiyalar bo'yicha balans; offshor; offshor biznesi; offshor kompaniyalar; yetakchi moliya markazlari; moliya kapitali.*

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1) Global moliyaviy xavfsizlikning mohiyatini qanday tushunasiz?
- 2) Makroiqtisodiy darajada valyuta xatarini vujudga kelishining bevosita sabablari nimada?
- 3) Valyuta xatari qanday kelib chiqadi?
- 4) Investitsiyalardan foydalanish samaradorligi qanday hisoblanadi?
- 5) Dunyoning yetakchi moliya markazlarini sanab bering?
- 6) Mamlakat to'lov balansi qanday ko'rsatkich hisoblanadi?
- 7) To'lov balansining yomonlashuvi qanday og'ir oqibatlariga olib keladi?
- 8) Kriptovalyutalar nima va ular global moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda qanday o'rin tutadi?
- 9) Offshor hududlarning mohiyati va global iqtisodiy xavfsizlikdagi o'rni nimada?

## **7-MAVZU: ENERGIYA VA XOMASHYO XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI**

7.1. Tabiiy resurslar muammolari. Energiya va xom-ashyo xavfsizligi

7.2. Jahon xomashyo bozorlarining rivojlanish xususiyatlari

7.3. O'zbekistonning mineral-xomashyo resurslari imkoniyatlari

### **7.1 Tabiiy resurslar muammolari. Energiya va xom-ashyo xavfsizligi.**

Global energiya-xomashyo muammosi kelib chiqishi bo'yicha bir-biriga o'xshash ikkita: energiya va xomashyo muammosini o'z ichiga oladi. Jahon iqtisodiyotida 1970 yillar – 1980 yillar boshlarida birinchi marta shunday vaziyat yuzaga keldiki, ular energetika va xomashyo inqirozi degan nom oldi. O'sha vaqtda bu muammolar mavjud xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimiga katta zarba bo'ldi, ko'p mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yomonlashtirib yubordi. Lekin, shu bilan birgalikda ular, ishlab chiqarishga energiya tejovchi va resurs tejovchi texnologiyalarni kiritish uchun turtki bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlarda 1970-1980-yillarda ishlab chiqarishning energiya sig'imi taxminan 25%ga kamaydi. Masalan, XXI asr o'rtalariga kelib, 1 mlrd.ga yaqin odam kuniga 100 l suv bilan yashashga majbur bo'ladi, bu esa o'rtacha bir vanna va bir odamning ovqatlanishi va gigienasi uchun zarur bo'lgan minimal miqdorga tengdir. Amerikalik o'rtacha kuniga 376 l suv ishlatadi. Hozirgi kunda 150 mln ga yaqin odam 100 litrlik chegarada yashaydi.

BMT hujjatlarida, asosiy suv ist'emolchisi hisoblangan qishloq xo'jaligini isloh qilish tavsiya qilingan, chunki kambag'al mamlakatlarda suvning deyarlik yarmi amalda foydasi bo'lmay oqib ketadi. BMT boshchiligidagi 2010-yildagi iqlim kelishuvlari, iqlim o'zgarishlaridan eng ko'p azob chekkan kambag'al mamlakatlarga yordam berish uchun global jamg'arma tashkil qilish qarori bilan yakunlandi. Jamg'armaning yillik budjeti 2020-yilda 100 mlrd dollarni tashkil qilishi kerak edi.

Hozirgi zamon tamadduni – jamiyat xayotining ko'pchilik sohalari (sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, fan, axborot texnologiyalari, ta'lim va b.) amal qilishi va o'zaro bog'liqligi natijasi bo'lsada, aynan xomashyo sektori eng muhimi va eng zaif bo'g'ini hisoblanadi. Foydali qazilmalar dunyoda notekis taqsimlangan. Shuning uchun ham energiya manbalari va xomashyo xalqaro savdosi keng tarqalgan bo'lib, mos ravishdagi transport ta'minotini talab qiladi.

Jahon bozorida xomashyo va energiya manbalarining asosiy xaridorlari bo'lib rivojlangan mamlakatlar hisoblanishadi, ular bunday mahsulotni ishlab chiqargandan ko'ra ko'proq ist'emol qiladilar. Ammo, rivojlanayotgan mamlakatlar, avvalambor, Xitoy va Hindiston tomonidan bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Hozirgi paytda ushbu mamlakatlar iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini namoyish qilmoqdalar, qolaversa ilg'or texnologiyalarni qo'llashda ham ular ancha oldinga siljib ketdilar. Lekin ularning iqtisodiy o'sishi hozirda ham ancha resurstalab hisoblanadi. Xomashyo va materiallar sarfining ulushi jahon YAIMning yarmidan ko'pini tashkil qiladi, jahon sanoat ishlab chiqarishida esa ushbu ulush 70% dan oshadi. Keyingi 50 yil davomida tabiiy yonilg'i resurslari (neft, gaz, ko'mir) ist'emoli 2,5 barobarga oshdi, va ular dunyo energiya balansining 90%ni tashkil qilmoqda.

BMT bashoratlariga ko'ra dunyo aholisi 2030-yilga borib 8,5 mlrd kishini tashkil qiladi, 2050-yilda esa 10 mlrd kishidan oshib ketadi, ularning 80% rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Yer shari aholisining soni energiya ist'emoliga juda katta ta'sir ko'rsatadi, lekin ko'p jihatdan, energiya balansi industrial rivojlanish sur'atlariga bog'liqdir. Energiyaga bo'lgan global ehtiyoj jadal ravishda oshib bormoqda (yiliga 3%ga yaqin). Shunday sur'atlarning saqlanib qolishida, XXI asr o'rtalariga borib, dunyo energiya balansi 2,5 barobarga oshadi, asrning oxirida esa – 4 barobarga oshadi. Energiyaga ehtiyojning oshishi dunyo aholisining o'sib borishi va turmush sifatining yaxshilanishi, jahon sanoatining rivojlanishi, rivojlanayotgan mamlakatlar industrializatsiyasi bilan bog'liqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish va uy xo'jaliklarining daromadlari zarur darajaga oshishi, albatta, global bozorda bir milliard yangi ist'emolchilarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Energiya xavfsizligi muammosi jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonlari, energetika tizimining atrof-muhitga salbiy ta'siri, hamda sayyoramiz an'anaviy energiya resurslarining tugab borayotganligi sababli ancha keskin tus oldi. Mana shu omillarning barchasi barqaror rivojlanishga havf solmoqda. Energiyani tejash orqali asrimizning o'rtalariga borib 6 mlrd tonna ko'mir yonilg'isini tejash zarur bo'ladi, bu esa hozirgi davrdagi neft va gaz qazib olishiga tengdir, 2100 yilga borib esa 18 mlrd tonna ko'mir yonilg'isi tejaladi, bu hozirgi butun dunyo energiya balansiga – 14 mlrd tonnaga tengdir. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uchun o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning juda yuqori – yiliga 4% gacha, sur'atlari bashorat qilinmoqda. Hozirgi paytda ularning eng ilg'ori Xitoy bo'lib, yillik 7-9% o'sishni ta'minlamoqda. Iqtisodiyotning bunday sur'atlarda o'sishini XX asr texnologiyalari asosida energiya bilan ta'minlashning imkoni bo'lmaydi. Aynan shuning uchun ham energetikada innovatsion texnologiyalarini qo'llash butun dunyo uchun juda katta ahamiyatga egadir. Energiya tejamkorlik tabiiy resurslarining juda katta miqdorini kelajak avlod uchun saqlab qolish imkonini beradi.

Mineral-xomashyo kompaniyalari uchun global rivojlanishning hozirgi tendensiyalari bilan bog'liq bo'lgan yangi chaqiriqlarga javob berish juda muhim bo'lib bormoqda. Avvalambor bu, ishlab chiqarish unumdorligiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish zanjirining yuqori bo'g'imida joylashgan qazib oluvchi kompaniyalar, katta kapital sig'imli loyihalarning daromadlilikini oshirish maqsadida xarajatlarni qisqartirishga e'tibor qaratmoqdalar. Qo'shimcha qiymat zanjirining o'rta bo'g'imida joylashgan kompaniyalar (metallurgiya kompaniyalari, qog'oz va undan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar) uchun asosiy omil bo'lib boshqaruv xarajatlari xizmat qiladi, chunki ular bozorga yangi kirib kelayotgan, yangi texnologiyalardan foydalanishda afzalliklarga ega bo'lgan kompaniyalar tomonidan raqobat bosimiga duch keladilar.

Mineral-xomashyo kompaniyalari o'z ishlab chiqarish quvvatlarini, asosiy quvvatlari joylashgan mamlakatlarda o'rnatishga harakat qiladilar. Mineral-xomashyo kompaniyalariga narxlar, investitsiyalar, faoliyat ko'rsatadigan mintaqalari va davlat tartibga solishi aniq bo'lmagan sharoitlarda qarorlar qabul qilishga to'g'ri keladi.

Jahon energiya balansida energiyaning nominal manbalari ulushi oshib bormoqda. Binobarin, jahon YAIMda neft eksport qiluvchi mamlakatlarning o'rnini pasayib boradi. Energiyaning yangi manbalariga o'tish, ayrim ma'lumotlarga qaraganda, taxminan 2025-2030-yillargacha davom etadi.

Yer qariidan qazib olinadigan foydali qazilmalar mineral resurslar deb ataladi. Hozirgi zamon jahon xo'jaligida mineral yonilg'i va xomashyo resurslarining taxminan 200 ta turidan foydalaniladi. Ular turlicha tasniflanadi. Ularning ichida resurslardan texnik foydalanish asosidagi tasniflash eng keng tarqalgani hisoblanadi, unga ko'ra yonilg'i, metall, texnik resurslar va qurilish materiallari ajratiladi. Dunyo mineral yonilg'i va xomashyo resurslari Dunyo energetik kengashi sessiyalarining geologik, neft, gaz va boshqa kongresslarida baholanib va qayta baholanib boriladi.

An'anaviy ravishda yonilg'i resurslariga eng ko'p e'tibor beriladi. Ularni ikkita asosiy kategoriyalar bo'yicha – umumgeologik va qidirib topilgan resurslar sifatida hisobga olish qabul qilingan. Yer sharining quruqlik qismi bo'yicha ular ancha notekis taqsimlangan. Masalan, 1990-yillarning oxiridagi hisob-kitoblarga ko'ra, zahiralari bo'yicha MDH va Osiyo-Avstraliya mintaqalari birinchi va ikkinchi o'rinni egallab turibdilar. Uchinchi o'rinda Shimoliy Amerika, keyingi o'rinlarda Yaqin va O'rta Sharq, G'arbiy Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi mintaqalari turadilar. Albatta yana, mintaqalar o'z yonilg'i resurslarining tarkibi bo'yicha ham bir-biridan farq qiladilar. Umuman dunyo bo'yicha barcha yonilg'i resurslarining 70-75% toshko'mirga to'g'ri keladi (shartli yonilg'i hisobida), qolgan qismi esa neft va gaz o'rtasida taxminan teng tarkibda tarqalgandir. Mana shunday hisob-kitoblarda, Yevropada, masalan, toshko'mirning hissasi 90% ni tashkil qiladi, Yaqin va O'rta Sharqda esa resurslarning 100% neft va gazga to'g'ri keladi.

#### Jadval 7.1.1.

#### Toshko'mirning qidirib topilgan zahiralari bo'yicha birinchi o'n mamlakat

№	Mamlakat	Zahiralari, mlrd t.	Ulushi, % da
1.	AQSH	250	27,2
2.	Rossiya	195	21,2
3.	Xitoy	115	12,5
4.	Hindiston	85	8,8
5.	Avstraliya	82	8,5
6.	Germaniya	56	5,8
7.	JAR	50	5,2
8.	Ukraina	34	3,5
9.	Qozog'iston	34	3,5
10.	Polsha	22	2,3

Мапа: Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. II: Общая характеристика мира. Москва, Дрофа, 2008, 4-е изд.,

Toshko'mir yer qariida keng tarqalgan: uning 3,6 mingta havzalari va konlari ma'lum bo'lib, bu quruqlikning 15% hududini egallagan. Toshko'mirning umumiy va qidirib topilgan zahiralari neft va gazning zahiralaridan ancha ko'pdir.

Xalqaro geologik kongressning 1984-yildagi XXVII sessiyasida dunyo umumiy toshko‘mir resurslari 14,8 trln t. (shu jumladan 9,4 trln t. toshko‘mir va 5,4 trln t. qo‘ng‘ir ko‘mir) deb baholangan, 1990-yillarning ikkinchi yarmida esa turli qayta baholashlar va qayta hisoblashlar tufayli – 5,5 trln t. (shu jumladan 4,3 trln t. toshko‘mir va 1,2 trln t. qo‘ng‘ir ko‘mir) ekanligi aniqlandi.

Jadval 7.1.1. tahlili shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, AQSH, Xitoy va Rossiyaga dunyoda qidirib topilgan toshko‘mir zahiralarning yarmi to‘g‘ri keladi, va ikkinchidan, toshko‘mir zahiralari bo‘yicha birinchi o‘nlikka kiruvchi mamlakatlar tarkibida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan ancha ustun turadilar. Barcha toshko‘mir zahiralari dunyoning 83 mamlakatida qidirib topilgan.

Yer qa‘rida neft toshko‘mirlarga nisbatan keng tarqalgan, ammo, neftning dunyo zahiralari toshko‘mirlarga nisbatan ancha kamdir. Neftning qidirib topilgan dunyo zahiralari 2007-yil boshida 192,5 mlrd t.ni tashkil qilgan. Neftning qidirib topilgan zahiralari bo‘yicha Fors qo‘ltig‘i mamlakatlari eng katta hissaga ega bo‘lib, uning zahiralari 100 mlrd t.dan toshadi va bu yerda dunyo neft zahiralarning yarmidan ko‘pi mavjuddir. Dunyodagi eng mashhur 30 ta ulkan neft konlari shu yerda joylashgandir.

**Jadval 7.1.2.**

**Neftning qidirib topilgan zahiralari bo‘yicha birinchi o‘n mamlakat**

№	Mamlakat	Zahiralari, mlrd t.	Ulushi, % da
1.	Saudiya Arabistoni	36,3	12,4
2.	Eron	18,9	9,8
3.	Iroq	15,5	8,1
4.	Rossiya	15,1	8,0
5.	Quvayt	14,0	7,2
6.	BAA	13,0	6,8
7.	Venesuela	11,5	6,0
8.	Qozog‘iston	5,4	2,8
9.	Liviya	5,1	2,6
10.	Nigeriya	4,8	2,5

Manba: Макасовский В.П. Географическая картина мира. Кн. II: Общая характеристика мира. Москва, Дрофа, 2008, 4-е изд.,

XX asrning 80-yillaridan boshlab neftning qidirib topilgan zahiralari kengayib borishining nisbatan yangi tendensiyalari namoyon bo‘lmoqda. Bu holat shu bilan izohlanadiki, ushbu zahiralarning o‘sishi yangi neftga boy havzalarni qidirib topish bilan emas, balki mavjudlarida qo‘shimcha burg‘ilash ishlari natijasida amalga oshmoqda. Bundaylarga misol qilib Saudiya Arabistonini, Venesuelani va boshqa ko‘pgina mamlakatlarni ko‘rsatish mumkin. Qolavearsa, albatta, yangi neft havzalari quruqlikda ham, dengiz qirg‘oq bo‘ylarida ham topilmoqda (Kaspiybo‘yi va Kaspiy dengizi).

## Tabiiy gazning qidirib topilgan zahiralari bo'yicha birinchi o'n mamlakat

№	Mamlakat	Zahiralari, trln m <sup>3</sup>	Ulushi, % da
1.	Rossiya	48,1	27,4
2.	Eron	26,7	15,3
3.	Qatar	25,8	14,7
4.	Saudiya Arabistoni	6,7	3,8
5.	BAA	6,1	3,5
6.	AQSH	5,2	3,0
7.	Nigeriya	5,0	2,9
8.	Jazoir	4,5	2,6
9.	Venesuela	4,2	2,4
10.	Iroq	3,1	1,8

Manba: Максиковский В.П. Географическая картина мира. Кн. II: Общая характеристика мира. Москва, Дрофа, 2008, 4-е изд.,

Tabiiy gaz tabiatda erkin holatda tarqalgan bo'lib, u gaz yotqiziqchlari va konlari ko'rinishida, hamda neft konlari bilan birgalikda (yo'lovchi gaz) uchraydi. Yana neft va toshko'mir konlarining gazlaridan ham foydalaniladi. Tabiiy gazning qidirib topilgan (isbotlangan) zahiralari 2004 yilda 175 trln m<sup>3</sup> deb hisoblangan.

Jadval 7.1.3.ning tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy gazning dunyo bo'yicha qidirib topilgan zahiralarning 27% Rossiyaga to'g'ri kelar ekan. Dunyoda mavjud bo'lgan 20 ta yirik tabiiy gaz konlarining 9 tasi ushbu mamlakatda joylashgan.

Uran konlari dunyoda juda keng tarqalgan. Ammo, ularning orasida foydali tarkibi 0,1% dan kam bo'lmaganlarini qazib olish iqtisodiy jihatdan samaralidir: bunday holda 1 kg uran konsentratini olish 80 dollardan kanga tushadi. Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentligi (MAGATE) ma'lumotlari bo'yicha, mana shunday baholarda qazib olish mumkin bo'lgan, uranning qidirib topilgan zahiralari XXI asr boshida 3,3 mln t. deb baolangan. Ular dunyoning 44 mamlakati hududidagi taxminan 600 ta konda mavjuddir.

Dunyoda uranning qidirib topilgan zahiralari bo'yicha birinchi o'rinni Avstraliya egallaydi. Undan keyingi o'rinda Qozog'iston turadi. Uchinchi o'rin Kanadaga tegishli. Mana shu uchta davlatga dunyo uran zahiralarning yarmi to'g'ri keladi. Ulardan tashqari, uranning qidirib topilgan zahiralari bo'yicha birinchi o'nlik davlatlariga (kamayib borish tartibida) JAR, Braziliya, Namibiya, Rossiya, O'zbekiston, AQSH va Niger ham kiradi.

Statistik manbalar iqtisodiy rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarning mineral-xomashyo salohiyatini taqqoslash imkonini beradi. Rivojlangan mamlakatlar oltin, marganes, xrom, uran, qo'rg'oshin va ruxning qidirib topilgan boy zahiralarga egalar. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi ayniqsa, neft zahiralari (80% dan oshiq), boksitlarda (77%), qalay va olmoslarda (60-65%), hamda misda (53%) yuqoridir. Uchta guruh mamlakatlari ham nikel, molibden, kumush zahiralarga taxminan teng nisbatda egalar. O'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar orasida Rossiya,



Qozog'iston va Ukraina mineral yonilg'i va xomashyo resurslariga eng boylari hisoblanadi.

## **7.2 Jahon xomashyo bozorlarining rivojlanish xususiyatlari.**

Jahon xo'jaligining rivojlanishida tabiiy resurslar bilan bog'liq bo'lgan muammolar muhim o'rin tutadi. Ushbu muammolar milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish, moliya-valyuta va tashqi iqtisodiy faoliyat kabi sohalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jahon xo'jaligida ishlab chiqarish sohalarining ko'payishi xomashyo resurslari ist'emolining ortib borishiga olib keladi. Jahon iqtisodiyotida xomashyo mahsulotlari ist'emolining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- jahon tovar ishlab chiqarishi darajasi – tovar ishlab chiqarishning o'sishi xomashyoga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi;

- ilmiy-texnik rivojlanish – ilmiy-texnik rivojlanish pirovard mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar pasayishi va tarkibining o'zgarishiga olib keladi.

Iqtisodiy rivojlanishda tabiiy foydali qazilma boyliklarning sanoat zahiralari muhim ahamiyatga ega. Sanoat zahiralari deganda, mavjud narxlar va texnikaviy bilimlar darajasida o'zlashtirish uchun samarali, sifatli va yaxshi o'rganilgan tabiiy foydali qazilma boyliklar zahiralari tushuniladi. Bunday resurslar miqdori jahon xo'jaligida nisbatan cheklangan hisoblanadi.

Xar qanday ishlab chiqarishning moddiy asosini xomashyolar tashkil qiladi. Mahsulotlar tarkibida xomashyoning ulushi mahsulot turiga qarab o'zgarib turadi. Masalan, ushbu ko'rsatkich mashinasozlikda 10-12% gacha, asosiy kimyoviy sintez mahsulotlarida esa 80-90% gacha yetadi.

Tabiiy xomashyo resurslari aksariyat mamlakatlar iqtisodiyoti uchun sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat boyligi va daromad keltiruvchi manbalaridan hisoblanadi.

Tabiiy resurslar quyidagi mezonlarga ko'ra guruhlanadi:

- tabiiy muhitga bog'liqligi;
- tugaydigan yoki tugamaydigan resurslar;
- foydalanish yo'nalishiga ko'ra;
- jismoniy holati.

Resurslarning tabiiy muhitga bog'liqligi esa quyidagicha ajratiladi:

- litosfera resurslari (foydali qazilmalar, yer va tuproq resurslari);
- gidrosfera resurslari (muzliklar, ichki suvlar va dunyo okeani);
- atmosfera resurslari (shamol, iqlimiy va rekreatsion);
- biosfera resurslari (flora va fauna).

Qazib chiqarish tarmoqlari jahon milliy mahsulotining 11% ini tashkil qiladi. Ushbu soha hissasiga sanoat ishlab chiqarishining 1/3 qismi to'g'ri keladi. Mineral resurslar ko'plab davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi va foyda olishida asosiy o'rin tutadi.

Jahon yalpi ist'emolining o'sishi cheklangan resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqaradi. Resurslarning cheklanganligi, uning qanchasi yer shari va okeanida mavjudligi juda muhim hisoblanadi. Nazariy jihatdan olganda

mineral resurslar uzoq vaqt intensiv ishlatish oqibatida tugashi mumkin. Ammo, yer sharida mavjud aksariyat resurslarning umumiy hajmi ist'emoq qilinayotganidan minglab, millionlab marta ko'pdir. Qazib chiqarish hajmining ortishi natijasida xomashyo zahiralari miqdori kamayib bormoqda. Shu bilan birgalikda, sanoatda ishlatiladigan xomashyodan samarali, tejamkorlik bilan foydalanish va yangi konlarni qidirib topish resurslarni ko'paytiradi. Masalan, o'tgan asrning oxirlarida misni tejamkorlik bilan ishlatish va yangi konlarni izlab topilishi natijasida jahonda mis zahiralari 1,17 barobarga, boksit zahirasi (aluminiy xom-ashyosi) esa 4,7 barobarga ko'paydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSHning asosiy muammolaridan biri, bu neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishdir. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarning neft mahsulotlariga bo'lgan talabi qazib chiqariladigan neft miqdoridan 2,5 barobar, AQSHda esa 1,9 barobar yuqoridir. Yaponida neftga bo'lgan talabning deyarli 100% import hisobidan qoplanadi. Yevropa Ittifoqida neft va neft mahsulotlari importining yarmidan ko'pi OPEK mamlakatlari (31,2%) va Rossiya (24%) hissasiga to'g'ri keladi.

Tahlillar jahon xomashyo bozori uchun xos quyidagi xususiyatlarni ajratish imkonini beradi:

- mineral xomashyoning xalqaro savdoda muhim kategoriyalardan biri ekanligi: jahon tovar eksportining 13% mineral xomashyo hissasiga to'g'ri kelishi, mineral xomashyo tarkibining 75% ni esa yonilg'i resurslari tashkil etishi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan mineral xomashyo yetkazib berishda neftning ulushi tobora oshib bormoqda;

- xomashyo resurslarining aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda zarur bo'ladigan mablag'larning asosiy manbai ekanligi va bu holat o'z navbatida milliy iqtisodiyotlarning xomashyo eksportiga bog'lanib qolishiga olib keladi;

- jahon xomashyo bozori ijtimoiy tarkibida muomala sohasining muhim o'ringa egaligi: tabiiy resurslardan foydalanishda xalqaro korporatsiyalar faol ishtirok etadilar va ularning aksariyat qismi tabiiy resurslarni qazib chiqarish va sotishga ixtisoslashgan;

- mineral xomashyo narxini belgilashda renta munosabatlarining muhim ahamiyatga ega ekanligi, ushbu xarajatlarning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida qazib chiqarishning tog', geologik shart-sharoitlari, ruda tarkibida foydali xomashyo miqdori va joylashgan o'rni muhim hisoblanadi;

- qazib chiqarishning ochiq usulida quvvatli texnikalardan samarali foydalanishning muhimligi, ushbu usul joriy xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi, zahirasi kam ruda konlarini tadqiq etish ularning iqtisodiy jihatdan nafilligini oshiradi.

#### **7.4 O'zbekiston Respublikasi mineral-xom ashyo resurslari imkoniyatlari.**

O'zbekiston hududining bor-yo'g'i 20 foizigina o'rganilgan, binobarin aniqlanishi kerak bo'lgan yangi konlarning katta salohiyati mavjuddir. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, respublikada mineral xom ashyo resurslarining salohiyati 5,7 trln. dollarni tashkil qiladi, shundan 1 trln. dollarligi

aniqlangan va qazib olishga tayyorlangan konlar hisoblanadi. Bugungi kunda respublikada 265 ta neft-gaz konlari mavjud bo'lib, ulardan yiliga 65 mlrd.kubometr tabiiy gaz qazib olinadi.

O'zbekistonning qulay iqlim sharoiti, serxosil yer maydonlari, dexkonchilikning sug'orishga asoslanganligi respublikada qishloq xo'jaligining qudratli resurs bazasini yaratishga imkon beradi. Respublikaning umumiy yer maydoni 44,9 mln. GA, shundan 27,9 mln GA qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar xisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 4,5 mln. GA (15,9%) xaydaladigan yerlardir. Umuman, mamlakatimiz yer maydonlarining 5-6 mln. GA sidan dexqonchilikda foydalaniladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi asosan sug'orma dexqonchilik asosida yuritilgani uchun suv resurslarining ahamiyati beqiyosdir. Respublikaning suv resurslariga mamlakat xududidan oqib o'tuvchi daryolarni, sug'orish kanallarini, suv omborlarini va tabiiy ko'llarini kiritish mumkin. Lekin, keyingi yillarda iqlim o'zgarishlari tufayli suv resurslarining yetishmovchiligi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Birinchidan, tabiiy va mineral-xom ashyo zahiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;

Ikkinchidan, foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibida foydali komponentlar yuqori darajada bo'libgina kolmay, katta miqdorda yo'ldosh elementlarga ham ega;

Uchinchidan, konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy. Bu texnologiya ko'p miqdorda foydali komponentlar chiqarishni va jahon bozorida xaridorgir mahsulot olishni ta'minlaydi;

To'rtinchidan, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan hududlarda joylashgan. Ular qulay transport infratuzilmasiga, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega.

Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforit, kaolin bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zahiralar va istiqbolli rudalar jihatidan dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Respublikamizning umumiy mineral-xom ashyo salohiyati taxminan 3,5 trillion dollarni tashkil qiladi. Ishlatish uchun tayyorlab qo'yilgan foydali qazilmalar zahiralari 1025 mlrd. AQSH dollariga baholanmoqda.

Respublikada 1000 ga yaqin kon mavjud, jumladan:

68 ta neft, gaz va kondensat koni,

51 ta qimmatbaho metallar koni,

41 ta rangli, nodir va radioaktiv metallar koni,

3 ta ko'mir koni,

24 ta yarqirama tosh xom ashyosi koni,

522 ta turli maqsadda foydalaniladigan qurilish materiallari va

151 ta chuchuk va mineral yer osti suvlari konlari qidirib chamlangan.

Tayyorlab qo'yilgan zahiralari negizida respublikada 535 ta kon, shaxta, kar'er, neft-gaz konlari, 420 ta suv olish joylari, balneologik shifoxonalar, shifobaxsh suvlarni quyish shoxobchalari ishlab turibdi.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd. dollar miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular o'rniga 6-7 mlrd. dollarlik yangi zahiralari ko'shilmogda.

Jahon bozorining o'zgargan sharoitlari O'zbekiston Respublikasi mineral xom ashyo negizini qayta taqsimlash muammosini ilgari surmoqda. Buning uchun barcha toifadagi sanoat zahiralari va prognoz qilingan resurslar qisqa muddat ichida geologik-iqtisodiy baholanishi kerak.

Respublikada yagona bo'lgan metall parchalari hisobiga ishlovchi O'zbekiston metallurgiya kombinatini xom ashyo bilan ta'minlash maqsadida Davlat geologiya qo'mitasi temirga oid geologiya-kidiruv ishlarini olib bormoqda.

Mineral xom ashyo bazasini mustahkamlash vazifalari:

1. Hozirgi vaktida 450 mln. tonna ma'dan (o'rtacha temir miqdori - 15%) zahirasiga ega bo'lgan Tebinbuloq (Qoraqalpog'iston Respublikasi), 70 mln. tonna ma'dan (miqdori - 33%) zahirasiga ega bo'lgan Temirkon (Jizzax viloyati) va 16 mln. tonna (miqdori - 34%) ma'dan zahirasiga ega bo'lgan Syurenota (Toshkent viloyati) singari uchta kon mavjud.

2. Navoiy viloyatida Qizilkum fosforit kombinati qurildi. Zavodning quvvati yiliga 1190 ming tonna bo'lgan konsentratni tashkil etadi. Korxonaning to'liq ishga tushirilishi bilan, respublikada fosforitga bo'lgan talab to'laligicha qondiriladi.

3. Qashqadaryo viloyatida quvvati yiliga 300 ming tonna bo'lgan kaliy xlor ishlab chiqaradigan kaliy zavodini qurish loyihalashtirmoqda. Korxonaga ishga tushishi bilan, respublikaning kaliy xloriga bo'lgan talabi qondiriladi.

### Tayanch tushunchalar

*Foydali qazilmalar; mineral resurslar; texnik resurslar; genetik tasniflash; umumgeologik resurslar; qidirib topilgan resurslar; Xalqaro geologik kongress; neftga boy havzalar; Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentligi (MAGATE); xomashyo resurslari ist'emoli; sanoat zahiralari; litosfera resurslari; gidrosfera resurslari; atmosfera resurslari; biosfera resurslari; energetika va xomashyo inqirozi; energiya tejovchi va resurs tejovchi texnologiyalar; energiya xavfsizligi muammosi; energetikada innovatsion texnologiyalarini qo'llash.*

### **Takrorlash uchun savollar**

1) Yonilg'i resurslarini qanday kategoriyalar asosida hisobga olish qabul qilingan?

2) Mineral va xomashyo resurslarining qidirib topilgan zahiralari deganda nlmanni tushunasiz?

3) Energiya resurslariga boy mamlakatlarni sanab bering?

4) Xomashyo resurslari ist'emolining ortib borishiga qanday jarayonlar sabab bo'ladi?

5) Tabiiy resurslar qanday mezonlar bo'yicha guruhlarga ajratiladi?

- 6) Resurslarning tabiiy muhitga bog'liqligi bo'yicha qanday ajratiladi?
- 7) Jahon xomashyo bozori uchun xos bo'lgan xususiyatlarni ajratib ko'rsating?
- 8) Jahon bozorida xomashyo va energiya manbalarining asosiy xaridorlari kimlar hisoblanadi?
- 9) Energiya xavfsizligi muammosi jahon iqtisodiyotidagi qanday o'zgarishlar sababli ancha keskin tus oldi?
- 10) O'zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi?

## **8-MAVZU: OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI GLOBAL OMIL SIFATIDA.**

- 8.1. Oziq-ovqat muammosini hal qilish xavfsizlik omili sifatida
- 8.2. Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hozirgi holat.
- 8.3. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash

### **8.1 Oziq-ovqat muammosini hal qilish xavfsizlik omili sifatida.**

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolarlan biri oziq-ovqat muammosi bo'lib qolmoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish o'nlab barobar oshdi, ammo bu mahsulotlar mamlakatlar va qit'alar bo'yicha notekis taqsimlangan. Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sishi Yer shari aholisining ko'payishi bilan qoplanib ketmoqda. Keyingi 30 yilda donli ekinlarni yetishtirish 2 barobarga oshdi, Yer shari aholisi soni esa 1,8 barobarga ko'paydi. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, insonning bir sutkalik oziq-ovqatga ehtiyoji 2300-2600 kkal ni va 70-100 g oqsilni talab qiladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, Yer shari aholisining 2/3 qismi muntazam ravishda oziq-ovqat yetishmovchiligini boshdan kechirmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, dunyo boyib bormoqda, odamlar bo'tqa va non ist'emolidan go'sht-sut tarkibli ovqatlarga o'tib ketdi. 2000-yildan 2030-yilgacha go'sht ist'emol qilish Xitoyda 49% ga, Hindistonda – 79% ga, Braziliyada esa 22% ga oshishi mumkin. Ammo, ist'emolning oshishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan ta'minlanganmi?

Bugungi kunda, oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlari bilan turli darajada ta'minlangan mamlakatlarning bir necha guruhini ajratish mumkin.

Birinchi guruhga sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarni kiritish mumkin, ular nafaqat ochlik nima ekanini bilishmaydi, balki oziq-ovqatning ehtiyojlarga nisbatan bir necha barobar ko'p zahiralarga egalar. Masalan, Yevropada oziq-ovqat mahsulotlarining zahirasi unga bo'lgan ehtiyojni ikki barobar qoplaydi. Yevropa mamlakatlari dunyo oziq-ovqat mahsulotlarining  $\frac{3}{4}$  qismini yetishtiradilar, vaholanki ularda dunyo aholisining 15% gina istiqomat qiladi. Ovqatlanishning o'rtacha kaloriyasi sutkasiga 3000 kkal ni (Germaniyada – 3700, AQSHda – 3650, Fransiyada – 3600, Buyuk Britaniyada – 3300 kkal) tashkil qiladi. Dunyoda ortiqcha ovqatlanadigan odamlarning soni 600 mln kishini tashkil qiladi, qolaversa ularning 100 mln nafari AQSHda yashaydi. Shuning bilan birgalikda shuni e'tiborda tutish kerakki, rivojlangan mamlakatlarning farovonligi ko'p jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlardagi ochlik hisobiga bo'lmoqda: agarda ular faqat o'zlarining tabiiy resurlariga tayanganda edi, qishloq xo'jaligining yuqori darajadagi intesivligiga qaramasdan, ulardagi ehtiyojlarni qondirishga yetmagan bo'lur edi.

Rivojlangan mamlakatlar oziq-ovqat muammolariga duch kelmagan, chunki rivojlanayotgan mamlakatlarda TMKlar tomonidan nazorat qilinadigan katta plantatsiyalar mavjud bo'lib, mana shular ular uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradilar. Hosilning deyarli barchasi, ushbu qishloq xo'jalik korxonasiga kapital kiritgan mamlakatga jo'natiladi. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida haydaladigan yerlarning  $\frac{1}{4}$  qismi mana shu maqsadlarda

foydalaniladi. Rivojlangan mamlakatlar uchun yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, uni eksport qiladigan rivojlanayotgan mamlakatlarda ehtiyojlarni qondirolmaslik va eksportdan keladigan daromadga qaramlik holatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchi guruhni Janubiy Yevropa, Old Osiyo mamlakatlari, Lotin Amerikasining ko'pchilik mamlakatlari, Mag'rib va ASEAN mamlakatlari tashkil qiladilar. Ushbu mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik, BMT talablari bilan belgilangan me'yorga yaqin darajadadir. Braziliyada ovqatlanish kaloriyasi 2800 kkal ni, Argentinada – 3050, Venesuelada – 2650, Jazoirida – 2950 kkal ni tashkil qiladi.

Uchinchi guruhni Sharqiy Yevropa, MDH, Boltiqbo'yi mamlakatlari, Hindiston, Misr, Indoneziya, JAR tashkil qiladilar. Bu yerda oziq-ovqat mahsulotlari bilan tahminlanganlik, BMT standartlarida belgilangan me'yorlardan "mumkin bo'lgan" chetlashish darajasidadir. JARda kunlik ovqatlanish kaloriyasi 2850 kkal ni, Indoneziyada – 2800, Hindistonda – 2230, Rossiyada – 2600 kkalni tashkil qiladi.

Nihoyat, to'rtinchi guruhni oziq-ovqat inqirozining barcha og'irliklarini boshidan kechirayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar tashkil qiladi. Ularning katta qismi Sahroi Kabirdan janubda joylashganlar, va qolaversa aholi soni o'sishning eng yuqori sur'atlariga egalar. To'yib ovqat yemaslik va bevosita ochlik bu yerlarda oddiy holat bo'lib qolgan. Masalan, Gvineya va Malida ovqatlanishning kaloriyaligi sutkasiga 2250 kkal ni, Tanzaniyada – 2200, Kanada – 2150, Sudanda – 2050, Mozambikda – 1800 kkal ni tashkil qiladi. Umumiy aholisi soni 1,3 mlrd kishini tashkil qiladigan, jami 54 ta rivojlanayotgan mamlakatda XX asr oxirlarida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishning mutloq pasayishi kuzatilgan edi.

Oziq-ovqat bo'yicha Xalqaro tashkilot (FAO) ning ma'lumotlariga ko'ra, o'sib borayotgan Yer shari aholisini ta'minlash uchun bug'doy, guruch, makkajo'xori, kartoshka va boshqa oziq-ovqat ekinlarining hosildorligi 2050-yilga borib ikki barobarga oshishi kerak. Buning uchun, FAO ogohlantirishicha, ikkinchi "yashil inqilob" zarur bo'ladi, chunki hosilni ko'paytirish, tobora yomonlashib borayotgan iqlim sharoitlarida amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Qurg'oqchilikka yoki suv bosib ketishiga chidamli bo'lgan texnika ekinlari zarur bo'ladi, ular juda chidamli bo'lishi, ammo ushbu holatda ham katta hosil berishlari kerak. Qishloq xo'jaligi sohasidagi mutaxassislar hisob-kitoblariga ko'ra, hozirgi kunda mavjud bo'lgan imkoniyatlar faqat 9 mlrd aholini boqishga yetarlidir.

Ovqatlanish tarkibining o'zgarishi ham muhim muammolardan hisoblanadi. Hindiston va Braziliya kabi o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda aholi farovonligining o'sishi bilan, ularning ehtiyojlari ham oshib bormoqda – odamlar g'arb mamlakatlari ovqatlanish standartiga moslashmoqdalar. Xitoyda 2020-yilga borib go'sht ist'emoli 1995-yilga nisbatan ikki barobarga oshdi. Mamlakatning eng muhim oziq-ovqat mahsuloti bo'lgan – guruchga bo'lgan talab, keyingi paytlarda oshmay qoldi. FAO bashoratlariga ko'ra, jahonning go'shtga bo'lgan talabi 2050-yilga borib, ikki barobarga oshadi. Go'sht qimmat turadi, uni ishlab chiqarish ham katta xarajatlar bilan bog'liqdir.

BMT mutaxassislari bashoratiga ko'ra, 2050-yilda oziq-ovqatga bo'lgan talab 70% ga oshadi. Jahon oziq-ovqat bozorida uning taklifiga keladigan bo'lsak, unga quyidagi omillar: yerlarning cheklanganligi, suvlarning cheklanganligi, hosildorlik o'sishining istiqbollari, bioyong'i ishlab chiqarish, iqlim o'zgarishlari ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat bilan ta'minlanish masalasiga keladigan bo'lsak, uni faqat iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarish va yetkazib berishni kafolatlash bilan hal qilib bo'lmaydi. Ko'pgina tadqiqotlar va qator rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat bilan ta'minlanishga, birgina, yetarli hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'zi bilan erishib bo'lmaydi. Mamlakatda, agar mablag'lari yetarli bo'lsa (masalan, sanoat ishlab chiqarishidan), xorijdan ham oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishi mumkin.

O'z vaqtida amerikalik tadqiqotchilar F.Lappe va Dj.Kollinz ochlik to'g'risidagi afsonalarni fosh qilib tashladilar. Ular, dunyoda yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilmaydi degan fikrlarga qarshi chiqdilar. Aslini olganda, asosiy muammo uning yetmay qolishida emas, balki ortiqchaligidadir. Sayyoramizda xar bir kishini kuniga 3500 kkal ovqat bilan ta'minlash uchun yetarli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladi, qolaversa, ushbu hisob-kitobda go'sht, sabzavotlar, mevalar, baliq va boshqa mahsulotlar hisobga olinmagan. Hozirgi kunda, dunyoda shunchalik mahsulotlar yetishtiriladiki, xar bir odam kuniga 1,7 kg ovqat mahsulotlari – 800 gr. donli ekinlardan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlar (non, bo'tqa, makaronlar va b.), taxminan 0,5 kg mevalar va sabzavotlar va 400 gr ga yaqin go'sht, tuxum, sut va boshqa oziqlarni olishlari mumkin.

Oziq-ovqat muammolari bo'yicha xalqaro muassasalar shug'ullanadilar, ular BMTda faoliyat ko'rsatayotgan va ushbu muammoga ixtisoslashganlardir:

- Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti – FAO;
- Xalqaro oziq-ovqat dasturi;
- Qishloq xo'jaligi rivojlanishi bo'yicha Xalqaro jamg'arma;
- EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi) orqali Bosh Assambleyaga hisob beradigan Jahon oziq-ovqat kengashi.

## **8.2 Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hozirgi holat.**

Oziq-ovqat xavfsizligi muammolari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish ko'pchilik mamlakatlar uchun zamonaviy iqtisodiyot fanining eng zarur yo'nalishlaridan biridir. Ushbu muammolarga bo'lgan katta qiziqishlar shu bilan izohlanadiki, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Faqatgina ichki oziq-ovqat bozorida barqarorlik bo'lgandagina davlat ham ichki, ham tashqi mustaqil siyosatni yuritishi mumkin bo'ladi.

Ushbu muammo murakkab, ko'pqirrali va ko'ppog'onali mohiyatga egadir va "oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasiga birgina to'laqonli ta'rif berish juda qiyindir. Dunyo darajasida umumiy tan olingan ta'rifga ko'ra "oziq-ovqat xavfsizligi – shunday holatki, bunda aholi faol va sog'lom hayot kechirishi uchun doimo xavfsiz ovqatlarning yetarli miqdoriga jismonan va iqtisodiy erishish imkoniyatiga ega bo'lishidir".



“Jahon oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha Rim deklaratsiyasida” xar qanday davlatda xar bir aholisining, yetarli darajada ovqatlanish huquqi va ochlikdan holi bo‘lish huquqiga muvofiq, sog‘ligi uchun xavfsiz bo‘lgan va to‘laqonli oziq-ovqat mahsulotlariga erishish huquqini ta‘minlash majburiyati ko‘rsatilgan. MDH mamlakatlarining ko‘pchiligida “oziq-ovqat xavfsizligi” tushunchasini “oziq-ovqat mustaqilligi” va “oziq-ovqat bilan o‘zini-o‘zi ta‘minlash” tushunchalari bilan almashtirib yuboradilar.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyot fanida oziq-ovqat importi oziq-ovqat bilan ta‘minlanishning to‘laqonli va mos bo‘lgan muqobili sifatida belgilangan. Importning miqdori bozor va uning qonunlari bilan nisbiy afzalliklarni va u yoki bu mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning erishilgan darajasini hisobga olgan holda belgilanadi. Oziq-ovqat importi va jahon savdosini rivojlantirishning zarurligiga shunday yondashuvni, faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlardagi ocharchilikka qarshi yo‘naltirilgan xalqaro tashkilotlar va BMT dasturlari ham qo‘llaydilar. Masalan, shu munosabat bilan FAO jahon oziq-ovqat xavfsizligining quyidagi jihatlarni ajratadi:

1) oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat bilan o‘zini-o‘zi ta‘minlashi zarurligini bildirmaydi;

2) mamlakat, agar nisbiy afzalliklari mavjud bo‘ladigan bo‘lsa, ichki ehtiyojlar uchun yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga intilishi shart;

3) mamlakat aholi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘ladigan oziq-ovqat miqdorini import qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart. Yana, FAO ta‘kidlashicha, savdo siyosati 2030-yilga borib butun dunyoda ocharchilikni bartaraf qilishda muhim o‘rin tutishi kerak bo‘ladi.

Shu munosabat bilan oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasining 2 ta asosiy tipini ajratish mumkin – erkin va proteksionistik. Erkin savdo siyosatiga ko‘ra, oziq-ovqat xavfsizligiga xalqaro mehnat taqsimotida, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi xalqaro kooperatsiya va integratsiyada, xalqaro savdoda ishtirok qilish bilan, xalqaro savdo rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi tarifli va notarif to‘siqlarni kamaytirish orqali hal qilish mumkin bo‘ladi.

Aksincha, proteksionistik siyosat doirasida davlatning ichki oziq-ovqat bozorini himoya qilish bo‘yicha iqtisodiy siyosati vositalari: import oziq-ovqat mahsulotlariga kvotalar, oziq-ovqat importiga yuqori tariflar qo‘yish, oziq-ovqat embargosi, nota‘rif to‘siqlar qo‘llaniladi. Ushbu ikki konsepsiya bo‘yicha qarama-qarshiliklar ancha shartlidir va mangu emasdir, chunki jahon iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligi qanchalik rivojlanib borsa, u mamlakat ichida yetishtirilganmi yoki import qilinganmi, shunga qaramasdan o‘zini oziq-ovqat bilan ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar ko‘payib boradi, va dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha ahvol yaxshilanib boradi.

Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha hozirgi holat. Yangi koronavirusning global pandemiyasi va undan keyin yuzaga kelgan iqtisodiy o‘sishning pasayishi butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha xavfsirashlar oshishiga olib keldi. Karantin talablari, ijtimoiy masofani saqlash me‘yorlari, chegaralarning yopilganligi va h.k.lar yetkazib berish va taqsimlash

tarmog'ini buzib tashladi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi va unga erishishni muammo qilib qo'ydi. Norasmiy sektorda band bo'lganlar va nostandart bandlikdagi odamlarda, iqtisodiy inqiroz tufayli o'zlarining asosiy ehtiyojarini qondirishlari qiyin bo'lib qoldi.

**Jadval 8.2.1.**

**Dunyoda 2005-2020 yillarda to'yib ovqat yemaslikning tarqalishi ko'rsatkichlari, % da.**

Mintaqa	2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Dunyo	12,4	9,2	8,3	8,3	8,1	8,3	8,4	9,9
Afrika	21,3	18,0	16,9	17,5	17,1	17,8	18,0	21,0
Osiyo	13,9	9,5	8,3	8,0	7,8	7,8	7,9	9,0
Markaziy Osiyo	10,6	4,4	2,9	3,2	3,2	3,1	3,0	3,4
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	9,3	6,9	5,8	6,8	6,6	6,8	7,1	9,1
Okeaniya	6,9	5,3	6,1	6,2	6,3	6,2	6,2	6,2
Shimoliy Amerika va Yevropa	>2,5	>2,5	>2,5	>2,5	>2,5	>2,5	>2,5	>2,5

Manba: FAO ma'lumotlari.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishda erishilgan yutuqlar to'g'risida ham gapirib o'tish zarur. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, respublikada 2010-2019-yillarda qishloq xo'jaligida bir band kishiga hisoblangan qo'shimcha qiymat 35,4% ga oshdi va 2019 yilga kelib o'rtacha dunyo ko'rsatkichlaridan deyarli ikki barobarga yuqori bo'ldi.

Ekin maydonlarini maqbullashtirish, qishloq xo'jalik ekinlarini rayonlashtirish va yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida sabzavotlar, kartoshka, uzum va mevalar kabi muhim qishloq xo'jalik ekinlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishga erishildi. 2010-yil ko'rsatkichlariga nisbatan ularni ishlab chiqarish 1,8 barobarga oshdi.

**8.3 O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash.**

Respublikada yiliga 20 mln tonna meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi. Meva-sabzavot mahsulotlarining qator turlarini ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston dunyoda yetakchi o'rinlarga egadir. Masalan, o'rik yetishtirish bo'yicha 71 yetishtiruvchi mamlakat ichida 2 o'rinni, sabzi bo'yicha 137 mamlakat ichida 2 o'rinni, behi – 56 mamlakat ichida 3 o'rin, gilos – 70 mamlakat ichida 3 o'rinda bormoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish sur'atlari aholi sonining o'sish sur'atlaridan yuqoridir. Ushbu ma'lumotning isboti bo'lib 2010-2021-yillarda jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning oshganligi hisoblanadi. Masalan, jon boshiga kartoshka yetishtirish 16 barobardan oshiq, sabzavot va mevalar – 1,4 barobar, poliz – 1,6 barobar, uzum – 1,4 barobar, go'sht va sut – 1,5 barobar, tuxum – 2,2 barobarga oshdi. Ammo, donli ekinlarni aholi jon boshiga yetishtirish ko'rsatkichlarida 16,6% ga pasayish kuzatildi. Vaholanki, ushbu miqdordagi don

mahsulotlari aholi ehtiyojlarni eng minimal darajada qondirishga yetarli hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining respublikada yetarli va turli-tuman bo'lishiga ularni import qilish ko'rsatkichlarining oshib borayotganligi ham yordam beradi. Keyingi 5 yil ichida oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish 74% ga oshdi.

Eng faol o'sishga ega bo'lgan mahsulot guruhlariga: sabzavotlar, mevalar, yong'oqlar yoki o'simliklarning boshqa qismlarini qayta ishlash va go'sht hamda baliqdan tayyor mahsulotlar tashkil qiladi. Ushbu davrda un importi, aksincha qisqardi, chunki O'zbekiston ko'pincha xomashyo mahsulotlarini (masalan, bug'doy) olib kirishga intiladi va mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchlaridan foydalanib ularni o'z hududida tayyor mahsulot holiga kelguncha qayta ishlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligining eng muhim masalaridan biri ularning yetarli bo'lishi, narx siyosati va narx bilan sifat nisbati mos kelishi hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlariga narxlarning yillik o'sishi, aholi daromadlari oshmagan holatda oziq-ovqat mahsulotlarini yetarililik darajasini pasaytirib yuboradi. O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlariga ist'emol narxlari indeksining o'sishi keyingi besh yilda 113% dan oshdi. Oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasining asosiy omillari bo'lib jahon bozorida ushbu mahsulotlarga narxlarning oshishi va so'mning qadrsizlanishi hisoblanadi.

2019-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish Strategiyasida ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilgan. Strategiya doirasida 2021-yilda 88 ming gektar paxta maydonlarni, 40 ming gektar don ekinlari maydonlarini qisqartirish, hamda yangidan 320 ming gektar yerni xo'jalik yuritishga kiritish hisobiga oziq-ovqat va ozuqa ekinlarining maydonlarini 248 ming gektarga kengaytirish ko'zda tutilgan.

Hozirgi paytda Hukumat tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan oziq-ovqat xavfsizligi Mezonlari asosida O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va ist'emollari Dasturi ishlab chiqilmoqda.<sup>6</sup>

O'zbekistonning Oziq-ovqat xavfsizligi global indeksida tutgan o'rni. Oziq-ovqat xavfsizligi global indeksi (GFSI) Economist Intelligence Unit tomonidan ishlab chiqilgan va xar yili tuzib chiqiladi<sup>7</sup>. GFSI 113 mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarining yetariligi, mavjudligi, sifati va xavfsizligi, hamda tabiiy resurslar va barqarorlik masalarini ko'rib chiqadi. Indeks rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligining omillarini o'lchaydigan, 58 ta aniq ko'rsatkichlar asosida tuzilgan, o'zgarib turuvchi miqdoriy va sifat

<sup>6</sup> "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirish Strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori.

<sup>7</sup> Economist Intelligence Unit Economist Group guruhining bir qismi bo'lib, The Economist gazetasining ichki tadqiqot bo'limi sifatida 1946 yilda asos solingan va xalqaro biznes va dunyo amaliyoti to'g'risida tahliliy axborotlarning yetakchi manbai hisoblanadi.

etaloni modeli hisoblanadi. Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball 100 hisoblanadi.

O'zbekiston 2021-yil yakunlariga ko'ra ushbu Indeksda yakuniy baholash bo'yicha 53,8 ball yig'ib, 78 o'rinni egallagan (2020-yilda – 77 o'rin), bu esa oziq-ovqat xavfsizligi o'rtacha bo'lgan mamlakatlar guruhida bo'lishini ta'minladi.

O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarining "Iqtisodiy yetariligi" bo'yicha 49,3 ball yig'ib (2020-yilda – 45,9), 113 mamlakat ichida 81 o'rinni (2020-yilda – 91 o'rin) egalladi.

Jadval 8.3.1.

**O'zbekiston uchun 2020-2021-yil ko'rsatkichlariga ko'ra oziq-ovqat xavfsizligi global indeksidagi o'zgarishlar**

Ko'rsatkich	Ball	2020-2021	O'zni	2020-2021
Oziq-ovqat xavfsizligining umumiy darajasi	53,8	- 0,3	78	▲ 1
1)"Iqtisodiy yetariligi"	49,3	+4,4	81	▲ 10
2)"Tabiiy yetariligi"	51,3	- 4,8	76	▼ 20
3)"Sifat va xavfsizlik"	65,1	0	60	▲ 2
4)"Tabiiy resurslar va barqarorlik"	55,4	-0,8	=30	▼ 1

Manba: Global Food Security Index 2021.

"Tabiiy yetariligi" bo'yicha – 76 o'ringa ega bo'lib, oldingi yilga nisbatan (2020 – 56 o'rin) 20 o'ringa pastladi. Ushbu pasayish iqlim noqulayliklari va R&D ni qo'llashning past sur'atlari tufayli yuz berdi.

O'zbekiston "Sifat va xavfsizlik" bo'yicha 60 o'rini egalladi va 2020 yilga nisbatan 2 o'rin yuqoriga ko'tarildi.

"Tabiiy resurslar va barqarorlik" kichik indeksi bo'yicha O'zbekiston iqlim o'zgarishlariga yuqori sezgirlik oqibatida 2020 yilga nisbatan bir o'ringa pastladi.

To'rtta kichik indekslardan uchtasi bo'yicha ("Iqtisodiy yetariligi", "Tabiiy yetariligi", "Tabiiy resurslar va barqarorlik") O'zbekiston o'rtacha darajani ta'minladi. "Sifat va xavfsizlik" bo'yicha O'zbekiston "yaxshi" darajadagi mamlakatlar guruhiga kirishga erishdi. Ushbu indeksni ishlab chiquvchilarning ta'kidlashicha, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, oziq-ovqatlarning past darajada yo'qotilishi va mikroelementlarning yetariligi ko'rsatkichlari O'zbekistonning kuchli tomonlari hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yanada rivojlantirish yo'nalishlari bo'lib, indeksni ishlab chiquvchilarning fikricha, kambag'allik chegarasidan pastda bo'lgan aholining yuqori ulushi, oziq-ovqat mahsulotlari yuqori inflyatsiyasi va R&Dning qo'llanilishi past darajada bo'lishi hisoblanadi.

O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladigan ehtimoliy xavflarga quyidagilar kiradi:

Uzoq muddatli xavflar:

- suv resurslari yetishmasligining oshib borishi. Respublikada suvga bo'lgan talab hajmi (foydalanish samaradorligining pastligi tufayli) suv resurslarining ekologik jihatdan yetarli hajmidan (ayniqsa, suv kam bo'lgan yillarda) ortiqchadir. Keyinchalik iqlim o'zgarishi tufayli ahvol yanada og'irlashishi mumkin – O'zbekiston iqlim o'zgarishlariga eng ta'sirchan mamlakat hisoblanadi. Bashoratlarga ko'ra, 2030-2050-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida havo harorati yana 1,5-3 gradusga ko'tarilishi mumkin. Muzliklarning erib borishi tufayli asosiy suv oqimlari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryoning suv hajmi 12-15% ga qisqarishi mumkin;

- aholi sonining tez o'sib borishi;
- tuproqlardan intesiv ravishda va ko'pincha nooqilona foydalanish natijasida uning meliorativ holati yomonlashuvi.

Ayrim tovarlarni import qilish uchun asosiy mamlakatlar cheklovlarining misollari aniq ko'rsatadiki, bir yetkazib beruvchiga bo'ladigan qaramlik oziq-ovqat xavfsizligini juda nochor ahvolga solib qo'yadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga bog'liq bo'lib qoladi. Shunday qilib, oziq-ovqat xavfsizligi holatini, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni rivojlantirish va yaxshilash maqsadida, imkoniyati bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'zimizda yetishtirish hisobiga ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlari taklifini yanada ko'paytirish, mos keluvchi narxlarda importni oshirish, va ayniqsa import qilinadigan mamlakatlar sonini ko'paytirish hisobiga amalga oshirish tavsiya qilinadi.

“To'qsonbosdi” usuli bilan sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni kuchaytirishga va yopiq tuproqlarda (issiqxonalarda) yetishtirishni kengaytirish ishlariga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Yopiq tuproq asosida ishlab chiqarishni faollashtirish noqulay iqlim xavflarining (masalan, bahorgi sovuqlar) oldini olishda muhim hisoblanadi, bu esa hozirgi paytda qishloq xo'jaligidagi dunyo tendensiyalariga xos bo'ladi.

O'zbekistonda xar yili kambag'allikni baholash milliy tizimini, imkoniyati boricha qisqa muddatlarda ishlab chiqish va olingan baholash natijalarini keng tarqatish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur bo'ladi. Bu tadbirlar O'zbekistonda kam ta'minlangan aholini qo'llab quvvatlashni rejalashtirish tizimini yaxshilash va mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rni haqiqiy vaziyatdan kelib chiqib baholash imkonini beradi. O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2022-yil yakunlari bo'yicha 17% dan 14 % gacha pasaydi. Oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlarining milliy tizimini ishlab chiqish oziq-ovqat xavfsizligi holatini, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va ularning natijalarini doimiy monitoring qilish imkonini beradi.

### **Tayanch tushunchalar**

*Oziq-ovqat muammosi; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish; oziq-ovqat yetishmovchiligi; go'sht-sut tarkibli ovqatlar; oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlari bilan ta'minlanish; Oziq-ovqat bo'yicha Xalqaro tashkilot (FAO); oziq-ovqat ekinlarining hosildorligi; ovqatlanish tarkibining o'zgarishi; "Jahon oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim deklaratsiyasi"; "oziq-ovqat mustaqilligi"; dunyoda ocharchilikni bartaraf qilish; to'yib ovqat yemaslik; qishloq xo'jaligida*

*mehnat unumdorligini oshirish; oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; oziq-ovqat mahsulotlariga narxlar; ist'emol narxlari indeksi; kam ta'minlangan oilalar; oziq-ovqat xavfsizligi mezonlari; Oziq-ovqat xavfsizligi global indeksi; kambag'allik chegarasidan pastda bo'lgan aholi; yetkazib beruvchiga bo'ladigan qaramlilik; kambag'allik darajasi.*

### **Takrorlash uchun savollar**

1) Insonning bir sutkalik oziq-ovqatga va oqsilga ehtiyoji qancha hisoblanadi?

2) Yer shari aholisining qancha qismi oziq-ovqat yetishmovchiligini boshdan kechiradi?

3) Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlari bilan turli darajada ta'minlanganligi bo'yicha mamlakatlarni qanday guruhlariga ajratish mumkin?

4) To'yib ovqat yemaslik va bevosita ochlik Yer sharining qaysi qismlarida muntazam yuz berib turadi?

5) O'sib borayotgan Yer shari aholisini ta'minlash uchun oziq-ovqat yetishtirishda qanday ishlarni amalga oshirish zarur?

6) Proteksionistik siyosatda davlatning oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha iqtisodiy siyosati vositalari nimalardan iborat bo'ladi?

7) Erkin savdo siyosatiga ko'ra oziq-ovqat xavfsizligiga qanday erishsa bo'ladi?

8) O'zbekistonning Oziq-ovqat xavfsizligi global indeksida tutgan o'rni to'g'risida gapirib bering.

9) O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladigan ehtimoliy havflarga nimalar kiradi?

10) O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2022-yil yakunlari bo'yicha necha folzga pasaydi?

## **9-MAVZU: IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKOLOGIK OMILLARI.**

9.1. Jahon xo'jaligining ekologik xavfsizligi

9.2. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari

### **9.1 Jahon xo'jaligining ekologik xavfsizligi.**

Atrof-muhitni samarali muhofaza qilmasdan rivojlanish jarayonlari amalga oshmaydi. Aholiga oziq-ovqat va sanoatga xom-ashyo yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligining yuritilishi to'liq ravishda ekologik ahvol bilan bog'liqdir. Sanoat ishlab chiqarishi va xizmat ko'rsatishning ayrim sohalari ham atrof-muhitning barqaror bo'lishini talab qiladi. Qolaversa, insonning salomatligi ham ekologik holatga bevosita bog'liq bo'ladi. Demak, ekologik ahvolni barqarorlashtirmasdan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash katta muammo bo'lib qoladi.

Ekologik muammo ko'p asrlik tarixga ega, ammo u 1950-1960-yillardan boshlab, insonning tabiatga ta'siri ilgari misli ko'rilmagan darajaga chiqqandan keyin, inqirozli mohiyatga ega bo'la boshladi. XX asr davomida yer sharining haydaladigan yerlarini 1/3 qismiga yaqini, o'rmonlarining 2/3 qismi yo'qotildi. Insoniyat keyingi yuz yilda 100 mlrd tonnadan oshiq turli xom ashyolarni (foydali qazilmalar, yonilg'i resurslari, tog' jinslari va h.k.) ishlatib bo'ldi. Ushbu xom-ashyolarni qayta ishlash uchun 3,5 mlrd. kubometrqa yaqin suvni isrof qildi.

Inson yashaydigan joylar tobora iflos bo'lib bormoqda. Akademik V.I.Vernadskiy insonning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi o'rmini belgilab bergan edi. Uning fikricha, biosfera – tirik mavjudotning tarqalgan sohasi bo'lib, o'zi ham tirik bo'lgan Yer qobig'idir. Biosfera atmosferaning quyi qismini, gidrosferani va litosferaning yuqori qismini egallab turadi. Biosfera – Yerning eng yirik ekotizimidir. Biosfera moddalarning doiraviy aylanishi tamoyilida yashaydi, deyarli chiqindi chiqarmaydi. Inson esa sayyoraning moddalaridan juda ham samarasiz (2% gacha) foydalanadi. Agar biosferada Mendeleev jadvalining 40 ta elementidan foydalanilsa, inson uning hammasidan foydalanadi.

Tabiat tarkibiy qismlarga bo'linib ketmaydigan moddalarni yaratmaydi. Inson tabiatga begona bo'lgan, chirib yo'qolmaydigan, yillar osha yig'ilib qoladigan moddalarni yaratdi. Natijada biosferaning o'ziga xos bo'lmagan birikmalar bilan boyib borishiga olib keldi, kimyoviy elementlarning tabiiy nisbati buzildi. V.I.Vernadskiy ta'kidlagan ediki, aynan inson sayyoramiz yuzasida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarda asosiy "geologik omil" vazifasini o'tamoqda. Bugungi kunda ushbu o'zgarishlarning global mohiyatga ega bo'lib borayotganini ko'rayapmiz.

Hozirgi davr ekologik inqirozining asosiy yo'nalishlari qanday namoyon bo'lmoqda?

Global ekologik muammolar doirasida quyidagi muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– sanoat obyektlarini qurish va tabiatdan nooqilona foydalanish (sho'rlanish, ohaklanish, suv va shamol eroziyasi) natijasida hosildor yerlarning foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolishi;

- insonning noto'g'ri xo'jalik faoliyati oqibatida suv resurslaridan nooqilona foydalanish va katta suv havzalarining qurib yo'qolishi va cho'llarga aylanishi, hamda iqlim o'zgarishi tufayli muzliklarning tez erib borishi va daryo suvlarining kelajakda yanada kamayib ketishi;

- inson yashashiga tahdid solayotgan, o'rmonlarni nooqilona kesib yuborilishi;

- atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar - uglerod oksidlari, uglevodorod, freon kabilarni tashlashning tobora ko'payib borayotganligi, ko'pgina xavflar bilan birgalikda Yerning ozon qatlamini yemirmoqda;

- maishiy va sanoat chiqindilarining juda katta miqdorda ko'payib borayotganligi (1970-yildagi 40 mlrd tonnadan XXI asr boshida 300 mlrd tonnagacha) yashash uchun yaroqli bo'lgan hududlarning qisqarib borishiga olib kelmoqda, qator mamlakatlarda epidemik kasalliklar xavfini ko'paytirmoqda;

- tabiat kuchlariga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvning kuchayishi — transgen moddalarning paydo bo'lishi, klonlarni yaratishga urinishlar va h.k.

Xar o'n yillikda hosildor tuproqlarning 7% yo'qolib bormoqda. Insoniyat xar ylli sanoat obyektlarini qurish va tabiatdan nooqilona foydalanish tufayli 6 mln gektar yerlarni yo'qotmoqda. Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'rmonlarni yoqib yuborib yerlarni o'zlashtirish tizimi natijasida millonlab gektar hosildor yerlar tugatib yuborilmoqda.

Bedlend (bad land) — "yaroqsiz yerlar", to'liq yoki asosan hosildorligini yo'qotgan yerlar, Yer sharining 1% quruqlik qismini egallagan. Umuman olganda ifloslangan, xo'jalik tizimidan chiqqan yerlar xozirda 13 mln.kv.km.ni yoki dunyo yer fondining 10% ni tashkil qiladi. O'rmonlarni yoppasiga kesib yuborish juda katta havfga aylanmoqda. Insoniyat har ikki yilda Finlyandiyaning hududiga teng bo'lgan maydondagi o'rmonlarni yo'qotmoqda. Ayniqsa, Braziliya Amazoniyasi va Sibir taygasida o'rmonlarning kesib yuborilishi juda katta xavf tug'dirmoqda, chunki bu ikkita hudud - sayyoramizning o'pkasi hisoblanadi.

Katta xavfni, SO va SO<sub>2</sub> (oltingugurt gazi) ni chiqarish hisobiga yuzaga kelayotgan bug'lanish samarasi (parnik effekti) deb nomlangan jarayon tug'dirmoqda. Atmosferada karbonat angidrid gazining mavjudligi 1860-yilga nisbatan 30% ga ko'paygan, mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2050-yilga borib Yer sharida havo harorati 1,5-4,5°S ga oshadi, bu esa o'z navbatida Antarktida va Grenlandiyada muzliklarning erishini keltirib chiqarib, Dunyo okeanining 1,4-2,2 m.ga ko'tarilishiga va qirg'oqbo'ylarini suv bosishiga olib keladi. Dunyo okeanining 50 sm ga ko'tarilishi bilan Maldiv orollari va Nil deltasi to'lliq suv ostida qolishi mumkin. Suv sathining 1 m ga ko'tarilishi natijasida Bangladeshning 20 mln kishi yashaydigan qirg'oq qismlarini suv bosadi. Niderlandiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda, bu milliy halokatga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, oltingugurt gazi — Yevropa, AQSH va Kanada mamlakatlari duch keladigan kislotali yomg'irlar sababchisidir. Sun'iy yo'ldoshlar bilan aniq o'lchovlarni amalga oshirish imkoniyati paydo bo'lgan 1979 yilda, shu narsa aniqlandiki, Arktikaning yozgi muzliklari maydoni uchdan birga qisqarib



ketgan. Muz qoplarning eng past darajasi 2007-yilda hisobga olindi. Muzlarning erishi, bir tomondan, Shimoliy dengiz yo'lining va Shimoli-G'arbiy yo'lining o'zlashtirilishi istiqbollarini ochib beradi, ikkinchi tomondan, ekologik muammolarning chuqurlashuviga olib keladi.

Mutaxassislarning fikricha, global IT-industriyasi butun dunyo aviakompaniyalarining chiqaradigan bug' gazlariga teng miqdorda: butun dunyo gaz chiqindilarining taxminan 2% ni chiqaradi. Ayniqsa, Google ning qidiruv mashinalari eng ko'p energiyani yeb yuboradi, chunki birdaniga raqobatchi serverlarning bir nechtasidan so'rov yuboriladi, javob esa eng tez natija beradigan serverdan keladi. Google dan ikkita qidiruv seansi uchun sarflanadigan energiya, elektr choynakni qaynatishga ketadigan energiya bilan teng bo'ladi. O'rtacha statistik seans atmosferaga 7 gramm karbonat angidridni, elektr choynakning qaynashi esa 15 gramm atrofida karbonat angidrid chiqaradi.

Yer atmosferasining ozon qatlamida yuz berayotgan o'zgarishlar bundan kam bo'lmagan havflarni tug'dirmoqda. Mutaxassislarning fikricha, hozirgi kundayoq ozon qatlami 2% ga kamaygan, Antarktida tepasida esa, AQSHning hududidan ikki marta katta bo'lgan ozon "teshigi" paydo bo'lgan.

Gidrosferaning ifloslanishi ham katta muammoni tug'dirmoqda. Oqava suvlarning hajmi yiliga 3-4 ming kub.km.ni, yoki gidrosferaning 20%ni tashkil qiladi. Ushbu oqavalarni tozalash uchun 10 barobar ko'p toza suv talab qilinadi, shuning uchun ifloslanish haqiqatda juda katta miqyosga egadir. Dunyo okeanining ifloslanishi, xususan, neftning to'kilishidan ifloslanishi ko'payib bormoqda. Dunyo okeaniga yiliga 3 tonnadan 10 tonnagacha neft to'kilmogda.

XX asrning 70 yillaridayoq iqtisodchilar va siyosatchilar iqtisodiy rivojlanish uchun atrof-muhitning muammolari qanday o'rin tutishini anglab yetdilar. Atrof-muhitning yemirilishi o'z-o'zini barpo qiluvchi mohiyatga ega emas, bu esa jamiyatga qaytarib bo'lmaz yemirilishlar va resurslarning tugashi bilan havf solmoqda. Iqtisodiy faoliyatning turli shakllarida atrof-muhitni muhofaza qilinadigan sarf-xarajatlarning kattaligi to'g'risida yagona bir fikr yo'q. Rivojlanish siyosatini ishlab chiqishda bularni e'tiborga olish zarurligi to'g'risida ko'pchilik mutaxassislar gapirishmoqda.

Ekologik muammolar jahon hamjamiyatining diqqat markazida bo'lib qolmoqda. Stokgolmda 1972-yilda BMTning atrof-muhit muammolari bo'yicha birinchi anjumani bo'lib o'tdi. Uning ochilish marosimi bo'lib o'tgan birinchi kuni - 5-iyun - jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni deb e'lon qilindi. Keyinchalik "Tabiatni muhofaza qilishning jahon strategiyasi" deb nomlangan hujjat qabul qilinib, unda ushbu muammo bo'yicha ko'pchilik mamlakatlarni uyg'unlashtirgan dastur mavjud edi. BMTning atrof-muhit muammolari bo'yicha ikkinchi anjumani 1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tdi. Unda "XXI asr uchun kun tartibi" deb nomlangan hujjat qabul qilindi. BMT 2000-yilda "Yer Deklaratsiyasi"ni qabul qildi, unda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatida ekologik muammolarni ushbu tashkilotda hal qilishning asosiy yo'li mustahkamlab qo'yildi. U butun insoniyat va har bir alohida inson uchun me'yoriy ekologik rivojlanishni, atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalarini bajaradi.

Agar 1970-yillarda insoniyat tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga 40 mlrd dollar sarf qilgan bo'lsa, 1990-yilda – 150 mlrd., 2005-yilda – 250 mlrd. dollar xarajat qilmoqda. Shunga qaramasdan, ushbu raqamlar atrof-muhitni muhofaza qilish uchun tubdan o'zgartiradigan qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'ladigan ehtiyojlar bilan taqqoslab bo'lmaydi

Ekologik muammolarni hal qilishning ikki asosiy yo'lini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi yo'l turli tozalash inshootlarini yaratish, chiqindilarni yo'qotish, yerlarni rekultivatsiya qilish hisoblanadi. Ammo, chiqindilarni butunlay yo'qotib bo'lmasa kerak.

Ikkinchi yo'li maxsus tabiatni muhofaza qilish texnologiyalarini, kam chiqindili va chiqindisiz ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishdan iborat bo'ladi. Ushbu yo'lni asosiy deb hisoblash kerak, chunki u tabiatning ifloslanishni oldini oladi.

XXI asrda ekologik muammolarni hal qilishning asosiy yo'nalishi bo'lib maksimal oqilona darajada tabiatdan foydalanish, tabiiy resurslarga ehtiyojni pasaytirish, qazib olinadigan xom-ashyodan maksimal foydalanish, global ekologik siyosat yuritish hisoblanadi. Shuni muhimki, ekologik muammolar xalqaro terrorizmdan kam bo'lmagan xavflarni keltirib chiqaradi va uni butun dunyo mamlakatlari birgalikda hal qilishlari kerak bo'ladi. Kopengagenda, 2009-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro kongressda bir qator muhim qarorlar qabul qilinishiga erishildi. Bu yerda qabul qilingan yakuniy hujjatda, chiqindilarni qisqartirish bo'yicha aniq vazifalar qo'yilmagan bo'lsada, mamlakatlarga iqlim isishini 2°S dan ko'p oshirmaslikka choralar ko'rish, 2012-yilga borib iqlim o'zgarishlarini cheklab turish uchun 30 mlrd. dollar ajratish ma'suliyatini yukladi. Bu shuni anglatadiki, industrial mamlakatlar 2020-yilga borib, chiqindilarni 1990-yil darajasiga nisbatan 25-40% ga qisqartirishlari kerak bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar "hozirgi ahvolda" nisbatan chiqindilarni 15-30% ga qisqartirishlari zarur. Kelishuvda, yana rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu sohada birgalikda harakat qilishlari mexanizmlari ham ta'kidlab o'tilgan. Barcha mamlakatlar iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashning o'z dasturlarini amalga oshirishlari va bu to'g'risida ma'lumotlarni berib borishlari zarur, xalqaro hamjamiyat ushbu axborotlarni tahlil qilib boradi.

Hozirgi paytda chiqindilarni kamaytirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning o'zlariga olgan ma'suliyati 1990-yil darajasiga nisbatan 13-19% atrofida qolmoqda. Bu industrial davrgacha bo'lgan vaqtga nisbatan iqlimning 3,5°S ga isishini, ya'ni butun dunyo bo'yicha halokatli o'zgarishlar bo'lishini anglatadi. Ayrim olimlarning fikricha, haroratning 3,5 °Sga ko'tarilishi "to'xtatib bo'lmaydigan" issiqlikni keltirib chiqaradi va uning oqibatlarini ehtimol qilish ham qiyin bo'ladi.

Hozirgi paytda atmosferaga karbonat angidrid gazini chiqarishning yillik hajmi taxminan 50 mlrd. tonnaga yaqin. Iqlim isishining halokatli oqibatlarining oldini olish uchun, ushbu ko'rsatkich 20 mlrd tonna darajasiga tushirilishi kerak. Afrikaning va kichik orol mamlakatlarining ko'pchiligi oldiniga kelishuvning

asosiy tamoyillarini qo'llab quvvatlashda betaraf bo'ldilar, lekin keyinchalik bu qarorga qo'shildilar.

Kelajakka umid bilan qarovchilarning fikricha, ushbu kelishuvlar "ekologik toza energetika" uchun investitsiyalarga turki bo'ladi. Ammo ekologlar va ko'pchilik deputatlar ta'kidlashicha, kelishuv, tezkor tadbirlarni talab qilayotgan olimlarning chaqiriqlariga javob bermaydi. Kankunda (Meksika) 2010-yilning kuzida o'tkazilgan xalqaro anjumanda tomonlar Kioto bayonnomasini ikkinchi davr uchun davom qildirishni muhokama qilishga kelishib oldilar, lekin unga Rossiya, Kanada va Yaponiya qarshi bo'ldilar.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha BMT tashkil qilgan yana bir anjuman 2015-yil Parijda o'tkazildi va unda yana bir kelishuvga erishildi. *Parij kelishuvi* – BMT ning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasiga ko'ra 2020-yildan boshlab atmosferada karbonat angidrid gazi mavjudligini kamaytirish bo'yicha tartibga soluvchi chora tadbirlar bo'yicha kelishuvdir. Kelishuv Parijda o'tkazilgan iqlim o'zgarishi bo'yicha anjumanda 2015-yil 12 dekabrda Kioto protokoli o'rniga tayyorlandi va 2016-yil 22 aprelda imzolandi. Kelishuv 186 mamlakat va Yel tomonidan ratifikatsiya qilindi.

Kelishuvning maqsadi (2 moddaga muvofiq) BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasining "amalga oshirilishini faollashtirish", xususan, global o'rtacha harorat o'sishini 2 °C dan "ancha past" ushlab turish va harorat o'sishini 1,5 °C kattaligida cheklash uchun "sa'y-harakatlarni amalga oshirish" hisoblanadi.

Globalashuv jarayonlari natijasida rivojlanishning notekisligi, mamlakatlar farovonligi darajasidagi farqlarning chuqurlashib borishi bilan bog'liq holda davlatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar keskinlashdi. Qadriyatlar va rivojlanish modellari global raqobatlashuvning maqsadiga aylandi. Yangi chaqiriqlar va tahdidlar oldida halqaro hamjamiyat barcha a'zolarining o'zligi kuchaydi.

Iqtisodiy o'sishning va siyosiy ta'sir o'tkazishning yangi markazlari kuchayishi natijasida sifat jihatdan yangi geosiyosiy vaziyat yuzaga kelmoqda. Mintaqa asosida mintaqaviy bo'lmagan kuchlarning ishtirokisiz, mavjud muammolarni hal qilish va inqirozli vaziyatlarni tartibga solish bo'yicha qarorlarni izlash tendensiyasi shakllanmoqda.

Jamiyat rivojlanishining ekologik muvozanatlashgan yo'liga o'tishning asosiy bo'g'imlaridan biri, resurstejamkorlik va tabiiy xom-ashyo va energiya xarajatlarini barqarorlashtirish, ekologik xavfli texnologiyalarni va ishlab chiqarishlarni ekologik toza turlariga almashtirish, zamonaviy ishlab chiqarishni ekologik toza va uzoq muddatli mahsulotlarga mo'ljallash, ilmtalab tarmoqlarni ustivor rivojlantirish hisobiga "tabiatni buzadigan" xo'jalik tarmoqlari ulushini kamaytirishni ta'minlaydigan iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish hisoblanadi.

## 9.2 O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari.

Globalashuv jarayonining kuchayib borishi davrida ijtimoiy rivojlanishning ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi muammosini tan olmaslik nafaqat ayrim mamlakatlar uchun, balki butun insoniyat uchun halokatli hisoblanadi, chunki

tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish natijasida kelib chiqqan oqibatlar, hozirning o'zidayoq sivilizatsiyaning yashab qolishiga xavf tug'dirmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakat hukumati havo, suv, tuproq, ma'dan, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaftlar, tabiat yodgorliklari va atrof – muhitning boshqa unsurlaridan oqilona foydalanishga va muhofaza qilishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Shu maqsadda:

- O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, muassasalararo muvofiqlashtiruvchi kengash, mamlakatda ekologik holatni o'rganish va yaxshilashga ma'sul bo'lgan qator boshqa maxsus idoralar tashkil qilindi va ular faoliyat ko'rsatmoqdalar;

- umumdavlat miqyosidagi dasturiy hujjatlar (barqaror rivojlanishning Konsepsiya va strategiyasi, XXI asrga Milliy kun tartibi asoslari, O'zbekiston Respublikasining 1999-2005-yillarga belgilangan atrof-muhitni muhofaza qilishning harakat Dasturi, biologik turli – tumanlikni saqlash bo'yicha Milliy Strategiya va reja, issiqlikdan chiqadigan gazlarning ko'payishini kamaytirishning milliy strategiyasi, ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni qo'llashni kamaytirishning Milliy dasturi, Amudaryoning quyi qismida suv tanqisligining oqibatlarini yumshatish tadbirlari Dasturi, 2010-yilgacha bo'lgan davrda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari Dasturi, 2010-yilgacha bo'lgan davrda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash Dasturi) ishlab chiqildi va bajarilmoqda. Bu hujjatlarning ayrimlari va boshqa qator ekologik dastur va loyihalarning bajarilishida xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar juda katta yordam ko'rsatmoqdalar;

- "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik ekspertizalar to'g'risida", "Alohida muhofaza qilinadigan tabiat xududlari to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Ma'danlar to'g'risida", "O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida", "O'rmonlar to'g'risida", "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida" qonunlar va boshqa tabiatni muhofaza qilish bo'yicha normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlab BMT ining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiyasini va unga qo'shimcha Kioto protokolini, Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasini biologik turli – tumanlik bo'yicha Konvensiyani, hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida boshqa qator muhim xalqaro, hamda mintaqaviy va ikkitomonlama kelishuvlarni imzoladi va ratifikatsiya qildi.

Respublikada maqsad sari yo'naltirilgan tabiatni muhofaza qilish siyosatining o'tkazilishi tufayli atrof – muhitning holati qator ko'rsatkichlar bo'yicha yaxshilandi. Xususan, qo'riqxonalar va milliy bog'larning maydonlari kengaytirildi, qishloq xo'jaligida pestitsidlarni qo'llash hajmi va har bir kishi aholi hisobiga atmosferaga karbonat angdrid gazlarini chiqarish hajmi qisqartirildi.

O'zbekistonda tabiiy – iqlimiy sharoitlar, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va uning tarkibi xususiyatlari ekologiyaga katta e'tibor berishni talab qiladi. Quruq iqlim tufayli bizda ekotizimlar juda nozikdir, va ifloslanish yuz

berganda tezda yemirilishga uchraydi. Bundan tashqari qator xududlarda ular katta texnogen zararlarga ham duch kelganlar.

Xo'jalik va aholi ehtiyojlari uchun haddan tashqari ko'p suv sarf qilinishiga, atrof – muhitning ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar bilan katta miqyosda ifloslanishga sabab, nafaqat iqtisodiyotimizning tarmoq tarkibidagi resurs ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishlarning (sug'orma dehqonchilik, yirik miqyosdagi kimyo, rangli metallurgiya) mavjudligi, balki qoloq, isrofgir texnologiyalar, tashkiliy madaniyatning pastligi, davlat nazoratining yetishmasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ishida manfaatdorlik va bir maqsad yo'lida harakatning yo'qligi natijasida ularning har bir kishi soniga va yalpi ichki mahsulotning birligi hisobiga ko'p sarflanishi (ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan) yuz bermoqda. E'lon qilingan ma'lumotlarga qaraganda, aholi tomonidan suv sarf qilinishi belgilangan me'yorlarga nisbatan 2-3 barobar, tabiiy gaz sarfi 1,5-2 barobar ko'pdir. Energiya va xom ashyo resurslarining ko'p sarf qilinishi milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini pasaytiradi, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozorda sotilishida muammolar keltirib chiqazadi.

**Jadval 9.2.1.**

**O'zbekiston hududlarida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, ming t.**

Hududlar	2010	2015	2019
Toshkent viloyati	257,6	370,6	397,9
Qashqadaryo viloyati	141,2	176,3	140,4
Toshkent sh.	23,5	28,5	74,5
Buxoro viloyati	75,5	55,6	69,1
Farg'ona viloyati	43,0	38,9	49,6
Sirdaryo viloyati	21,0	66,1	47,8
Samarqand viloyati	51,5	54,7	44,2
Navoiy viloyati	40,3	47,0	43,6
Qoraqalpog'iston Resp.	29,2	32,8	37,2
Namangan viloyati	5,4	7,8	15,8
Andijon viloyati	8,7	18,5	14,3
Surxondaryo viloyati	3,5	3,1	6,9
Jizzah viloyati	23,8	70,2	4,3
Xorazm viloyati	4,8	5,0	2,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida.

Shuning uchun ham, tabiatni muhofaza qilish ishida energiya va resurs ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, kam chiqindili ishlab chiqarishlardan oqilona foydalanishni ta'minlash hisobiga atrof muhitga kamroq og'irlik tushirishni ustivor yo'nalish qilib olish zarur bo'ladi. Bu esa tabiatning faqat yemirilishini emas, balki qayta tiklanish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi.

O'zbekistonda aholini chuchuk suv bilan ta'minlash masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda yaxshi suv manbalari va sanitariya

vositalari bilan ta'minlangan shahar va qishloq aholisini hissasini oshirish maqsadi belgilangan.

Mamlakatda aholining uchdan bir qismi davlat standartlariga javob bermaydigan suvni iste'mol qiladilar. Hisoblagichlarning yetishmasligi va suv o'tkazgich tarmoqlarning eskirganligi tufayli ichimlik suvining katta qismi yo'qotiladi yoki boshqa maqsadlarga ishlatiladi. Ichimlik suvi bilan ta'minlashda mintaqaviy farqlar mavjud: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining qishloq aholisi eng kam ta'minlangan. Qishloq aholi punktlarining 59 % tozalanmagan ichimlik suvini iste'mol qilishga majburdirlar, bu esa aholining, ayniqsa bolalar va go'daklarning kasallanishi yuqori darajada bo'lishiga olib keladi.

Suvning katta qismi sug'orishga ishlatiladigan O'zbekistonda aholini suv bilan ta'minlash masalasini yaxshilash suvdan qishloq xo'jaligida oqilona foydalanish bilan bog'liqda hal qilinishi zarur. Umuman sug'orishga mavjud suv resurslarining 90 % ishlatiladi.

Sug'orish uchun suv bilan ta'minlanganlik o'rtacha 80 % ni, shu jumladan Amudaryo havzasida – 77 % ni, Sirdaryo havzasida – 84 % ni tashkil etadi. Sug'orish uchun suvning yetishmasligi nafaqat suv resurslarining tabiiy cheklanganligidan, balki undan samarasiz foydalanish natijasi hamdir. Suv manbalaridan olingan suvning faqat 40 % gina o'simlikka yetib boradi, yana 40 % sug'orish tarmoqlarida va 20 % sug'orish paytida yo'qotiladi.

Aholini suv bilan ta'minlashni yaxshilashda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish zarur. Birinchi yo'nalish bo'yicha 2010-yilga borib Orol dengizini va uning yaqin atrof xududlarni yiliga 21-23 kubokilometr daryo suvi bilan ta'minlash belgilangan edi. Bu, Orol dengizining qurib borishi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz oqibatlarini kamaytirishga imkon yaratdi. Ushbu ekologik inqiroz tufayli 40 ming kvadrat kilometr maydonda qalin tuz qatlami bilan qoplangan dengiz osti ochilib qoldi, yerlarning yemirilishi, cho'llashish jarayoni keskin kuchaydi, Amudaryo deltasida esa ilgari juda boy bo'lgan 60 dan oshiq ko'llar qurib qoldi. Shu bilan birga, aytib o'tish kerakki, O'zbekistonning boshqa mintaqalarida ham suvga bo'lgan ehtiyoj oshib borayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu maqsadni amalga oshirish ancha murakkab bo'ladi.

Qo'shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan harakatlar asosida dengizning qurigan tubida yuz minglab gektar o'rmon va butazorlar tashkil etilmoqda, Orolbo'yi hududlarida ulkan qurilish va obodonchilik ishlari amalga oshirilmoqda.

Keng miqyosda irrigatsiya ishlari olib borilishi va suv eroziyasi tufayli sho'rlanish, haydaladigan yerlar va yaylovlarning ahvoli yanada yomonlashuvi oldini olish maqsadida 2015-yilga borib 1 gektar maydonga ishlatiladigan suv sarfini 30 % ga qisqartirish, sug'orish uchun iste'mol qilinadigan suv hajmini 15-20 % ga kamaytirish, kuchli sho'rlangan sug'oriladigan yerlar maydonini ikki barobarga qisqartirish belgilangan edi.

Ekologiyaning yomonlashuvi mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni (xususan, kambag'allik, sog'liqni saqlashga bog'liq ravishda) yanada murakkablashtiradi, bu

esa, o‘z navbatida atrof – muhitning holati yomonlashuviga olib keladi. Shuning uchun ham, ekologik xavfsizlikni ta‘minlashni alohida emas, balki ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning hamma dolzarb muammolari bilan birgalikda qarab chiqish zarur bo‘ladi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha hisobot davrida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash:

– 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlandi;

– 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotiga o‘tish strategiyasi qabul qilindi;

– O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi;

– 2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini qabul qilindi.

– BMT shafeligida Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘psheriklik trust fondiga asos solinishi Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirildi;

– 2019-yil 24-25 oktabr kunlari Nukus va Mo‘ynoq shaxarlarida BMT shafeligida “Orolbo‘yi – ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi” Xalqaro konferensiya o‘tkazildi;

– Bugungi kunga kelib jang‘arma Orolbo‘yi hududida loyihalarni moliyalashtirish maqsadida Norvegiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni o‘rnatdi. Norvegiya 1,1 mln yevro ajratdi, Yevropa Ittifoqi tomonidan 5 mln yevro berilishi ma‘lum qilindi;

– Bundan tashqari, Davlat rahbarining 2019-yilning dekabr oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi natijasi o‘laroq, kunchiqar mamlakat Orolbo‘yi hududida loyihalarni amalga oshirish uchun 3,2 mln AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratdi.

### **Tayanch tushunchalar**

*Global ekologik muammolar; ekologik xavfsizlik; ekotizim; tabiatdan nooqilona foydalanish; sho‘rlanish; suv va shamol eroziyasi; Yerning ozon qatlami; maishiy va sanoat chiqindilari; transgen moddalar; o‘rmonlarning kesib yuborilishi; muzliklarning erishi; kislotali yomg‘irlar; gidrosferaning ifloslanishi; oqava suvlar; BMTning “Yer Deklaratsiyasi”; tozalash inshootlari; yerlarni rekultivatsiya qilish; tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari; global ekologik siyosat; aholini chuchuk suv bilan ta‘minlash; “Orolbo‘yi – ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi”.*

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1) Ekologik muammo qachondan boshlab inqirozli mohiyatga ega bo'la boshladi?
- 2) Nima uchun biosferada unga xos bo'lmagan birikmalar paydo bo'la boshladi?
- 3) Hozirgi davr ekologik inqirozining asosiy yo'nalishlari qanday namoyon bo'lmoqda?
- 4) Dunyo okeanining ko'tarilishi natijasida qaysi mamlakatlarning qirg'oq bo'ylarini suv bosadi?
- 5) Kislotali yomg'irlar paydo bo'lishiga nimalar sababchi bo'ladi?
- 6) Yer atmosferasining ozon qatlarnida qanday o'zgarishlar yuz bermoqda?
- 7) Ekologik muammolarni hal qilishning ikki asosiy yo'lini tushuntirib tering.
- 8) Iqlim isishining halokatli oqibatlarining oldini olish uchun nima ishlar qilinishi kerak?
- 9) O'zbekistonda aholi tomonidan suv va tabiiy gaz sarf qilinishi belgilangan me'yorlarga nisbatan necha barobar yuqori?
- 10) 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qanday vazifalar belgilangan edi?



## **10 – BOB. IQTISODIY XAVFSIZLIKNING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK OMILLARI**

10.1. Dunyo mamlakatlarida aholi ko'payib borishining xususiyatlari

10.2. Demografik xavfsizlikni ta'minlashning muhim jihatlari

10.3. Mehnat resurslari va migratsiyasini tartibga solish orqali iqtisodiy xavfsizlikka erishish

### **10.1 Dunyo mamlakatlarida aholi ko'payib borishining xususiyatlari.**

BMT hisob-kitoblariga ko'ra kelgusi 11-12 yil ichida aholi ko'payishining yangi to'liqini yuz berishi va 2050-yilga borib dunyo aholisi soni 9,6 milliardga yetishi kutilmoqda. Bu esa energetika zaxiralari va chuchuk suv manbalarining nihoyatda kamayishiga olib kelishi mumkin. 1804-yili dunyoda 1 milliarddan sal ko'proq aholi istiqomat qilar edi, 1927-yilga kelib esa bu raqam 2 milliardga yetdi. Shundan keyin tug'ilish sur'ati jadal ildamladi: 1959-yilda aholi soni 3 milliardga, 1974-yilda esa 4 milliardga yetib oldi. 1987-yilga kelib sayyoramiz o'z bag'riga 5 milliard, 1998-yilda esa 6 milliard odamni sig'dirdi. Aholi soni 2011-yilda 7 mlrd ga yetgan bo'lsa, 8 mlrd aholi 2022-yilning oxirida paydo bo'ldi. Ekspertlar tashvishda: aholi soni shu taxlit ko'payaversa, Yer yuzida odamzodning risoladagidek hayot kechirishi uchun resurslar yetishmay qoladi. BMT o'tkazgan tadqiqotlar ekspertlarning 95 foizi ana shunday fikrda ekanini ko'rsatdi.

Aholi soni 2050-yilda 9,6 milliardga, 2100-yilda esa 10,9 milliardga yetishi kutilmoqda, bu esa asrimiz oxirlariga borib odamlarning taxminan 20 foizi oziq-ovqat va chuchuk suv tanqisligidan qiynalishini anglatadi. Xalqaro suv resurslari boshqaruvi institutining xulosasi esa yaqin yillarga oid: 2025-yildayoq 1,8 milliard odam chuchuk suv yetishmaydigan joylarda istiqomat qilayotgan bo'ladi.

AQSHning Aholishunoslik muammolari bo'yicha byurosi ma'lumotiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda 1,2 milliard kishi, kamroq rivojlangan davlatlarda esa 6,8 milliard kishi yashamoqda. 2050-yilga borib bu nisbat quyidagicha ko'rinish oladi: 1,3 milliard va 8,4 milliard. Shunday qilib, 2050-yilda aholining taxminan 86 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar va uchinchi dunyo o'lkalarida yashayotgan bo'ladi.

Aholining to'xtovsiz ko'payib borishi munosabati bilan istiqbolni o'ylab ko'rilganda insoniyatning kelajagi to'g'risida g'oyat tashvishli taxminlar va hatto qiyomat qoyimga o'xshash voqea bashoratlari yuzaga kela boshladi. Ingliz olimi Tomas Robert Maltusning (1766—1834) "Ortiqcha aholi qonuniyati xususidagi tajriba" kitobida (1798) bayon qilingan nazariyasi ayniqsa mashhur bo'ldi.

Maltus o'z nazariyasini asoslash uchun shunday konsepsiyadan foydalandiki, bu konsepsiya keyinchalik yerning unumdorligi kamayib borishi qonuni deb nomlanadigan bo'ldi. Uning yozishicha, aholi sonining ikki hissa oshishi, amalda Yer maydonlarining kattaligi ikki baravar kamayishiga teng. Shu bois aholi qanchalik ko'p bo'lsa, har bir kishi hisobiga ishlanadigan yer shunchalik kamroq qoladi. Shu sababli yer unumdorligi kamayib borishi qonunining amal qilishi tufayli oziq-ovqat resurslari ko'payishi aholining ko'payishidan orqada qolishi tendensiyasi yuzaga keladi. Mazkur qoida quyidagicha ikki qator raqam bilan dalillanadi:

Birinchi qator aholining har 25 yilda potensial o'sishini (geometrik progressiya), ikkinchi qator oziq-ovqat resurslarining har 25 yilda ehtimoliy ko'payishini (arifmetik progressiya) tavsiflaydi. Yuqorida aytilganlardan aholi soni nihoyat darajada yuqori sur'atda oshadigan mamlakatlar kambag'allikka mahkum bo'ladilar (ular "Maltus tuzog'i" holatiga tushib qoladilar).

Vazminroq mualliflar Maltus bashoratlarining qator kamchiliklarini ko'rsatgan edilar. Jumladan, uning kamayib boruvchi samara masalasidagi o'z dalil-isbotlarida texnikaviy taraqqiyotning ta'sirini, taraqqiyot jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini, shu jumladan, oziq-ovqat resurslari ko'payib borishi borasidagi imkoniyatlarini muttasil kengaytirishni e'tiborsiz qoldirganligini ta'kidlagan edilar. Chunonchi, AQSH aholisi XIX asrning ikkinchi yarmida deyarli to'rt baravar ko'paygan, lekin shu bilan birgalikda ushbu mamlakat aholisining farovonligi ham o'rta hisobda to'rt baravar oshgan. Maltus aholisi ko'p mamlakatlarning tabiiy sharoitlari qishloq xo'jaligi uchun qulay bo'lgan mamlakatlardan oziq-ovqat mahsulotlari keltirishlariga imkon beradigan transport vositalarining jo'shqin rivojlanishini ham oldindan ko'ra bilmagan. Va nihoyat, Maltus o'lim darajasini ham e'tiborga olmagan (ayni chog'da o'lim darajasi pasayishining oqibatlari aholi soni uchun tug'ilish darajasining ko'payishiga o'xshashdir) va jamiyatning farovonligi oshishi tug'ilish (va o'lim) darajasining pasayishiga olib kelishini hisobga olmagan.

Ko'pgina davlatlar aholi sonining o'sish sur'ati, kelajakda odamlarni ish va o'qish o'rinlari, oziq-ovqat va turar joy bilan ta'minlash masalasi og'irlashishidan tashvishda. Shuning uchun ham XX asr oxirlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning ba'zilar tug'ilishni nazorat qilish bo'yicha davlat dasturlarini qabul qila boshlashdi. Bunday dasturlar kutilgan natijani berdi, endi esa davlatlarni tug'ilishning keskin kamayib ketgani va aholining tobora qarib borayotgani xavotirga solyapti.

Sayyoramiz aholisi hozir ham ko'paymoqda, lekin ko'payish sur'ati sekinlashgan. Demograflarning aytishicha, hozir Hindistonda bir ayolga 2,6 farzand to'g'ri kelayotgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 2,1 ga, 2035-yilda esa 1,8 ga tushib qoladi. Afrikaning ayrim hududlarini hisobga olmaganda, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ham xuddi shunday manzaraga guvoh bo'lish mumkin. Yevropa va Lotin Amerikasi aholisi esa tobora qarib borishi kutilmoqda. Masalan, 1980-yilda G'arbiy Yevropada o'rtacha yosh 34 edi, 2030-yilda 47 yosh bo'ladi, bu o'z navbatida mehnatga layoqatli sonining kamayishini anglatadi. Umuman olganda esa 2050-yilga borib Yevropa aholisi 14 millionga kamayadi. Yevropada aholining tabiiy ko'payishi bilan bog'liq vaziyat chindan ham og'ir.

Aholining o'sish sur'ati pasayishi nafaqat Yevropa, balki deyarli hamma joyda kuzatiladi. Yevropaning ko'pgina va Osiyoning ayrim mamlakatlarida aholi qarib bormoqda. Masalan, Yaponiyada demografik pasayish oxirgi yigirma yildan beri davom etmoqda. Bu tug'ilishning kamayishi va aholi sonining qisqarishi oqibatidir. Kelgusi o'n yilliklarda Yaponiya aholisi qanchalik tez qarigani sari vaziyat shunchalik murakkablashib boraveradi. Tug'ilishning kamayishi iqtisodiy inqiroz tufayli kuchayishi aytilsa-da, mutaxassislar fikricha, bu asosiy sabab emas. Aslida davlat rivojlanib borgani va farovonlik ortgani sayin fertillik (farzand

dunyoga keltirish) pasayib boraveradi. Hayot sifati yaxshilanadi, umr davomiyligi uzayadi, o'lim darajasi esa kamayadi.

Demografik rivojlanish muammolari va uning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri keyingi yillarda mamlakatimiz va xorijda geograflar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar va boshqa fanlar namoyandalari tomonidan keng mahokama qilinmoqda. Demografik muammolarning dolzarbligi bir necha sabablarga ko'ra namoyon bo'ladi. Birinchidan, demografik inqilob va unga bog'liq bo'lgan "demografik portlash" jarayonlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo aholisining hozirgi davrdagi o'sib borishi bilan aholi sonining ikki barobarga oshishi uchun tobora kam yillar talab qilinmoqda.

Boshqa tomondan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi takror barpo bo'lishida geodemografik vaziyatning evolyusiyasi ikki qarama-qarshi tendensiyaga egadir. Rivojlangan mamlakatlarda aholining o'sib borish sur'atlari pasaymoqda, tug'ilish qisqarib bormoqda, o'lim ko'rsatkichlari kamaymoqda, aholining yosh tarkibida o'zgarishlar yuz berib, yoshlar va o'rta yoshlilar soni kamaymoqda, qariyalar ulushi oshib bormoqda. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida aholi sonining o'sish sur'atlari ancha yuqori, ayrim mamlakatlarida esa ular iqtisodiyotning o'sish sur'atlaridan ham yuqori bo'lib, aholining shundoq ham past turmush darajasining yanada pasayib ketishiga olib kelmoqda.

Hozirgi dunyoning demografik ko'rinishi ancha xilma-xillikka va doimo o'zgarib borish xususiyatiga ega, buni tug'ilish, nikoh, o'lim, migratsiya, urbanizatsiya va aholi qarishining yangi tendensiyalari isbotlab turibdi. Oqibatda, dunyo aholisi o'zining soni, tarkibi va hududiy taqsimlanishi bo'yicha kelajakda, bugungiga nisbatan ancha farq qiladigan bo'ladi. Demografik o'zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va siyosiy sohalarida kelajakda ham muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, ular ham o'z navbatida demografik vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hozirgi dunyoda demografik rivojlanishning ahvoli ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Bunga ko'pchilik mamlakatlarda aholining keskin muammolari va demografik inqirozning chuqurlashuvi natijasida ijtimoiy barqarorlikning zaiflashuvi misol bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham "demografik xavfsizlik" degan tushuncha tobora ilmiy sohada ko'p ishlatilmoqda. Mamlakatda demografik xavfsizlikning holati uni mustahkamlashi (yoki zaiflashtiruvchi) mumkin, demografik vaziyat davlat va uning fuqarolari iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga mos kelishi kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, oilalar, jamiyat va davlatning manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi qulay demografik vaziyatga erishish har bir mamlakatning milliy demografik manfaati hisoblanadi.

O'zbekistondagi hozirgi demografik vaziyat barqaror ijobiy tendensiyaga mohiyatiga ega bo'lib, kelajakda aholi takror barpo bo'lishiga asos hisoblanadi. Hozirgi paytda O'zbekistonda aholi takror barpo bo'lishining zamonaviy yoki oqilona turi vujudga keldi. Bunday aholi takror barpo bo'lish turi dunyoda "ishlab chiqaruvchi kuchlarning kuchli rivojlanishi, agrar iqtisodiyotning industrial iqtisodiyotga aylanishi bilan paydo bo'ldi. Bu rivojlanish demografik

rivojlanishning yangi sharoitlari uchun moddiy asos yaratib beradi va demografik mexanizmi shunga muvofiq rivojlanishini talab qildi".<sup>8</sup>

Keyingi uch o'n yillikda aholi rivojlanishi holati va dinamikasini tadqiq qilish natijalarini umumlashtirgan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekistondagi hozirgi demografik vaziyat ijobiy tendensiyaga ega bo'lgan ancha barqaror mohiyatga egadir. Uni demografik xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholashda aytish mumkinki, hozirgi paytda O'zbekistondagi demografik vaziyat anchagina qulay ko'rinishga ega. Buni tug'ilishning optimallashtirish, aholi yosh tarkibining yaxshilangani, o'lim darajasining, shu jumladan bolalar va onalar o'limining qisqargani, migratsiya salbiy ko'rsatkichining pasayganligi yaqqol namoyon qilmoqda. Vaholanki, 30 yil avval bu ko'rsatkichlar ancha muammoli holatda edi. Respublikadagi demografik vaziyatning barqarorligini tug'ilganlar va o'lganlar soni o'rtasidagi optimal nisbat ham isbotlaydi. Bunday vaziyat iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi tizimi ta'sirida va aholi demografik xulq-atvorining o'zgarishi natijasida yuzaga kelgandir.

Ammo bir qancha muammolar ham mavjuddir: rivojlangan mamlakatlarga nisbatan go'daklar o'limi darajasi, reproduktiv salomatlik, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, sabablarini yo'qotish mumkin bo'lgan o'lim, shu jumladan, mehnatga yaroqli yoshdagi aholi o'limi kabilarda erishilgan natijalarga qaramasdan, yuqori hisoblanadi. Aholining sifati va turmush sifati, sog'lig'i, shahar va qishloq aholisi davolanishining va dori-darmonlarning zamonaviy turlariga erishishda ijtimoiy xizmatlar va ta'lim sifatidagi kamchiliklar mavjuddir.

Bundan tashqari, O'zbekiston aholisining bir qismi ekologik jihatdan noqulay hududlarda joylashgandir. Birinchi navbatda, bu – 3 mln. dan oshiq aholi yashaydigan Quyi Amudaryo mintaqasiga taalluqli bo'lib, u erda aholining sog'lig'iga tashqi omillarning salbiy ta'siri kuchlidir.

## **10.2 Demografik xavfsizlikni ta'minlashning muhim jihatlari.**

Jahonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash asosida milliy iqtisodiyotni rag'batlantirish, o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, infratuzilmani takomillashtirish va yangilash, aholining iqtisodiy faolligini oshirish, barqaror ijtimoiy muhitni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, dunyo aholisi soni va mobilligining o'sishi, keksalar ulushining ortishi kabi mislsiz demografik o'zgarishlar iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solmasdan qolmaydi. Shu bois, davlatlar tomonidan demografiya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish borasida maqsadli chora-tadbirlar keng miqyosda amalga oshirilmogda.

Shuningdek, jahonda koronavirus pandemiyasi tufayli demografik vaziyat yanada keskinlashmogda. Ushbu kasallik tufayli dunyo mamlakatlarida aholining o'lim darajasi oshib ketdi. Pandemiya, oxir-oqibat iqtisodiyotga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Natijada, iqtisodiy o'sish Janubiy Osiyoda – 2,7%ga, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada – 4,2%ga, Yevropa va Markaziy Osiyoda – 4,7%ga, Lotin Amerikasida – 7,2%ga qisqargan. Ushbu tanazzullar rivojlanish

<sup>8</sup> Вишневский А.Г. Избранные демографические труды. Том I.M. Наука, 2005,41 б.

maqsadlari yo'lidagi bir necha yillik taraqqiyotni orqaga qaytarishi va o'n millionlab odamlarni qashshoqlikka yetaklashi mumkin.

Mamlakatimizda ichki iqtisodiy barqarorlikka erishish va xalqaro darajadagi mavqelarni mustahkamlash, milliy resurslarning harakatlanishi va ulardan foydalanish ustidan davlat tomonidan nazorat qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, resurs bazasining yetarli darajasi va manbalarini diversifikatsiya qilish, aholining barqaror bandleligini ta'minlash va ijtimoiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatini oshirish, inson kapitalini yuqori darajada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Demografik jarayonlardagi iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar 6 ta guruhga ajratiladi:

1. Aholi sonining o'zgarishi bilan bog'liq tahdidlar: depopulyatsiya; aholi sonining yuqori sur'atda o'sishi; aholi sonining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining strategik maqsadlariga mos kelmasligi.

2. Aholining joylashishi bilan bog'liq tahdidlar: aholi zichligining pastligi (yoki yuqoriligi); aholining hududiy joylashishidagi nomuvofiqlik; aholi joylashishining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining strategik maqsadlariga mos kelmasligi.

3. Aholi tarkibi bilan bog'liq tahdidlar: aholining keksayishi; aholining haddan tashqari yoshligi; aholining jins tarkibidagi nomuvofiqlik; aholining nikoh-oila tarkibidagi nomuvofiqlik; aholi etnik ulushining o'zgarishi.

4. Aholining tabiiy harakati bilan bog'liq tahdidlar: tug'ilish darajasining juda yuqoriligi yoki pastligi; aholi o'limining yuqoriligi; chaqaloqlar va onalar o'limining yuqori darajasi; mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'limining yuqori darajasi; aholining tabiiy kamayishi; aholining yuqori tabiiy o'sishi; nikohda bo'lishning past darajasi; ajralishlarning yuqori darajasi.

5. Aholining migratsion harakati bilan bog'liq tahdidlar: aholi ko'chib kelishining (yoki ko'chib ketishining) yuqori yoki past intensivligi; aholi migratsiyasining musbat yoki manfiy saldosi; aholining noqonuniy migratsiyasi.

6. Aholining takror barpo bo'lishi bilan bog'liq tahdidlar: aholining qisqargan yoki juda kengaygan takror barpo bo'lishi; o'lim oqibatida aholi takror barpo bo'lishidagi katta yo'qotishlar; aholi o'rtacha umr ko'rishining pastligi yoki yuqoriligi.

O'zbekiston Respublikasining demografik rivojlanishini tahlil qilish asosida quyidagi tendensiyalar iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solishi aniqlangan:<sup>9</sup>

1. Tug'ilish darajasining o'sishi hisobidan doimiy aholi sonining yuqori sur'atda ko'payishi. BMT tavsiyasi bo'yicha, mamlakatda aholining normal takror barpo bo'lishi uchun har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 20,0 nafar, aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,3 foiz bo'lishi chegaraviy qiymat hisoblanadi. O'zbekistonda tug'ilishning umumiy koeffitsienti 24,6 nafarni tashkil etib, chegaraviy qiymatdan 4,6 promillega ortiq.

<sup>9</sup> Abduramanov X.X. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda demografik jarayonlarni tartibga solishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (dss) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021. 21 b.

Respublikada tug‘ilish darajasining yuqoriligi qulay demografik imkoniyatlarni ochishi bilan birga iqtisodiyot xavfsizlikka quyidagi tahdidlar kuchayadi: farzandli oilalarni qo‘llab-quvvatlash va sog‘liqni saqlash sohasiga davlat budjetidan xarajatlarni oshirish; mehnat bozoriga ishchi kuchining katta oqimi kelishi hisobidan ishchi kuchi taklifining unga bo‘lgan talab miqdoridan oshib ketishi; ayollarning tug‘ruq ta‘tiliga chiqishlari munosabati bilan iqtisodiy nafaol aholi sonining oshishi; maktabgacha ta‘lim muassasalariga tushadigan yukning ortishi; bolalar va o‘smirlar sonining ko‘payishi hisobidan mehnatga layoqatli aholiga boqimandalik yukining ortishi; nikohlar va ayniqsa, yosh oilalar sonining sezilarli ortib borayotgani.

2. Barcha yosh guruhlarida aholining kasallanishi va o‘lim, ayniqsa chaqaloqlar, onalar va mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o‘lim darajasining yuqoriligi. Xalqaro mezonlar bo‘yicha muayyan bir hududda chaqaloqlar o‘limi koeffitsienti 5 promille va undan ortiqni tashkil etsa milliy xavfsizlikka tahdid hisoblanadi. Milliy statistika bo‘yicha chaqaloqlar o‘lim darajasi bo‘yicha xavf mavjud (9,3%).

3. Aholining “quyidan” keksayishi jarayonining rivojlanishi. Bugungi kunda ikkinchi jahon urushidan keyingi “demografik to‘ldirish” davrida tug‘ilgan aholining keksalar safiga o‘tishi hisobidan aholining yosh tarkibida mehnatga qobiliyatli yoshdan kattalar soni yuqori sur‘atda o‘smoqda. Xususan, 2020-yilda o‘tgan yilga nisbatan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – 0,7, bolalar va o‘smirlar soni – 3,6, qariyalar soni esa 4,0 foizga ko‘paygan.

BMT demograflari tomonidan aholining keksayish darajasini baholash maqsadida uch bosqichli shkala ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, aholining yosh tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilarning ulushi 4,0 foizdan kam bo‘lsa – demografik yosh, 4,0-7,0 foiz bo‘lsa – keksayish bo‘lag‘asida, 7,0 foizdan oshsa hudud aholisi demografik keksa hisoblanadi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yil respublika aholisi tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilar ulushi 4,8 foizni tashkil etdi. Demak, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro mezonlar bo‘yicha demografik keksayish bo‘lag‘asidagi mamlakatlar qatoriga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini demografik xavflilik darajasi bo‘yicha uchta zonaga ajratish mumkin:

1. Yuqori xavf zonasidagi hududlar – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari.

2. O‘rtacha xavf zonasidagi hududlar – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari.

3. Barqarorlik zonasidagi hududlar – Toshkent shahri va Toshkent viloyati.

Yuqori va o‘rtacha xavf zonasidagi hududlarda bunday vaziyatning yuzaga kelishi mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda demografik omilni hisobga olmaslik oqibatidir.

O‘zbekiston Respublikasining demografiya sohasidagi manfaatlari quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- reproduktiv xulq-atvorni boshqarishni faollashtirish va tug'ilish darajasini maqbullashtirish;

- chaqaloqlar va onalar o'limini, shuningdek, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'limini kamaytirish, aholi sog'lig'ining muhofaza qilinishi yaxshilash va umr ko'rish davomiyligini uzaytirish;

- oila institutini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, uning hayoti va faoliyatini yaxshilash, oilaviy munosabatlarning milliy ma'naviy-axloqiy an'analarini saqlab qolish;

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda O'zbekistonning demografiya sohasidagi milliy manfaatini quyidagicha qayd etish mumkin: tug'ilish darajasini maqbullashtirish, o'lim sonini kamaytirish, oilani mustahkamlash, hozirgi bosqichda va istiqbolda respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasiga mos keladigan ichki va tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish yo'li bilan aholi takror barpo bo'lishini optimallashtirish.

Bugungi kunda O'zbekiston muhim demografik chegarada turibdi. O'rtacha demografik bosimda mehnat resurslarining o'sishi iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar – demografik dividend yaratadi. U aholi daromadlarining o'sishiga va kambag'allikni qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida mamlakat milliy daromadining katta qismi iste'mol, ishlab chiqarish va investitsiyalarga yo'naltirilishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, rivojlanishga turtki beradi.

Demografik siyosatni amalga oshirishga qaratilgan hukumatning to'g'ri makroiqtisodiy siyosati mavjud bo'lmasa, mehnatga layoqatli aholining o'sishi ihsizlik, siyosiy beqarorlik, korrupsiya va jinoyatchilikning ortishi hamda ijtimoiy kapitalning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mamlakatda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni oqilona amalga oshirilishi demografik dividendni qo'lga kiritishni ta'minlaydi. Bu esa rivojlanish uchun yetarli demografik afzalliklarga ega bo'lgan iqtisodiyotlarning nafaqat tug'ilish va o'lim darajasining kamayishi davriga kirib borishini, balki oilani rejalashtirish, reproduktiv salomatlik, sifatli ta'lim, ayollar va voyaga yetmagan qizlarga investitsiyani ko'proq yo'naltirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishni maqsad qiluvchi siyosat va dasturlarni samarali amalga oshirishlari lozimligini ham anglatadi.

1. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida mamlakat, iqtisodiyot tarmoqlari va mintaqalarni, ayniqsa kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategiyasi, asosiy va ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mamlakat demografik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va istiqbollarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

2. Demografik jarayonlar aholining turmush darajasi, sog'liqni saqlashning rivoji, reproduktiv xohish va yoshlarning xulq-atvori, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, tabiiy-ekologik, diniy va boshqa omillar ta'siri ostida rivojlanadi. Shu bilan birga demografik jarayonlar jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

3. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga bog'liq bo'lib, uning asosida mehnat resurslari (soni, sifati), ularning mamlakat bo'ylab oqilona taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi yotadi.

4. Demografiya sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari aholi soni va tarkibi o'zgarishining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashdan iborat.

5. Demografiya sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun hududlar kesimida tabaqalangan demografik siyosatni yuritish lozim. O'zbekistonning har bir hududi o'zining ko'plab xususiyatlari, shu jumladan geografik xususiyatlari: joylashgan joyi, tabiiy sharoitlari, resurslari, xo'jalik nuqtai nazaridan o'zlashtirilganligi va iqtisodiyotning rivojlanganligi, aholi tarkibi va uning turli joylarda joylashganligi bo'yicha betakroridir.

### **10.3 Mehnat resurslari va migratsiyasini tartibga solish orqali iqtisodiy xavfsizlikka erishish.**

Mehnat resurslarining ichki migratsiyasi o'ta sust bo'lgani holda aholining ishlab pul topish uchun chet elga haddan ziyod chiqib ketishi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasida ichki mehnat migrantlari soni 684,7 ming kishini tashkil etib, 2015-yilga nisbatan ularning soni 18,2 foizga kamaygan. Ichki mehnat migrantlarining aksariyati ish beruvchilar bilan og'zaki fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarib, bu barcha ish bilan band bo'lganlarning 5 foizidan ortig'ini va norasmiy sektorda band bo'lganlar umumiy sonining qariyb 10 foizini tashkil etadi. Mazkur ishlarning 75 foizidan ortig'i Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hamda Farg'ona vodiysi aholisining Toshkent shahriga ichki mehnat migratsiyasi ulushiga to'g'ri keladi. Mehnat resurslarining tashqi migratsiyasi ichki migratsiyasidan 5,6 martaga ko'pdir.

Aholi tarkibida norasmiy migrantlar ulushi 1,0 foizdan ortiqni tashkil etsa iqtisodiyotga tahdid soladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 7,3 foizga teng. Hududlar kesimida Andijon (9,7%), Xorazm (9,2%), Sirdaryo (9,1%), Samarqand (8,4%) va Buxoro (8,1%) viloyatlarida yuqori.

Mehnatga layoqatli yoshdan kichik aholi ulushining ko'pligi sababli mehnat bozoriga demografik bosimning yuqoriligi. Hozirgi vaqtda 16 yoshgacha bo'lgan shaxslarning ulushi jami aholining 31,0 foizini (10,7 mln.kishini) tashkil etadi. Har yili o'rtaicha 520 ming nafardan ortiq kishi mehnatga layoqatli yoshga kiradi. Mamlakat iqtisodiyoti mehnat bozoriga kirib keluvchi yoshlarni to'liq ish bilan ta'minlash va ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatiga ega emas.

Prognozlarga ko'ra<sup>10</sup>, 2021-2030-yillar davomida mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni 10,7 mln. kishidan 11,9 mln.kishigacha, ya'ni 11,2 foizga o'sishi, aholi tarkibidagi ulushi esa aksincha tug'ilish darajasining kamayishi hisobidan 30,9 foizdan 29,8 foizgacha kamayishi kuzatiladi.

<sup>10</sup> Abduramanov X.X. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda demografik jarayonlarni tartibga solishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari doktori (dss) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021. 28 b.



Prognoz davrida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 20,2 mln.kishidan 22,5 mln.kishiga yoki 11,3 foizga ortadi. Shu bilan birga, 2021-2030-yillarda mehnat yoshiga kirib keluvchilar soni 32,0 foizga ortishi kutiladi. Bu esa kelajakda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal qilishga talablarni oshirish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga, prognoz yillari mehnatga layoqatli yoshdagi aholi mutlaq sonining o'sishiga qaramay aholi tarkibida mazkur guruhning ulushi 2021-yildagi 58,1 foizdan 2030-yilda 56,5 foizgacha kamayishi kutiladi.

Prognoz ma'lumotlari bo'yicha mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi ulushi 2021-yildagi 11,0 foizdan 2030-yilda 13,7 foizgacha o'sadi.

- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'limining yuqoriligi. Prognoz davrida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o'lim koeffitsienti muntazam ortib, 2021-yilda – 2,2, 2025-yilda – 2,3, 2030-yilda – 2,4 promilleni tashkil etadi. Ya'ni, mehnat yoshidagi aholining o'limi chegaraviy qiymatdan yillar bo'yicha mos ravishda 0,2; 0,3 va 0,4 promille ortiq bo'ladi;

- mehnatga layoqatli aholiga demografik bosimning ortishi. Prognozlarga ko'ra, mehnatga layoqatli har 100 nafar aholiga demografik bosim 2021-yilda – 72,2, 2025-yilda – 75,4, 2030-yilda – 77,0 nafarni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich chegaraviy qiymatdan yillar bo'yicha mos ravishda 2,2; 5,4 va 7,0 foizni ortiqni tashkil etadi;

- professional ta'lim tizimini rivojlantirish, mehnat bozoridagi faol siyosat yuritish, mehnat sig'imi yuqori tarmoqlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsizlarning samarali bandligi va ijtimoiy himoyasini ta'minlash;

- aholining ichki va tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, urbanizatsiya darajasini oshirish.

Xalqaro mezonlarga muvofiq har 100 000 aholiga nisbatan mehnatga layoqatli yoshda o'lganlar soni 200 nafardan oshsa iqtisodiyotga tahdid hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 216,7 nafarni (2020-yil) tashkil etadi.

### **Tavanch tushunchalar**

*Aholi ko'payishi; Maltus nazariyasi; tug'ilishni nazorat qilish; mehnatga layoqatli soni; aholining tabiiy ko'payishi; aholining o'sish sur'ati; fertillik (farzand dunyoga keltirish); demografik inqilob; "demografik portlash"; demografik rivojlanish; demografik inqiroz; demografik xavfsizlik; demografik vaziyat; aholi takror barpo bo'lishi; aholi yosh tarkibi; bolalar va onalar o'limi; demografik xulq-atvor; reproduktiv salomatlik; aholining sifati; inson kapitali; aholining yosh-jins tarkibi; aholi migratsiyasi; demografik keksayish; mehnat resurslari.*

### **Takrorlash uchun savollar**

- 1) Keyingi davrlarda yer yuzida aholi ko'payib borishi qanday xususiyatlarga ega?
- 2) Yer shari aholisi mamlakatlar guruhlarini bo'ylab qanday taqsimlangan?
- 3) Maltus nazariyasining kamchiliklarini tushuntirib bering.

4) Ko'pchilik mamlakatlardagi demografik pasayish nima hisobiga yuz bermoqda?

5) Demografik o'zgarishlar qanday ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqaradi?

6) Mamlakatning milliy demografik manfaati nimalarda gnamoyon bo'ladi?

7) O'zbekistondagi hozirgi demografik vaziyat qanday xususiyatlarga ega?

8) Qanday demografik o'zgarishlar iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi?

9) Demografik jarayonlardagi iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar qanday guruhlarga ajratiladi?

10) O'zbekiston Respublikasi hududlarini demografik xavflilik darajasi bo'yicha qanday zonalarga ajratish mumkin?

11) Mamlakat mehnat bozorida qanday muammolar mavjud?

## 11-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING ROLI

1. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va tasniflanishi.
2. BMT tizimidagi tashkilotlar.
3. Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari
4. Jahon savdo tashkilotining tamoyillari, vazifalari va tuzilmasi.
5. O'zbekiston Respublikasining JSTga kirishi yo'lidagi muammolar.

### 11.1 Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va tasniflanishi.

XX asr o'rtalarida keng tarqalgan mahsulotlar va xizmatlarni, kapital va ishchi kuchini, ilmiy-texnik axborotlar va boshqarishning yangi usullarini xalqaro ayirboshlash qator davlatlarning o'zaro kelishilgan harakatida muammolarni yuzaga keltirdi.

Bunday muammolar qatoriga avvalo quyidagilar kiradi:

- bojxona tariflari va bojlari, eksport va import kvotalari, narxlar, valyuta kurslari, foiz stavkalari va boshqalar xususida kelishib olish zarurligi;
- jahon bozorida sotiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanishning texnik-iqtisodiy, ekologik shartlarga qo'yiladigan yagona talablarni ta'minlash;
- turli mamlakatlardagi hisobot, statistika, rejalashtirishning uslubiy asoslarini, qonuniy va me'yoriy bazasini bir xil andozaga keltirish zarurligi va boshqalar.

Boshqacha qilib aytanda, turli mamlakatlar o'rtasida jahon xo'jalik aloqalari barqarorligi va o'sishini ta'minlash, ayirboshlash uchun teng huquqli sharoitlarni yaratish va uning yo'lidagi barcha to'siqlarni yo'qotish maqsadida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarga ehtiyoj yuzaga keldi.

*Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimi.* Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda 300 dan oshiq xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va 60 dan oshiq mintaqaviy integratsiya guruhlar mavjud bo'lib, ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarni u yoki bu darajada tartibga solib turadilar. Ammo, xalqaro iqtisodiy xavfsizlik muammolari to'liq hal qilingan deb aytib bo'lmaydi. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimi hal qiladigan ishlar va vazifalarning ko'lamini hozirgi paytgacha juda murakkab bo'lib qolmoqda. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tarkibini 11.1.1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Jadval 11.1.1.

### Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimi

Tizim tiplari	Xalqaro tashkilotlar va integratsiya guruhlar
Global miqyosda	BMT, JST, XVJ, G20, BRICS
Mintaqaviy miqyosda	Yel, YeAST, NAFTA, MERKOSUR
Tarmoqlar miqyosida	OESR, OPEK,
Vazifasiga ko'ra	Valyuta-moliya faoliyatini tartibga solish, Xalqaro ilmiy-texnik aloqalarni tartibga solish

Keyingi yillarda xalqaro tashkilotlarning soni tez ko'paya boshladi, biroq bu asosan ikki qarama-qarshi tizim doirasida yuz berdi. Bu tizimlarning har biri a'zodavlatlarning siyosiy, iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi o'z tashkilotlariga ega edi. Turli mamlakatlarni yagona jahon hamjamiyatiga birlashishi jarayoniga xalqaqit beruvchi siyosiy va mafkuraviy to'siqlar yo'qolishi bilan ko'plab xalqaro tashkilotlarning faoliyat sohasi ancha kengaydi va bunda energiya, xom-ashyo, ozliq-ovqat, ekologiya muammolari bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga katta e'tibor berila boshlandi. Davlatlar guruhlarini hududiy belgisi bo'yicha yoki iqtisodiy faoliyatining ma'lum sohalaridan manfaatdorlikning umumiyligi asosida birlashtiruvchi tashkilotlar yuzaga keldi. Bu tashkilotlar savdo, ishlab chiqarish, transport, valyuta-moliya operatsiyalari va boshqa sohalarda ham yuzaga keldi.

Keng doiradagi muammolarni hal etishda davlatlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini ta'minlovchi tarixdagi birinchi tashkilot *Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)* hisoblanadi. BMT 1945-yilda, g'olib mamlakatlar tomonidan tinchlik va xavfsizlikni saqlash xalqaro tashkiloti sifatida tuzildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro xavfsizlikni, sh.j. iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydigan asosiy yetakchi xalqaro iqtisodiy tashkilotdir. BMT ko'p funksiyali tashkilot hisoblanadi, lekin xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi katta vakolat ham unga tegishlidir. BMT Nizomida ikkita bob bor: "IX. Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik" va "X. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash". Ular asosan hamkorlikni tashkil qilish va iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgandir.

BMTning Xavfsizlik Kengashi (BMT XK) xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni saqlash bo'yicha asosiy ma'suliyatni o'ziga olgan. BMT XK ushbu vazifani bajarishda, birinchidan, tinchlikni va xavfsizlikni buzadigan iqtisodiy voqeliklar bo'yicha kurash olib borish huquqiga ega, masalan, narkotiklar, qurollar noqonuniy savdosi, "iflos" pullarni qonuniylashtirish kabilar bilan kurashish. Ikkinchidan, BMT XK iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega: tinchlikka va xavfsizlikka tahdid soluvchi davlatlarga nisbatan sanksiya sifatida savdo blokadasi, embargo va h.k. kabi tadbirlarni qo'llashi mumkin. Muhimi, BMT boshqa idoralarining qarorlaridan farq qilgan holda Xavfsizlik Kengashi qarorlari imperativ (o'zgartirish mumkin bo'lmagan) kuchga ega.

BMTning muhim idoralaridan biri bo'lgan Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) ham iqtisodiy sohalarda katta huquqlarga egadir. EKOSOS BMT Ixtisoslashgan idoralarining iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini uyg'unlashtirishning juda ko'p, xususan, iqtisodiy rivojlanish, jahon savdosi, industrilashtirish, tabiiy resurslarni o'zlashtirish va h.k. vazifalariga egadir.

Keyingi o'n yilliklarda Katta yettilik, Katta yigirmatalik, BRIKS va boshqa, shu kabi norasmiy xalqaro tashkilotlarning ahamiyati oshib bormoqda. Katta yigirmatalik (G20) 2008-2009-yillardagi jahon inqirozi davrida jahon siyosati va iqtisodiyotining uyg'unlashtiruvchi markaz bo'lib qolgan edi. Hozirgi paytda "yigirmatalikka" quyidagi 21 ta davlat – Avstraliya, Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Xitoy,

Meksika, Niderlandiya, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, Janubiy Afrika, Janubiy Koreya va Yaponiya, hamda Yel, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon savdo tashkiloti kiradi.

Jahon YAIMning 85 % ni ishlab chiqaradigan "Katta yigirmatalik", 1990-yillardagi moliyaviy inqirozlarga (Osiyo moliyaviy inqirozi, 1998-yildagi Rossiya inqirozi) javoban moliya vazirlari va markaziy bank rahbarlari forumi sifatida tashkil qilingan edi.

Belgilariga ko'ra barcha xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

*I. Umumiy huquq doirasi keng bo'lgan, shuningdek iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar.* Masalan, BMT, Arab davlatlari ittifoqi, Afrika Birdamlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti va boshqalar.

*II. Umumiy iqtisodiy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar.* Bu tashkilotlar iqtisodiy hamkorlikning barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha a'zo-davlatlar siyosatini nazorat qiladi. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT).

*III. Iqtisodiy birlashgan tashkilotlar.* Bu tashkilotlarning maqsadi a'zo – mamlakatlar doirasida mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakati yo'lidagi barcha chegaralarni bosqichma-bosqich yo'qotishdan hamda yagona iqtisodiy siyosatga asoslangan umumiy iqtisodiy makonini yaratishdan iborat. Masalan, Yevropa hamjamiyati (YeH), Shimoliy Amerika mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (NAFTA), Osiyo Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEK), Lotin Amerikasi davlatlari birlashgan uyushmasi va boshqalar.

*IV. Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.*

1. Savdo sohasidagi, shu jumladan umumiy xarakterdagi tashkilotlar: savdo va tariflar buyicha Bosh bitim (GATT) – 1995-yildan boshlab Jahon savdo tashkiloti (JST), savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YuNKTAD), shuningdek tabiiy kauchuk bo'yicha, kakao bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar, neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) mis eksport qiluvchi mamlakatlar Hukumatlararo kengashi va boshqalar. Bu tashkilotlar xalqaro savdoning rivojlanishiga yordam beradi va jahon bozorida xom ashyo mahsulotlarining muhim turlari aylanishini tartibga soladi.

2. Sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, energetika, transport va aloqa hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari sohasidagi tashkilotlar. Bu tashkilotlarning faoliyati a'zo-mamlakatlar milliy xo'jaligi muhim sohalari rivojlanishini rag'batlantirish va nazorat qilishga, uning yirik masalalarini hal etishga qaratilgan. Masalan, Sanoat rivojlanishi bo'yicha tashkilot (YuNIDO), BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO), Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT tashkiloti (YuNESKO), Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Umumjahon pochta ittifoqi va boshqalar.

3. Valyuta – moliya, shuningdek, sarmoyalarni himoyalash sohasidagi tashkilotlar. Masalan, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa tiklash va taraqqiyot banki (YeTTB), Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB), ko'ptomlana

sarmoyaviy kafolat beruvchi Agentlik, sarmoyaviy bahslarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markaz va boshqalar.

4. Iqtisodiy xarakterdagi faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar. Masalan, intellektual mulkni himoya qilish umumjahon tashkiloti, standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot va boshqalar.

### 11.2 BMT tizimidagi tashkilotlar.

Ba'zi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar o'z faoliyatida muxtor, mustaqil hisoblangan hukumatlararo tashkilotlardir (IHTT, YeTTB, XHB va boshqalar), biroq ulardan ko'pchiligi BMT ning ixtisoslashgan muassasalaridir. BMT ning asosiy tashkiloti Bosh Assambleya hisoblanadi. U BMT ga a'zo barcha davlatlardan tashkil topgan.<sup>11</sup> Ular BMT Nizomi doirasida barcha harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, huquqiy masalalarni muhokama qilish huquqiga egadirlar.

Bosh Assambleya bilan bir qatorda va uning boshchiligida xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik uchun javobgarlikni BMT ning muhim tashkiloti – Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) o'z zimmasiga oladi. U Bosh Assambleya tomonidan saylanadi va tashkilotning a'zolari 54 mamlakatdan iborat. Uning bevosita tashkilotlari quyidagilar:

- sessiya tashkilotlari;
- funksional tashkilotlar;
- EKOSOS qo'mitalari va komissiyalari;
- ekspertlar tashkilotlari;
- hududiy komissiyalar; EKE, EKA, ESKATO va boshqalar.<sup>12</sup>

Bu tashkilotlar barcha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatlar, tavsiyalar beradi, bu masalalarni o'rganadi, kengashga materiallar va hujjatlar tayyorlaydi.

EKOSOS BMT ning bir qator hukumatlararo muassasalariga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu muassasalarning har biri xalqaro darajada ma'lum funksional yoki tarmoq muammolarini hal etishga javobgardir (XVF, XTTB, XMK, FAO, UNESKO va boshqalar).

Bundan tashqari EKOSOSga iqtisodiy masalalar bo'yicha Bosh Assambleya tashkilotlari (UNKTAD, PROON va boshqalar), shuningdek BMT ning turli maqsadli fondlari (UNISEF va boshqalar) ustidan ham nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

BMT ning teng huquqli a'zosi sifatida O'zbekiston uning ko'plab iqtisodiy tashkilotlari faoliyatiga qo'shilgan (XVF, XTTB, XMK, JST, ESKATO va boshqalarga).

*Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti.* Bir tomondan, iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, ikkinchi tomondan, jahon bozoridagi kuchli raqobat davlatlarni o'z milliy manfaatlarini doirasini saqlash va kengaytirishga, maqsadlar birligi asosida iqtisodiy guruhlar, tashkilotlar tuzishga majbur etdi. Bu guruhlar,

<sup>11</sup> 2022 yil oxirida 193 davlat BMT ning a'zosi hisoblangan.

<sup>12</sup> Hududiy iqtisodiy komissiyalar: EKE – Yevropa bo'yicha, EKA – Afrika bo'yicha, ESKATO – Osiyo va Tinch okeani region bo'yicha.

tashkilotlar tarkibida davlatlar o'z harakatlarini kelishib oladilar va jahon hamjamiyatidagi mavqelarini birgalikda himoya qiladilar, shuningdek, jahon xo'jalik aloqalarini o'rnatish tartibi va qoidalarini aniqlaydilar.

Bu tashkilotlar ham umumiy iqtisodiy, ham birlashgan xarakterga ega. Bunda har bir mamlakat bu tashkilotlarning bir nechtasiga a'zo bo'lishi mumkin.

Eng yirik umumiy iqtisodiy tashkilot 24 davlatni yoki deyarli barcha rivojlangan kapitalistik mamlakatlarni birlashtirgan Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) hisoblanadi.<sup>13</sup> U 1961-yilda ishtirokchi-mamlakatlarning yagona iqtisodiy siyosatini ishlab – chiqish va nazorat qilish maqsadida tuzilgan bo'lib, quyidagi muammolarni hal etadi:

- jahon iqtisodiyotining ahvoli va kelajakda rivojlanish yo'llari;
- xalqaro savdoni erkin yo'lga qo'yish va tartibga solish;
- valyuta-kredit tizimini barqarorlashtirish;
- sanoati rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar hamda sobiq sotsialistik mamlakatlar bilan munosabatlari.

Rahbarlikning oliy tashkiloti Kengash hisoblanadi va unga barcha ishtirokchi-mamlakatlarning vakillari kiradi, biroq barcha masalalarni ishchi tartibda Ijroiya qo'mita hal etadi. "Katta yettilik" davlatlari – AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Italiya, bu qo'mitaning doimiy a'zolaridir. Uning qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lsa-da, biroq mamlakatlar iqtisodiyoti to'g'risidagi ma'lumotlarning hajmi va ishonchligini, uning ishlash sifatini, shuningdek taqsimlanayotgan zahiralarning miqdorini hisobga olgan holda, bu tavsiyalarga munosabat jiddiydir. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga, shuningdek mahsulot va kapitalni jahondagi aylanishiga ta'sir ko'rsatuvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi barcha yirik loyihalarning aksariyati shu tashkilot doirasida muhokama qilinadi. Bu loyihalarning amalga oshishi ko'proq uning qarorlariga bog'liq.

Keyingi yillarda IHTT a'zo-mamlakatlar o'rtasidagi (Yaponiya va AQSH, G'arbiy Yevropa va AQSH va boshqalar) ba'zi keskin iqtisodiy muammolarni hal qilishga, shuningdek sobiq sotsialistik mamlakatlarga nisbatan birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirishga ko'p e'tibor bermoqda. IHTT tarkibida bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarga moliyaviy, texnik yordam ko'rsatish, loyihalarni baholash, maslahat berish va tuzilish siyosatini tahlil etish bilan shug'ullanuvchi Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik bo'yicha markaz tuzilgan.

### 11.3 Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari.

*Xalqaro valyuta jamg'armasi.* Jahon valyuta tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, jahon moliyaviy resurslar bozorini barqarorlashtirish va kapital aylanishini rag'batlantirish maqsadida xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tashkil etilgan edi. Ular ichida eng ahamiyatlisi Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va qator yirik banklar – Jahon banki (JB), Yevropa tiklash va taraqqiyot banki

<sup>13</sup> IHTT ga a'zo mamlakatlar: AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yevropa Hamjamiyatiga kiruvchi 15 mamlakat, shuningdek Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Turkiya.

(YeTTB), Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHB), Islom taraqqiyot banki (ITB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqalar hisoblanadi.

AQSHning Bretton-Vuds shaharchasida 1944-yilda valyuta – moliya masalalari bo'yicha Birlashgan millatlarning Anjumani bo'ldi va unda 44 davlat hukumati vakillari qatnashdi. Anjumanda qator bitimlar, jumladan Xalqaro valyuta jamg'armasi to'g'risida, Xalqaro tiklash va taraqqiyot banki (Jahon banki) to'g'risida bitimlar tuzildi. Bu bitimlar 28 mamlakat tomonidan imzolandi va ular BMT doirasida yirik jahon moliya tashkilotlarini yaratishning huquqiy asosi bo'ldi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) 1945-yilning oxirlaridan ish yurita boshladi, hozirda unga 190 mamlakat a'zodir.

Uning asosiy maqsadi a'zo-davlatlar valyuta – moliya siyosatini muvofiqlashtirish va ularga to'lov balansini tartibga solish hamda valyuta kursini saqlash uchun qarz berish hisoblanadi. Buning uchun jamg'arma to'lov balansida qiyinchiliklar sezayotgan o'z a'zolarini moliyalashtiradi, ularning xo'jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko'rsatadi. Oxirgi o'n yillarda XVJ ning moliyaviy vositachi va yirik kreditor sifatidagi roli oshdi.

Jamg'armaning moliyaviy resurslari a'zo – mamlakatlar badallaridan, shuningdek rasmiy va xususiy moliyaviy muassasalardan bozor shartida qarzga olingan mablag'lardan hamda o'zi bergan qarzlarning foizlari mablag'laridan tashkil topadi. Badallarning miqdori mamlakatning jamg'arma kapitalidagi hissasiga bog'liq bo'lib, IHTT a'zolari hissasiga deyarli 62 foiz, jumladan AQSH ga 20 foizga yaqin, rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 38 foiz to'g'ri keladi.

Qarzarlar a'zo-mamlakatlar badallaridan tashkil topgan umumiy resurslar hisobidan hamda SDR<sup>14</sup> shartli birliklaridagi maxsus hisobdan berilishi mumkin.

XVJ operatsiyalarining xususiyati shundaki, u mablag'larni – chet el valyutasini yoki SDRni milliy valyutaga ayirboshlash yo'li bilan beradi. Ma'lum vaqtdan so'ng qarz olgan mamlakat o'z qarzini jamg'arma tomonidan o'z hissasidan ortiq jamg'arilgan milliy valyutasini sotib olish yo'li bilan qoplaydi.

Umumiy hisob bo'yicha XVJ barcha a'zo-mamlakatlari xorijiy valyutani oltinda, konvertirlangan valyuta va SDR da jamg'arma kapitalidagi o'z hissasining taxminan 25 foizi chegarasida shartsiz olishi mumkin. Bu miqdordan ortiq qarz XVJ ning iqtisodiy va ijtimoiy siyosat sohasidagi tavsiyalari bajarilgan taqdirdagina beriladi.

Oddiy kreditorlardan tashqari kam rivojlangan davlatlar aniq maqsadlar uchun ma'muriy hisoblar deb nomlangan imtiyozli kreditlar olishi mumkin. 1987-yilda har bir mamlakatning jamg'armadan olinadigan kreditlari bo'yicha qarz chegarasi shu mamlakat kvotasining 400-440 foizini tashkil qildi. Kreditlash muddati, asosan, 3-5 yil bilan chegaralangan (qarzning ba'zi turlari bo'yicha 7-10

<sup>14</sup> SDR – 70 – yillardan boshlab xalkaro rezerv to'lov mablagi va kiymat o'lchovi sifatida oltin o'rniga chikarilgan xalkaro valyuta.



yil bilan), kreditlar uchun foizlar doimo qayta ko'rib turiladi. 2000-yillarning oxirida u o'rtacha 6,4 foizni tashkil etdi.

1986-yildan kam rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tuzilishini qayta qurishni moliyalashtirishning maxsus tizimi – SAF ish yurita boshladi. Bu tizim doirasida kreditlar imtiyozli davri 5,5 yil, stavkasi 0,5 foiz. Qarz olayotgan mamlakat o'zining butun iqtisodiyoti tuzilishini qayta qurishning XVJ bilan kelishilgan uch yillik dasturini amalga oshirish yuzasidan majburiyat oladi.

1988-yildan kam rivojlangan mamlakatlar uchun iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni moliyalashtirishning kengaytirilgan tizimi (YeSAF) ish yurita boshladi. Bu tizimda moliyaviy resurslardan foydalanish chegarasi 1986 yildagi tizimga taqqoslaganda uch yil mobaynida mamlakat hissasining 150 foizigacha, ayrim hollarda 350 foizigacha kengaydi.

Kreditlash XVJ faoliyatining asosiy sohasi bo'lib qolishi sababli, u yirik iqtisodiy tadqiqotlar markaziga aylandi, bu esa unga muvofiqlashtirish funksiyasini samarali bajarishga imkon berdi.

*Jahon banki guruhi.* Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) va Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentligi (IKXA) kabi ixtisoslashgan muassasalaridan tashkil etilgan guruh Jahon banki deb ataladi.

Jahon banki umumiy rahbarlik va balansga ega. U qarzlarning ma'lum qismini imtiyozli shartlarda, ba'zan tekin berishiga qaramay, uning faoliyati umuman foyda keltiruvchi hisoblanadi. Jahon banki hissasiga rivojlanayotgan mamlakatlarga barcha xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag'lar yillik hajmining deyarli 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Jahon bankining asosiy tashkiloti bo'lib, o'z faoliyatini 1946-yilda boshlagan XTTB hisoblanadi. Bu tashkilotga faqat XVJ ga a'zo bo'lgan mamlakatlar kirishi mumkin.

XTTB ning asosiy maqsadlari – bu a'zo-mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurishga va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish hamda xususiy chet el investitsiyalarini rag'batlantirish orqali ko'maklashish, to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan qarz berish.

Faoliyatining xususiyatlari:

- qarzarlar faqat ishlab chiqarish maqsadlari uchun asosan rivojlanayotgan mamlakatlarga qishloq xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash, yo'l xo'jaligi va boshqalarni rivojlantirishga beriladi;

- qarzarlar mos ravishda hukumat tomonidan kafolatlanishi va aniq loyihalar uchun berilishi lozim;

- qarzarlar zarur mablag'larni boshqa manbalardan olish mumkin bo'lmagan hollardagina beriladi.

XTTB ning moliyaviy resurslari bank tomonidan chiqariladigan obligatsiyalarga a'zo-davlatlarning yozilishi yo'li bilan, shuningdek xalqaro pul bozorlarida joylashtiriladigan obligatsiya zayomlari mablag'laridan tashkil etiladi.

XTTB muayyan mamlakatga kredit berishda uning iqtisodiy ahvoli haqida to'liq ma'lumot talab qiladi va u yerga ekspertlar guruhini jo'natadi. Ekspertlar guruhi mamlakat iqtisodiy va moliyaviy ahvolini tekshiradilar, bu xususda aniq tavsiyalar ishlab chiqadilar. Agar kredit olayotgan mamlakat bu tavsiyalarni qabul qilmasa, unga kredit berilmasligi mumkin.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab XTTB faoliyati qarzlariga muhtoj mamlakatlarda iqtisodiyot tuzilishini qayta qurish dasturini amalga oshirishga qaratilmoqda (Turkiya, Filippin, Indoneziya, Chili, Argentina, Meksika, Nigeriya). Bu yerda XTTB faoliyati XVJ faoliyati bilan birlashib ketadi. XTTB a'zo-mamlakatlar hukumatlariga yoki hukumatlar kafolat bergan xususiy tashkilotlarga o'rta va uzoq muddatli (25 yilgacha) qarzlarni beradi hamda ularni ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilishini nazorat qiladi. Qarzlarni bo'yicha foizlar xalqaro kapital bozorida Bank oladigan kreditlarni qiymatiga bog'liq. 1993 moliya yilida o'rta va uzoq muddatli qarz kapitalining o'rtacha qiymati 5,97 foizni tashkil etdi.

Bankning boshqaruv Kengashida hal qiluvchi ovozga 7 ta yetakchi mamlakat – AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Germaniya, Italiya ega. Ular XTTB ning kredit siyosatini aniqlaydilar.

XTTB ikkita ixtisoslashgan shoxobchaga ega: Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU).

XTTB ning shoxobchasi sifatida 1956-yilda yaratilgan XMK o'z shaxsiy resurslariga ega bo'lgan mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi, lekin uning faoliyati XTTB bilan chambarchas bog'langan. 2021-yilda uning a'zolari 184 mamlakat edi.

Korporatsiyaning asosiy maqsadlari - rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab – quvvatlash, xususiy va aralash iqtisodidagi korxonalarni kapital qo'yilmalar yordamida moliyalashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiyotni boshqarishda yordam berish.

XMK faoliyatining xususiyati shundaki, u xususiy aksionerlarga aksiyalarni qayta sotish huquqiga ega bo'lgan holda, qurilayotgan yoki kengayayotgan korxonalarining aksionerlik kapitalida bevosita qatnashishi mumkin. Biroq XMK ning hissasi aksionerlik kapitalining 1/5 dan oshmasligi lozim.

XMK moliyaviy resurslari quyidagilar hisobiga yaratiladi:

- XMK aksiyalariga yozilishiga muvofiq a'zo-davlatlarning badallaridan;
- XMK foydasidan ajratmalardan;
- XTTB dotatsiyalaridan;
- XTTB dan qarzlarni ko'rishida jalb etilgan mablag'lardan.

Korporatsiya Jahon banki muassasalari ichida eng daromadli tashkilot hisoblanadi. U asosan o'rta muddatli qarzlarni (7-12 yil muddatga) beradi, ular bo'yicha foiz stavkalari bozordagidan yuqori, chunki XMK resurslarining katta qismi XTTB badallari hisobiga tashkil topadi. Shu sababdan uning kreditlaridan ko'pincha barqaror rivojlanayotgan mamlakatlardagi yuqori foyda oluvchi

korxonalar foydalanadi. Asosan qayta ishlovchi, qazib oluvchi sanoat, sayyohlik, kommunal korxonalariga ajratmalar yo'naltiriladi.

Qarz qanday valyutada olingan bo'lsa, shu valyutada qaytariladi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) – 1960-yildan XTTB ning shoxobchasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda va uning mansabdor shaxslari tomonidan boshqariladi.

Faoliyatining xususiyati kam rivojlangan mamlakatlarga yordam berishdir. XTU dan kredit olish uchun quyidagi 4 shart yoki holat asos bo'ladi:

1. Kredit olayotgan mamlakat juda kambag'al bo'lishi kerak (bu toifaga 1993-yilda YaMM aholi jon boshiga 690 dollar miqdorida to'g'ri kelgan mamlakatlar kirgandi).

2. Kredit olayotgan mamlakatda iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy barqarorlik bo'lishi lozim.

3. Kredit olayotgan mamlakat o'z to'lov balansida katta qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan bo'lishi va xorijiy valyutani imtiyozli shartlarda olishdan boshqa imkoniyatlarga ega bo'lmasligi kerak.

4. Kredit olayotgan mamlakat rivojlanishiga haqiqatda intilishi lozim va bu, uning siyosatida aks etishi kerak.

Shunday qilib, XTU ning asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berishdir. Uyushmaning moliyaviy resurslari quyidagilardan tashkil topadi:

- birinchi guruh mamlakatlarning badallari – bu 20 dan ortiq rivojlangan mamlakat, shuningdek Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklarining konvertirlanadigan valyutadagi badallari;

- ikkinchi guruh mamlakatlarning badallari – bu kam rivojlangan mamlakatlar badallari (10 foiz konvertirlanadigan valyutada va 90 foiz milliy valyutada);

- a'zo-mamlakatlarning milliy valyutadagi qo'shimcha badallari;

- XTTB subsidiyalari;

- Shveysariya ajratadigan kreditlar.

XTU asosan uzoq muddatli kreditlarni beradi: 40 yil muddatga kam rivojlangan mamlakatlar uchun (BMT ro'yxati bo'yicha) va 35 yil muddatga boshqa mamlakatlar uchun; bu muddatga qarz olgan mamlakat hech qanday to'lovlarni amalga oshirmaydigan 10 yillik davr ham kiritiladi (bunda faqat ma'muriy xarajatlar uchun 0,75 foiz miqdorida vositachilik haqi olinadi).

O'zbekiston ham mamlakat iqtisodiyotida islohotlar amalga oshirish maqsadida yuqoridagi xalqaro moliya tashkilotlaridan qarz kreditlar olgan. Xalqimizning farovon hayotini va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun, avvalo, infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi. Aholining yashashi, ishlab chiqarish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan energetika, suv ta'minoji, transport va kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta miqdordagi sarmoyalar talab etiladi.

**O'zbekiston Respublikasi tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi, 2021 yil boshiga bo'lgan ma'lumot**

№	Qarz olingan tashkilot	Qarz miqdori, mlrd dollar
1	Osiyo taraqqiyot banki	5,0
2	Jahon banki	3,7
3	Xitoy eksimbanki	2,0
4	Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi	2,0
5	Xitoy davlat taraqqiyot banki va boshqalar	2,0
6	Islom taraqqiyot banki	0,9
7	Yaponiya xalqaro hamkorlik banki va boshqalar	0,4
8	Ijtimoiy taraqqiyot va hamkorlik jamg'armasi	1,0
9	Xalqaro investorlar	1,7
10	Boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar	2,4

*Mabna: O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 2021.*

Ichki imkoniyatlar cheklangan holatda, davlat tashqi qarzi, asosan infratuzilma, sanoat va qishloq ho'jaligi loyihalariga yo'naltirilmoqda. Xususan, 2020 yilning yakuni bo'yicha jami davlat tashqi qarzining 17,5 foizi yoki 3,7 mlrd. dollar davlat budjetini qo'llab-quvvatlashga, 12,4 foizi yoki 2,6 mlrd. dollar energetika sohasiga, 13,7 foizi yoki 2,9 mlrd. dollar elektr-energetika sohasiga, 11,5 foizi yoki 2,4 mlrd. dollar transport va transport infratuzilmasiga, 11,0 foizi yoki 2,3 mlrd. dollar uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar hissasiga to'g'ri keladi.

#### 11.4 Jahon savdo tashkiloti, uning vazifalari va tuzilmasi.

Hozirda savdo va sanoat sohasida quyidagi yirik xalqaro tashkilotlar mavjud: Jahon savdo tashkiloti (JST), savdo va rivojlanish bo'yicha BMT Anjumani (YuNKTAD), Sanoat rivojlanishi bo'yicha BMT tashkiloti (YuNIDO) va boshqalar.

Jahon savdo tashkiloti 1995 yilining boshida tashkil etilgan bo'lib, muhim xalqaro tashkilot – GATT ning davomchisidir. GATT (Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv) ko'ptomonlama xalqaro bitim bo'lib, ishtirokchi-mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soluvchi, shuningdek savdo masalalari bo'yicha muzokaralar va maslahatlar o'tkazuvchi xalqaro tashkilot edi. Xalqaro savdo munosabatlari masalalari bilan shug'ullanuvchi ushbu xalqaro tashkilot 1974 yilda tuzilgan. Dastlab bitimga 23 mamlakat imzo chekkan, 1994 yilning oxirida unda 128 mamlakat qatnashdi. 2016 yilga kelib JSTga 164 mamlakat a'zo bo'ldi.

GATT ning asosiy maqsadi xalqaro savdodagi to'siqlarni, ayniqsa bojxona tariflari va import kvotalarini kamaytirish hisoblanadi.

Keyingi 30 yil ichida sanoat mahsulotlariga import tariflari rivojlangan mamlakatlarda 40 foizdan 5 foizgacha pasaydi. Bosh bitim o'z ichiga to'rtta katta qismni oladi:

- shartnoma tuzayotgan tomonlarning asosiy majburiyatlari;
- bu majburiyatlardagi istisno;
- yillar mobaynida qo'shilgan tuzatmalar yig'indisi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ta muhim muammolariga taalluqli moddalar.

Barcha qatnashchilar amal qilishi lozim bo'lgan GATT ning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- savdo kamsitishsiz amalga oshirilishi lozim. Bu qoidaga ko'ra agar ikki mamlakat bo'xona tariflarini qisqartirish yoki boshqa qandaydir yengillik berish haqida kelishuvga kelgan bo'lsa, bu ma'lumot GATT ni imzolagan boshqa mamlakatlarga ham tarqatilishi lozim;

- milliy sanoat miqdoriy yoki boshqa ma'muriy chora-tadbirlar yordamida emas, balki faqat bo'xona tariflari yordamida himoyalaniishi lozim.

- tariflar ko'ptomonlamali muzokaralar natijasida qisqartirilishi lozim va oshirilishi mumkin emas;

- ishtirokchi mamlakatlar savdo muammolarini hal etish maqsadida o'zaro maslahatlashishlari zarur.

Xalqaro savdoning rivojlanishida GATT muhim rol o'ynaydi. Lekin jahon iqtisodiyotining o'sishi va jahon xo'jaligi aloqalarini murakkablashuvi, xalqaro investitsiyalar va xizmatlar savdosining kengayishi yangi tashkiliy tizim barpo etilishini talab etdi. 1995-yildan faoliyat ko'rsatayotgan Jahon Savdo Tashkiloti GATT ning davomchisi bo'lib, undan bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, GATT ba'zi tashkiliy asosga ega bo'lmagan ko'p tomonlama bitim bo'lgan bo'lsa, JST o'z kotibiyatiga ega bo'lgan doimiy muassasadir. Ikkinchidan, GATT qoidalari faqat mahsulotlar savdosiga tegishli edi. JST qoidalari esa xizmatlar savdosini ham qamrab oladi.

*Jahon savdo tashkiloti* ko'p tomonlama savdo tizimining huquqiy va institutlashgan o'zagidir. U ichki savdo qonunchiligi va qoidalarini rivojlantirish va amalga oshirish uslublarini hukumatlar uchun belgilab, shartnomaviy majburiyat tamoyillarini taqdim qiladi. JSTga 1995-yil yanvarida asos solindi.

JST Sekretariati Jeneva shahrida joylashgan va quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- JSTni tashkil etuvchi ko'p tomonlama va har tomonlama bitimlarni boshqarish va amalga oshirish;

- Ko'p tomonlama savdo muzokaralari uchun Forum;

- Savdo bahslarini hal etib berish;

- Milliy savdo siyosatini nazorat etish va jahon iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishga jalb etilgan o'zga xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik;

O'zbekiston GATT ga kirish haqida boshlangan muzokaralarini JST bilan davom ettirmoqda. Shu sababli respublikaning bu sohadagi qonunchiligi JST qoidalarga moslashtirilmoqda. Bu xalqaro savdoni tartibga soluvchi milliy me'yorlar, qoidalarni bir shaklga keltirishga yordam beradi hamda

O'zbekistonning JST ga qo'shilishini yengillashtiradi, ortiqcha rasmiyatchilikka barham beradi, tashqi iqtisodiy faoliyat xarajatlarini qisqartiradi.

### **11.5 O'zbekiston Respublikasining JSTga kirishi yo'lidagi muammolar.**

O'zbekistonning xalkaro iqtisodiy munosabatlarga integratsiyalashuvidagi asosiy vazifalardan biri Jaxon Savdo Tashkilotiga qo'shilishdir. JSTga 164 mamlakat a'zodir. Hozirgi vaqtda MDH davlatlaridan Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Armaniston, Gruziya, Qozog'iston va Tojikiston unga a'zodir. JSTga a'zo bo'lish uchun 26 davlat, shu jumladan O'zbekiston ham muzokara olib bormoqda. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining dastlabki tashkiliy bosqichi tugallandi.

Ikkinchi bosqich ham boshlangan, bu bosqichda asosiy urg'u nafaqat JSTga kirishning xuquqiy normativ bazasini shakllantirishga, balki muzokaralar olib borishning umumiy zarar va foydalari prinsiplarini ishlab chiqishga, milliy manfaatlarni umumiy himoyasiga va qisman iqtisodiyotning ta'sirchan sektori va sohalariga qaratilgan.

Avvalo qo'shilishning O'zbekiston uchun qulay shartlarini ta'minlaydigan, uning manfaat va sohalarini, ayrim ishlab chiqarishlarini himoya qila oladigan va o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish zarur.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotini umumiy eksportini 50% ni xom-ashyo zaxiralari tashkil qiladi. Import strukturasi esa asosiy o'rinni uskunalar importi, maishiy texnika va uzoq muddatga foydalaniladigan mahsulotlar egallagan. O'zbekiston JSTda qatnashishining dastlabki yillarida iqtisodiy zarar va foydaning balansi to'g'risidagi muammo ochiq qolmoqda. Shunday miqdoriy baholarning kamligi, JSTga a'zolikka tayyorgarlik ko'rish uchun zarur bo'lgan me'yorlarni aniqlashtirishni qiyinlashtirmoqda. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, JSTga kiruvchi har bir mamlakatning raqobatbardoshlik darajasidan va uning iqtisodiy institutlarini savdo rejimini erkinlashtirishga tayyorgarligidan, tashqi savdo faoliyatining keyingi rivojlanishi va mamlakat iqtisodiyotini umumiy rivojlanishida ko'rinadi. Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mamlakatlar qatoriga Qatar, Turkiya va Estoniyani qo'shish mumkin, chunki ular JSTga a'zo bo'lgan dastlabki yillarida o'zlarining umumiy iqtisodiyoti va tashqi savdo faoliyatidagi o'sishlarni namoyish qilishdi.

Xitoyning JSTga a'zo bo'lish tajribasi quyidagilarni ko'rsatdi. Xalqaro bozorda Xitoy tovarlari muvafaqqiyatiga qaramasdan, ayniqsa O'tgan asrning 90-yillari oxirida, JSTga a'zo emasligidan, ularni jahon bozoriga yetkazib berishdagi ayrim qiyinchiliklar saqlanib qoldi. 15 yillik uzoq muzokaralardan so'ng Xitoy 2001-yil JST ga a'zo bo'ldi. JSTga a'zo bo'lishning o'zigina Xitoyni jumladan, neftkimyosi va telekommunikatsiya sohalarida tashqi raqobatdan himoya qilish uchun o'zidagi proteksionistik choralardan voz kechishga majbur eta olmadi. Xitoyda 50 ta yirik monopolist korxonalar hukumatdan subsidiyalar olishadi va kapitalni tashqi bozorga olib chiqishidagi imtiyozlardan foydalanishadi.

*Savdo tizimini boshqarish uchun JST tamoyillari.* JST bitimlari aytarliq keng miqyosli va komplekslidir, chunki ular keng doirada jahon savdosi masalalarini

qamrab oluvchi yuridik hujjatlar hisoblanadi. Barcha bitimlar negizida bir nechta oddiy, fundamental tamoyillar yotadi, jumladan:

*Mumkin qadar qulaylik berish tartibi tamoyili (QBT).* QBT nizomiga binoan a'zo mamlakatlarning har biri o'zga barcha a'zolarga savdo sheriklari sifatida teng sharoitlarni qo'llaydi. Agar biror-bir mamlakat o'zga savdo sherigiga imkoniyat bersa, u holda huddi shunday tartib JST boshqa a'zo mamlakatlariga ham mazkur tamoyilning ishlashini ta'minlash uchun qo'llanishi shart.

*Istisnolarni qo'llashga ijozat beriladi.* Masalan, mamlakatlar shu guruhlardan tashqarida tovarlar savdosini amalga oshirishga qo'llanilmaydigan mintaqaviy bitimlar tuzishlari mumkin. Yoki bo'lmasa mamlakat savdoni noqonuniy yo'llar bilan amalga oshiruvchi muayyan davlat tovarlariga to'siq qo'yishi mumkin. Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ham mamlakatlar muayyan cheklashlarga rioya etishda istisnolarni qo'llashlari mumkin. Bitimlar bunday istisnolarni qo'llashga izn beradi, biroq belgilangan muayyan shartlarga rioya etgan holda. Umuman, QBT nizomida JST qoida va nizomlarini belgilash ustun turadi.

*Diskriminatsiyasiz savdo.* Mamlakat o'z savdo sheriklari hamda mamlakat va xorijiy tovarlar, xizmatlar va shaxslar o'rtasida diskriminatsiya o'tkazmasligi kerak.

*Savdo to'siqlarini bartaraf etish.* Muzokaralar o'tkazish orqali mavjud savdo to'siqlarini asta-sekin bartaraf etish.

*Bashorat etiladigan savdo.* Xorijiy investorlar, kompaniya va hukumatlar savdo to'siqlari (jumladan tariflar, notarif to'siqlari va boshqalar) asossiz joriy etilmasligiga ishonch hosil qilishlari shart va bozorni erkinlashtirish majburiyatlari JSTga "bog'lanadi".

*Raqobatbardoshlikni takomillashtirish.* JST qoidalari eksportni subsidiyalash va dumping kabi "noadolatli" faoliyatlariga to'sqinlik qiladi.

*Yetarli darajada rivojlanmagan davlatlar uchun qulay shart-sharoitlar.* Yetarli darajaga o'tish davri va maxsus tartiblar taqdim etish.

*JSTga a'zolik jarayonlari.* JSTga a'zo bo'lishlik mamlakatlarga ancha bashorat etiladigan va barqaror savdo doirasida bo'lish orqali o'z taraqqiyot strategiya va savdo siyosatlarini ishlab chiqishlariga imkoniyat beradi. JSTga a'zolik rivojlanish milliy siyosati maqsadlariga erishishning asosiy elementi sifatida qaralishi kerak. Bu maqsadlar mamlakat muzokaralar jarayoniga kirishishdan ancha avval, a'zolik shartlari, ya'ni tovar va xizmatlar bozorida xorijliklarning foydalana olishida maxsus yon bosishlar va majburiyatlar mazkur siyosat parametrlari JST bitimlaridagi majburiyatlar bilan mutanosib bo'lishi aniq belgilab olingan bo'lishi shart.

Maqbul asoslarda JSTga a'zo bo'lishlik yuqori darajada tayyorgarlikni talab etuvchi uzoq muddatli qiyin va murakkab jarayon sifatida qaralib, milliy manfaatlarga rioya etish va uni samarali himoya etish uchun davlat idoralari orasida muvofiqlashtirilishi lozim. Shu sababli JSTga a'zo mamlakatlar bilan jiddiy muzokaralar olib boriladi. Bunday muzokaralarda kelgusi bir necha yil mobaynida mamlakatlarning savdo va siyosiy rivojlanishlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan strategik va uzoq muddatli masalalar ko'rib chiqiladi.

### Tayanch tushunchalar:

Iqtisodiy birlashgan tashkilotlar; Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar; Savdo sohasidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar; Intellektual mulkni himoya qilish umumjahon tashkiloti; Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot; Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHTT); Xalkaro valyuta – moliya tashkilotlari; Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ); Jahon banki guruhi; Xalkaro Tiklanish va Tarakkiyot Banki (XTTB); Xalkaro Moliya Korporatsiyasi (XMK); Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU). savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YuNKTAD); neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK); Sanoat rivojlanishi bo'yicha tashkilot (YuNIDO; BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO); Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT tashkiloti (YuNESKO); Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; Umumjahon pochta ittifoqi; Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS); Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentligi (IKXA); Tovarlar savdosi haqida umumiy Bitim; Xizmatlar savdosi haqida umumiy Bitim; Savdo haqida Bitim; intellektual mulk haqqi; Savdoda texnik to'siqlar haqida bitim; Bojxona bahosi haqida bitim; Kelib chiqish joyi haqida bitim; Importni litsenziyalash jarayonlari haqida bitim; Diskriminatsiyasiz savdo; Yetarli darajada rivojlanmagan davlatlar uchun qulay shart-sharoitlar; Mingyillik rivojlanish maksadlari Deklaratsiyasi.

### Takrorlash uchun savollar

- 1) Xalqaro tashkilotlarning jahon iqtisodiyotini tartiblashdagi o'rini tushuntirib bering?
- 2) Birlashgan Millatlar Tashkilotining vazifalari nimadan iborat?
- 3) BMTga qarashli qanday tashkilotlarni bilasiz?
- 4) Xalqaro moliya-kredit tashkilotlarining ahamiyati to'g'risida tushuncha bering?
- 5) Xalqaro valyuta jamg'armasining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
- 6) Jahon banki guruhlariga qanday tashkilotlar kiradi?
- 7) Qaysi moliyaviy tashkilotlardan qarz olgan ma'qul bo'ladi?
- 8) Jahon savdo tashkilotining xalqaro savdoni rivojlantirishdagi faoliyati qanday namoyon bo'ladi?
- 9) O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi yo'lidagi qiyinchiliklarni tushuntirib bering.



## **12-MAVZU: XUFYONA IQTISODIYOT VA KORRUPSIYA: GLOBAL IQTISODIY XAVFSIZLIKKA ASOSIY TAHDIDLAR SIFATIDA**

- 12.1. Xufyona iqtisodiyotning umumiy tavsifi
- 12.2. Iqtisodiy jinoyatlar.
- 12.3. Jahon iqtisodiyotining jinoyatlashuviga qarshi jamoaviy kurash.
- 12.4. "Otkat" va reyderlik korruptsiyaviy rejalarining turlari sifatida
- 12.5. Soliqlarni to'lashdan qochish va "iflos pullarni yuvish".

### **12.1 Xufyona iqtisodiyotning umumiy tavsifi.**

Keyingi o'n yilliklarda turli bilimlar tarmoqlari mutaxassisleri tomonidan dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotning jinoyatlashuvi muammolari bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar olib borildi. Ammo hozirgacha atamalarni tushunish bo'yicha yagona fikrlar yo'q: jinoyatlashgan iqtisodiyotni ta'riflash uchun turli atamalar, ya'ni norasmiy, yashirin, parallel, qora, kulrang, ikkilamchi, xufyona iqtisodiyot degan atamalardan foydalaniladi. Biz "xufyona iqtisodiyot" atamasidan foydalanamiz.

Xufyona iqtisodiyotni aniqlash uchun turli yondashuvlar mavjuddir, ularning ichida uchtasini ajratib ko'rsatish mumkin:

– huquqiy, bunda xufyona iqtisodiyot qonun bilan ta'qiqlangan faoliyat turlari yig'indisi deb beriladi;

– iqtisodiy, bunda xufyona iqtisodiyot soliqdan yashiringan ishlab chiqarishdir;

– statistik, unga muvofiq, xufyona iqtisodiyot rasmiy statistika tomonidan qandaydir sabablarga ko'ra hisobga olinmaydigan iqtisodiy faoliyat turi hisoblanadi.

Huquqiy yondashuvga ko'ra, xufyona iqtisodiyot hech qanday cheklolarsiz yashirin yuritiladigan faoliyat sifatida ko'rsatilib, unga yashirin noiqtisodiy faoliyat (bosqinchilik, buyurtma qotillik va h.k.) turlari ham kiritilgan. Ko'pchilik industrial rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy jinoyat tushunchasi aniq jinoiy-huquqiy chegaralarga ega emas. Shunga qaramasdan, huquqiy yondashuv tarafdorlari uchun iqtisodiyotni legitim (qabul qilingan huquqiy me'yorlarga muvofiq rivojlanadigan) va jinoiy (unga qarama-qarshi bo'lgan) turlarga ajratish xosdir.

Iqtisodiy yondashuv xufyona iqtisodiyotni soliqlarning tovarlar taklifiga ta'siri sifatida ko'rsatadilar: soliqlar mavjud bo'lganiga nisbatan, bo'lmaganida taklif ham, firmaning foydasi ham shunchalik ko'p bo'ladi. Soliqqa tortish taklif egri chizig'ini yuqoriga siljitadi, va tovarlar bozoridagi muvozanatga ancha yuqori narxlarda erishiladi. Binobarin, tadbirkorning soliqdan qochishi tushunarli bo'ladi, chunki u soliq to'lamasa, xarajatlari kam bo'lib, foydasi shunchalik ko'p bo'ladi. Bunday yondashuvda soliq to'lashdan qochish xufyona iqtisodiyot namoyon bo'lishining yorokin namunasi hisoblanadi.

Statistik yondashuv uchun xufyona iqtisodiyotning asosiy belgisi bo'lib, u yoki bu sabablarga ko'ra xo'jalik faoliyatining hisobga olinmaganligi, rasmiy statistika tomonidan belgilanmaganligi hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda

statistika BMT mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan, YAİM ishlab chiqarish hajmlarini to'liq hisobga olish ustubiyati asosida yuritiladi.

Xufyona iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning butun tizimini qamrab olgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik bo'lib, u avvalambor, moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va ist'emoi qilish jarayonlarini va tadbirkorlik qobiliyatini davlatdan yashiradigan, jamiyat tomonidan boshqarilmaydigan takror ishlab chiqarish sohasidir. Ijtimoiy zararli faoliyat sifatida xufyona iqtisodiyot mohiyatini tushunish, ushbu sohani to'liq hajmda aniqlab olish imkonini beradi, bu esa xar qanday ijtimoiy tizim uchun xos bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatida xufyona iqtisodiyotning paydo bo'lishi va tarqalishi sharoitlari, sabablari va mexanizmlarini ochib berishga yordam beradi.

Xufyona iqtisodiyot mamlakat xo'jaligining ochiq va moddiy sektori bilan jipslashib ketgan bo'lib, uning bir tarkibiy qismi hisoblanadi. O'z faoliyatida u ham davlat xizmatlaridan, uning moddiy-texnika omillaridan, ishchi kuchlaridan va h.k. dan foydalanadi, lekin shu vaqtning o'zida davlat bilan xo'jalik yuritish subyekti sifatida iqtisodiy munosabatlarga kirishmaydi.

Xufyona iqtisodiyot o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita asosiy belgiga ega:

- faqat o'z manfaatlari asosida, nazorat qilinmaydigan daromadlarni olish maqsadidagi huquqbuzarlik faoliyatidir;

- qo'shimcha iqtisodiy foyda olish maqsadida to'liq yoki qisman moliyaviy nazoratdan yashirilgan daromadlardir.

"Xufyona iqtisodiyot" tushunchasi (ingl. shadow economy, underground economy, black economy) 1970-yillarda paydo bo'lgan va daromadlarni yashirish va ularni olishning ijtimoiy zid usullariga nisbatan qo'llanilgan. Sobiq Ittifoq davrida 1980-yillarning o'rtalariga kelib, fanda va iqtisodiy amaliyotda xufyona iqtisodiyot muammolariga qiziqish juda kuchaydi. Bu holat xalq xo'jaligida norasmiy iqtisodiyotning jinoyatlashuvi va xufyona iqtisodiyotning o'zmi kuchaya boshlaganligi sababli paydo bo'lgandi.

Xufyona iqtisodiyot paydo bo'lishi va rivojlanishi davrida o'zida uchta tarkibiy qismni birlashtirgan edi:

- norasmiy, unga barcha ochiq ruxsat berilgan iqtisodiy faoliyat turlari kirgan bo'lib, uning doirasida statistikada qayd etilmagan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish mavjud bo'lgan va ushbu faoliyat soliqdan yashirilgan va h.k.;

- yolg'on - qo'shib yozishlar, o'g'irliklar, chayqovchilik bitimlari, poraxo'rlik va pullarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan firibgarlikning turli shakllari;

- yashirin - qonun bilan ta'qiqlangan iqtisodiy faoliyat turlari.

Ushbu voqelik salbiy holat sifatida baholangan, yangi bozor munosabatlari shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan jihatlari ijobiy deb qabul qilingan.

Xufyona iqtisodiyot tushunchasining xorijiy nazariyasi va amaliyoti ikkita jihati bilan ajralib turadi:

- davlatda ruxsat berilgan faoliyat turidan daromadlarni pasaytirib ko'rsatish yoki yashirish;

- davlat tomonidan ta'qiqlangan iqtisodiy va boshqa jinoyi faoliyatlar.

Shunday qilib, xufyona iqtisodiyot – ham huquqbuzarlik mohiyatiga ega bo‘lgan, ham qonun bilan ta’qiqlanmagan mohiyatga ega bo‘lgan xo‘jalik faoliyatidir:

- rasmiy statistika hisobotida qayd qilinmaydigan, tovarlar ishlab chiqarish va aholiga pullik xizmat ko‘rsatish;

- shaxsiy maqsadlarda moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash va o‘zlashtirish sohasida xo‘jalik yuritish va boshqarish subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va munosabatlar.

Xufyona iqtisodiyot sohasidagi xar qanday faoliyat jinoiy hisoblanadi, ammo ularning hammasi ham mavjud qonunchilik me‘yorlarida aks etavermaydi. Yuqorida aytilganidek, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: xufyona iqtisodiyot – iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, u ikkita – tadbirkorlik va jinoiy faoliyat turlari tomonidan shakllanadi va uning tarqalish ko‘lami mamlakat iqtisodiy rivojlanishi darajasidan kelib chiqadi.

Xufyona iqtisodiyotni tiplarga ajratish (jadval 12.1.1.) uch mezon asosida bo‘ladi – ularning “oq” (“birinchi”, rasmiy) iqtisodiyot bilan aloqasi, hamda iqtisodiy faoliyatning subyektlari va obyektlaridan kelib chiqib - xufyona iqtisodiyotning quyidagi sohalari ajratiladi:

“ikkinchi” (“oq yoqalilar”);

“kulrang” (“norasmiy”);

“qora” (“yashirin”) xufyona iqtisodiyot.

“Ikkinchi” iqtisodiyot – bu “oq” iqtisodiyot xodimlarining o‘z ish joylarida, ilgari yaratilgan milliy daromadni yashirincha qayta taqsimlashiga olib keluvchi, qonun bilan ta’qiqlangan, yashirin iqtisodiy faoliyatidir. Asosan bunday faoliyat bilan rahbariyat xodimlaridan (“oq yoqalilar”) bo‘lgan “hurmatli kishilar” shug‘ullanadilar, shuning uchun ham xufyona iqtisodiyotning ushbu turini yana “oq yoqalilarniki” deb ataydilar.

“Kulrang” (norasmiy) iqtisodiyot – qonun bilan ruxsat berilgan, ammo qayd qilinmaydigan, oddiy tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi iqtisodiy faoliyat (asosan kichik biznes) hisoblanadi. Bu xufyona iqtisodiyotning eng keng tarqalgan turidir. “Oq” iqtisodiyot bilan mustahkam bog‘liq bo‘lgan va unda parazitlik qiluvchi “ikkinchi” iqtisodiyotdan farq qilgan holda, “kulrang” iqtisodiyot mustaqil faoliyat yuritadi.

Norasmiy iqtisodiyot – shaxslararo norasmiy aloqalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Biznes bilan davlat amaldorlarining qo‘shilishib ketishi, ayrim tadbirkorlarning manfaatlarini qo‘llab quvvatlash yuz beradi, mafiyalik va korruptsiyalik munosabatlari mustahkamlashadi.

Natijada biznesning bir qismi kapitallarni taqsimlash va xomashyo bozorlariga erishish, soliqqa tortish va h.k. sohalarda eng afzal sharoitlarga ega bo‘ladilar. Bularning hammasi sog‘lom raqobatga zarar beradi, qonunlar va davlat idoralari oyoq osti qilinadi, davlat mulki talon-taroj qilinadi, davlat budjetining daromad qismi kamayadi. Oqibatda davlat iqtisodiy jarayonlar ustidan nazoratni yo‘qotadi.

## Xufyona iqtisodiyotni tiplarga ajratish mezonlari

Mezonlar	“Oq yoqaliklar” xufyona iqtisodiyoti	“Kulrang” xufyona iqtisodiyot	“Qora” xufyona iqtisodiyot
Subyektlari	Iqtisodiyotning rasmiy “oq” sektori menejerlari	Norasmiy bandlar	Haqiqiy jinoyatchilar
Obyektlari	Ishlab chiqarishsiz daromadlarni taqsimlash	Oddiy tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish	Ta’qiqlangan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish
“Oq” iqtisodiyot bilan aloqasi	“Oq” iqtisodiyotdan uzilmagan	Nisbatan mustaqil	O’zi mustaqil

Yolgʻon iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning bir turi boʻlib, u toʻliq yoki qisman yolgʻon boʻladi, xufyona faoliyatni amalga oshirish uchun yopqich boʻlib xizmat qiladi va avvaldan oʻylangan yolgʻon maqsadlarga yoʻnaltirilgan boʻladi. Unga qoʻshib yozishlar va hisobotlarni oʻzgartirishlar, ikkiyoqlama buxgalteriya yuritish, naqd pullar bilan hisob-kitob qilish, rasmiy va soliqqa tortiladigan daromadlarni kamaytirib yozish, maoshlarni maosh tarqatish roʻyxatida va konvertida berish, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish va nohalol raqobatdan foydalanish, shu jumladan jinoiy tuzilmalarni jalb qilish va h.k. lar xos boʻladi.

“Qora” xufyona iqtisodiyot (uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti) – ta’qiqlangan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bogʻliq boʻlgan iqtisodiy faoliyat. Bular meʼyoriy iqtisodiy hayotga zid boʻlgan, uni yemiruvchi, haqiqiy jinoyatchilar iqtisodiy faoliyatining barcha turlari hisoblanadi. Bu nafaqat kuch ishlatib taqsimlashga asoslangan – oʻgʻirlik, bosqinchilik, qoʻrqitishgina boʻlib qolmasdan, balki yana jamiyatni yemiradigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, masalan narkobiznes va bosib olishlar (reket) hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda shartli ravishda xufyona iqtisodiyotning uch guruh subyektlari ajratiladi:

birinchi guruh – uning choʻqqisida joylashgan, eng jinoyatchi kimsalar, ularning ishchi kuchlari: giyohvand moddalar va qurol sotuvchilar, bosqinchilar, yollangan qotillar, fohishalar, hukumat va boshqaruv idoralarning korrupsiyalashgan vakillaridir;

ikkinchi guruh – yashirin xoʻjalik yurituvchilar (tadbirkorlar, tijoratchilar, bank xodimlari, kichik va oʻrta biznes vakillari, shu jumladan tovar olib oʻtuvchi yakka shaxslar);

uchinchi guruh – jismoniy va aqliy mehnatning yollanma xodimlari, daromadlarining yarmidan koʻpi poralardan iborat boʻlgan kichik va oʻrta davlat xizmatchilari.

Xufyona iqtisodiyotning paydo boʻlishiga va rivojlanishiga olib keladigan asosiy omillar sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

- soliqqa tortishning yuqori darajasi va soliq tizimining chalkashligi;
- iqtisodiyotning yuqori darajada qoidalarga ko'mib tashlanganligi – iqtisodiyotga doimiy ma'muriy aralashuv bilan belgilanadi va yana – iqtisodiyotda davlat sektorining ulushi yuqoriligi bog'liqdir;
- iqtisodiyotning nobarqarorligi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va vazifalarning noaniqligi;
- milliy iqtisodiyot va uning subyektlarining past kredit reytingi, bu esa ko'pincha biznesni ochiq yuritishga to'sqinlik qiladi.

Xufyona iqtisodiyot munosabatlarning nojinoiy va jinoiy turlari bilan bog'liqdir. Jinoiy turdagi munosabatlar – o'zining shaxsiy ehtiyojlarini va davlat tomonidan tartibga solinmaydigan va hisobga olinmaydigan ehtiyojlarni qondirishni mo'ljallaydigan ayrim fuqarolar va ularning norasmiy uyushmalari o'rtasidagi alohida iqtisodiy munosabatlardir. Nojinoiy turdagi munosabatlar fuqarolarning xo'jalik mexanizmidagi xatoliklarga bo'lgan va ularning talablari va ehtiyojlarini tan olmaslik holatlariga, ya'ni davlat yuritayotgan siyosatning uzoq muddatga olib borilishiga shubhalar; ortiqcha ma'muriy qoidabozlik, shu jumladan noqonuniy qoidabozlik; rivojlangan bozor tizimlarining yo'qligi; soliqdan qochishning rag'batlantirilishi; fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarining buzilishi va h.k. ga nisbatan javobidir.

## 12.2 Iqtisodiy jinoyatlar.

Iqtisodiy jinoyatlar – iqtisodiyot sohasida shaxslarning o'z kasbiy faoliyati jarayonida, ushbu kasbiga bog'liq holda ist'emolchilarning, sheriklarning, raqobatchilarning va davlatning mulkiga, hamda xo'jalikning turli tarmoqlarida iqtisodiyotni boshqarish tartibiga tajovuz qilish shaklida amalga oshiriladigan jinoyatlarning yig'indisidir. Shu bilan birgalikda, jiddiy jinoiy-huquqiy nuqtayi nazaridan "iqtisodiy jinoyatlar" tushunchasining chegarasini aniqlash juda qiyin.

Iqtisodiy jinoyatlarning ikki guruhini ajratish kerak. Birinchi guruh – bu tadbirkorlar faoliyati bo'lib, ular davlat tomonidan yuklangan, kuchi yetmaydigan soliq og'irligi sharoitida uni to'lashdan qochishga majbur bo'lishdir. Shunday qilib, xufyona iqtisodiyotning keng miqyosda tarqalish sabablari bo'lib, davlatning imkoniyatsizligi, uning intellektual noqobilligi hisoblanadi, chunki qonuniy tadbirkorlik faoliyatini yuritish qoidalari tadbirkorlarni, o'z biznesini saqlab qolish va ishsizlar qatoriga qo'shilib qolmasligi uchun aylanma yo'llar qidirishga majbur qiladi.

Binobarin, davlat ko'pchilik tadbirkorlarni qonuniy iqtisodiyot sohasiga jalb qilish, mehnat ishtiyoqini, ma'naviy va moddiy manfaatdorligini saqlash imkonini beradigan me'yoriy huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun o'zining butun intellektual salohiyatini ishga solishi kerak bo'ladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida qonuniy faoliyat yuritadigan korxonalar ulushi, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga qaraganda ancha yuqoridir.

Ikkinchi guruh – soliqdan qochish doirasidan tashqarida bo'lgan iqtisodiy jinoyatlardir, ulardan nafaqat budjet va uning turli jamg'armalari, balki butun jamiyat azob ko'radi. Qurol, narkotiklar sotish, davlat mablag'larini o'zlashtirish va h.k. lar – bular barchasi jinoiy hisoblangan iqtisodiy jinoyatlardir. Ularga,

birinchi guruhga nisbatan alohida ta'qiqlash chorolari talab qilinadi. Noqonuniy yig'ilgan kapital, jamiyatning katta mablag'larini o'zlashtirib, moliyaviy inqiroz murakkablashuvini keltirib chiqaradi, qonuniy kapital amal qilishining iqtisodiy muhitini yemiradi va ochiqlashib, davlatning investitsiya siyosati ustivorliklarni belgilab beradi.

Iqtisodiy jinoyatlar obyekt bo'lib davlatning, mahalliy boshqaruv idoralari, korxonalar va boshqa xo'jalik subyektlari, shu jumladan xususiy shaxslarning ham, moliyaviy va tashkiliy-xo'jalik manfaatlarini, ya'ni ularni amalga oshirishning iqtisodiy manfaatlarini va munosabatlar tizimi yuzaga chiqadi. Ko'pchilik mamlakatlar huquqni muhofaza qilish idoralari nuqtayi nazaridan, iqtisodiy jinoyatlar – jazolandigan faoliyat bo'lib, tizimli va suist'emollik mohiyatiga ega bo'ladi va xo'jalik faoliyati doirasida amalga oshiriladi.

Jahon amaliyoti qonunchilik qoidalarida iqtisodiy jinoyatlarning quyidagi turlari ajratiladi:

- qimmatli qog'ozlar bilan va fond bozorida firibgarlik;
- antimonopol qonunchiligini buzish bilan bog'liq turlari;
- pochta va telegraf aloqalari bilan bog'liq firibgarlik;
- kreditlar va qarzlarni berishda firibgarlik;
- bank mablag'larini o'zlashtirish;
- soliq to'lashdan qochish;
- rasmiy shaxs tomonidan foydali shartnomaga ega bo'lish yoki zarur qonunni qabul qilishga erishish maqsadlarida tadbirkordan pora olish;
- jamg'arma mablag'larini o'g'irlash yoki ulardan boshqa maqsadlarda foydalanish;
- yolg'ondakam bankrotlik;
- u yoki bu mahsulotga qayd qilingan narxlarni belgilashda aldash;
- oziq-ovqat va dori mahsulotlarini buzib ishlash;
- qurilish va ta'mirlash ishlarida mijozni aldash va ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqa noqonuniy harakatlar;
- kompyuter jinoyatlari.

Milliy mudofaa va Xavfsizlik manfaatlariga ta'lluqli bo'lgan iqtisodiy jinoyatlar, avvalambor quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi:

- harbiy mahsulotlarni xarid qilish va yetkazib berishdagi firibgarlik;
- banklar va boshqa moliya institutlariga qarshi firibgarlik;
- jinoyat yo'li bilan topilgan pul mablag'larini ochiqdashirish;
- kapital kiritishda aldov harakatlari;
- qimmatli qog'ozlar bilan tovlamachilik;
- ijtimoiy ta'minot jamg'armalari bilan tovlamachilik.

Iqtisodiy jinoyatlarning yangi turlariga quyidagilar kiritiladi:

- nohalol raqobat;
- yolg'ondakam xo'jalik yuritish subyektlarini yaratish;
- tovar va xizmatlarni yashirin va noqonuniy ishlab chiqarish;
- xususiylashtirish jarayonida aldov va firibgarlik;
- daromadlarni soliqdan yashirish;
- monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish;

- boshqalarning kashfiyotlarini, mualliflik huquqlarini o'zlashtirish, audio- va video qaroqchilik;
- norasmiy bitimlarni amalga oshirish;
- aksionerlarni aldash;
- tovarlarga va xizmatlarga, uy-joyga maksimal narxlarni oshirish;
- biznesda turli imtiyozlar va afzalliklar olish bilan bog'liq poraxo'rlik;
- bankrotlikda mulklarini yashirish;
- ko'chmas mulk va yer uchastkalari bilan bog'liq tovlamachilik;
- kredit sohasidagi firibgarlik;
- valyuta jinoyatlari;
- bojlar bilan bog'liq tovlamachilik;
- savdo jinoyatlari – sifatsiz, buzib ishlangan, o'g'irlangan, ta'qiqlangan tovarlar bilan savdo qilish, xaridorlarni aldash va b.;
- jinoyat yo'li bilan topilgan pul mablag'larini yoki boshqa mulklarni "tozalash";
- bank sohasidagi firibgarlik va b.

Bundan tashqari mulkchilikka oid qator jinoyatlar (mulkka nisbatan bevosita tazyiq o'tkazish – o'g'irlik, bosqinchilik, yo'qotib yuborish yoki buzish, va boshqa iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan mulkka qarshi jinoyatlar) iqtisodiy jinoyatlar hisoblanmaydi.

Mutaxassislar iqtisodiy jinoyatlarning quyidagi asosiy turlarini ajratadilar:

- raqobat qoidalarini buzish – tijoriy poralar, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish, sanoat josusligi;
- ist'emo'lchilar huquqini buzish – yolg'on reklamalar, sifatsiz tovarlar ishlab chiqarish;
- yollanma ishchilar huquqini buzish – mehnat shartnomalarini bajarmaslik, texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik;
- kreditorlar huquqini buzish – qarz kapitalini suiste'mol qilish (yolg'on bankrotlik, subsidiyalar bilan firibgarlik va b.);
- davlatning huquqini buzish – daromadlarni soliqdan yashirish, ekologik jinoyatlar.

### **12.3 Jahon iqtisodiyotining jinoyatlashuviga qarshi jamoaviy kurash.**

Global jahon iqtisodiyotning jinoyatlashuviga qarshi kurashning strategiyasini yaratishda quyidagi vazifalar asosiy hisoblanadi: jahon miqyosida ustivorliklarni aniqlash, ushbu jarayonlarning oldini olish uchun mavjud resurslar va sa'y-xarakatlarni jamlash, uning paydo bo'lishi sharoitlarini bartaraf qilish va kamaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish. Global huquqiy tartibga solishning tarmog'ini tashkil qilish, uning ishtirokchilariga eng muhim jinoiy tahdidlar – korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, terrorism, jinoiy daromadlarni tozalashga qarshi kurashda takomillashtirilgan qonunchilik normalarini qo'llash imkonini beradi.

Ushbu tahdidlarga xalqaro-huquqiy qarshi kurashda qabul qilinadigan konvensiyalar, deklaratsiyalar, kodekslar, qonunlar va jinoyatga qarshi yagona

standartlar bilan mustahkamlangan boshqa ommaviy hujjatlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Global darajada – (BMT darajasida) korrupsiyaga qarshilik ko'rsatish to'g'risidagi normalar mavjud bo'lgan hujjatlarga quyidagilar kiradi:

Huquqni tartibga solishni qo'llab quvvatlovchi mansabdor shaxslarning xalq-atvor Kodeksi (BMT Bosh Assambleyasining 1979-yil 17-dekabrda rezolyusiyasi bilan qabul qilingan);

Korrupsiyaga qarshi Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 31-oktabrdagi rezolyusiyasi bilan qabul qilingan);

BMTning xalqaro tijoriy bitimlarda korrupsiyaga va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1996-yil 16-dekabrda rezolyusiyasi bilan tasdiqlangan);

Davlat mansabdor shaxslari xulq-atvorining Xalqaro kodeksi (BMT Bosh Assambleyasining 1996-yil 12-dekabrda rezolyusiyasi bilan qabul qilingan).

Jahon iqtisodiyotining jinoyatlashuviga qarshi kurashda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) katta o'rin tutadi. Tashkilot, o'zlarida ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning soliq va moliyaviy bitimlari to'g'risida ma'lumot bermaydigan mamlakatlar va hududlarni hisobga olib boradi. Ushbu mamlakatlarga nisbatan, IHRTga a'zo mamlakatlar moliyaviy va fiskal sanksiyalar qo'llaydilar. Yevropa Kengashi darajasida ham korrupsiyaga qarshi kurash muammolari bo'yicha qator muhim hujjatlar qabul qilingan, - bu, avvalambor, Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik ma'suliyati to'g'risidagi Yevropa Kengashi Konvensiyasidir (1999-yil 27-yanvardagi).

Jahon iqtisodiyotining jinoyatlashuvi bilan kurashda Pullarni yuvish bilan kurashning moliyaviy chora-tadbirlarini ishlab chiqish guruhi (FATF) ham katta o'rin tutadi. FATF ko'pchilik hollarda offshor kompaniyalarning egalari aniqlashtirishni kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalarni beradi. Masalan, egalari to'g'risida ma'lumotlarni ochiqdashning majburligini talab qiladigan, egasi ko'rsatilmagan aksiyalarni chiqarishga ta'qiq ko'rinishida. FATFning o'z vazifalarini amalga oshirishdagi asosiy vositasi – jinoiy daromadlarni yuvish va terrorizmni moliyalash sohasidagi, xar besh yilda tekshiruvdan o'tkaziladigan 40 ta tavsiyanomalari, hamda 2001-yil 11-sentabrdagi voqealardan keyin ishlab shiqilgan, terrorizmni moliyalashga qarshi kurashish sohasida 9 ta maxsus tavsiyanomalar hisoblanadi. Ushbu "40+9 Tavsiyanomalar" xar bir mamlakatda jinoiy daromadlarni yuvish va terrorizmni moliyalashga qarshi kurashish samarali tartibini yaratish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarning jamlanmasi hisoblanadi va BMT a'zolari – davlatlari tomonidan majburiy xalqaro standartlar hisoblanadi.

#### 12.4 "Otkat" va reyderlik korrupsiyaviy rejalarining turlari sifatida.

Iqtisodiy adabiyotlarda "otkat" tushunchasining turli izohlari uchraydi, ammo ularning hammasi bir xil ma'noga borib taqaladi – pora, tijoriy "sotib olish". "Otkat"ni xufiyona iqtisodiyot kategoriyasi sifatida eng to'liq aks ettiruvchi ta'rif quyidagicha bo'ladi: "otkat" – mansabdor shaxs ixtiyorida bo'lgan pul miqdorining bir qismi bo'lib, mansabdor shaxs tomonidan, mulkdorning



manfaatlarini buzgan holda o'zlashtirib olinadi va ishini bitiruvchi shaxs tomonidan mukofot sifatida mansabdorga to'lanadi.

"Otkat" oluvchi – o'z tashkilotining resurslaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs. "Otkat" tushunchasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni tavsiflab beradi, va turli jihatlariga ega bo'ladi:

- ma'naviy-axloqiy (sotqinlik, aldov);
- shaxslararo (muloqot, ishonch, "oyoqdan chalish");
- huquqiy (jinoyat, zarar berish, kelishuv, tovlamachilik);
- iqtisodiy (bitim, mukofotlash, zararlar).

Tijoriy "sotib olish" deganda, tijorat yoki boshqa tashkilotda boshqaruv vazifasini bajaruvchi shaxsga pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mulklarni noqonuniy tarzda berish, shu tarzda, o'z xizmat mavqeidan foydalanib beruvchining manfaatlarini uchun xarakatlarni amalga oshirgani tufayli, unga noqonuniy mulkiy xizmat ko'rsatish tushuniladi.

"Bitimlarni hal qilish uchun" otkatni belgilash tizimini ko'rib chiqamiz. "Otkat" uchun pullarning paydo bo'lishini belgilab beradigan uchta asosiy formula mavjud:

- "chegirma" – ikki tomon uchun ham ma'qul variant. "Otkat" bitimning umumiy miqdoridan chegirma sifatida beriladi, tashkilot yetkazib beruvchi bilan kelishuvlar vaqtida uni shundoq ham olishi mumkin edi. Bunda tekshiruvlar bo'lib qolgan paytda, xavfsizlik xizmati yoki oluvchining rahbariyati, bitim tuzilgan narxlar ro'yxatini ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Bu yerda asosiy ma'qul tomoni ikki taraf uchun ham to'liq xavfsiz bo'lishidir. Ushbu formuladan bir martalik emas, balki uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish hohishi bo'lganda foydalaniladi;

- "ustama" – kelishilgan narxdan ortiqcha ustama qo'yish. Sotib oluvchi ba'zan litriga yoki kilogrammiga "ozgina" qo'shishini "iltimos" qiladi (bitim hajmiga va otkat oluvchining ishtahasiga qarab). Bu yetkazib beruvchi uchun eng afzal va sotib oluvchi uchun ancha xavfli reja hisoblanadi. Bu murakkab taqqoslanadigan raqobat xususiyatiga ega bo'lgan tovarlarni (masalan, murakkab texnologik uskuna) sotib olishda, hamda xizmatlarni (masalan, marketing xizmatlari) buyurtma qilishda ma'qul bo'ladi. Ushbu reja raqobatli shaffof bozorlarda deyarli uchramaydi. Bozorlarda eng past baholarda sotib olish yoki kichik miqdordagi mablag'ga sotib olish bundan mustasnodir. "Ustama" miqdori yetkazib beruvchining fantaziyasi bilan chegaralanadi – 200 yoki 300% lik "ustama" belgilangan holatlar ham ma'lum;

- "chegirma va ustama". Bu eng pixini yorgan sotib oluvchilar uchun xos bo'lib, bunda oldiniga yetkazib beruvchidan chegirma undiriladi, keyin esa kelishilgan narx ustiga ustama qo'yiladi. Shunday qilib, "ikkitasi birda" kelib chiqadi (savdolashilgan chegirma va olingan ustama). Bunday formula ko'pincha bir martalik bitimlarda qo'llaniladi, chunki u amaliyotda hayotiy emas.

Pullarni uzatish rejasi ham turlicha bo'ladi. Naqd solingan konvertlar va jamadonlar voqeasi eskirdi, ularning o'rniga webmoney kabi ancha qulay va xavfsiz hisob tizimlari va Western Union kabi pul o'tkazish tizimlari chiqqan.

Ularning asosiy afzalliklari bo'lib:

- "shaffof emasligi", kimligini bilib bo'lmaydi;

- belgi qo'yilgan pullar bilan ushlab bo'lmaydi;
- otkat oluvchi pulning manbasi to'g'risidagi savolga "qayerdan, kimdan ekanligini bilmayman" tarzida osongina qutiladi;
- hududiy jihatdan uzoqda joylashgan mijozlar bilan ishlashning osonligi.

### 12.5 Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash va "iflos pullarni yuvish".

Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash – soliq to'lovchining maqsadga yo'naltirilgan harakati bo'lib, bu unga, soliqlar, yig'implar, bojlar va boshqa to'lovlar shaklida amalga oshiriladigan budjetga majburiy to'lovlarini to'lamaslik yoki kamaytirish imkonini beradi. Ushbu harakatlar quyidagi mohiyatga ega bo'ladi: birinchidan, soliq to'lovchilarning faolligi; ikkinchidan, soliq to'lovlari miqdorini kamaytirishga yo'naltirilganligi. Shu bilan birgalikda aytib o'tish kerakki, anglanmagan harakatlar (ehtiyotsizlik, hisobdagi xatolar) soliq to'lashdan bo'yin tovlash usuli sifatida qaralmaydi.

Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash shakllarini ko'rib chiqamiz. Soliqdan bo'yin tovlash – soliq majburiyatlarini kamaytirish shakli bo'lib, unda yuridik yoki jismoniy shaxs faol harakatlar bilan, ko'pincha qonuniy to'g'ri, o'zini soliq to'lovchilar qatlamidan chiqartiradi, binobarin, soliq to'lamaydi.

Korxonalar va fuqarolar xarakatining qonuniyligidan kelib chiqib, soliqdan bo'yin tovlashning usullarini ikki guruhga – qonuniy va noqonuniy turlariga ajratish mumkin. Qonuniy usullar (soliqlarni ma'qbullashtirish yoki soliq to'lovlarini kamaytirish) – soliq to'lovlarini kamaytirish shaklida iqtisodiy samaraga soliqlarni hisoblash va to'lash ishlarni to'g'ri tashkil qilish orqali erishiladi va ortiqcha soliq to'lovini kamaytiradi yoki yo'qotadi.

Noqonuniy usullarga, soliq to'lovlarining miqdorini kamaytirish bilan iqtisodiy samaraga erishish qonunga zid xarakatlar, ya'ni qonunchilik qoidalarini bevosita buzish bilan amalga oshirilishi kiradi.

*Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning sabablari.* Tadbirkorlarning soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga olib keladigan sabablar: axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy turlarga ajratiladi. Axloqiy sabablar soliq qonunlarining, hamda umuman soliq tizimining mohiyati va xarakteridan kelib chiqadi. Soliqlar juda og'ir bo'lganda, tadbirkorda "davlatga ishlayotgandek", davlat uni ezib tashlayotgandek hissiyotlar paydo bo'ladi. Mana shunday bosimlarga nisbatan javob sifatida soliq to'lashdan bo'yin tovlash paydo bo'ladi.

Siyosiy sabablar – agar davlat soliqlardan faqat o'z xarajatlarini qoplash uchun emas, balki o'zining ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining vositasi sifatida foydalanadigan bo'lsa, yuzaga keladi. Ijtimoiy siyosat vositasi sifatida soliqlar, hokimiyat tepasida turgan sinfning, boshqa sinfni ezish uchun ishlatadigan bo'lsa, namoyon bo'ladi. Iqtisodiy siyosat vositasi sifatida esa, davlat ba'zibir tarmoqlarga uning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish maqsadida soliqlarni oshirishi vaziyatida, yoki aksincha bo'lganda paydo bo'ladi.

Iqtisodiy sabablar soliq to'lovchilarni soliq to'lashdan bo'yin tovlashga sabab bo'lishi ham ko'p uchraydi. Ularni ikki turga ajratish mumkin: - soliq to'lovchining moliyaviy ahvolidan kelib chiqadigan sabablar; - iqtisodiyotning holatidan kelib chiqadigan sabablar. Moliyaviy ahvol ko'pincha hal qiluvchi omil

bo'lib xizmat qiladi. Agar korxonaning moliyaviy ahvoli barqaror bo'lsa, u iloji boricha soliq to'lashdan qochmaydi.

Huquqiy sabablar soliq tizimining murakkabligidan kelib chiqadi, chunki u soliq nazoratining samaradorligiga zid bo'ladi, natijada soliq to'lovchi soliq to'lashdan bo'yin tovlashi mumkin.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning usullari turli tumandir. Aniq 200 dan oshiq soliqdan bo'yin tovlash usullari ma'lumdir, shu jumladan eng keng tarqalganlari:

- bir kunlik firmalarni ro'yxatdan o'tkazish – ular “naqdlashtirish” (korxonalar hisobidagi naqdsiz pullar “qora” yo'llar bilan naqdlashtiriladi) va “naqdsizlashtirish” (hisobda bo'lmagan naqd pullarni, asosan savdo tashkilotlarida, rasman naqd bo'lmagan pullarga aylantirish);

- xorijda firmalar tashkil qilish. Mamlakat kompaniyalari offshor zonalarda o'z nomiga yoki ishonchli vakillar nomiga kompaniyalarni ro'yxatdan o'tkazadilar. Bunday firma o'z vatanidagi firmalar bilan turli tovarlarni mamlakatga yetkazib berish borasida shartnomalar tuzadilar. Shu bahona bilan xorijga katta pul mablag'lari o'tkaziladi. Ammo pul to'langan tovarlar mamlakatga yoki umuman yetib kelmaydi yoki qisman yetkaziladi, ular uchun olingan pullar esa boshqa firmalar hisobiga o'tkazib yuboriladi va toza pul ko'rinishini oladi;

- davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish;

- yolg'on (mavjud bo'lmagan) xizmatlarni ko'rsatish. Ushbu usulning mohiyati shundaki, mamlakat korxonalari “o'zlarining” xorijdagi kompaniyalariga marketing xizmatlari ko'rsatgani, turli tadqiqotlar, foydali sheriklar topgani, turli xizmatlar ko'rsatgani uchun deb, millionlab dollarlar o'tkazadilar. Ushbu holatlarda narxlar shartnoma asosida belgilanadi, ishlarning bajarilganligini esa tekshirishning umuman iloji bo'lmaydi. Shartnoma, valyuta o'tkazilishi va “bajarilgan” ishlar uchun olingan mablag'lar to'liq qonuniy ko'rinishga ega bo'ladi;

- xorijdagi “o'z” firmalariga tovarlar yetkazib berish. Mamlakat eksport shartnomalari asosida ishonch berilgan kompaniya-vositachilarga yoki shaxslarga tovar jo'natadi. Qabul qilingan tovarni (odatda, xom-ashyo) firmalar boshqa xorijiy kompaniyalarga sotadilar, barcha valyutadagi daromad yoki uning katta qismi xorijda qolib ketadi. Keyinchalik mamlakat korxonalari valyuta tushumlari qaytarilmadi deb, xorijlik sheriklarini sudga bermaydilar;

- eksport tovarlariga narxlarni pasaytirish. Mamlakat xorijiy kompaniya bilan kelishgan holda shartnomada tovarlarning narxlarini pasaytirib ko'rsatadilar, soliq idoralariga ko'rsatilmaydigan qo'shimcha kelishuvlarda esa, haqiqiy narxlar ko'rsatiladi. Keyinchalik ular o'rtasidagi farqlarni xorijiy kompaniya mamlakatdagi sherigi ko'rsatgan jismoniy yoki yuridik shaxslar hisobiga o'tkazadilar;

- “yolg'on barter” mexanizmi uchun xorijda “o'z” firmasining mavjud bo'lishi darkor, o'sha bilan mamlakat kompaniyasi barter shartnomasi tuzadi. Eksport tovari “xorijiy” sherikka o'tkaziladi, import qilinadigan tovar esa yetib kelmaydi. “O'z” firmasi olingan tovarni sotadi, valyuta tushumi esa xorijiy

banklarda qolib ketadi. Juda ko'p hollarda moliyaviy tovlamachilikning yordamchilari bo'lib, xorijga pul o'tkazadigan tijorat banklari xizmat qiladi;

### Tavanch tushunchalar

*Xufyona iqtisodiyot; iqtisodiy jinoyat; norasmiy iqtisodiyot; iqtisodiyotning jinoyatlashuvi; "ikkinchi" iqtisodiyot; "oq" iqtisodiyot; "oq yoqalilar"; "kulrang" (norasmiy) iqtisodiyot; yolg'on iqtisodiyot; ikkiyoqlama buxgalteriya; nohalol raqobat; uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti; yashirin xo'jalik yurituvchilar; noqomuniy yig'ilgan kapital; soliq to'lashdan qochish; yolg'ondakam bankrotlik; bankrotlikda mulklarini yashirish; qimmatli qog'ozlar bilan tovlamachilik; xususiylashtirish jarayonida aldov va firibgarlik; ko'chmas mulk va yer uchastkalari bilan bog'liq tovlamachilik; kredit sohasidagi firibgarlik; bojlar bilan bog'liq tovlamachilik; daromadlarni soliqdan yashirish; monopoliyaga qarshi qomunchilikni buzish; aksionerlarni aldash; valyuta jinoyatlari; savdo jinoyatlari; korrupsiyaga qarshi kurash; pullarni yuvish bilan kurash; "otkat" xufyona iqtisodiyot kategoriyasi sifatida; bir kunlik firmalar.*

### Takrorlash uchun savollar

- 1) Xufyona iqtisodiyotni aniqlashda qanday yondashuvlar mavjud?
- 2) Xufyona iqtisodiyot paydo bo'lishida qanday tarkibiy qismlarni o'zida mujassamlashtirgan?
- 3) Xufyona iqtisodiyotga qanday ta'rif berish mumkin?
- 4) Xufyona iqtisodiyotni tiplarni aytib bering.
- 5) Xufyona iqtisodiyotning paydo bo'lishiga va gullab yashnashiga olib keladigan asosiy omillarni ko'rsatib bering?
- 6) Iqtisodiy jinoyatlarning qanday turlarini bilasiz?
- 7) Jahon iqtisodiyotining jinoyatlashuvi bilan kurashda qanday ishlar amalga oshirilgan?
- 8) "Otkat" xufyona iqtisodiyot kategoriyasi sifatida nimani anglatadi?
- 9) Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning qanday shakllarini bilasiz?
- 10) Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga olib keladigan sabablarni aytib bering?
- 11) Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning qanday usullari mavjud?

## 13-MAVZU: XALQARO IQTISODIY ZIDDIYATLAR XAVFSIZLIKKA TAHDID SIFATIDA

- 13.1. Xalqaro iqtisodiy mojarolar
- 13.2. Xalqaro darajada iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy shakllari
- 13.3. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning turlari
- 13.4. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar keskinligi oshishi

### 13.1 Xalqaro iqtisodiy mojarolar.

“Ziddiyat” tushunchasi bir-biriga zid manfaatlarining, qarashlarning to‘qnashuvini, fikrlarning kelishmovchiligi, qarama qarshi yondashuvlarni anglatadi. Iqtisodiy ziddiyat deganda iqtisodiy manfaatlarining ziddiyatlari va ushbu manfaatlarni namoyon qiluvchi kishilarning to‘qnashuvi tushuniladi.

Iqtisodiy manfaatlar turli darajalarda namoyon bo‘ladi – kishilar o‘rtasida, bir korxonaning ichki bo‘limlari o‘rtasida, korxonalar o‘rtasida va h.k. bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy ziddiyatlar – iqtisodiy xayotning ajralmas qismidir, mikro- va makroiqtisodiyot darajasida va jahon iqtisodiyoti darajasidagi biznesning qiyofasidir. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar jahon iqtisodiyoti subyektlarining qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarining o‘zaro kurashi hisoblanadi. Bular sotish bozori, resurslar manbalari, ishlab chiqarish omillari uchun, axborot va texnologik ilg‘orlik uchun kurashdir<sup>15</sup>.

Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar subyektlari bo‘lib jahon bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar, davlatlar, soxta davlat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar ishtirok etadilar. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga ayrim mamlakatlarning ichida bo‘ladigan voqealar – davlat to‘ntarishlari, harbiy isyonlar, qo‘zg‘olonlar, fuqarolar urushlari va h.k. ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar insoniyatning iqtisodiy tarixida doimo yo‘ldosh bo‘lib kelgan. Uzoqqa bormasdan aytish mumkinki, Ikkinchi jahon urushidan keyin 1970-yillargacha iqtisodiy ziddiyatlar yuz bergan asosiy sahna xalqaro savdo bo‘lgan.

Xalqaro vaziyatning keskinlashuviga ikki ijtimoiy-iqtisodiy tizimning – sotsializm va kapitalizmning raqobatchiligi sabab bo‘lgan, vaqtlar o‘tishi bilan u iqtisodiy musobaqaga aylanib bordi. 1970-1990-yillarda iqtisodiy ziddiyatlarda asosiy o‘rinni dunyo mamlakatlarining pul-kredit va valyuta siyosatidagi muammolar egalladi, bu birinchi navbatda, Bretton-Vuds valyuta tizimining talafoti va oltin standartidan voz kechish bilan bog‘liq edi. Nihoyat, 1990-yillardan boshlab, dunyo sotsialistik tizimining ag‘darilishi bilan birinchi o‘ringa kapitalning xalqaro harakati va transmilliy korporatsiyalarning faoliyatiga asoslangan jahon iqtisodiyotining globallashuvi masalalari ko‘tarildi.

Klassik (va neoklassik) iqtisodiy nazariyalar nuqtayi nazariga ko‘ra iqtisodiy ziddiyatlar subyektlarning manfaatlari vaqtincha mos kelmasligi tufayli yuz beradi. Bozor iqtisodiyoti qoidalariga qat’iy rioya qilish, pirovardida manfaatlarining uyg‘unlashuviga va binobarin kelishmovchiliklarni hal qilishga

<sup>15</sup> Господарик Ю. П., Пашковская М. В. Международная экономическая безопасность. М. : Московский фин.-пром. ун-т «Синергия», 2016. 416 с.

olib keladi. Davlat iqtisodiy jarayonlarga bevosita aralashmasdan bozor iqtisodiyoti sharoitlarini, raqobat muhitini yaratish to'g'risida qayg'urishi kerak bo'ladi.

Ziddiyat deganda, aynan raqobatni tushunish kerak emas, balki uning keskin shakllarini: bir birini zaiflashtirish yoki yo'qotishga harakat qilish bilan bog'liq xarajatlar talab qilinadigan, tomonlar o'rtasidagi resurslar uchun kurashni tushunish zarur bo'ladi. Institutsional nazariyaga ko'ra, ko'pincha bir biriga qarama qarshi bo'lgan kishilar (masalan, ishchilar va ish beruvchilar, importchilar va milliy ishlab chiqaruvchilar) ziddiyatga boradilar. Raqobatchilik kurashiga halollik shakllarini berish uchun davlat o'zining tartibga solish kuchlari bilan aralashishi kerak bo'ladi. Ammo, xalqaro darajadagi iqtisodiy ziddiyatlarning o'rni va ahamiyati mikro- va makro darajadagi ziddiyatlardan farq qiladi. Chunki bu yerda ziddiyatning asosiy sub'ektlari bo'lib mamlakatlar (davlatlar) qatnashadilar. Ularda, odatda, xalqaro maydonda milliy manfaatlarni himoya qilish uchun harbiy kuchlar va boshqa vositalar bo'ladi. Oqibatda, iqtisodiy ziddiyatlarning harbiy harakatlarga aylanib ketishi xavfi keskin kuchayadi, buni tarixda ko'p kuzatganmiz. Shuning uchun mana shunday ziddiyatlarni xalqaro darajada hal qiladigan huquqiy me'yorlar va institutsional muassasalarning ahamiyati oshib boradi. Mana shunday darajada ziddiyatlarni tartibga soladigan, oldini oladigan va tugatadigan xalqaro davlatning o'zi yo'q, bu esa ularning qanchalik keskinligini va davomiyligini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning manbasini yo'q qilish uchun tashkil qilingan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, ba'zan teskari ish yuritadilar va dunyodagi iqtisodiy keskinlik sub'ektlariga aylanadilar. Misol tariqasida, 1970-yillar boshida jahon energetika inqirozining sababchisi va faol ishtirokchisi bo'lgan "neft karteli" – OPEK ning faoliyatini keltirish mumkin.

### 13.2 Xalqaro darajada iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy shakllari.

Xalqaro darajada iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy shakllari bo'lib proteksionizm, savdo (iqtisodiy) blokadasi, demping va antidemping, embargo, sanksiyalar va defolt hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning saqlanib qolgan an'anaviy sabablaridan tashqari, jahon xo'jaligi rivojlanishning hozirgi bosqichiga xos bo'lgan yangi sabablari paydo bo'ldi. Shubhasiz, asosiy sabablardan biri turli mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlari mos kelmasligi bo'lishi mumkin, bu esa hududiy va iqtisodiy talablarni tug'diradi, mamlakatlar o'rtasida raqobatni keskinlashtiradi. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy sabablaridan biri bo'lib jahon savdosini erkinlashtirish va proteksionizm o'rtasidagi ziddiyatlar hisoblanadi.

Aslida, erkinlashtirish va proteksionizm – bu xalqaro savdo munosabatlariga xos bo'lgan ikki tomonlamalik va ikki xil tendensiyadir. Bir tomondan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda tashqi savdoning ilgari misli ko'rilmagan darajadagi erkinlashtirilishi yuz berdi: 1940-1950-yillarda bojxona bojlari tovarlar qiymatining 60-70% ini tashkil qilgan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib u 3-5% gacha qisqardi (rivojlangan mamlakatlarda 2% gacha, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda 40% gacha, Afrika mamlakatlarida 70% gacha). Ikkinchi

tomondan, proteksionizmning kuchayib borishi iqtisodiy vaziyatning keskinlashuvi va inqirozlar (2008-2009-yillarda yuz bergani kabi) bilan bog'liqdir. Proteksionizmga katta tarkibiy islohotlar o'tkazayotgan mamlakatlar qo'l uradi, chunki bu paytda ularda u yoki bu tovarlarga qaramlik kuchli bo'ladi.

Importchilar bilan eksportchilar, milliy hukumatlar bilan xalqaro tashkilotlar manfaatlarini uyg'unlashtirish zarurligi xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning asosiy muammolari bo'lib hisoblanadi. Tabiiy resurslarning notekis taqsimlanganligi, dunyo miqyosidagi ijtimoiy adolatsizlik kabilar ham xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning sabablari sifatida saqlanib qolmoqda. AQSHning razvedka bo'yicha Milliy qo'mitasining 2000-yildagi chiqishiga ko'ra, qashshoq mamlakatlarning aholisi va iqtisodiyotini takror barpo qilish uchun zarur bo'lgan resurslarning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladi va ular tomondan taqsimlanadi: ba'zan boshqa mamlakatlarning chegarasigacha bo'lgan joylarda, ba'zan yirik xorijiy korporatsiyalar mavjud bo'lganda o'sha mamlakatlarning o'zida taqsimlanadi. Ushbu omil xalqaro maydonda resurslarni ishlab chiqaruvchilar bilan ularning ist'emoilchilari o'rtasida, hamda ayrim mamlakatlarning ichidagi xorijiy ishlab chiqaruvchilar va ist'emoilchilar o'rtasida ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy sabablaridan yana biri, eng yangi texnologiyalar yaratilishiga asos bo'ladigan ma'lumotlar, bilimlar uchun kurash hisoblanadi. Insoniyat anchadan (1970-yillardan) beri rivojlanishning postindustrial bosqichiga o'tdi, uning asosiy voqealari, o'sish sur'atlari va boshqa ko'rsatkichlari "bilimlar iqtisodiyoti" deb ataladigan sohaga bog'liqdir. Ammo, boshqa tomondan, postindustrial bosqich, mamlakatlar rivojlanishining tengsizligini keskinlashtirdi. Fan-texnika inqilobi asosan rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilgan, ular yangi texnologiyalarning, sanoat namunalarning, nou-xau larning va h.k.larning yaratuvchilari hisoblanadilar. Shuning uchun ham bu yerda texnologiyalar va ularning asosida yaratilgan eng yangi texnikalar eksporti ustidan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlarga buyrunishlari ustidan nazorat masalalariga katta e'tibor qaratadilar.

Dunyoda FTT yutuqlaridan foydalanishga o'rgangan, lekin o'zlari ishlab chiqara olmaydigan mamlakatlarning to'g'ridan to'g'ri qaramligi shakllanmoqda. Bular xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar uchun asos yaratadilar. Mojarolarning boshqa bir sababi - xom-ashyo va energiya manbalari uchun kurash hisoblanadi. Resurslar va energiya bilan ta'minlanganlik muammosi eng keskin bo'lib qolmoqda. Xom ashyo va energiya manbalariga yetishishni kafolatli ta'minlash, raqobatchilarni ulardan mosuvo qilish va qo'shimcha foyda olishga intilishlar bilan kechmoqda. Tabiiy resurslarning tugab borishi katta muammolarni keltirib chiqaradi, ularni faqat fan texnika inqilobi vositalari bilan hal qilib bo'lmaydi. Albatta, bunday ziddiyatlarning shakllari hozirgi paytda ancha madaniy tus olgan, qo'pol kuch ishlatish va majbur qilish yuz bermaydi, ammo ziddiyatli vaziyatlar keskinligi bu bilan kamayib qolmaydi. Buning ustiga, jahon iqtisodiyotining aynan resurs-xom ashyo sohasi kelajakdagi dunyoviy ziddiyatlarning tahdidini keltirib chiqarishi mumkin, va ular faqat iqtisodiy bo'lmasdan, "olovli" nuqtalarga aylanishi mumkin.

Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning sabablaridan yana biri insoniyatning global muammolari – birinchi navbatda, ekologik va demografik muammolardir. Aholining izchil ravishda ko'payib borayotganligi, qochoqlar sonining oshib borayotganligi bilan birgalikda etnik va diniy to'qnashuvlarning havfini tug'dirmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish katta xarajatlarni va mablag'larni talab qiladi. Ushbu sohadagi ziddiyatlarning asosiy mohiyati – muammoni qanday hal qilish kerak va unga kim mablag' ajratadi.

Ba'zan xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning sababi sifatida quyidagilar yuzaga chiqadi. Keyingi o'n yilliklarda AQSHning iqtisodiy qudrati xorijiy bevosita investitsiyalarning katta miqdorda oqib kelishi bilan izohlanadi. Xorijiy kapitalning kirib kelishiga asoslangan portfel investitsiyalari ham muhim o'rin tutadi. Mana shunday sharoitlarda, investorlar katta foyda normasini olishi mumkin bo'lgan, dunyoning boshqa mamlakatlari va mintaqalari paydo bo'lishi, AQSHning noroziligiga sabab bo'ladi. Shunday nuqtai nazarining tarafdorlari lobotlashga urinishlariga ko'ra, investorlarga kelajakda katta foyda normasi olishni taklif qiladigan, aynan boshqa mintaqalarda jiddiy iqtisodiy, siyosiy ziddiyatlar paydo bo'ladi, ziddiyatlar keskinlashadi, inqirozli vaziyatlar yuzaga keladi.

### 13.3 Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning turlari.

Xalqaro ziddiyatlarning umumiy tavsifnomasiga tayangan holda, quyidagi xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning turlarini ajratish mumkin:

- 1) sabablariga ko'ra: hududiy, moliyaviy, savdo, migratsiyaviy va axborot turlari;
- 2) ishtirokchilar soniga ko'ra: ikkitomonlama va ko'ptomonlama;
- 3) geografik taqsimlanishiga ko'ra: mahalliy (ikki mamlakat o'rtasida), mintaqaviy va global turlari;
- 4) kechadigan vaqtiga ko'ra: qisqa muddatli va uzoq muddatli turlari.

Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning ba'zi bir turlarini kengroq ko'rib chiqamiz.

*Ayrim mamlakatlar o'rtasida.* Ziddiyatlarning ushbu turi eng qadimiy bo'lib, ularning paydo bo'lishi va hal qilinishi mexanizmi yaxshi ma'lumdir. Misol sifatida Ispaniya va Kanada o'rtasida paydo bo'lgan, Atlantika okeanida treska ballig'ini ushlab bo'yicha 1990-yillarda bo'lgan "baliq urushi". Bunday ziddiyatlar keskinligi bugungi kunda ham kamayayotgani yo'q. Masalan, 2008-2009-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi boshlangandan so'ng Xitoy Jahon savdo tashkilotiga sakkizta ariza topshirdi, arizada uning tovarlariga nisbatan AQSH hukumati tomonidan qabul qilingan 22 ta savdo tadbirlari bo'yicha bahsga kirishdi. Bahsli masalalar AQSHdan import qilinadigan avtomobillar, tovuq oyoqchalari, po'lat hamda Xitoydan AQSHga qilinadigan ba'zibir tovarlar bo'yicha edi.

AQSH 2009-yilda proteksionistik maqsadlarda va (ularning fikricha) yuanning qadri pasaytirilganligi uchun Xitoydan import qilinadigan avtomobil chinalariga bojlarni yo'lga qo'ydi. Xitoy javob tariqasida amerika tovuqlarini import qilishga bojlar kiritdi, bu esa AQSHning mana shunday mahsulot ishlab chiqaruvchilariga, sotuvning pasayganligi tufayli, 1 mlrd dollar zarar ko'rishiga olib keldi. Yana amerikadan import qilinadigan neft tashuvchi po'lat quvurlarga



ham bojlar oshirildi. XXRning savdo vazirligi tovuq go'shti mamlakatga demping narxlarida olib kirilishi bo'yicha amerikaliklarga ayb qo'ydi, chunki u mahalliy ishlab chiqaruvchilarga katta zarar berardi.

*Alohida mamlakat va mamlakatlar guruhi o'rtasida.* Kosta-Rika tomonidan 1991-yilda Yevropa mamlakatlarini Afrika mamlakatlari va Karib havzasidan bojxona to'lovlarisiz, noqonuniy banan import qilganlikda ayblab boshlagan "banan urushi" 2012-yilda tugadi. Kosta-Rika va boshqa Lotin Amerikasi mamlakatlari bojlarni to'liq miqdorda to'lashlari kerak edi. Yel vakillari, sobiq mustamlakalarida ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga intilishlari bilan o'zlarini oqladilar. Kosta-Rikaning harakatlarini yana bir necha mamlakatlar qo'lladilar, ammo Yel faqat 2009-yilga kelibgina, ular uchun bojlarni pasaytirdilar. Natijada, 2017-yilga kelib lotinamerikasi bananlariga bojlar 35 % ga pasaytirilib, tonnasiga 114 yevroga tushirildi.

Jiddiy savdo ziddiyatlarining tuguni Yel bilan AQSH o'rtasida ham mavjud. Ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar JST savdo bahslarining 20 % ni tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi ko'pincha ayblovchi bo'lib, AQSH esa himoyalanuvchi bo'lib bahslashadilar.

*Xalqaro mamlakatlar guruhlari ichidagi ziddiyatlar.* Ziddiyatlarning ushbu turi uncha keng tarqalmagan. Yelda muntazam ravishda turli xil "oziq-ovqat urushlari" paydo bo'lib turadi. Fransuz dehqonlari ancha arzon qishloq xo'jalik mahsulotlari ortilgan ispan yuk mashinalarini to'xtatganlar va yuklarini yanchib tashlaganlar. O'z navbatida, jabr ko'rgan tomon (xususan ispan dehqonlar assotsiatsiyasi) ist'emoilchilarga murojaat qilib fransuz mahsulotlarini boykot qilishga chaqirganlar.

Rossiya tomoni Yel dan oziq-ovqat mahsulotlarni olib kirishga embargo e'lon qilganligi natijasida ham mana shunday ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Italiyalik fermerlar ularning bozorlarida polyak olmalari, nemis sut mahsulotlari, golland pomidorlari, fransuz kartoshkalari paydo bo'lib, narxlarni tushirib yuborishidan qo'rqadilar. Yelda ziddiyatlar tomonlarning kelishuvlari va sud orqali hal qilinadi.

Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA) 1994-yilda tashkil qilingan edi, 1996-1997-yillarga kelib Kanada bilan AQSH o'rtasida "losos urushi", AQSH bilan Meksika o'rtasida esa "olma" va "pomidor" urushlari boshlangan edi. Kanada bilan AQSH o'rtasida Tinch okeanining shimoliy qismida losos balig'ini ovlash bo'yicha ziddiyat ko'p sonli amerika baliq ovlash floti Kanadaga tuxum tashlash uchun ketayotgan losos to'dasini ovlab olishi natijasida kelib chiqdi. Amerika hukumati losos to'dasi suzib o'tadigan, materik va Vankuver oralig'idagi bo'g'ozni Kanadaniki deb tan olmaydi. Imzolangan kelishuvga qaramasdan, Kanada baliq muhofazasi tashkiloti amerikalik baliqchilarning kvotadan ortiq baliq ovlayotgani to'g'risida gapiradilar (natijada Kanada 500 mln dollar zarar ko'rmoqda).

Meksika 1996-yilda AQSHga "pomidor urushini" yutqazdi, chunki u amerika bozoriga kiritiladigan sabzavotlarning minimal narxiga rozi bo'lishga majbur bo'ldi. Bunga javoban Meksika 1997-yilda AQSHga "olma urushini" e'lon qilib, AQSHdan import qilinadigan olmalarning ba'zi navlariga kompensatsiya

tariflarini belgiladi. AQSH 2009-yilda o'z hududiga mexikalik katta yuk mashinalarining kirishga taqiq qo'ydi, sababi ular Xavfsizlik me'yorlariga javob bermas ekan.

### 13.4 Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar keskinligi oshishi.

Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar keskinligini Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda iqtisodiy integratsiyalar tufayli yumshatishga erishildi. Ma'lumki, Integratsiya – uzoq muddatli jarayon bo'lib, qoida bo'yicha erkin savdo zonalarini tashkil qilishdan boshlanadi, keyin esa kapitallar, ishchi kuchlari, g'oyalar, axborotlarning erkin harakatiga cheklovlarni bekor qilishgacha davom qiladi. Integratsion birlashuv doirasida xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning paydo bo'lish asoslari bekor qilinadi, yuzaga keladigan bahsli vaziyatlarni yechish uchun maxsus institutlar va mexanizmlar yaratiladi. Hozirgi kunda eng qudratli Integratsiya birlashmasi bo'lib Yevropa Ittifoqi hisoblanadi, uning doirasida yana valyuta uyushmasi – Yevroguruh tashkil qilingan. Yel sudi davlatlararo bahslarni tartibga solishga, Yel ning boshqa idoralari tomonidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini va qarorlarni bekor qilish, hamda Yel a'zolari bo'lgan davlatlarni o'zlariga olgan ma'suliyatlarni bajarishga majburlash huquqiga ega.

Integratsion jarayonlarning barqaror iqtisodiy munosabatlarni yaratishda Ujbiy ta'sirga ega bo'lganligini Yevropada ilgari qanchalik xalqaro ziddiyatlar (iqtisodiy, siyosiy, diniy) yuz berganligi, aynan Yevropa ikkita jahon urushining markazi bo'lganligini eslashning o'zi kifoya. Shu bilan birga Yevroittifoq yoki Yevrozona doirasida hech qanday ziddiyatlar qolmagan deb aytish mumkin emas. Ammo, muammolarni hal qilishning yaratilgan mexanizmlari integratsion birlashmani vaziyatning ortiqcha keskinlashuvidan himoya qiladi. Yevroittifoq, o'zi keyingi paytlarda duch kelgan eng murakkab muammolar – Yel a'zolari bo'lgan bir qator mamlakatlarning qarz inqirozi – muammosini hal qilish yo'lini topdi.

Keyingi o'n yilliklarda xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning oldini olish va hal qilishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (BMT, JST, MAGATE, Xalqaro savdo palatasi) katta o'rin tutmoqdalar. Masalan, JST doirasida savdo bahslarini hal qilishning mexanizmi yaratilgan va samarali ishlab turibdi. JST ning asosiy tamoyillaridan biri shunga asoslanganki, tashkilot a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan barcha ziddiyatlar faqat kelishuvlar orqali hal qilinadi.

BMT, Jahon banki va uning tashkilotlarining vakolati ham ishtirokchilar o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni uchrashuvlar va o'zaro manfaatli kelishuvlar yo'li bilan samarali hal qilish imkonini beradi. JST tizimini ham, ziddiyatlarni hal qilishning boshqa mexanizmlarini ham to'liq raso (ideal) deb bo'lmaydi, ammo ular jahon iqtisodiyotidagi bahsli vaziyatlarni hal qilishning keskinligini yumshatishga yordam beradi. Masalan, BMT Nizomining 33-moddasida aytilishicha, barcha bahslar kelishuvlar, izlanishlar, vositachilik, sulh tuzishlar, arbitraj, sudda ko'rib chiqishlar, mintaqaviy idoralarga murojaat va boshqa tinch yo'llar bilan hal qilinishi kerak.

Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarni, xususan savdo ziddiyatlarini, tartibga solishning izchil mexanizmi JSTda ishlab chiqilgan. Ushbu mexanizm Savdo va

tariflar bo'yicha Bosh assambleya/Jahon savdo tashkiloti doirasida 50 yildan oshiq davr mobaynida shakllangan va himoya choralarining noqonuniy qo'llanishi, antidemping vositalaridan adolatsiz foydalanish kabi murakkab masalalarni hal qilish imkonini beradi. Dunyoning hech bir mamlakati, jahon xo'jalik aloqalaridan yiroq bo'lgan holda, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida samarali keta olmaydi. Shuning uchun ham hozirgi kunda kelishuvga erishish yo'lini izlash ancha foydali bo'ladi, ya'ni milliy manfaatlardan voz kechmagan holda, u yoki bu xalqaro iqtisodiy ziddiyatni o'zaro manfaatli asosda hal qilish mumkin.

### **Tayanch tushunchalar**

*Iqtisodiy ziddiyat; iqtisodiy manfaatlar; xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar; demping; antidemping; sanksiyalar; defolt; ziddiyatli vaziyatlar; postindustrial bosqich; bilimlar iqtisodiyoti; "olovli" nuqtalar; siyosiy ziddiyatlar; ayrim mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlar; alohida mamlakat va mamlakatlar guruhi o'rtasidagi ziddiyatlar; JST savdo bahslari; "losos urushi"; "pomidor urushi"; "olma urushi"; iqtisodiy integratsiyalar; o'zaro manfaatli kelishuvlar; savdo ziddiyatlari; antidemping vositalaridan adolatsiz foydalanish.*

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Iqtisodiy ziddiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy manfaatlar qanday darajalarda namoyon bo'ladi?
3. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar sub'ektlari bo'lib kimlar hisoblanadi?
4. Xalqaro darajada iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy shakllari nimalarda yuzaga chiqadi?
5. Tabiiy resurslarning notekis taqsimlanganligi xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning sabablari bo'lishi mumkinmi?
6. Ekologik va demografik muammolar qanday xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin?
7. Xorijiy kapitalning kirib kelishi jarayonlarida iqtisodiy ziddiyatlar kelib chiqishi mumkinmi?
8. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning qanday turlarini ajratish mumkin?
9. Integratsion birlashmalar xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning paydo bo'lishini qanday qilib yo'qotadi?
10. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning oldini olish va hal qilishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qanday o'rin tutadilar?

## **14 – Mavzu. MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH**

14.1. O‘zbekiston Respublikasining mintaqaviy integratsiya guruhlariga kirishishida MDHning o‘rni.

14.2. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligida ishtiroki.

14.3. O‘zbekiston va Shanxay hamkorlik tashkiloti.

### **14.1 O‘zbekiston Respublikasining mintaqaviy integratsiya guruhlariga kirishishida MDHning o‘rni.**

Global iqtisodiyotning nisbatan yangi tarkibiy qismi bo‘lib, mintaqaviy iqtisodiy guruhlar hisoblanadi. O‘zaro hamkorlik uchun manfaatli sharoitlar yaratishga intiladigan davlatlarning savdo, iqtisodiy, valyuta ittifoqlari global iqtisodiyotda alohida mustahkam o‘zaro hamkorlikka asoslangan hududlar yaratishiga olib keladi. Nafaqat alohida davlatlar, balki ularning alohida sub‘ektlar sifatidagi integratsiya guruhlar ham o‘zaro munosabatga kirishadilar. Global darajada tartibga solish imkoniyati bo‘lmagan o‘zaro iqtisodiy hamkorlik muammolari, mintaqaviy integratsiya doirasida o‘z yechimini topadi.

Mamlakatlar guruhlarini o‘rtasida hamkorlikning va almashinuvning imtiyozli sharoitlarini yaratish, ya‘ni xo‘jalik faoliyatini mintaqalashtirish – hozirgi global iqtisodiyotning o‘ziga xos belgisi hisoblanadi. Mintaqaviy asosda tobora ko‘p iqtisodiy ittifoqlar va birlashmalar paydo bo‘lib, ularning tarkibida milliy xo‘jaliklarning o‘zaro hamkorligi jadallashadi.

Jahon iqtisodiyoti hech qachon o‘z iqtisodiyoti tarkibining bir xilligi bilan ajralib turmagan, global va mintaqaviy jarayonlar o‘rtasidagi ma‘lum qarama-qarshiliklarni mintaqalashuv yanada murakkablashtiradi. Mintaqaviy iqtisodiy guruhlar bir vaqtning o‘zida ham globallashtirishning kengaygan jarayoni sifatida, ham uning oqibatlaridan himoyalaniish vositasi sifatida yuzaga chiqadi. Ular yanada yirikroq iqtisodiy makonni yaratish maqsadlariga xizmat qiladi, hamda unda ishtirok qilayotgan mamlakatlarni global raqobatdan himoya qiladi, chunki ular alohida holda bunga bardosh bera olmagan bo‘lur edilar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin jahon xo‘jaligiga va uning asosiy negizlaridan bo‘lgan xalqaro mehnat taqsimotiga faol kirib bora boshladi. Respublika xalqaro mehnat taqsimotida o‘zining bir qator rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimiya, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, qazilma sanoati va qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan muayyan darajada qatnashadi.

O‘zbekistonning jahon bozoriga olib chiqadigan mahsulotlari ichida mustaqillikning dastlabki davrlarida asosiy o‘rinni paxta tolasi egallardi (36 %). Hozirgi kunda (2021-yil) paxta tolasining respublika eksportidagi xissasi 1,0 % ga tushdi. Ammo, yaqin vaqtlargacha paxta tolasi faqat xom-ashyo sifatida chiqarilib keldi. Keyingi yillarda paxta tolasini jahon bozoriga olib chiqishda uni ko‘proq qayta ishlangan holda tayyor yoki yarim tayyor mahsulot sifatida chiqarishga harakat qilinmoqda. (Dastlab, chetga chiqariladigan paxta tolasining 75 % xom-ashyo holatida chiqarilardi). O‘zbekistonga asosiy valyuta tushumlarini keltiradigan bu mahsulotning xom-ashyo holidan ko‘ra tayyor mahsulot sifatida chiqarilishi bir necha barobar ko‘proq daromad keltirishi mumkin.

Respublikamizda ochiq iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish yo'llarini mustaqil ravishda belgilab olishni taqazo etadi. Xususan, O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi jarayoni mamlakatda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tamoyillarning bozor iqtisodiyoti qonunlariga tamomila mos kelishini talab etadi. Respublika iqtisodiyotida bozor munosabatlarini shakllanishi esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning baynalminallashuvini va milliy doiradan tashqari chiqib, xalqaro xarakter kasb etishini dolzarb masalaga aylantiradi. Bunday vaziyat yosh suveren davlatimiz oldida muhim bir vazifani – dunyo mamlakatlari bilan teng huquqli va samarali iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o'rnatishni va halqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish orqali jahon xo'jaligi tizimiga yanada samaraliroq integratsiyalashishni zarurat qilib qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin a'zo bo'lgan birinchi integratsiya 1992-yilda tashkil qilingan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bo'ldi. Uning ishtirokchilari: Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston bo'ldi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlararo manfaatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'p jihatdan unda ishtirok etayotgan mamlakatlar integratsiyasida iqtisodiy manfaatlarning mavjudligiga asoslangan edi. Ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlari quyidagi holatlar bilan ham izohlanadi:

1. Hamdo'stlikka kiruvchi hech qaysi mamlakat yaqin vaqt ichida (eksport uchun ham, import uchun ham) MDH bozori singari bozorni topa olmaydi: bozorning sig'imi, raqobatchilik darajasi, texnologiyalar va tovarlarning bir-biriga mosligi, transportning qulayligi jihatidan, ijtimoiy-madaniy parametrlari jihatidan va x.k.

2. Ishtirokchi mamlakatlarning asosiy tarmoqlarida (ayniqsa, sanoatda) texnologik va texnikaviy holat ham iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydigan omildir. Ushbu real holatda ikki qarama-qarshi tamoyil mavjud: a) rivojlangan g'arb texnologiyasiga intilish maqsadida bir-birlarining texnologiyalaridan uzoqlashish va b) an'anaviy ntegratsiyalashgan tarmoqlarni ishga tushirish maqsadida texnologiyalarni yaqinlashtirish.

3. Hamdo'stlik mamlakatlarining tashqi savdo sohasida halqaro bozorlardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishga harakat qilishdan iborat strategik siyosati ham mintaqalarda savdo doktrinalarini muvofiqlashtirilishiga olib keladi. Bunday holatda yangi jahon bozorlariga integratsiyalashgan, hamda kelishilgan holda kirish (baravar manfaatdorlik bo'lsa va qarorlar qabul qilishda teng ishtirok etilsa) ulardan har birining manfaatlariga xizmat qiladi.

MDH doirasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish manfaatlariga xizmat qiladigan, ustuvor bo'lgan umumittifoq mehnat taqsimotining va oldingi iqtisodiy siyosatning mohiyatidan kelib chiqadigan yana ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud edi. Iqtisodiy ahamiyati nuqtayi nazaridan qaraganda

yangi, ba'zan g'ayri oddiy shart-sharoitlar ham diqqatga sazovor bo'lib, ularni MDH doirasida muhim integratsiya tashabbuslarining omili sifatida baholash mumkin. Shu bilan birga, MDH davlatlari yangi integratsiya tamoyillariga turlicha munosabatda bo'lishgan.

O'zbekiston Respublikasi uchun MDHga a'zo bo'lish quyidagi asosiy omil bilan izohlanadi. O'sha vaqtda mamlakat ulkan hududga, ko'p millatli aholisiga va turli-tuman tabiiy resurslarga ega bo'lsa-da, u dunyoning boshqa mamlakatlari bilan doimiy va belgilangan iqtisodiy aloqalarga ega bo'lmasdan turib, yakka holda rivojlanishning yuqori cho'qqilariga erisha olmasdi. Zero, milliy xo'jaliklarning umumjahon mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlari garovidir.

MDH O'zbekiston a'zo bo'lgan birinchi integratsiya birlashmasi bo'lishiga qaramasdan, uning rivojlanishi sur'atlar ancha pastdir. Integratsiya maqsadlari sifatida qo'yilgan ko'pgina rejalarga erishilgani yo'q va bu borada harakatlar ham juda sust ketmoqda.

#### **14.2 O'zbekistonning Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligida ishtiroki.**

Markaziy Osiyo hamkorligi 1994-yilda tashkil qilingan. Uning ishtirokchilari: Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston.

Markaziy Osiyo davlatlari o'z rivojlanishining keyingi 20 yilida (2000-yildan keyin) katta siljishga ega bo'ldilar. Markaziy Osiyoning dunyo XQP bo'yicha YAIMdagi ulushi 2000-yildan buyon 1,8 barobarga oshdi. Ushbu davlatlar iqtisodiy jihatdan o'zini tiklab oldilar va kelajakda ham o'sish imkoniyatlari kattadir.

Markaziy Osiyoning jami YAIM 2021-yilda 347 mlrd.dollarni tashkil qildi. Keyingi ikki o'n yillikda Markaziy Osiyo mamlakatlari YAIM yetti barobardan ko'pga oshdi, real nuqtayi nazardan hisoblaganda – to'rt barobarga oshdi. Boshqa mamlakatlardan kiritilgan investitsiyalarning hajmi 211 mlrd. dollarga yetdi, tashqi savdo aylanmasi esa 2000-yildan buyon olti barobarga ko'paydi. Jadal iqtisodiy o'sish 1990-yillarda boshlangan tarkibiy iqtisodiy islohotlar va dunyo tovarlar bozoridagi qulay konyunktura muhiti natijasida yuz berdi.

Mintaqaning o'sib borayotgan aholisi bozorda katta talabni va mehnat resurslarining tobora ko'payib borishini ta'minlaydi. Aholi soni 77 mln kishi bo'lib, yiliga deyarli 2% ga o'sib bormoqda. Keyingi 20 yil davomida aholi soni yiliga o'rtacha 1,6% ga oshib bordi. Aholi soni 2000-yildan buyon 1,4 barobarga oshdi. BMT mutaxassislari hisob-kitoblariga ko'ra, 2040-yilgacha mintaqadagi demografik o'sish o'rtacha 1,1% ni tashkil qiladi. Demografiya Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti o'sishiga yordam beradi. Aholi yosh tarkibining taqsimlanishi kelajakda mehnat resurslari sonining ko'payishini anglatadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari, keyingi 20 yilda 6,2% ni tashkil qildi. Vaholanki, ushbu davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda o'sish sur'atlari 5,3% ni, butun dunyoda esa – yiliga o'rtacha 2,6% ni tashkil qildi. Ekspert daromadlarining, ishchi migrantlar jo'natgan pullarning va bevosita xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi aholi daromadlarining oshishiga va kambag'allikning qisqarishiga olib keldi.

## Mintaqaning yutuqlari va tarkibiy o'zgarishlari

	2000-2021 yy.da o'sish	2000	2010	2021
Aholi, mln kishi	1,4x	55	62	77
YAIM, mlrd \$	7,5x	46	243	347
Dunyo YAIMdagi ulushi (XQP bo'yicha)	1,8x	0,4	0,6	0,7
BXI hajmi, mlrd \$	17,2x	12,3	101,6	211,4
Tashqi savdo aylanmasi, mlrd \$	6x	27,4	149,4	165,5

Manba: Yevrosiyo taraqqiyot banki tahlilchilari tomonidan milliy statistika qo'mitalari, markaziy banklari, XVf, OTB, JB, Trademap, CEIC ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadal iqtisodiy o'sish tufayli Markaziy Osiyo mamlakatlarida daromadlar darajasi rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashish tendensiyasi davom etmoqda. Qozog'istonda XQP bo'yicha YAIM ning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi rivojlangan mamlakatlarnikidan ikki marta, Turkmanistonda – 3 marta orqada qolmoqda, boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida rivojlangan iqtisodiyotlarga nisbatan farq ancha katta – 7 dan 14 barobargacha orqadadir. Keyingi 20 yil ichida vaziyat ancha yaxshilandi. Mintaqaning ko'pgina mamlakatlarida YAIMning XQP bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri kelishi uch barobarga oshdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining strategiyasi globallashuvning va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning afzalliklaridan foydalanishga qaratilgandir. Globallashuvning afzalliklari mintaqaning o'ziga xos geografik joylashuvi – Xitoy, Rossiya va Turkiyaning o'rtasida ekanligi sharoitida xalqaro mehnat taqsimoti bilan bog'liqdir. Xitoy bilan munosabatlarning mustahkamlanishi va Markaziy Osiyo mamlakatlarining “Bir xalqa, bir yo'l” tashabbusini amalga oshirishga jalb qilinganligi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Mintaqaning ba'zi mamlakatlari tomonidan qo'llanilgan o'zini chetga olish siyosati, shu jumladan iqtisodiy sohada ham, noto'g'ri ekanligini namoyon qildi.

Markaziy Osiyo davlatlari jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lishga intilmoqdalar. O'zbekiston iqtisodiy strategiyasining tubdan o'zgarishi buning yaqqol misoli bo'la oladi. Turkmaniston ham, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni va yirik xalqaro va mintaqaviy loyihalarda ishtirok qilishini faollashtirib tobora ochiqlik namoyon qilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tovarlar tashqi savdosidagi aylanmasi 2021-yilda 165,5 mlrd dollarni tashkil qildi va oxirgi 20 yilda olti barobarga oshdi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport yo'llari chorrahasida joylashganligi tovarlarni transportda tashishda ham, mintaqa mamlakatlarini transchegaraviy ishlab chiqarish zanjiriga jalb qilishda ham tranzit salohiyatini rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdosida Osiyo davlatlarining ahamiyati kuchayib bormoqda. Savdoda Rossiyaga raqobatchi bo'lib nafaqat Xitoy, balki Turkiya, Hindiston, Janubiy Koreya ham namoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari, mintaqa mamlakatlarining o'zaro savdosi ham tashqi savdoga nisbatan ancha katta sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasiga boshqa mamlakatlardan jalb qilingan investitsiyalar hajmi 211 mlrd dollarni tashkil qiladi. Keyingi yilda ushbu ko'rsatkich 17 barobardan ko'pga oshdi. Mintaqaga BXI ni jalb qilishning ijobiy o'sish tomonlariga qaramasdan, investitsiyalarning mamlakatlar bo'yicha ham, tarmoqlar bo'yicha ham tarkibi o'z xususiyatlariga ega. Mintaqa ba'zi hududlarining uzoq vaqt davomida yopiqligi, asosiy iqtisodiy markazlardan uzoqligi, dengizga chiqish yo'lining yo'qligi, Afg'onistonga yaqinligi haligacha ham xalqaro investorlar qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mintaqada BXI ning YAIMga nisbatan darajasi o'rtacha dunyo ko'rsatkichlaridan yuqoridir (2021-yilda mintaqada ushbu ko'rsatkich 61% ni tashkil holda dunyo bo'yicha 47% bo'lgan). Ammo, xomashyo sektorlariga qilingan investitsiyalarni hisobga olmasak, o'rtacha dunyo ko'rsatkichlaridan past darajada ekani ma'lum bo'ladi, bu esa mintaqaning to'liq investitsiyalanmaganligini ko'rsatadi. Xitoy mintaqaga 40 mlrd dollarlik investitsiya kiritgan, bu Rossiyadan kiritilgan bevosita investitsiyalardan deyarli ikki barobarga ko'pdir.

Xitoydan kiritilayotgan katta moliyaviy mablag'lar mintaqa uchun nafaqat yangi imkoniyatlar yaratib beradi, balki shu bilan birgalikda uzoq muddatli tavakkalchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Markaziy Osiyo davlatlarining barqaror rivojlanishi tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilishda oqilona yondashuvlariga bog'liq bo'ladi — mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash va xalqaro tashkilotlar va taraqqiyot banklari bilan mintaqaviy dasturlarni amalga oshirish bilan bog'liqdir. Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun xomashyo bo'lmagan tarmoqlarga investitsiyalarga jalb qilish va ichki jamg'armalar salohiyatidan foydalanish talab qilinadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro savdosining umumiy tovar aylanmasidagi ulushi tobora oshib bormoqda va 2021-yilda 9,9 ni tashkil qildi. O'zbekiston 2017-yildan keyin rivojlanish tomon katta qadam tashladi va mintaqa ichki savdosi hajmini ko'paytirib bordi. Markaziy Osiyo mamlakatlari savdosi asosan Qozog'iston bilan bog'liq bo'lib, mintaqadagi o'zaro savdo hajmining 80,9% ni tashkil qiladi. Mintaqaviy savdoning rivojlanish sur'atlari investitsiyaviy hamkorlikka ta'sir ko'rsatadi. Mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligida infratuzilmaviy rivojlanish va sanoat kooperatsiyasi ustivor yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Mintaqa ichki kooperatsiyasi mintaqaning sanoat ishlab chiqarishini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

Erishilgan yutuqlarga qaramasdan, Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to'siq bo'lib turgan qatorli tizimli muammolar mavjuddir.

Birja narxlarini o'sishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'tarilish davri mamlakatlar tomonidan to'liq ravishda foydalanilmadi. Xom-ashyo tovarlarini eksport qilish va ishchi migrantlarning pul o'tkazmalari mintaqa iqtisodiyotlarida hali ham katta ahamiyatga ega. Boshqa ahamiyatli to'siqlardan yana quyidagilar — institutsional muxitning sifati, mintaqaviy transport tarmoqlarining rivojlanmaganligi, suv-energetika majmuasini boshqarishdagi kelishmovchiliklar, moliya sektori rivojlanishining past darajasi, ijtimoiy muammolar, makroiqtisodiy



tavakkalchiliklar, mintaqaviy savdo-iqtisodiy munosabatlarda uyg'unlashtirishning past darajasi namoyon bo'ladi. Rivojlanishning tarkibiy to'siqlarini yengib o'tish Markaziy Osiyo davlatlari uchun juda muhim hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar ushbu mamlakatlar iqtisodiyotining kelajakdagi rivojlanishida jiddiy muammolar bo'lishi mumkin. Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan Markaziy Osiyo mamlakatlari samarali tranzit yuk tashishlarini shakllantirmas ekanlar, bunday imkoniyati bo'lgan mamlakatlardan, o'rtacha olganda 20% orqada qoladilar. Avtomobil yo'llari va temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish, chegaralarni kesib o'tish jarayonlarini uyg'unlashtirish va osonlashtirish zarur bo'ladi.

#### Jadval 14.2.2.

#### Barqaror o'sish asoslarini mustahkamlash

<b>Makroiqtisodiy:</b>	Inflyatsiya Fiskal barqarorlik Moliyaviy sektor
<b>Ijtisoiy-iqtisodiy:</b>	Ishchi o'rinlari va bandlik Pul o'tkazmalari Ekologik sharoitlar
<b>Tarmoqlar bo'yicha:</b>	
Iqtisodiyotdagi taklif	Ishlab chiqarishning xom-ashyoviy tarkibi Eksportning xom-ashyo yo'nalishi
Transport tarmog'i	Infratuzilma Transport-logistika xizmatlarining sifati
Suv-energetika majmuasi (SEM)	SEMni boshqarishdagi kelishmovchilik-lar Infratuzilmasi va uskunalarning eskirganligi
<b>Institutsional soha:</b>	Investitsiya-ishbilarmonlik muhiti Davlat boshqaruvi Bozor mexanizmlari

Экономика Центральной Азии: новый взгляд. Евразийский банк развития. Алматы, Бишкек, Москва – 2022.

Yana bir jiddiy muammo — suv resurslariga bo'lgan bosimning oshib borishi hisoblanadi. Aslida bu butun dunyo uchun muammo bo'lsada, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun juda havflidir, chunki bu mamlakatlar ko'p jihatdan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga bog'lanib qolganlar, hamda suv havzalarining qurib borishi va muzliklarning erib ketishi davrida iqlim o'zgarishlariga ham dosh berishi qiyin bo'ladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining kelishilgan holda harakat qilishlari rivojlanishning tarkibiy muammolarini yengib o'tishda katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Iqtisodiy faoliyatning jadal o'sib borishi sharoitida energetika tizimiga bosimning oshib borishi va mintaqa mamlakatlarining umumiy daryo havzalari bilan bog'liqligi, ularning suv-energetika sohasida hamkorlik qilishlarini talab qiladi.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish va iqlim o'zgarishlari bilan kurashda ham kelishilgan sa'y-harakatlar zarur bo'ladi. Infratuzilmaviy tarmoqlar (transport, suv-energetika majmuasi) rivojlanishidagi zaif nuqtalarni tiklash, iqtisodiyotda unumdorlikni oshirish, qo'shni mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy sheriklikni kengaytirish, ishlab chiqarish va eksportning tovar xilma-xilligini yaxshilash imkonini beradi. Ishlab chiqarishining tovar tarkibini kengaytirish Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro manfaatli hamkorligini mustahkamlaydi va tashqi salbiy ta'sirlarga bog'liqligini kamaytiradi. Institutsional sharoitlarni takomillashtirish mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni kuchaytirish imkonini beradi. Suv-energetika majmuasidagi hamkorlikning yetarli emasligi xar yili iqtisodiy zararlarni namoyon qiladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari energiyaning katta zahiralarga va shamol elektr energiyasidan foydalanish uchun katta salohiyatga egadirlar. Energetika loyihalarini, shu jumladan "yashil" energetikani amalga oshirish energiya balansini yaxshilash va kelgusida elektroenergiyani eksport qilishga o'tish imkonini beradi.

Markaziy Osiyoda transport infratuzilmasining jadal rivojlanishi va aholi harakatchanligining oshishi yuz bermoqda. Katta yutuqlar ham namoyon bo'lmoqda – temir yo'llarning va qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining uzunligi oshib bermoqda, Kaspiy dengizida yangi portlar, aeroportlar, transport-logistika markazlari va chegaralarni kesib o'tish punktlari qurildi. Keyingi yillarda konteyner tranzit hajmlarining – Xitoy – Qozog'iston – Rossiya – Yel an'anaviy marshruti bo'yicha ham, Transkaspiy bo'yicha ham oshishi jadal o'sib bormoqda.

Yangi temiryo'l marshrutlari va konteyner xizmatlari tashishlarning global zanjiriga yaxshiroq integratsiya qilinishiga imkon beradi. Yo'l xavfsizligi sohasida katta yutuqlarga erishildi. Pandemiya gacha bo'lgan 2000-2019-yillarda, aholining harakatchanligi uch barobarga oshdi. Yevrosiyo transport tuzilmasi dengizga chiqish yo'li bo'lmagan Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro va xorijiy savdo sheriklari bilan aloqasini yaxshilashda muhim qadam bo'ladi. Tuzilma shakllantirib bo'lingan, va hozirda uning ayrim qismlarini rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. U Markaziy Osiyo orqali o'tadigan turli xalqaro transport yo'laklari qo'shilishini ta'minlaydi va yangi konteyner xizmatlari va logistika zanjirlarini tashkil qilish imkonini beradi. Bu barqaror va havfsiz transport-iqtisodiy aloqalarini tashkil qilish, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotlarining transport xarajatlarini qisqartirish imkoniyatini yaratadi.

Mintaqa iqlim o'zgarishlari oldida eng ta'sirchan hudud hisoblanadi. Ayniqsa, oziq-ovqat bilan ta'minlash, suv resurslari, energetika sohalari iqlim o'zgarishlariga juda ta'sirchandir, iqlim o'zgarishlari mintaqa mamlakatlari oldida bioxilmaxillikni saqlab qolish muammosini qo'yadi. Ekologik muammolar xayot sharoitini yomonlashtiradi, iqtisodiyotning, birinchi navbatda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga to'siq bo'ladi, mintaqaning investitsiyaviy va turistik jozibadorligini pasaytirib yuboradi. Mintaqa iqtisodiyotini "yashillik" tomon o'zgartirish muhim zaruriyat hisoblanadi. Mintaqa past uglerodli texnologiyalar va "yashil" loyihalar uchun investitsiyalarga, shu jumladan shamol elektr stansiyalariga, energiya va resurstejamkor texnologiyalarga, suv-energetika majmuasini

modernizatsiya qilishga, melioratsiya loyihalariga muhtojdir, cho‘llashishga qarshi kurash va o‘rmonlarni qayta tiklash i zarurdir.

Mintaqa mamlakatlarining imkoniyatlari yangi geosiyosiy sharoitlarda alohida ahamiyatga ega bo‘lib boradi. Ochiqlik siyosatini yuritish, o‘zaro manfaatli hamkorlik va kelishilgan sa‘y-harakatlar Markaziy Osiyo davlatlariga rivojlanishda katta yutuqlarga erishish imkonini beradi. Tashqi omillar oldidagi zaiflikni faqat ichki o‘rish omillarini mustahkamlash orqali yo‘qotish mumkin. Mintaqa mamlakatlari uchun to‘rtta tarkibiy muammoni yengib o‘tish talab qilinadi – bular dengizga chiqish yo‘lining yo‘qligi, resurslarga qaramlik va moliyaviy sektor rivojlanishining past darajasi, suv-energetika sohasidagi kelishmovchiliklar va iqlim o‘zgarishlaridir. Ushbu muammolarni hal qilish mintaqaning iqtisodiy salohiyatini to‘liq namoyon qilish imkonini beradi.

Mintaqaning o‘zgarishi ko‘p jihatdan ichki harakatlarga, xususi investitsiyalarga, hamda yirik ko‘ptomonlamalik dasturlarni amalga oshirishga bog‘liqdir. Mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmlari, ichki va tashqi ist‘emolchilar uchun raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi milliy biznesning ishlab chiqarish-sotish zanjirida faol ishtiroki bilan mintaqada Katta Yevrosiyo makonida moliyaviy jihatdan barqaror va jadal rivojlanishi imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Markaziy Osiyoning gullab-yashnayotgan mintaqasi sifatida bo‘lishi qit‘aning ushbu qismida boshqa jiddiy geosiyosiy masalalarni, shu jumladan Afg‘onistonni qo‘shni mamlakatlar bilan xo‘jalik aloqalariga tortish masalalarini yechishga yordam beradi.

### **14.3 O‘zbekiston va Shanxay hamkorlik tashkiloti.**

Shanxay hamkorlik tashkiloti 2001-yilda tashkil qilingan mintaqaviy tuzilma bo‘lib, o‘z tarkibiga a‘zo-davlatlar sifatida Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston Hindiston, va Pokiston va kabi sakkizta mamlakatni qamrab olgan;<sup>16</sup> yana to‘rtta kuzatuvchi-davlat: Afg‘oniston, Belarus, Eron va Mug‘uliston; hamda: Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja, Nepal, Turkiya va Shri-Lanka muloqotchi-sheriklar sifatida qatnashadilar. ShHT “uchta yovuz kuchlar”: ekstreizm, separatizm va terrorizmga qarshi kurashda Xavfsizlik uchun hamkorlik qilish forumi sifatida muhim ahamiyatga egadir. Tashkil qilinganiga 20 yildan oshgan ShHTning faoliyat sohasi va tashkiliy-tarkibi kengayib bordi. Shunga qaramasdan, Tashkilotning asosiy maqsadi, uning a‘zolari o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash va ko‘ptomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo‘lib qolmoqda. ShHTning Xartiyasida quyidagilar belgilangan: “a‘zo-davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni, yaxshi qo‘shnichilikni va do‘stlikni mustahkamlash; siyosat, iqtisodiyot, savdo, fan va texnika, madaniyat, ta‘lim, energetika, transport va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida samarali hamkorlikni rivojlantirish; mintaqada tinchlik, Xavfsizlik va barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorlikda ish yuritish”.

Mintaqaviy integratsiya hamkorlikning yanada moslashuvchan modellarini, umumiy muammolarni hal qilishda jamoaviy yondashuvni va iqtisodiy aloqalarni

<sup>16</sup> Eron Islom Respublikasi 2023-yilda ShHT ning teng huquqli a‘zosi bo‘ldi.

chuqurlashtirishni o'z ichiga olgan dunyoviy tartibni rivojlantirish tendensiyasi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. ShHT mintaqaviy hamkorlikning mana shunday yorqin misoli bo'lib qolmoqda, chunki katta salohiyatga egadir, uning a'zolarining yangi imkoniyatlarni qidirib topish borasidagi ishtiyoqlari yanada rivojlanishni rag'batlantiradi. Shunisi qiziqki, ShHT a'zolari bir-biriga o'xshamaydi, ularning siyosiy tizimlari, iqtisodiyoti, geografiyasi, ta'sir darajasi va ichki rivojlanishi turlicha bo'lsada, xalqaro tizimda tutgan o'rinlariga qaramasdan Tashkilot doirasida mutlaqo tengdirlar. Shunday qilib, ShHT yirik transmilliy tuzilma tarkibidagi mutlaqo turli xususiyatlarga ega bo'lgan mamlakatlarning hamkorlikda rivojlanishining amaliy misoli bo'lib qolmoqdalar.

**Jadval 14.3.1.**

**ShHTga a'zo-mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, 2018 yil.**

Mamlakatlar	Aholisi mln kishi	YAIM, mlrd. doll.	YAIM o'sishi, %	Eksporti mlrd doll	Importi, mlrd doll	Saldo mlrd doll.
Xitoy	1409,5	13280,0	6,6	2487,7	2135,6	+352,1
Hindiston	1339,2	2597,0	7,2	292,0	417,0	-125,0
Rossiya	146,8	1576,5	3,3	443,1	248,6	+194,4
Pokiston	204,5	305,0	5,2	24,8	55,6	-30,9
Qozog'iston	18,4	170,5	4,1	54,7	29,7	+15,0
O'zbekiston	33,3	48,6	5,1	14,3	19,6	-5,3
Qirg'iziston	6,4	8,0	3,5	1,5	4,4	-2,9
Tojikiston	9,1	7,3	7,3	1,1	3,2	-2,1

Manba: Mamlakatlarning statistika muassasalari ma'lumotlari

ShHTning kun tartibida yana keng miqyosli iqtisodiy masalalar ham bor, ularni amalga oshirish uchun Ishbilarmonlik kengashi tashkil qilingan, uning maqsadlaridan biri mintaqaviy loyihalarga investitsiyalar ajratish uchun imkoniyatlar yaratish hisoblanadi. ShHTning ishbilarmonlik kengashi yaxshi faoliyat ko'rsatmoqda va mintaqalararo biznes muhitini shakllantirishga yordam beradi. Mintaqaning iqtisodiy jihatdan gullab yashnashiga va kommunikatsiya, shu jumladan, transport infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo orqali avtomobil va temir yo'llarini, neft va gaz quvurlarini qurish loyihalarini kengaytirishga yordam beruvchi ko'psonli konstruktiv loyihalar rejalashtirilgan.

ShHT mintaqada davlatlari o'rtasida savdo imkoniyatlarini kengaytirish uchun mintaqada umumiy bozor va erkin savdo zonasini shakllantirishga harakat qilmoqda. Mintaqada iqtisodiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omillar bo'lib, katta bozorning, katta miqdordagi mineral resurslarining, kuchli sanoat bazasi va ist'emolchilar qobiliyatining mavjudligi xizmat qiladi. Barcha a'zo-davlatlar ularga egadir. Shanxay hamkorlik tashkilotining huquqiy bazasi savdo, banklar faoliyati, ishlab chiqarish, moliyaviy va investitsiya loyihalari, qishloq xo'jaligi, transport va infratuzilma, telekommunikatsiyalar va turizm sohalariga bog'liq bo'lgan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi 100 dan oshiq hujjatlarni o'z ichiga olgan. ShHTga a'zo-davlatlar savdo proteksionizmiga

qarshidirlar va ochiq ko'ptomonlamalik savdo tizimini qo'llab-quvvatlaydilar. Xitoy Xalq Respublikasi mintaqada Shanxay hamkorlik tashkilotining erkin savdo zonasini yaratish to'g'risida taklif kiritgan.

ShHTning iqtisodiy salohiyati, uning tarkibiga Hindiston va Pokiston kabi katta miqyosli mineral resurslari zahirasiga va katta sotish bozoriga ega bo'lgan ikkita yirik davlatning qo'shilishi bilan yanada oshdi. Tashkilot iqtisodiyotning va savdoning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. A'zo-davlatlar o'rtasidagi umumiy savdo aylanmasi 2018-yilda 255 mlrd AQSH dollariga yetdi, bu esa oldingi yilga nisbatan 17,2% ga ko'pdir. Bundan tashqari, 2019-yil apreliga kelib, Xitoyning ShHT a'zo-davlatlariga kiritgan investitsiyalarining umumiy hajmi 87 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Energetika, tog'-kon sanoati va tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha bir necha loyihalar amalga oshirilmoqda. XVJ hisob-kitoblariga ko'ra 2023 yilgacha ShXTning iqtisodiy salohiyati "Yettilik guruhi" mamlakatlarinikidan oshib ketadi.

Jadval 14.3.2.

**O'zbekistonning ShHT davlatlari bilan savdo aylanmasi, mln.doll. 2019 yil.**

Mamlakatlar	Eksport	Import	Saldo,	Savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	2239,3	2728,4	- 489,1	18,5
Rossiya	2103,0	2708,3	- 605,3	17,9
Qozog'iston	1065,0	997,0	+68,0	7,7
Qirg'iziston	178,6	75,2	+103,4	0,9
Tojikiston	185,2	51,8	+133,4	0,9
Hindiston	32,6	291,0	-258,4	1,2
Pokiston	9,9	26,3	-16,4	0,1
Umumiy saldo			-1064,4	

Manba: O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida

ShHTga a'zo-davlatlarning iqtisodiy hamkorligi natijasida 20 yil davomida savdo, investitsiya va moliya sohasida katta yutuqlarga erishildi. Masalan, a'zo-davlatlar o'rtasida o'zaro savdo miqyoslari jadal oshishi kuzatildi; 20 yil ichida a'zo-davlatlarning investitsiyalari tez o'sib bordi, jami chiqarilgan investitsiyalar miqdori 1 410 mlrd dollargaga yetdi, a'zo-davlatlarning o'zaro investitsiyalari ham oshib bordi, masalan, Xitoyning ShHT a'zo-davlatlariga yo'naltirgan sof bevosita investitsiyalari ShHT tashkil qilingan dastlabki davrdagi 1,10 mlrd doll. dan 2017-yilga kelib 4,73 mlrd doll.ga yetdi.

**Tayanch tushunchalar:**

*Mintaqaviy iqtisodiy guruhlar; savdo, iqtisodiy, valyuta ittifoqlari; integratsiya guruhlari; mintaqaviy integratsiya; Mustaqil davlatlar hamdo'stligi; Markaziy Osiyo hamkorligi; konyunktura muhiti; kambag'allikning qisqartirish; Markaziy Osiyo mamlakatlarining strategiyasi; "Bir xalqa, bir yo'l" tashabbusi; transport yo'llari chorrahasi; tashqi moliyaviy resurslar; transport-logistika*

*xizmatlari; suv-energetika majmuasi; energetika loyihalari; iqlim o'zgarishlari; "yashil" loyihalar uchun investitsiyalar; resurstejamkor texnologiyalar; Shanxay hamkorlik tashkiloti; ekstremizm, separatizm va terrorizmga qarshi kurash.*

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Mintaqaviy integratsiyalar raydo bo'lishining sabablari?
2. O'zbekiston Respublikasi qanday mintaqaviy integratsiyalarga a'zo bo'lgan?
3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) qachon tashkil qilingan?
4. Mustaqil davlatlar hamdo'stligini (MDH) tashkil qilishdan maqsad nima bo'lgan?
5. Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti qachon tashkil qilingan?
6. Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti tuzilishiga nimalar asos bo'lgan?
7. Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti a'zo-davlatlarining iqtisodiyoti qanday rivojlanmoqda?
8. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) qachon tashkil qilingan va uni maqsadlari nimalarda namoyon bo'ladi?
9. O'zbekistonning ShHT a'zolari bilan savdo aloqalari qanday rivojlangan?
10. ShHT ning jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o'rni qanday?

## **15-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH.**

15.1. Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimida tutgan o‘rni va salohiyati

15.2. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta‘minlash

### **15.1 Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimida tutgan o‘rni va salohiyati.**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda qulay tranzit iqtisodiy-geografik o‘ringa ega bo‘lib, ushbu mintaqadagi integratsion jarayonlarda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birgalikda, mamlakat ko‘p tarmoqli iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatini beruvchi boy tabiiy resurslarga egadir. Avvalambor, O‘zbekistonning mineral-xomashyo resurslari katta ahamiyatga kasb etadi. Respublika hududi bo‘yicha jami 2700 ta konlar va qazilma boyliklarning 120 turi aniqlangan. Xususan, O‘zbekiston oltin zahiralari bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinni, uran zahiralari bo‘yicha – yettinchi, molibden zahiralari bo‘yicha – sakkizinchi, mis zahiralari bo‘yicha – o‘ninchi o‘rinni egallaydi. O‘zbekistonning yonilg‘i resurslari ichida tabiiy gazning zahiralari katta ahamiyatga ega – dunyoda 14-o‘rindadir. Yana mamlakat kaliy tuzlari va fosforitlar kabi noruda qazilma boyliklarning zahiralari bo‘yicha ham dunyoda yetakchi o‘rinlarda turadi. Turli qazilma boyliklarning yirik konlari asosan Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududlarida joylashgan. Binobarin, mamlakat mineral resurslarining yirik zahiralari rangli metallurgiya, yonilg‘i, kimyo va qurilish sanoatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Respublika qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga imkon beradigan agroiqlim resurslariga ham bo‘ydir. Vegetatsiya davrining uzunligi va iliq quyoshli kunlarning ko‘pligi O‘zbekistonda paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va polizchilik kabi yuqori daromadli dehqonchilik tarmoqlarini intensiv rivojlantirish imkonini beradi. Ammo, respublikada asosan sug‘orma dehqonchilikka asoslangan qishloq xo‘jaligi rivojlanganligi tufayli suv resurslari omiliga juda kuchli tarzda bog‘liqdir. Ushbu resurslar bilan Toshkent, Andijon, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari eng ko‘p ta‘minlangandir. Vaholanki, mamlakatning g‘arbiy qismidagi cho‘l zonalarida joylashgan Buxoro, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu jihatdan ancha murakkab vaziyat yuzaga kelgan. Ayrim mintaqalarining suv bilan ta‘minlanishidagi murakkab vaziyatlarga qaramasdan, O‘zbekiston sug‘oriladigan yerlarining maydoni bo‘yicha dunyoda 11-o‘rinni egallaydi.

O‘zbekistonning aholisi va mehnat resurslari – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yana bir muhim omillaridan hisoblanadi. O‘zbekiston aholisi soni 1990-yilda 20,2 mln kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilning boshiga kelib 36,1 mln kishiga yetdi. O‘zbekistonda 2010-yildan keyingi davrda xar 1000 aholiga hisoblaganda tug‘ilish ko‘rsatkichi 23-24 ni, o‘lim ko‘rsatkichi – 5-6 ni, tabiiy o‘shish esa 18 ni tashkil qilib, foiz ko‘rinishida 1,8% ga teng bo‘lmoqda. Ammo,

migratsiya saldosinga biroz manfiy ko'rsatkichi tufayli (-0,1-0,2%) mamlakat aholisining umumiy o'sishi yiliga 1,6-1,7% ni tashkil qilmoqda.

O'zbekiston qisqa tarixiy vaqt davomida xayotiy muhim va murakkab bo'lgan masalalarni bosqichma-bosqich hal qilib bormoqda: xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalariga qo'shilish, milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, oziq-ovqat, energetika va transport xavfsizligini ta'minlash muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakat YAIMning o'sishida 4 ta davrni kuzatish mumkin. Birinchisi, 1991-1996-yillar davri bo'lib, bunda ishlab chiqarishning qisqarishi kuzatilgandi. Bu holat asosan, sobiq Ittifoq miqyosidagi hududiy mehnat taqsimoti tizimining buzilishi, O'zbekiston korxonalarining boshqa sobiq ittifoqdash respublikalar korxonalarini bilan kooperativ aloqalarining tugab ketishi oqibatida bo'lgandi. Ikkinchi davr, 1997-yildan 2003-yilgacha davom etib, iqtisodiyotning barqarorlashuvi va YAIMning o'sib borishi vaqti bo'lgan edi. Uchinchi davr 2004-yildan boshlanib, 2016-yilgacha davom etdi. Bu davrda YAIM mahsulot barqaror o'sib bordi. Lekin, jahon mamlakatlari, ayniqsa qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar maqsadga muvofiq tarzda emas edi. To'rtinchi davr 2017-yildan boshlangan bo'lib, iqtisodiyotda tub burilish yillari bo'lib qolmoqda. Bu davr O'zbekiston iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirishlar va qayta qurishlar davri bo'ldi. Respublika jahonga ochiq iqtisodiyot sifatida yuz tuta boshladi. Iqtisodiyotning muhim tarmoqlari sifatida xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati rivojlanib bordi. Ular muvofiq ravishda YAIMning 36%, 25% va 20% ni tashkil qiladilar. YAIMda qayta ishlash sanoatining ulushi 2017-yildan buyon 6% ga ko'paydi, bu esa tarkibiy islohotlar boshlangandan keyin katta miqdorda investitsiyalar jalb qilishning natijasi bo'ldi. Bu davrda mamlakatda iqtisodiyoti yanada erkinlashtirildi, jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar kuchayib bordi.

Mustaqil rivojlanish yillari davrida milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibida katta o'zgarishlar yuz berdi. Avvalambor, mamlakat YAIM tarkibida sanoatning ulushi jiddiy ravishda o'zgarishga uchradi. Agarda 1995-yilda YAIMda butun sanoatning ulushi 17,1% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib birgina qayta ishlash sanoatining ulushi 20% gacha oshdi. Vaholanki, qishloq xo'jaligining ulushi ushbu davrda 28,1% dan 25% gacha qisqardi. Sanoatning tarmoq tarkibi ham katta o'zgarishlarga uchradi. Milliy sanoatning tarkibida elektroenergetika, yonilg'i, kimyo, rangli metallurgiya, mashinasozlik va og'ir sanoatning boshqa tarmoqlari ulushi va ahamiyati oshib bordi. Yengil va oziq-ovqat sanoatining ham ahamiyati katta bo'ldi. O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarish hajmi 2000-yillardan boshlab izchil ravishda o'sib bormoqda, binobarin qayta ishlash sanoati tarmoqlarining o'sish sur'atlari qazib olish sanoatining o'sishidan yuqori bo'lib bormoqda. Natijada mamlakat sanoat tarkibida mashinasozlikning ulushi 20% ga yetib, yetakchi darajaga chiqdi.

O'tgan davrda O'zbekistonda mamlakat uchun umuman yangi bo'lgan sanoat tarmoqlari: avtomobilsozlik, mikroelektronika, kaliy o'g'itlari va kaustik soda, farmasevtika sanoati, shakar ishlab chiqarish va boshqalar paydo bo'ldi. Neft va gaz kimyosining yirik korxonalarini ishga tushirildi. Faqat 2010-yildan keyin



respublikada To'polon GES, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, Xondiza konmetallurgiya kombinati, Dehqonobod kaliy zavodi, Xorazm avtomobil zavodi, Zafarobod sement zavodi, Toshkent metallurgiya kombinati va boshqalar ishga tushirildi.

Hozirgi paytga kelib O'zbekistonda qudratli sanoat salohiyati yaratildi. Respublika MDH va butun dunyo miqyosida oltin, uran, tabiiy gaz, kadmiy, molibden, oltingugurt kislotasi, azot o'g'itlari, gazlamalar, yengil avtomobillar va boshqa sanoat mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchilari qatoriga kiradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston sanoatining hududiy tarkibi ham o'zgardi. 1980-yillar oxirida respublika yalpi sanoat ishlab chiqarishining 50% Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga to'g'ri kelardi, keyingi yillarda esa ushbu hududlarga milliy sanoat ishlab chiqarishining 30% to'g'ri kelmoqda. Binobarin, yangi yirik korxonalarni bunyod qilish hisobiga Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakat sanoatidagi ulushi ancha oshdi. Natijada, vaqt o'tishi bilan O'zbekiston hududida sanoat korxonalarining soni ham oshib bordi.

Qishloq xo'jaligida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu sohadagi islohotlarda qo'yilgan dastlabki maqsadlar paxta yakkaxokimligini tugatish, don mustaqilligiga erishish va xususiy fermer va dehqon xo'jaliklari rivojlantirishdan iborat bo'lgan edi. Xususan, paxta ekiladigan maydonlarni keskin qisqartirish hisobiga donli ekinlar maydoni 1,5 barobarga oshirildi. Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda qisqa vaqt davomida donning yalpi hosili 3,5-4 barobarga oshdi, bu esa mamlakatning don mustaqilligiga erishishiga imkon yaratdi. Bundan tashqari, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash doirasida sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sut-go'sht chorvachiligi, parrandachilik sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Natijada, mustaqillik yillarida paxtaning yillik hosili 5,5 mln tonnadan 3,4 mln tonnagacha qisqardi, sabzavotlar hosili esa - 2,5 barobarga, kartoshkaniki - 6 barobarga ko'paydi, mevalarniki - 4 barobarga, uzumniki - 2,5 barobarga, go'sht va sut ishlab chiqarish - 2 barobarga oshdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston uzum, poliz ekinlari, mevalarning ba'zi turlarini yetishtirish va eksport qilish bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biriga aylandi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston uchun qishloq xo'jaligining an'anaviy tovar mahsulotlari bo'lgan - paxtachilik, ipakchilik, qorako'lchilik tarmoqlari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. 2019-yil holatiga ko'ra respublika paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda oltinchi o'rinda, uning eksporti bo'yicha esa uchinchi o'rinda, ipak ishlab chiqarish bo'yicha - oltinchi, qorako'l yetishtirish bo'yicha - ikkinchi o'rinda bo'lib kelmoqda.

Transport tizimini rivojlantirish bo'yicha ham katta yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, respublika temir yo'l tarmog'ining hududiy yaxlitligining ta'minlanganligi eng katta yutuq bo'ldi. Agar O'zbekiston hududining shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa yuzlab kilometrqa cho'zilganligini, hamda yuqori tog' tizmalaridan va katta cho'llardan o'tadigan davlat chegarasining o'ziga xos ko'rinishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu yutuqlarning dolzarbligi yaqqol namoyon bo'ladi. Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li davlat chegarasini

kesib o'tmasdan Surxondaryo viloyatini, Uchquduq-Miskin-Nukus temir yo'li Qoraqalpog'iston Respublikasini va Xorazm viloyatini, Angren-Pop yo'li esa Farg'ona vodiysi viloyatlarini O'zbekistonning yaxlit temir yo'l tarmog'i bilan birlashtirdi. Bu bilan hozirgi paytga kelib respublikaning transport xavfsizligi va mustaqilligi ta'minlandi. Bundan tashqari Konimex-Miskin temir yo'li qurilishi Navoiy va Buxoro viloyatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan, Urganchdan Xivagacha bo'lgan temir yo'li – mamlakatning eng qadimiy, turizm markazi bo'lgan shahrini viloyat markazi bilan bog'ladi.

O'zbekistonda temir yo'llarni elektrlashtirish va tezyurar poezd yo'li aloqasini yo'lga qo'yish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Toshkent-Samarqand yo'nalishi bo'yicha "Afrosiyob" tezyurar poezdi marshruti, Toshkent-Qarshi yo'nalishida "Nasaf" va Toshkent-Buxoro marshruti bo'yicha "Sharq" tez yurar poezdlari yo'lga qo'yilgan. Hozirgi paytda Buxoro-Urganch, Qarshi-Termiz va Qarshi-Kitob temir yo'llarini elektrlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, respublikada tezyurar temir yo'l marshrutlari geografiyasi yanada kengayadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi dengiz yo'llariga bir necha ishonchli yo'nalishlar bo'yicha chiqish va o'zining iqtisodiy-geografik o'rningining tranzit imkoniyatlarini oshirish maqsadida transport rivojlanishi masalalari bo'yicha Turkmaniston va Qozog'iston, Rossiya va Xitoy, Ozarbayjon va Gruziya, Eron va Ummon mamlakatlari bilan keng miqyosli hamkorlikni amalga oshirmoqda. Mamlakatimiz ishtirokida Afg'oniston hududida birinchi temir yo'l qurilishi (Termiz–Mozori Sharif) O'zbekistonning janubiy yo'nalishda Dunyo okeani portlariga qisqa masofada chiqishini amalga oshirishda birinchi bosqich bo'lib qolmoqda. Afsuski, Afg'onistondagi geosiyosiy vaziyatning barqaror emasligi Hind okeani tomon transport magistrallarini qurish ishlarini orqaga surib kelmoqda. O'zbekistonning keng miqyosli transport loyihalari – davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish borasidagi siyosatining bir qismi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni dunyoning 140 mamlakati bilan yo'lga qo'ygan O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari bo'lib Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya va ayrim Yevropa mamlakatlari hisoblanadilar. Transport tizimining rivojlanishi respublika tashqi savdo aloqalarining yangi geografik yo'nalishlarda rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beradi.

Respublika eksportining tovar tarkibida mustaqillik yillarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Mustaqillik e'lon qilingan vaqtda mamlakat eksporti tarkibida paxta tolasining ulushi 60% ni tashkil qilardi. Keyingi yillarda ushbu ko'rsatkich izchil ravishda pasayib bordi va 2021-yilga kelib 1% ga tushdi. O'z navbatida O'zbekistonning eksportida energiya manbalarining (avvalambor, tabiiy gazning), oltinning, rangli metallarning, oziq-ovqat, to'qimachilik va kimyo sanoati va yengil avtomobillarning ulushi anchagina oshdi.

Keyingi yillarda mintaqalarning sanoat va eksport imkoniyatlarini oshirish, iqtisodiyotga yangi xorijiy investitsiyalar jalb qilish maqsadida O'zbekistonda bir qancha erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilindi. Dastlab "Navoiy", "Angren",

“Jizzah” (Sirdaryo viloyatida filiali bilan), keyinchalik esa Xorazm viloyatida “Xazorasp”, Buxoro viloyatida “G’ijduvon”, Samarqand viloyatida “Urgut” va Farg’ona viloyatida “Qo’qon” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilindi. Hozirgi paytda ushbu hududlarda mamlakat va xorijiy investorlar ishtirokida yuzlab ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlardan kelib chiqqan holda respublika har bir iqtisodiy rayonining va viloyatining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog‘liqdir.

### **15.2 Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta’minlash.**

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasi uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat milliy iqtisodiyot resurslari, zahiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, bozor infratuzilmasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor konyukturasidagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligi, boshqa mamlakatlarning qo‘llab quvvatlashi, xalqaro uyushma va tashkilotlarda faol ishtirokida namoyon bo‘ladi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun asosiy mahsulotlar bo‘yicha importga bog‘liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish zarur. Buning uchun mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, xom ashyo, oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni, tayyor mahsulotlarni eksport qilishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Shundagina mamlakatning iqtisodiy ahvoli jahon bozorlaridagi konyuktura o‘zgarishlariga, resurs narxlarining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmaydi. Shu bois, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat strategiyasi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish, sanoat, moliya va bank tizimini mustahkamlashga qaratiladi. Buning uchun texnologik jihatdan orqada qolishga barham berish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish darkor. Shuningdek, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona proteksionizm siyosatini amalga oshirish talab etiladi. Bu siyosat quyidagilarni ko‘zda tutishi kerak:<sup>17</sup>

- monopolistik faoliyatni cheklash;
- tayyor sanoat mahsulotlarini, asosan, mashina va asbob-uskunalarini eksport qilishni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlarini, imtiyozli kreditlash usullarini qo‘llash;
- turli ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, yangi tashkil topgan xo‘jalik subyektlarini qo‘llab quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlar yaratish;

<sup>17</sup> Abulqosimov H. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi “Akademiya” T.- 2012.

- ichki bozorga noqonuniy yo'llar bilan arzon, iste'molchilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlar kirib kelishining oldini olish;

- ichki bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatini ko'zlash, ularni tashqi bozorga chiqishlarini qo'llab quvvatlash;

- yirik ishlab chiqarish birlashmalarini qo'llab quvvatlashning oqilona tizimini yaratish.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning samarali tizimi shakllantiriladi. U o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- barcha turdagi korxonalar va tashkilotlar xo'jalik yuritishining umumiy qoidalarini o'rnatuvchi makroiqtisodiy tartibning joriy etilishi;

- iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va indikativ rejalashtirish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi salohiyatini muvofiqlashtirish hamda davlat mulkini boshqarishning samarali usullarini qo'llash.

Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'li barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilash hisoblanadi. Chunki ijtimoiy sohada keskinlikning vujudga kelishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi uchun xavf-xatar tug'dirishi shubhasizdir.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar aholi turmush sharoitlari bilan bog'liq muammo va ziddiyatlar hisoblanadi.

Eng jiddiy iqtisodiy tahdid aholining turli tabaqalari daromadlarida differensiallashuv darajasining yuqoriligida namoyon bo'ladi. Bu esa aholi ichida kambag'allar qatlamining ko'payishiga sabab bo'ladi. Albatta, u ham iqtisodiy xavfsizlikka tahdid hisoblanadi. Hadislarda "Kambag'allik eng katta baxtsizlik va zo'r musibatdir. Muhtojlik odamni hammaga dushman, behayo qiladi, insof va muruvvatini qo'ldan oladi, quvvat va idrokini zaiflashtiradi. Muhtojlik gunoh va fasod manbaidir" deb bejiz aytilmagan.

O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashish borasida 2021-yildan boshlab faol chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Ma'lumki kambag'allikka qarshi kurashish faqatgina aholining kam ta'minlangan qismiga ijtimoiy yordam berish bilangina emas, balki ushbu toifadagi aholini daromad keltiradigan ish bilan ta'minlashni maqsadga muvofiq qilib qo'yadi. Shuning uchun ham ushbu masala bilan chuqurroq shug'ullanuvchi tashkilot – Kambag'allikka qarshi kurash va bandlik vazirligi tashkil qilindi. O'zbekistonda 2022-yil oxiriga kelib kambag'allik darajasi 17% dan 14 foizga tushishiga erishildi.

Yana bir jiddiy ijtimoiy tahdid - ishsizlikning yuqori darajada bo'lishidir. Iqtisodiy faol aholi orasida ishsizlik darajasi 10%dan oshib ketsa, u iqtisodiy tahdidni vujudga keltiradi. Ma'lumki, ishsizlikning vujudga kelishi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan biridir. Ammo, ishsizlik tufayli kambag'allik, jinoyatchilik, giyohvandlik kabi ijtimoiy illatlar kelib chiqishini ham unutmazlik lozim.

Ushbu iqtisodiy tahdidning yana bir jihati respublika qishloq xo'jaligida ortiqcha bandlikning mavjudligi bilan bog'liq. Gap shundaki, mehnat resurslaridan

ekstensiv, unumsiz foydalanish ko'pincha ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- eksportning optimal tarkibini shakllantirish. Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rish lozim;

- mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish; ularda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish; ishlab chiqarish kooperatsiyasini, injiniring, lizingni rivojlantirish;

- xorijiy davlatlar, ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo rejimlariga erishish;

- mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamonaviy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalarga ega bo'lishlari, axborot va kapital bozorlariga chiqishlari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratish zarur.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi iqtisodiy va huquqiy-ma'muriy usullarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy tartibga solish usullari bojxona bojlari, yig'imlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlardan iborat.

Huquqiy-ma'muriy usullar – litsenziyalash, kvotalash, tovar sifatini sertifikatsiyalash, ayrim tovarlar eksporti va importiga davlat monopoliyasini o'rnatish, shuningdek, bojxona chegaralari orqali tovarlar, kapitallar va xizmatlarning o'tib turishi bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Davlat organlarining bojxona nazoratida xalqaro tajribada ko'p qo'llaniladigan quyidagi usullardan foydalaniladi:

- bojxona yig'imlari miqdorini tartibga solish orqali mamlakatga kirib kelayotgan tovarlar tarkibiga ta'sir ko'rsatish. Bunda tovarlarning mamlakat hayot faoliyati uchun qay darajada muhimligi e'tiborga olinadi. Aholi va mamlakat ehtiyojlari uchun muhim bo'lgan import mahsulotlariga boj to'lovlari kamaytiriladi yoki bekor qilinadi. Boshqa tovarlarga esa boj to'lovlari yuqori darajada belgilanadi;

- mamlakatning hisob va to'lov balansining holatini hisobga olgan holda tarif qoidalarini tartibga solish;

- milliy iqtisodiyotni jahon bozorida mahsulotlar sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish xarajatlaridagi farqlar hamda ichki va tashqi bozorlardagi narx qaychisi tufayli yuzaga keladigan salbiy omillar ta'siridan himoya qilish. Ichki va jahon bozorlari narxlarini muvofiqlashtirish uchun bojxona dastaklari va vositalaridan foydalaniladi.

Bojxona organlarining muhim vazifalaridan biri muhim strategik xom ashyolarni, valyutalarni noqonuniy tarzda chetga olib chiqib ketilishiga yoki

eksport va barter operatsiyalari tufayli olingan valyuta tushumlarining qaytmasligiga hamda kontrabandaga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy kapitalning kirib kelishi O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni, istiqbolli, zamonaviy tarmoqlarni vujudga keltirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga, ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga, tovarlarni eksport qilishning yangi bozorlarini, xo'jalik subyektlarini boshqarishni zamonaviy menejment asosida qayta tashkil etish va takomillashtirishga, yangi ishchi o'rinlarini yaratishga imkon beradi. Kapital kirituvchi xorijiy investorning investitsiyalardan kutayotgan daromadi kapital evaziga olish mumkin bo'lgan foiz stavkasidan yuqoriroq darajada bo'lishi kerak.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda quyidagi sohalarga ustuvorlik beriladi:

- zamonaviy texnologiya asosida iste'mol tovarlarini ishlab chiqish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash;

- mashinasozlik, asbob-uskunalar va radiotexnika, elektrotexnika, avtomobilsozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish;

- xom ashyo va energoresurslarni tejamli ishlatish imkoniyatini beruvchi uskunalarni ishlab chiqarish;

- ehtiyot qismlar va detallar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Bu ishlar mahalliyashtirish dasturi asosida amalga oshiriladi;

- zamonaviy axborot va telekommunikatsiyalar tizimini barpo etish;

- xom ashyo, tabiiy resurslarni qazib chiqarish va ekologik jihatdan sof usullar bilan ularni qayta ishlash;

- dori-darmon va zamonaviy tibbiy texnikani ishlab chiqarish.

Mamlakatimizda xorijiy investorlarga O'zbekiston Respublikasining chet el investitsiyasi to'g'risidagi qonunlari asosida kafolat va imtiyozlar yaratilgan. Xorijiy investorlar ba'zi soliqlardan ozod qilingan bo'lib, ular soliq va bojxona to'lovlari to'lashda imtiyozlarga egalar.

Davlatning investitsion siyosati quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak;

- iqtisodiy va siyosiy manfaatlardan kelib chiqib, ichki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlagan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirib borish;

- xorijiy kapitalning strategik ahamiyatga molik soha, tarmoq va korxonalar faoliyatiga bo'lgan ta'sirining oldini olish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning joylashtirilishini tartibga solish;

- samarali faoliyat yuritayotgan milliy kompaniya va korxonalarni xorijiy investorlar va transmilliy kompaniyalar tomonidan butunlay sotib olinishiga yoki qo'shib olishlariga yo'l qo'ymaslik.

Mamlakatimizni xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvining quyidagi shart-sharoitlarini yaratish lozimdir:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;

- rivojlanish strategiyasini shakllantirish; xalqaro marketingni yo'lga qo'yish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan xalqaro savdoni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash;

- xalqaro savdoni moliyalashtirish va infratuzilmani shakllantirish;

- malakali kadrlarni tayyorlash.

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lishi natijasida kutilayotgan ijobiy natijalar quyidagilardan iborat:

- JSTning boshqa a'zolari bilan savdo qilishda mumkin qadar qulay rejimga ega mamlakat maqomini olish;

- tarif va notarif to'siqlarning bekor qilinishi natijasida tashqi bozorga, eng avvalo, rivojlangan mamlakatlar bozoriga kirish imkoniyatlarining kengayishi (ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, teri, to'qimachilik mahsulotlari, kimyo va sanoat mahsulotlariga nisbatan);

- o'zbek eksporterlari manfaatlarini xorijda himoya qilish, buning natijasida mamlakat eksporti uchun preferensial rejimning barpo bo'lishiga imkon yaratiladi;

- xorijiy sarmoyadorlarning ishonchi mustahkamlanadi, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarning oqimi ortadi, O'zbekistonning xalqaro kapital bozoridagi o'rni mustahkamlanadi;

- yuklarni JSTga a'zo davlatlar hududi orqali erkin tranzit qilish huquqidan foydalaniladi;

- standartlashtirish va sertifikatsiyalash tizimi asosida savdoda notarif cheklovlardan, shu bilan birga, ichki bozorni himoya qilish bo'yicha tarif chora-tadbirlari ahamiyatini kamaytirishda sanitar va fitosanitar chora-tadbirlardan kompensatsion mexanizmlar sifatida keng qamrovli foydalanish imkoniyati yaratiladi;

- savdo sheriklari bilan yuzaga keladigan tushunmovchilik va bahslarni JST tomonidan belgilangan mexanizmlar va qoidalar yordamida hal qilish;

- savdoda vujudga kelgan muammolar yuzasidan JST a'zolaridan maslahatlar olish, tashqi iqtisodiy siyosat hamda hukumatlar va ishtirokchi mamlakatlarning maqsadlari bo'yicha tezkor ma'lumotlarga ega bo'lish;

- eksport, import, xorijiy va mahalliy sarmoyalar salmog'ining ortishi natijasida davlatning fiskal daromadlari oshadi;

- ishlab chiqarish jarayonida import xom ashyosidan, yarimfabrikatlardan foydalanadigan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xarajatlari qisqaradi.

JSTga a'zo bo'lish natijasida kutilayotgan salbiy oqibatlar, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar ortadi, milliy iqtisodiyotning ko'p jihatdan ochiqligi natijasida ayrim tarmoqlarning barqaror rivojlanishi xavf ostida qolishi mumkin;

- tashqi shoklarga nisbatan mamlakat iqtisodiyotining zaifligi ortadi hamda jahon bozoridagi narxlarning tebranishi respublika to'lov balansiga ta'sir etishi mumkin;

- muzokaralar jarayonida JSTga a'zo mamlakatlar bosimi ostida amaliyotga joriy qilinishi lozim bo'lgan bojxona tariflari va bojlarining kamaytirilishi natijasida ilk bosqichlarda davlat budjetining daromadlar qismi qisqarishi mumkin;

- transmilliy korporatsiyalar va xorijiy firmalarning mamlakatdagi mavqei oshishi natijasida ular milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini tartibga solish jarayoniga aralashishlari mumkin.

Mamlakatning jahon xo'jalik tizimiga kirib borishi va xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga, shu jumladan, Jahon Savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi jarayonlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun vatanimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshligini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Iqtisodiy-geografik o'rin; tabiiy resurslar; ko'p tarmoqli iqtisodiyot; mineral-xomashyo resurslari; qazilma boyliklar; yonilg'i resurslari; agroiqlim resurslari; quyoshli kunlar; sug'orma dehqonchilikka asoslangan qishloq xo'jaligi; suv resurslari; energetika va transport xavfsizligi; iqtisodiyotni erkinlashtirish; investitsiyalar jalb qilish; qayta ishlash sanoati; erkin iqtisodiy zonalar; iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash; iqtisodiy salohiyat; tashqi bozor konyunkturasi; tayyor mahsulotlar eksporti; proteksionizm siyosati; monopolistik faoliyatni cheklash; soliq imtiyozlari; imtiyozli kreditlash; iqtisodiyotni tartibga solishning samarali tizimi;*

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. O'zbekistonning sanoat salohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
3. Respublikaning transport tizimida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
4. O'zbekistonning dengizga chiqish yo'lini qisqartirish uchun qanday ishlar amalga oshirilishi kerak?
5. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni qanday tartibga soladi?
6. O'zbekistonga xorijiy investorlarni qaysi sohalariga jalb qilishda ustivorlik belgilangan?
7. O'zbekistonga keladigan xorijiy investorlar uchun qanday imtiyozlar belgilangan?
8. O'zbekistoning JSTga a'zo bo'lishi qanday ijobiy imkoniyatlar yaratadi?
9. O'zbekistoning JSTga a'zo bo'lishi qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin?



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomalari. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh tamoyili bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasi" 7-fevral 2017-yil. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent, "O'zbekiston", 2021, 464 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/pdfs/5260791>
5. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish Strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori.
6. "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni yanada kuchaytirish choralari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi №PF-5303 Farmoni.
7. "Koronavirus pandemiyasi davrida aholini, iqtisodiyot tarmoqlarini va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3-aprel 2020-yildagi № PF-5978 Farmoni
8. "O'zbekiston Respublikasining 2021-yilga Davlat budjeti to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda №PQ-4938 sonli Qarori.
9. Abduramanov X.X. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda demografik jarayonlarni tartibga solishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (dss) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021.
10. Abulqosimov H. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi "Akademiya" T.- 2012.
11. Барабин В.В. Экономическая безопасность государства. – М.: 2001.
12. Бондарев А.С. Воздействие транснациональных корпораций на динамику и структуру мировой экономики XXI века. Электронный вестник Ростовского социально-экономического института. Выпуск № 3 - 4 (июль – декабрь) 2015.
13. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность,- СПб: Изд. "Вектор", 2007.
14. Вишнеvский А.Г. Избранные демографические труды.Том И.М. Наука, 2005.
15. Глобальная экономическая безопасность: учеб. пособие / Е. Д. Кормишкин, О. С. Саушева. – Саранск, 2017.

16. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод. пособие - М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М., 2009.

17. Господарик Ю. П., Пашковская М. В. Международная экономическая безопасность. М.: Московский фин.-пром. ун-т «Синергия», 2016.

18. Гундорова М. А. Экономическая безопасность. Учебное пособие Владимир 2020

19. Ильина Д. Состояние продовольственной безопасности в Узбекистане и возможные риски на перспективу. Экономика: анализы и прогнозы. № 1 (17) январь-март, 2022

20. Ishmuhamedov A.E. "Iqtisodiy xavfsizlik". O'quv qo'llanma. T.:TDIU, 2004

21. Isahodjaev A., Rasulev A. Xufyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. Toshkent. 2004

22. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. II: Общая характеристика мира. Москва, Дрофа, 2008, 4-е изд., 495 стр.

23. Сенчагов В. К. Как обеспечить экономическую безопасность России // Рос. Федерация сегодня. 2007. № 6. С.36-37

24. Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие. (Книга четвертая) Инт. экономики РАН. - М.: ЗАО Финстатинформ, 2002.

25. Теория и практика экономической безопасности внешнеэкономической деятельности: учеб. пособие / А. С. Молчан, К. О. Тернавченко, Е. В. Лехман. – Краснодар: Изд. ФГБОУ ВО «КубГУ», 2018. – 183 с.

26. Тулина Ю.Г., Мохова К.А., Международные корпорации в мировой экономике. Актуальные проблемы авиации и космонавтики – 2016. Том 2.

27. Юрьева Т. В. Проблемы национальной безопасности/Внешняя политика Российской Федерации. 1992–1999. М., 2000. С. 56

28. World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P.23

29. World Investment Report 2021, New York and Geneva, 2022. P.23

30. Внешние долги стран в 2022 г. Графики и таблицы\_ files.

31. O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi. 2021 yil uchun. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

32. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

#### **Internet ma'lumotlari**

33. [www.gov.uzhttp://www.undp.uz/](http://www.undp.uz/) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.


34. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

35. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi).

## MUNDARIJA

<b>1-mavzu: Global iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi va kategoriyalari .....</b>	<b>5</b>
1.1. Global iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uning asosiy tushunchalari.....	5
1.2. Global iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish metodlari .....	11
1.3. Global iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimi.....	15
<b>2-mavzu: Global iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mamlakat milliy xavfsizligi muammolari.....</b>	<b>18</b>
2.1. Milliy iqtisodiy manfaatlar .....	18
2.2. Iqtisodiy Xavfsizlikka tahdid turlari .....	18
2.3. Mamlakat milliy xavfsizligi holatini baholash mezonlari .....	21
<b>3-mavzu: Iqtisodiy globalizm va uning xususiyatlari.....</b>	<b>25</b>
3.1. Globallashuvning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning global iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....	25
3.2. Jahon xo'jaligida alohida mamlakatlarning bir-biriga bog'liqligi.....	29
3.3. Ochiq iqtisodiyot modeli.....	31
3.4. Global muammolar va ularning global xavfsizlik tizimida tutgan o'rni .....	37
<b>4-mavzu: Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muammolari.....</b>	<b>41</b>
4.1. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muammolari .....	41
4.2. Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi. ....	43
4.3. Xalqaro savdo va tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.....	45
<b>5-mavzu: Bevosita investitsiyalar va TMKlar faoliyatining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....</b>	<b>49</b>
5.1. Mamlakatlarning texnologik o'zaro bog'liqligi.....	49
5.2. Davlatlarning texnika-iqtisodiy sohadagi musobaqasi .....	50
5.3. Mamlakat tashqi iqtisodiy xavfsizligi uchun jahon iqtisodiyotidagi bevosita investitsiyalarning oqibatlarini baholash .....	52
5.4. Xalqaro qarzlarning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri .....	54
5.5. Jahon iqtisodiyotining o'zgarishiga va tarkibiga transmilliy korporatsiyalarning ta'siri .....	57
<b>6-mavzu: Global moliyaviy xavfsizlik muammolari.....</b>	<b>62</b>
6.1. Global moliyaviy xavfsizlik.....	62
6.2. Xalqaro moliya-kredit operatsiyalarining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....	64
6.3. To'lov balansi yomonlashuvi va iqtisodiy xavfsizlik.....	67
6.4. Offshorlar muammosi va xalqaro iqtisodiy xavfsizlik. ....	70
<b>7-mavzu: Energiya va xomashyo xavfsizligi muammolari .....</b>	<b>75</b>
7.1. Tabiiy resurslar muammolari. Energiya va xom-ashyo xavfsizligi.....	75
7.2. Jahon xomashyo bozorlarining rivojlanish xususiyatlari. ....	80
<b>8-mavzu: Oziq-ovqat xavfsizligi global omil sifatida .....</b>	<b>85</b>
8.1. Oziq-ovqat muammosini hal qilish xavfsizlik omili sifatida.....	85
8.2. Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hozirgi holat .....	87
8.3. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash.....	89
<b>9-mavzu: Iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari .....</b>	<b>94</b>

9.1. Jahon xo'jaligining ekologik xavfsizligi .....	94
9.2. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari .....	98
<b>10 – bob. Iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy-demografik omillari</b> .....	<b>104</b>
10.1. Dunyo mamlakatlarida aholi ko'payib borishining xususiyatlari .....	104
10.2. Demografik xavfsizlikni ta'minlashning muhim jihatlari .....	107
10.3. Mehnat resurslari va migratsiyasini tartibga solish orqali iqtisodiy xavfsizlikka erishish .....	111
<b>11-mavzu: Jahon iqtisodiyotini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli</b> .....	<b>114</b>
11.1. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va tasniflanishi .....	114
11.2. BMT tizimidagi tashkilotlar .....	117
11.3. Xalkaro moliya-kredit tashkilotlari .....	118
11.4. Jahon savdo tashkiloti, uning vazifalari va tuzilmasi .....	123
11.5. O'zbekiston Respublikasining jstga kirishi yo'lidagi muammolar .....	125
<b>12-mavzu: Xufyona iqtisodiyot va korrupsiya: global iqtisodiy xavfsizlikka asosiy tahdidlar sifatida</b> .....	<b>128</b>
12.1. Xufyona iqtisodiyotning umumiy tavsifi .....	128
12.2. Iqtisodiy jinoyatlar .....	132
12.3. Jahon iqtisodiyotining jinoyatlashuviga qarshi jamoaviy kurash .....	134
12.4. "Otkat" va reyderlik korrupsiyaviy rejalarining turlari sifatida .....	135
12.5. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash va "iflos pullarni yuvish" .....	137
<b>13-mavzu: Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar xavfsizlikka tahdid sifatida</b> .....	<b>140</b>
13.1. Xalqaro iqtisodiy mojarolar .....	140
13.2. Xalqaro darajada iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy shakllari .....	141
13.3. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlarning turlari .....	143
13.4. Xalqaro iqtisodiy ziddiyatlar keskinligi oshishi .....	145
<b>14 – mavzu. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash</b> .....	<b>147</b>
14.1. O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy integratsiya guruhlariga kirishishida mdhning o'rni .....	147
14.2. O'zbekistonning Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligida ishtiroki .....	149
14.3. O'zbekiston va Shanxay hamkorlik tashkiloti .....	154
<b>15-mavzu. O'zbekiston respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash</b> .....	<b>158</b>
15.1. Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimida tutgan o'rni va salohiyati .....	158
15.2. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash .....	162
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	<b>168</b>




**Sadullayev Aminboy**

# **GLOBAL IQTISODIY XAVFSIZLIK**

*Magistraturaning 70310102 - "Iqtisodiyot" mutaxassisligi  
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Muharrir:  
Komputerda sahifalovchi

Ruzmëtov S  
I.Davletova



Nash.lits. №211573

Bosishga ruxsat etiladi: 04.11.2023 yil

Bichimi 60 x 84 <sup>1/16</sup>. "Times New Roman"

garniturada raqimli bosma ustida chop etildi.

Shartli bosma tabog'i 10,7. Adadi 100. Buyurtma №

Тел: (33) 701 12 00, (99) 564 63 20

"Khwarezm publication" MCHJ nashriyoti.

220502, Urganch t. Zargarlar mahallasi Marvarid ko'chasi 8-yo'lak 4-uy.

"Khwarezm travel" bosmaxonasida chop etildi.

Urganch t. Zargarlar mahallasi Marvarid ko'chasi 8-yo'lak 4-uy.



ISBN 978-991076726-5

